Shaxs intellektual salohiyatini shakllanishida ijtimoiy-madaniy muhit omili ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-madaniy muhit–bu shaxsning bilish va intellektual qobiliyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy, madaniy va tarbiyaviy ta'sirlarning murakkab tarmog'idir. “Shaxs o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy funktsiyalarini bajarib, fuqarolarning ko'pchiligining hayot sifatini yaxshilashga hissa qo'shadi, ya'ni, intellektual salohiyatning elementar tashuvchisi bo'lib, uni ro'yobga chiqaradi, shu bilan u jamiyat intellektual salohiyatning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shaxsning intellektual rivojlanish darajasi va ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun maqbul imkoniyatlar qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyat shunchalik boy va ijtimoiy salohiyatning kuchi yuqori bo'ladi” [5;36-b.].

Ta'lim tizimining shakllanganligi. Intellektual salohiyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy muhitning asosiy elementlaridan biri ta'lim tizimidir. Ta'lim tizimi o'zida ta'lim muassasalari, ta'lim resurslari, o'qitish usullari va ta'lim sifatini mujassamlashtiradi. Bu esa shaxsning intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimi rivojlangan davlatlarda shaxs intellektual salohiyati yuqoriroq bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Yog' massasi va semirish bilan bog'liq oqsil – inglizcha Fat mass and obesity-associated protein yoki alpha-ketoglutarate-dependent dioxygenase FTO.

Ta'lim tizimidagi maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, litsey, kollej, texnikumlar, oliy o'quv yurtlari, ilmiy laboratoriyalar, maktabdan tashqari ta'lim – repititorlik faoliyati, kasbga tayyorlash o'quv kurslari bilan birgalikda mustaqil ta'lim ko'rinishlari bo'lgan oiladagi ta'lim-tarbiya, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi, seminar treninglar ham shaxs intellektual salohiyatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ta'lim shaxsga fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni beradi, ijodkorlik va mantiqiy anglashni shakllantiradi, tanqidiy va muammoli fikrlashni rivojlantiradi, o'z ustida ishlash, o'ziga ishonch va o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Rossiyalik tadqiqotchi G.I.Egorova oliy ta'limning shaxs intellektual salohiyatini oshirishga ta'siri haqida shunday fikrni bildiradi: "Talabalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan oliy ta'lim nafaqat kasbiy kompetensiyalar, intellektual qobiliyatlar, ko'nikmalar yig'indisini, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda talab qilinadigan intellektual sifatlar tizimini ham ta'minlaydi" [6;23-b.].

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya bilan qo'shib olib boriladi. Tarbiya nazariy – o'gitlar, nasihatlar, maslahatlar shaklida va amaliy jihatdan o'rnak, namuna ko'rsatish shaklida olib boriladi. Ta'limning shaxs intellektual salohiyatiga ta'sirini uning quyidagi funksiyalari bilan tushuntirish mumkin:

– bilim va ko'nikmalarni shakllantirish funksiyasi. Ta'lim shaxsga shu paytgacha ma'lum bir fan doirasidagi to'plangan bilimlarni tizimli ravishda, izchillik bilan yetkazib beradi. Bu bilimlar ilmiyligi, ya'ni, faktlar va dalillar bilan isbotlanganligi hamda hayotiy zarurligi bilan ahamiyatlidir;

– tanqidiy fikrlashni rivojlantirish funksiyasi. Ta'lim shaxsga tanqidiy fikrlashni o'rgatadi, bu ma'lumotni tahlil qilish, uning ishonchliligi va qo'llanilishini baholash va asosli dalillarga asoslangan holda shaxsning o'z shaxsiy xulosalarini ishlab chiqarish qobiliyatini shakllantirishdir;

– ijodkorlikni shakllantirish funksiyasi. Ta'lim shaxsda ijodkorlikni tarbiyalashi va uni rivojlantirishi kerak. Ta'lim jarayonlarida yangi g'oyalarga qiziqish uyg'otilishi, masalaning yangi yechimlari taklif qilinishi rag'batlantirilishi, izlanish, yangiliklarga qiziqish rag'batlantirilishi kerak;

– mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qilish funksiyasi. Ta'lim shaxsga o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini anglash vositalarini taqdim etadi. Bu shaxsning qiziqishlari, maqsadlari, orzularini, hatto shubha hamda qo'rquvlarini aniqlashga yordam beradi. Shaxsiy qadriyatlar va intilishlarga muvofiq kariera qilishiga va hayotini shakllantirishga yordam beradi;

– ta'lim qadriyatlarini shakllantirish funksiyasini ham bajaradi. Biror-bir qadriyatlarini shaxs ongiga singdirib, uni e'tiqodi darajasiga olib chiqadi va shu orqali shaxs xarakterini shakllaniradi. Shaxsga dunyoni anglashga, uning bir butun ekanligini his qilishga va muhim hayotiy qarorlar qabul qilishda yordam beradigan asosiy qadriyatlar va tamoyillarni o'rganishga yordam beradi;

– ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish funksiyasi. Ta'lim-tarbiya shaxsga empatiya, boshqalarga hurmat, jamoada ishlash va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatadi;

– xarakterni shakllantirish funksiyasi. Ta'lim shaxsga hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan qat'iyatlilik, mas'uliyat va boshqa xarakterli shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Demak, shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishda ta'lim va tarbiya muhim va o'zaro bog'liq rol o'ynaydi. Ular shaxsga zamonaviy dunyoga muvaffaqiyatli moslashish va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qadriyatlar va xarakterni beradi. Shu bois ta'lim-tarbiya jamiyat tomonidan ham, har bir shaxs tomonidan ham alohida e'tibor va qo'llab-quvvatlashga loyiqdir.

Jamiyatda shakllangan ijtimoiy-madaniy me'yorlar va maqsadlar. Jamiyatda ijtimoiy-madaniy muhit ta'lim, oila faoliyatiga, shaxs faoliyati va qarashlariga ta'sir qiluvchi me'yorlar, hayotiy maqsad va mo'ljallarni shakllantiradi. Shakllangan ijtimoiy-madaniy me'yorlar esa shaxs intellektual salohiyati shakllanishi va rivojiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Masalan, muvaffaqiyat qozonishda bilimlilik, aqllilik, trishqoqlik, halollik, odoblilik kabi me'yorlar ulug'langan jamiyatda ilm olishga intilish kuchayadi. Jamiyatda shakllangan an'analar, ibrat namunalari, shaxs maqsadlaridan tashqari jamiyat oldiga qo'yilgan maqsad va mo'ljallar ham intellektual salohiyatni shakllanishida katta rol o'ynaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyat taraqqiyotida qanday g'oya va maqsadlar targ'ib qilinayotganligi bilan ham bog'liq.

Til va madaniyatlararo muloqot. Insonning intellektual salohiyatini shakllantirishda so'zlashadigan va yozadigan til ham muhim rol o'ynaydi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki fikrlash uchun asos hamdir. Til tuzilmalarining xilma-xilligi va turli madaniyatlarda muloqot qilish imkoniyatlari ko'p tillilik va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. O'z navbatida, "Milliy til qanchalik iste'molda ko'p tarqalgan bo'lsa hamda milliy tilda tafakkur natijalari xoh u millat vakillari tomonidan yaratilgan bo'lsin, xoh u o'zga millatlar yaratgan tafakkur natijalari bo'lsin, milliy intellektual salohiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi" [7;14-b.].

Texnologik taraqqiyot va axborot muhiti. Texnologiyaning rivojlanishi va axborotga kirishi bilan ijtimoiy-madaniy muhit ham o'zgarib bormoqda. Tadqiqot uskunalarining takomillashishi, tadqiqot ishlari-ga kompyuter dasturlarining jalb qilinishi tadqiqotlarda aniqlikni kuchaytirdi va ilmiy tadqiqotlarning tez-lashishiga olib keldi. Endi mutaxassislarda natijalarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, mantiqiy bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarga talab kuchaydi. Shu bilan birgalikda, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va odamlar hayotiga keng miqyosda kirib borishi, bir tomondan, ta'lim olish imkoniyatlarini oshirmoqda, ikkinchi tomondan, shaxsni tayyor axborotning iste'molchisiga aylantirib qo'ymoqda.

Oila va ijtimoiy munosabatlar. Intellektual salohiyatni shakllantirishda oila, do'stlar, hamkasblar va boshqa ijtimoiy aloqalar ham muhim o'rin tutadi. Oila a'zolarining shaxsni ilm olish va o'rganishga tag'batlantirishi, qo'llab quvvatlashi, ustozlik qilib o'rgatishi, bilim va tajriba almashishi shaxsning intellektual qobiliyati rivojiga ta'sir qiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida bola ota-onasining yoki oiladagi katta yoshli insonlarning ko'magiga va qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'ladi.

Shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-madaniy muhit muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bir qator omillar majmuyidan iboratdir. Bu omillar ta'sirini tushunish bizga shaxs intellektual salohiyatini va shu orqali jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirish borasidagi strategiyani ishlab chiqishga yordam beradi. "Jamiyat va shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish va shakllantirishning dialektik o'zaro bog'liqligi intellektual salohiyatni ijtimoiy hodisa sifatida aniqlash imkonini beradi, uning rivojlanish darajasi jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida barcha ijtimoiy institutlarning faoliyatini, boshqaruv samaradorligi va sifatini belgilaydi. Ammo shaxsning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, agar uning natijalari shaxsning hayotiy faoliyati va o'zini-o'zi rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa va boshqa shaxs va jamiyat uchun rivojlanish sharti va manbai bo'lsagina, mantiqiy bo'ladi" [8;46-b.].

Shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishda tajriba va amaliyot omili ham muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishda shaxsiy tajriba va amaliyot asosiy rol o'ynaydi. Insonning turli vazifalari va muammolari qanchalik ko'p bo'lsa, uning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Ular shaxsga bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash, xatolardan saboq olish va intellektual rivojlanishida yangi marralarni zabt etish imkoniyatini beradi.

Shaxsiy tajriba bu hayotdan olinadigan ta'limdir. Mutafakkirlardan biri "Odam hayotdan olmasa ta'lim unga o'rgata olmas hech bir muallim", deganida haq edi. Ya'ni, shaxsiy tajriba – bu shaxsning hayotdagi o'z tajribalaridan o'rganadigan bilim, ko'nikma va saboqlar yig'indisidir. Bu muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar, quvonch va qayg'ular, turli odamlar bilan uchrashuvlar va turli xil hayotiy vaziyatlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy tajriba shaxsga o'z xatolari va muvaffaqiyatsizliklaridan saboq olishga imkon beradi. Har bir yomon tajriba shaxs uchun o'zini va atrofidagi dunyoni yaxshiroq tushunishiga yordam beradigan saboq bo'ladi. Shaxsiy tajriba shaxsning moslashuvchanligi va o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shaxs qiyin vaziyatlarda yechim topishni va yangi sharoitlarga moslashishni o'rganadi. Shaxsiy tajribalar hayotga, umuman, dunyoga bo'lgan munosabatini boshqaradigan shaxsiy falsafa va qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliyot bilim va ko'nikmalarni amaliyotda tizimli ravishda qo'llashdan iborat bo'ladi. Bu shaxsga bilimlarini chuqurlashtirish, mahoratini oshirish va salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi. Amaliyot shaxsga turli sohalarida ko'nikmalarini mustahkamlash va yaxshilash imkonini beradi. Shaxs qanchalik ko'p mashq qilsa, o'z tanlagan sohasida shunchalik malakali bo'ladi. Amaliyot shaxsning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi va yangi g'oyalar va yechimlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shadi. Amaliyotda qanchalik ko'p tajriba va yangi yondashuvlarni sinab ko'rilsa, shunchalik ijodkor bo'ladi. Amaliyot shaxsga shaxs sifatida doimo takomillashib va rivojlanib borishiga yordam beradi. Shaxs o'ziga yanada ishonchli, ambitsiyali va yangi maqsadlarga erishish uchun g'ayratli bo'ladi.

Shaxsiy tajriba va amaliyot insonning intellektual salohiyatini shakllantirishning ajralmas qismidir. Ular shaxsga o'z-o'zini rivojlantirish, bilim olish va ko'nikmalarni oshirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuning uchun hayotning har bir daqiqasidan yangi tajriba, amaliyot va o'z-o'zini takomillashtirish uchun faol foydalanish muhimdir. Oxir-oqibat, bu shaxsga aqlliroq, barkamolroq va hayotda yanada muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, shaxs intellektual salohiyati zamonaviy dunyoda asosiy resurs hisoblanadi. Ushbu salohiyatni rivojlantirish doimiy o'rganish, amaliyot va o'z-o'zini takomillashtirishni talab qiladi. Bu shaxsga qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli engish va hayotning turli sohalaridagi maqsadlariga erishish imkonini beradi. O'z navbatida, har bir shaxs o'z intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun noyob qobiliyat va imkoniyatlarga egadir. Bunda bilimlarga intilish, ko'p qirrali rivojlanishga intilish va mu-



vaffaqiyat yo'lida o'z mahoratini ishlatish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shaxsiy intellektual salohiyat shakllanishiga irsiyat, ta'lim, ijtimoiy madaniy me'yorlar va maqsadlar, milliy til, texnologik taraqqiyot va axborot muhiti, oila va ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy tajriba va amaliyot omillari ta'sir etadi. Milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishda bu omillarni hisobga olish zarur bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Крамаренко В.Ю. Интеллект человека. В.Ю.Крамаренко, В.Е.Никитин, Г.Г.Андреев. Воронеж, изд-во Воронежского ун-та, 1990, с. 184.
- (2). Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Б ҳарфи. 316-бет. [https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20B%20harfi.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20B%20harfi.pdf)
- (3). Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. И ҳарфи. 58-бет. [https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20I%20harfi.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20I%20harfi.pdf)
- (4). Robert Plomin, Sophie von Stumm. The new genetics of intelligence. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC5985927/>
- (5). Кунгурцева Г.Ф. Интеллектуальный потенциал личности: опыт социологического анализа. Омский научный вестник, 2010, № 6 (92), с. 34–37.
- (6). Егорова Г.И. Тенденции и приоритеты обучения в вузе в условиях реализации ФГОС. “Академия профессионального образования”, 2015, № 1, с. 20–25.
- (7). Ёркулов Ҳ.О. Миллий тил ва миллий интеллектуал салоҳият. “Ilm sarchashmalari”, 2021, 1-son, 14–18-бетлар.
- (8). Кунгурцева Г.Ф. Интеллектуальный потенциал как основа современного управления. Социум и власть, 2011, №1 (29), с. 46–50.

**Sanaqulov Sardor Istamqulovich (Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, “Fundamental va gumanitar fanlar” kafedrası assistenti; [sardorsanaqulov5@gmail.com](mailto:sardorsanaqulov5@gmail.com))**

#### UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYANI TASHKILLASHTIRISHDA VIRTUAL MAKON USTUVORLASHUVINING TA'SIRI

*Аннотация.* Мақоллада мамлакатимиз та'лим тизимida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va uning mazmun-mohiyati, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi muhim jihatlilar hamda yoshlar tarbiyasiga ta'sir etuvchi turli omillar va ularning sabablari tahlil qilingan.

*Калит so'zlar:* oila, mahalla, ta'lim muassasasi, ma'naviyat, axloq, tarbiya, virtual dunyo, tarixni bilish, ajdodlar merosi, o'zlikni anglash.

#### ЭФФЕКТ ПРИОРИТИЗАЦИИ ВИРТУАЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА В ОРГАНИЗАЦИИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Аннотация.* В статье рассматриваются последовательные реформы, реализуемые в системе образования нашей страны, и ее сущность, важные аспекты духовно-нравственного воспитания учащихся общеобразовательных школ в процессе обучения и воспитания, а также различные факторы, влияющие на образование молодежи, и анализируются их причины.

*Ключевые слова:* семья, соседство, образовательное учреждение, духовность, мораль, воспитание, виртуальный мир, знание истории, наследие предков, чувство идентичности.

#### THE EFFECT OF PRIORITIZATION OF VIRTUAL SPACE IN THE ORGANIZATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

*Annotation.* In the article, the consistent reforms implemented in the education system of our country and its essence, important aspects of the spiritual and moral upbringing of students of general secondary schools in the process of education and upbringing, and various factors affecting the education of young people and their causes are analyzed.

*Key words:* family, neighborhood, educational institution, spirituality, morality, upbringing, virtual world, knowledge of history, heritage of ancestors, sense of identity.

**Kirish.** XXI asrda dunyodagi barcha davlatlar o'zining taraqqiyot yo'lini belgilashda hamda ustuvor maqsadlarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ta'lim va tarbiya masalasiga asosiy vazifa sifatida ahamiyat berib kelmoqda. Xalqi intellektual nuqtayi nazaridan yetuk, yoshlari ilmga chanqoq va bilimli, ma'naviyatli, axloqli, vatanparvar, fidoyi davlatlar, shubhasiz, qudratlidir deyishimiz mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilib, ularning erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda imkoniyatlari va salohiyatlarini ro'yobga chiqarish uchun aniq reja-

lar va maqsadlar belgilab olindi. Bu, albatta, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi davr talablariga javob bera oladigan barkamol avlodlarni kamol topishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Xalqimizda "Ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi", degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonloma qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta ahamiyat beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15–17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.

Buyuk yunon olimi, Sharqda "Birinchi muallim" deb ulug'lanadigan Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari, qarang, miloddan 350 yil avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda [1;211-b.]. Darhaqiqat, inson ongi va tafakkuri uchun kurash tobora avj olayotgan hozirgi paytda farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi, ma'naviyati hamda axloqi eng dolzarb masala ekanligiga urg'u berishimiz kerak.

**Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi.** Globallashuv davrining barcha sohalarga ta'siri bo'lganligi singari ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ham o'z hukmini o'tkazdi deb ta'kidlash mumkin. Xususan, kibernetika va uning ustuvorlashuvining ortishi insonda yangicha qarashlarni shakllanishiga turtki bo'lmoqda.

Texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchilarga darslikdan tashqari va qaysidir ma'noda zamon va makonni kesib o'tadigan maxsus materiallarga yo'l ochishi mumkinligi. Texnologiyalar faol ta'lim asosida yangi uslublarni qo'llab-quvvatlashi mumkin (Andres Shlyayxer (2022)). Tarbiya texnologiyasida diagnostika hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyasi bilan olib borilmoqda. Nafaqat diagnostika, tarbiyaning o'zi ham kompyuter orqali amalga oshirilmoqda. Bu tarbiyaning shaxsiy yo'nalganligi, tarbiyalanuvchining mustaqil faoliyati bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy yoshlarning fikriga ko'ra, aniq foyda keltiruvchi, unga qulay tamoyili asosida sodir bo'ladi kabi muammolar tahlil etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'sir etayotgan omillar, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini tashkillashtirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning sabablari, analiz va sintez metodidan foydalanilib, muammoni kelib chiqish sabablari o'rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Xo'sh, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasiga qay tartibda ahamiyat berilmoqda? Farzand, dastavval, tarbiyani ota-onasi, oila muhiti orqali o'zida shakllantirib boradi. Farzand uchun birinchi ustoz uning ota-onasi ekanligini unutmazlik zarur. Bu yo'lda ona allasi, turli ertak hamda rivoyatlar va undagi qahramonlar, o'git va nasihatlarni o'rni farzand kamolotida muhim jihat sanaladi. Dastlab, bolalar maktabgacha ta'lim tizimi bo'g'inini yakunlab, maktab ostonasiga qadam qo'ygan ilk daqiqalardan boshlab ularda aniq maqsad, mas'uliyat, mehnatsevarlik o'z ona yurtini sevish va asrab-avaylash hissi shakllanib boradi. Yosh avlod ma'naviy-axloqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalanishida ta'lim muassasasining ham o'rni nihoyatda kattadir. Zero, yaxshi tarbiya ko'rgan farzandga ta'lim berish va uni ilmi qilish, komil insonlar qilib tarbiyalash har qaysi ustozning orzu-istagi va maqsadidir.

Komil inson g'oyasini amalga oshirish har bir millatning asriy orzusidir. O'zbek xalqi mustaqillikka erishgach, komil inson g'oyasi yangicha ma'no-mazmun kasb eta boshladi. Yoshlarni ozod va erkin, o'z vatanini jondan ortiq sevguvchi shaxs qilib voyaga yetkazish hamda uning vujudiga vatanning mustaqillik ruhini sindirish zaruriy shartdir [2;240–241-b.].

Yosh avlodga mukammal va zamonaviy ta'lim va tarbiya berish har bir ta'lim muassasasining oliy maqsadidir. Maktablarda turli yosh davrlariga xos bo'lgan bolalar ta'lim va tarbiya olishmoqda. Bu, albatta, turlicha dunyoqarashga ega bo'lgan shaxslar bilan munosabat o'rnatish deganidir. Ba'zida umumiy yoki alohida yondashuvni taqozo etadigan ushbu faoliyat sohasi har qanday o'qituvchidan kasbiy professionallikni talab etadi.

Odamlar maktabda raqamli texnologiyalarning roli haqida bahslashayotgan bir paytda texnologiyalar maktabdan tashqarida dunyoni tubdan o'zgartirib yuborganini inkor etmaslik kerak. Hamma joyda raqamli texnologiyalar yangi biznes-modellar va bozorga chiqish imkoniyatlarini taklif etmoqda, ishlab chiqarish tizimlarini o'zgartirmoqda. Ular umrimizni uzaytirishi, yanada sog'lomlashtirishi mumkin, zerikarli va xatarli topshiriqlarni mustaqil bajarmaslik imkonini beradi, virtual borliq imkoniyatlarini ochadi. Raqamli

texnologiyalardan foydalana olmaydigan kishilar endi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning to‘laqonli ishtirokchilari bo‘la olmaydilar.

Agar biz, o‘qituvchilar, XXI asr pedagogik uslublarini qo‘llab-quvvatlaydigan muhitda ishlashini istasak, undan ham muhimi, agar biz o‘quvchilarga XXI asrda muvafaqqiyatga erishish uchun talab qilinadigan kompetensiyalarga ega bo‘lish imkoniyatini taqdim etishni istasak, texnologiyalarga munosib e‘tibor qaratishimiz zarur.

Tabobatda biz ma‘lumotlarni o‘rganishdan boshlaymiz, qaysi davo usuli ko‘proq to‘g‘ri kelishini aniqlash uchun bemorning qon bosimi va issig‘ini o‘lchaymiz. Ta‘limda biz hammaga bir xil “davolash”ni taklif qilishga moyilmiz, hamma bolalarni bir xil o‘qitamiz, ko‘p yillardan keyin esa natijalar qoniqarsiz ekani ma‘lum bo‘ladi, bunda motivatsiyaning pastligi yoki ota-onalarni ayblaymiz [3;300–301-b.].

Ta‘lim muassasasida bolalarga ularning qiziqishi va qobiliyati doirasida munosabat ko‘rsata olish zarur. Virtual makonda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va turli xildagi yangicha bilimlar va qarashlar bilan ulg‘ayotgan yoshlarni oddiy dars o‘tish yoki eskicha yondashuv orqali ta‘lim va tarbiya berish ko‘pgina boshqa yechimi kutilayotgan muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ya‘ni, ilm olishga bo‘lgan qiziqishni pasayishi, oldiga aniq maqsadni qo‘ya olmaslik holati, befarqlikning ortishi, darslarga kechikib kelishi yoki sababsiz dars qoldirishi hamda turli salbiy omillarni yuzaga keltiradi. Biz maktablarda yosh avlodga ma‘naviy-axloqiy tarbiyani to‘g‘ri va aniq yo‘naltira olish choralarini izlashimiz kerak. Bunda har bir qilayotgan harakatimiz, avvalo, amaliy faoliyatga chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak. Ko‘pgina yoshlar o‘zining oldiga aniq bir maqsadni qo‘ya olmaslik natijasida turli virtual makon ta‘sirida yurishga odatlanishadi.

Hozirda deyarli barchaning xonadonida kompyuterlar, planshetlar, telefonlar yoki internet bilan doimiy ishlovchi qurilmalar mavjud. Ota-onalar farzandlarining kamoloti uchun qulay shart-sharoit yaratib bergan. Bu esa ko‘pgina yoshlarda tanlov qilish imkonini paydo qilmoqda. Soatlab kompyuter va internet qarshisida o‘tirishi, turlicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi bilan bir qatorda, bolaning sog‘lom turmush tarziga jiddiy ta‘sir o‘tkazishi bilan tavsiflanmoqda.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlari bilan shug‘ullanish asnosida ana shunday muhitda tarbiyalanayotgan yoshlarda ham tashqi ham ichki olamida sezilarli o‘zgarishlarni kuza-tish mumkin. Masalan, ularning kiyinish madaniyati, yurish-turishi, so‘zlashuvi va amalga oshirayotgan harakatlarida o‘zgarish yaqqol namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, kompyuter savodxonligini oshirib borish, axborot texnologiyalaridan foydalanish—bu davr talabi. Lekin, undan to‘g‘ri foydalanish eng muhim omil hisoblanishini unutmash zarur. Biz, odatda, internet bilan qaysidir ma‘lumotni olish uchun munosabatga kirishsak, bizga ko‘p tomondan yordam berishi, muammomizga tezda yechim topib berishi mumkin va turli takliflarni ham berishi oddiy hol bo‘lib qoldi. Shu sababli bolalarga virtual makonda to‘g‘ri harakatlanish qoidalarini o‘rgatib borishimiz zarur.

Insoniyat dunyoga kelib aqlini tanibdiki, yaxshi yashashga, farovon hayot kechirishga, o‘zligini ang-lashga, o‘z qadr-qimmatini bilishga, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga xullas, chinakam inson bo‘lib ya-shashga intilib kelgan. Ammo bu oson amalga oshadigan ish emas. Ammo insonlarning intellektual salohi-yati o‘zib borgan sari manfaatlarni uyg‘unlashtirish jarayoni ham murakkablashib borgan.

Globalashuvning avj olishi turli yo‘l va vositalar bilan milliy o‘ziga xoslik va tarbiyaning ta‘sir-chanligiga zarar keltirmoqda, uning ichidan va tashqarisidan yemirilishini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. [4;177–184-b.].

Xo‘sh, biz ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalasida qaysi jihatlarga ko‘proq urg‘u qaratishimiz lozim? Zamonaviy ta‘lim texnologiyasi mujassamlilik asosida quyidagi shart bo‘lgan yo‘nalishda olib borila-di:

1. Tarbiyalanuvchiga uchta yo‘nalish bo‘yicha ta‘sir o‘tkaziladi – ongiga, sezgisiga va xulqiga.
2. Yaxshi natijaga pedagogik ta‘sir ko‘rsatish va o‘z-o‘zini tarbiyalash orqaligina erishiladi.
3. Belgilangan shaxsiy sifatlar aniq tarbiyaviy ishlar asosida shakllantiriladi. Bunda kompleks yonda-shuv bo‘lishi lozim (aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy ya mehnatning birligi orqali). Hozirgi xatomiz esa tar-biya turlarining bir-biriga to‘liq bog‘liq emasligidadir.
4. Hamkorlikdagi harakat va birlik (oila, maktab, bog‘cha, mahalla, ommaviy axborot vositalari, ada-biyot, san‘at, jamoalar ya h.k.) asosidagi tarbiya texnologiyasining yaratilishiga zamin yaratilmoqda.
5. Tarbiya va uni boshqarish jarayoniga mujassam yondashuv tizimli ish olib borishni taqozo etadi.
6. Ichki, tashqi omillar e‘tiborga olinishi ya uning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganib chiqish lozim. Asosiy ichki va tashqi omillarga esa quyidagilar kiradi:

– maktab o‘quvchisining hayot tarzini e‘tiborga olib ayrim olingan shaxsiy sifatlarni shakllantirish yoki yo‘qotish;

– yashash sharoiti (mahalliy sharoit)ga mos tarzda ayrim sifatlarni shakllantirish yoki yo‘qotish;

– ommaviy axborot va targ‘ibot vositalari;

– jamoasining rivojlanishi va sharoit darajasi;

– o‘zaro munosabat normalari (maktab, oila va h.k.);

– tarbiyalanuvchining individual va shaxsiy jihatlari va h.k. [5;177–184-b.].

**Xulosa va takliflar.** Ilmiy tadqiqot natijalari quyidagi mulohazalarni ilgari surishga asos bo‘ldi deyish mumkin. Hozirda insonlar hayotida va yoshlar tarbiyasida virtual makon ustuvorlashuvining ta‘siri tobora ortib bormoqda. Biz milliy tarbiya mezonlarini oiladan, ta‘lim-muassasasidan, mahalladan va keng jamoatchilikni jalb qilgan holda, ma‘naviy-axloqiy tarbiyani tashkillashtirish ishlarini tizimli ravishda takomillashtirib borishimiz zarur. Biz farzandlarimizni yetuk, barkamol qilib tarbiyalashda o‘zaro hamkorlikdagi vazifalarimizni to‘g‘ri anglagan holda olib borishimiz maqsadga muvofiq. Birgina bu ishlarni ta‘lim muassasasining zimmasidagi vazifa deb qarashimiz mumkin emas. Bu masalalar barchamizni birdek o‘ylantirishi zarur. Biz bu imkoniyatlari keng makonda yashayotgan ekanmiz, yosh avlod kelajagi uchun, ularning orzu-istaklari hamda maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishimiz, kelajagimiz egalarini komil insonlar bo‘lib kamol topishidagi muhim qadamdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2022, 211-bet.

(2). Yaxshilikov J.Y, Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya va mafkura. T., “Fan”, 2015, 240–241-betlar.

(3). Andreas Shlyayxer. Jahon miqyosidagi ta‘lim. T., “Zamin nashr”, 2022, 300–301-betlar.

(4). Otamurodov S. Globallashuv va millat. T., “Yangi asr avlodi”, 2008, 177-bet.

(5). Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009, 29-bet.

#### **Tursunova Shahnoza Bekchanovna (TATU Urganch filiali “O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti) ILM-FAN TARAQQIYOTIGA ERISHISHDA INNOVATSION TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada innovatsion tafakkur ijtimoiy hayotga yangilik olib kirishga qaratilgan ilm-fan bilan bog‘liq, ilmiy faoliyat turi sifatida ilm-fan mohiyatan yangilik izlashga, ijtimoiy hayotni yangilikka muvofiq tashkil etishga, aql-idrokni mudom yangilik izlashga da‘vat etadigan hodisa hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion tafakkurga oid ilmiy yondashuvlar va ta‘riflarni o‘rganish, tahlil qilish va funksional tizimlari, ijtimoiy, klassifikatsion xususiyatlari mavjudligini ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, innovatsion tafakkur, ilm-fan, dunyoqarash, ilmiy faoliyat, yangi konseptual g‘oya, zamonaviy texnologiya, intellektual.

**Турсунова Шахноза Бекчановна (доцент кафедры узбекского языка и социальных наук  
Ургенчского филиала ТАТУ)**

#### **РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ В ДОСТИЖЕНИИ НАУЧНОГО ПРОГРЕССА**

**Аннотация.** В данной статье речь идёт об инновационном мышлении, которое связано с наукой, направленной на принесение инноваций в общественную жизнь, как вид научной деятельности, наука по своей сути является явлением, поощряющим поиск инноваций, организацию общественной жизни в соответствии с инновациями, а также постоянный поиск инноваций. Также рассматривается существование научных подходов и определений инновационного мышления, анализа и функциональных систем, социальные и классификационные особенности.

**Ключевые слова:** инновация, инновационное мышление, наука, мировоззрение, научная деятельность, новая концептуальная идея, современные технологии, интеллектуал.

**Tursunova Shakhnoza Bekchanovna (Docent of the Uzbek Language and Social Sciences Department,  
Urganch branch of TATU)**

#### **DEVELOPING INNOVATIVE THINKING IN ACHIEVING SCIENTIFIC PROGRESS**

**Annotation.** In this article, innovative thinking is related to science aimed at bringing innovation to social life, as a type of scientific activity, science is essentially a phenomenon that encourages the search for innovation, the organization of social life in accordance with innovation, and the constant search for

*innovation. Also, the existence of scientific approaches and definitions of innovative thinking, analysis and functional systems, social and classification features are considered.*

**Key words:** *innovation, innovative thinking, science, outlook, scientific activity, new conceptual idea, modern technology, intellectual.*

**Kirish (Introduction).** Innovasion tafakkur, avvalo, ijtimoiy hayotga yangilik olib kirishga qaratilgan ilm-fan bilan bog‘liq, ilmiy faoliyat turidir. Ilm-fan mohiyatan yangilik izlashga, ijtimoiy hayotni yangilikka muvofiq tashkil etishga, aql-idrokni mudom yangilik izlashga da’vat etadigan hodisa hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar hech qachon to‘xtamagan, hatto inkvizisiya, mutaassiblik va totalitarizm avj olgan davrlarda ham inson tafakkuri orom bilmagan, yangi-yangi narsalarni topishga intilishda davom etgan. Innovasion tafakkur yangilikka, taraqqiyotga va o‘zgarishlarga moyil dunyoqarashdir. “Innovatsiya” so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, “in” ichiga, “novasiya” yangilik degan ma’nolarni anglatadi. Demak, “innovatsiya” ichkariga olib kirish ma’nosini anglatadi. Ijtimoiy falsafiy mohiyatiga ko‘ra, u “obyektning oldingi taraqqiyotida bo‘lmagan madaniy voqelik, o‘zgarish, yangilik, faoliyat jarayonida qo‘llaniladigan yangi usul, vosita, mexanizmlardir”. Uning markazida ma’lum bir g‘oya, dunyoqarash turadi. Demak, innovasion tafakkur yangilik olib kirishga qaratilgan ma’lum bir g‘oya, dunyoqarash hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Innovasion tafakkurga oid ilmiy yondashuvlar va ta’riflarni o‘rganish, tahlil qilish uning quyidagi funksional tizimlari, ijtimoiy, klassifikatsion xususiyatlari mavjudligini ko‘rsatadi:

–u, ya’ni innovasion tafakkur ijtimoiy hayotga yangilik, kashfiyot olib kirishga qaratilgan ilmiy faoliyat turi, ilm-fan sifatida keladi;

–yangilikka, taraqqiyotga va o‘zgarishlarga moyil dunyoqarashni ifoda etadi;

–insonning rasional izlanishlari va faoliyatini aniq ijtimoiy maqsadlarga o‘naltiruvchi ijodiy, psixologik ustanovka vazifasini bajaradi;

–ijtimoiy ong va ijtimoiy fikr bilan uyg‘unlashib, ma’lum bir muhitga, jamiyatga, guruhga oid yangi konseptual g‘oyani aks ettiradi;

–ijtimoiy determenistik xususiyatga ega;

–yangi ma’naviy voqelik, g‘oyalar, qadriyatlar tarzida ijtimoiy borliqqa, jamiyat hayotiga ta’sir etadi;

–insonning barcha ongli, rasional faoliyati yangilikka moyil tafakkur ta’sirining mahsullari sifatida qaralishi mumkin [1].

Mazkur tizimli, klassifikatsion yondashuv innovasion tafakkurning ham ilmiy, ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Ammo, buni esda tutish zarur, barcha tafakkur mahsullari ham innovasion xususiyatga ega bo‘lavermaydi, goho tafakkur konservativ, g‘ayriilmiy bo‘lishi mumkin. Shuning uchun biz tafakkurining yuqoridagi yo‘nalishlarini innovasion tafakkurga tadbiq etganimizda tafakkurdagi yangi izlanishlarga, ilmiy-texnik va texnologik yangilanishlarga moyil jihatlarini nazarda tutamiz. Tafakkurning barcha ko‘rinishlari, mahsullari emas, balki yangilanishga moyil, yangicha yondashuvni qo‘llab-quvvatlovchi jihatlarini biz innovasion tafakkur tarzida tadqiq etamiz. Innovasion tafakkurning funksional tizimlari deganda yangilik va yangi texnologiyalar joriy etiladigan ijtimoiy sohalar va institutlar, ularda kuzatiladigan o‘zgarishlar, bu o‘zgarishlarning ijtimoiy ahamiyati, vazifalari nazarda tutiladi. Bunday funksional tizimlar ijtimoiy sohalarning ichki funksiyalari va xususiyatlari orqali belgilanadi. Masalan, innovatsiyaning madaniyat sohasidagi funksiyalari bilan siyosat, iqtisod yoki tibbiyot sohasidagi funksiyalari o‘rtasida ma’lum bir farqlar mavjud. Madaniyat sohasidagi innovasiya moddiy va ma’naviy boyliklarni asrash va ko‘paytirishga, bu boradagi xalqaro, yangi tajribalarni joriy etishga qaratiladi. Siyosat sohasidagi innovatsiya jamiyat va davlat hayotini boshqarishni samarali amalga oshirishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi innovatsiya esa mahsulotlar, ne’matlar ishlab chiqarish, bu jarayonni zamonaviy texnologiyaga asoslangan tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Innovasion tafakkurning funksional tizimlari yangilik olib kiriladigan ijtimoiy soha xususiyatlarini, funksiyalarini yaxshi bilishni taqozo etadi. Mazkur sohalardagi muammolarni bilish va ularni yechishga intilish innovasiyaning boshlang‘ich bosqichi, ammo innovasiya negizida sohaga jiddiy ta’sir etish, yangilikni ustuvor voqelikka aylantirish maqsadi yotadi. Ushbu talabni bilmaslik innovasion izlanishlarni palliativ hodisaga aylantiradi, natijada yangilik sezilarli natija bermaydi. Innovasiya sohaga tub o‘zgartirishlar olib kirishi mumkinligini dunyodagi yirik korporatsiyalar va firmalar faoliyati tasdiqlaydi. Masalan, Apple, Microsoft, Macdonald kabi yirik korporatsiyalar misol bo‘lishi mumkin [2].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Biroq ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichlari (masalan, “Sharq Renessansi” deb ataladigan IX–XIV asrlar, Yangi davr deb ataladigan XVI–XVII asrlar, Uyg‘onish va Ma’rifatparvarlik davrlari)da tafakkurda, taniqli tarixchi L.N.Gumelev iborasi bilan

aytganda, “passionarlik” (ya’ni jonlanish, kuchayish, zo’riqish) kuzatiladi. Jamiyatshunoslar ushbu davrlarni tafakkur, madaniyat, jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichlari sifatida e’tirof etadilar. Bugun ilm-fan, ilmiy texnologik taraqqiyotning alohida bosqichi sifatida Yangi davr (XVI–XVII asrlar) e’tirof qilinadi. Bu davrdan boshlab, inson intellektual izlanishlarga, ilmiy-texnik kashfiyotlar qilishga katta e’tibor bera boshladi. Ayniqsa, parovoz, tikuv mashinasi va yangi texnik vositalarning kashf etilishi og’ir qo’l mehnatini yengillashtirish va samadorligini oshirish, eng uzoq masofalarga ham tez, oson yetib borish imkoniyatini yaratdi. Har bir ilmiy yangilik inson aqlu tafakkurining mahsuli va yutug’i ediki, pirovard natijada jamiyat taraqqiyoti, sivilizatsiyaviy rivojlanish ilmiy yangiliklarga muvofiq baholanadigan bo’ldi. Bugun insoniyat erishgan va erishayotgan yutuqlarni ilmiy-texnik kashfiyotlar bilan baholash, o’lchash odatiy yondashuvga aylangan. Insoniyat, kishilik jamiyati dinamik xususiyatga ega, aynan ushbu hislatlari tufayli ular mudom yangilikka intiladi, yangi-yangi izlanishlarni qo’llab-quvvatlaydi. Rivojlanish, taraqqiyot yangilik izlash, ilmiy kashfiyotlar mahsuli demakdir.

Mutaxassislarining ta’kidlashicha, “insoniyat yer yuzida paydo bo’lganidan buyon o’tgan davr moyinida o’z hayoti va turmushini qulay, farovon qilish uchun tinimsiz izlangan. Insoniyat tomonidan qilingan yana bir kashfiyot borki, uning ahamiyati yuqorida tilga olingan kashfiyotlardan aslo kam emasdir. Bu nomi ham ancha mayin, qit’alararo o’tuvchi savdo karvon yo’li Buyuk Ipak yo’lidir” [3]. Tadqiqotchi tarixda Xo’tan hamda Yorkent bilan shimoliy Xitoyni bog’lagan “nefrit yo’li”, Eron, Mesopatamiya, Suriya, Misr va Anadoliyani bog’lagan “la’l (lazurit) yo’li”, Uralbo’yi, Oltin O’rda, Rus, Yevropa va O’rta Osiyoni birlashtirgan “Shimoliy yo’l” bo’lganini, ilmiy kashfiyotlar, izlanishlar ana shu jug’rofiy hududda qilinganini ochib beradi. Uning yozishicha, masalan, “Xorazmning O’rta Sharq davlatlari bilan o’rnatgan savdo munosabatlari tufayli mintaqaga ajoyib sopol idish turi “lyustra” deb nomlangan mahsulotlar kirib kelgan. Lyustra sopol idishlarining bir necha o’nlab parcha va butun nusxalari xorazmshohlar davriga oid Daryolik ko’l havzasi, Qavat qal’a, Qizil qal’a, Mizdahqon, Shemahaqal’ala va boshqa yodgorliklardan ma’lum”. Demak, Buyuk Ipak yo’li va boshqa savdo-sotiq markazlarni ilmiy va ijodiy jarayonlardan ayri qarash mumkin emas, har bir integrasion aloqalar qandaydir yangilikka tayanadi va yangiliklar olib keladi [4].

Yana bir jihatni aytib o’tishimiz kerakki, dunyoqarash, g’oya inson xatti-harakatlari va faoliyatiga qanday ta’sir etmasin, ular, ko’pincha, ichki, yashirin, sub’ektiv hodisa sifatida qolaveradi. Ulardan innovatsiya izlash, topish ham oson, ham qiyin. Oson tomoni shundaki, subyektiv hodisani turlicha talqin qilish mumkin, antik davr faylasuflarining iborasi bilan aytganda, “oq ko’ringan narsadan qora yoki dog’ topishdan ham osoni yo’q”. Buning uchun subyektiv nigohini oq narsaning ikkinchi nuqtasiga qaratishi kifoya. Qiyin tomoni shundaki, “har bir tezis antitezis”iga ega. Dunyoqarash, g’oya tezislarga quriladi, tezislarda ifodalanaadi. Bu tezislarni tafakkur, ong turlicha qabul qilishi, baholashi mumkin. Shuning uchun dunyoqarash, g’oya ko’rinishida keladigan innovatsiya bugun yangilik bo’lib tuyulishi, ertaga esa u mutlaq teskari baholanishi mumkin. Ilm-fanda mutlaq yangilik tarzida qabul qilingan kashfiyotlar mavjud. Masalan, Galiley va Kopernikning geliosentrik ta’limoti, A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi, D.Mendeleevning davriy sistemasi shular jumlasidandir. Biroq bu ta’limotlar va sistema ham mutlaq o’zgarimas emas, keyingi yillarda kvant nazariyasi, geologik izlanishlar ularga ma’lum bir qo’shimchalar kiritmoqda. Bu o’zgarishlar inson tafakkurining cheklanganligi bilangina bog’liq emas, balki inson izlanadigan obyekt va hodisalarning keng, murakkab va o’zgaruvchanligi bilan ham bog’liqdir [5].

Ratsional izlanish va faoliyat insonning aql-u idrokiga tayanadigan, obyektiv ehtiyojlarini ifoda etadigan xatti-harakatidir. Ratsional yondashuv innovatsion tafakkurning bosh belgisi hisoblanadi. Shuning uchun irratsionalga asoslangan xatti-harakatlardan yangilik izlash uchramaydi. Ratsional izlanishlarning obyektiv ehtiyojlar bilan bog’liqligi ilmiy falsafiy, tafakkuriy ixtirolarga hayotiylik, dolzarblik baxsh etadi. Obyektiv, ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqqan, ularni ifoda etadigan ratsional izlanishlar, hatto ular hech qanday yangilik va ixtirolarga olib kelmasa ham, inson tafakkurini olg’a siljitadi, uni nimadir bilan boyitadi. Ushbu izlanish jarayonida aql-u tafakkurda haqu haqiqatni izlashga oid psixologik ustanovka shakllanadi. Shuning uchun ham barcha tadqiqotlardan ham yangilik, ixtiro kutish shart emas, ammo ular inson tafakkuriga nimadir qo’shishi lozim. Haq-u haqiqat izlashga da’vat etilgan psixologik ustanovka faylasufni barqaror ideal yaratishga, uni izlashga, har qanday vaziyatda ham uni himoya qilishga undaydi. Mazkur ustanovkasiz tadqiqotchi nima izlayotganini aniq tasavvur etolmaydi, har qanday fikr, konsepsiya yoki ixtiro ketidan ergashib ketaveradi. Haq-u haqiqat izlashdagi sobitqadamlik, izchillik ushbu ustanovka tufaylidir.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Innovatsiyalardagi konseptual g’oyalarni iqtisodiy (ishlab chiqarish jarayonlari va vositalarini angilash, yangi mahsulotlar yaratish, madaniy xizmatlar turlarini ko’paytirish), siyosiy (davlat va jamiyat hayotini boshqarishga yangi texnologiyalar, institutlar, qonunlarni joriy etish; modernizatsiya va demokratik boshqarish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengay-

tirish), huquqiy (xalqaro huquqiy normalarni implementatsiya qilish, soʻz va fikr erkinligini taʼminlashga qaratilgan huquqiy normalarni yaratish), madaniy-aksiologik (yangi ish usullarini, yangicha fikrlash tarzini ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga aylantirish), ilmiy-texnik (ilmiy-texnik tafakkurni shakllantirish, bu borada yangi kadrlar va institutlar tashkil etish, global ilmiy-texnik rivojlanishga qoʻshilish), xalqaro integratsiya (mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etishda qatnashish, mehnat migratsiyasi tizimini shakllantirish, yer yuzida tinchlik va hamkorlik siyosatini oʻrnatishga hissa qoʻshish) kabi yoʻnalishlarda tadqiq etish mumkin. Innovatsion tafakkurning ijtimoiy, klassifikatsion xususiyatlari ham ushbu yoʻnalishlarga bogʻliqdir. Masalan, iqtisodiy sohaga joriy etilgan innovatsion yangiliklarning, yangilanishlarning ijtimoiy, klassifikatsion xususiyatlari yangi tovarlar ishlab chiqarish, yangi texnologiyani joriy etish, menejment va marketing imkoniyatlarini kengaytirish, ulardan foydalanish orqali milliy brend mahsulotlari yaratish, mediamarkazlar yordamida korporatsiya, korxonalar, firma faoliyati haqida ijobiy fikr, maftunkor obraz shakllantirish kabilarda ifoda etilishi mumkin. Shuni esda tutish kerakki, innovatsiyaga oid brendni, xalqaro imijni milliy tovarlar, xizmatlar va mediamarkazlar shakllantiradi. Rivojlangan davlatlar tajribalaridan maʼlumki, innovatsiya qanchalik muhim boʻlmasin, u toʻgʻri brend, maftunkor obraz, xalqaro imij yaratish ham shunchalik muhimdir. Oʻz imiji, brendi toʻgʻrisida qaygʻuradigan kompaniyalar faoliyatiga taalluqli hech bir xabarni, mediamarkazlar tarqatadigan axborotlarni eʼtiborsiz qoldirmaydi [6]. Ular oʻz brendini, xalqaro imijini ommaviy axborot vositalari (OAV), mediamarkazlar orqali shakllantiradilar va targʻib etadilar.

Innovatsion tafakkur ijtimoiy deterministik xususiyatga ega. Har bir yaratilgan va hayotga joriy etilgan yangilik ijtimoiy fikrga, kishilarning novatsion mahsulot, tovar brendga, ijtimoiy qadriyatlarga aylanadi. T.Parsons aytganidek, “Iqtisodiyotning maqsadi individ uchun ishlab chiqarishni maksimalashtirish emas, balki ijtimoiy qadriyatlar tizimi bilan bogʻliq tarzda maksimalashtirishdir”.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Tafakkurning yangilikka moyilligi innovatsion izlanishlarning negizidir. Yangilik shunchaki istak emas, sensitiv izlanishlarda shaxs istaklari va qiziqishlariga urgʻu beriladi, ammo u aniq, amaliy xatti-harakatlarni ham taqozo etishini unutib boʻlmaydi. Yangilik real munosabatlarga aylanishga, obyektivlashishga muhtoj. Buning eng keng tarqalgan koʻrinishi ilmiy-texnik kashfiyotlar hisoblanadi, shuning uchun ham innovatsiya deganda, koʻpincha, shunday kashfiyotlar, ixtirolar nazarda tutiladi. Tafakkurning yangilikka moyilligi bilan uning obyektivlashishi oʻrtasida maʼlum bir vaqt, masofa yotadi. Jamiyatning ilmiy-texnik rivojlanishi ana shu vaqtni, masofani, iloji boricha, qisqa qilishga bogʻliq. Uning ishlab chiqilgan standartlari yoʻq, ammo rivojlanishga intiladigan har bir jamiyat, agar bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot talablaridan kelib chiqsak, novatsiyani amaliyotga joriy etishning avvalo ijtimoiy-iqtisodiy omillarini, samarali mexanizmlarini yaratadi, qoʻllab-quvvatlaydi.

Innovatsion tafakkurning ilmiy, ijtimoiy-falsafiy asoslari va gnoseologik negizlarini oʻrganish koʻrsatadiki, inson ongi, qiziqishi, bilishga, yon-atrofini takomillashtirishga intilishi novatsion xususiyatga ega. Inson oʻzining novatsion izlanishlarga moyilligi va qodirligi bilan boshqa mavjudotlardan farq qiladi, ijtimoiy hayotga dinamizm, progressivlik baxsh etadi. Bu hislat jamiyatga, sotsiumlarga ham xos. Ijtimoiy-tarixiy tajribalar koʻrsatadiki, inson va jamiyat novatsiyaga moyilligini va qodirligini unutgan yoki dogmatikaga berilgan zahoti stagnatsiya boshlangan, mutaassiblik ong va tafakkurni oʻziga bandi etgan. Shuning uchun ham inson tafakkuri novatsiyaga oʻch, hatto xato va cheklangan boʻlsa-da, nimanidir yaratishga, ijtimoiy borligʻiga nimanidir olib kirishga intiladi, shu maqsadda izlanadi va yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References):**

- (1). Erkayev A. Maʼnaviyat va taraqqiyot modeli. Toshkent, “Maʼnaviyat”, 2005, 6-bet.
- (2). Боритко Н.М. Методология и методы психолого-педагогических исследований. Москва, “Академия”, 2008, с. 46–47; Иванова Я.О. Теория обучения в информационном обществе. Москва, “Просвещение”, 2011, с. 131–134.
- (3). Berdimurdiv A. Vatan haqqiga munojot. Toshkent, “Adabiyot”, 2020, 178-bet.
- (4). Berdimurdiv A. Vatan haqqiga munojot. Toshkent, “Adabiyot”, 2020, 191–192-betlar.
- (5). Новейший философский словарь. Сост. А.А.Гришанов. Минск, изд. В.М.Скакун, 1998, с. 268.
- (6). Саифназаров И., Никитченко В. Методология научного исследования. Ташкент, “Фан”, 1996.
- (7). Mervyn King. The End of Alchemy: Banking and the Future of the Global Economy. London, Little Brown, 2016.

Эгамбердиева Зарина Уктамовна (Самаркандский государственный институт иностранных языков, преподаватель кафедры «Гуманитарных наук и информационных технологий»;  
e-mail: zarinaegamberdieva24@gmail.com)

## РОЛЬ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В ВОСПИТАНИИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль духовного наследия Алишера Навои, великого ученого, поэта и мыслителя, который оставил неизгладимый след в культуре Центральной Азии и далеко за ее пределами. Его творчество до сих пор вдохновляет и оказывает глубокое влияние на современное общество, особенно в контексте воспитания молодежи. В этой статье рассмотрим роль духовного наследия Алишера Навои в формировании толерантности у современной молодежи Узбекистана.

**Ключевые слова:** молодёжь, наследие, воспитание, толерантность, современность, дружба, мировоззрение, наследие, общество, духовность, культура, человек.

Egamberdieva Zarina O'ktamovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent, "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrası o'qituvchisi;  
e-mail: zarinaegamberdieva24@gmail.com)

## ZAMONAVIY YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDA A ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MORASINING O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'rta Osiyo va undan tashqarida ham madaniyatida o'chmas iz qoldirgan buyuk olim, shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ma'naviy merosining o'rni ko'rib chiqiladi. Uning faoliyati zamonaviy jamiyatga, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi kontekstida ilhom berishda va chuqur ta'sir qilishda davom etmoqda. Ushbu maqolada biz zamonaviy O'zbekiston yoshlarida bag'rikenglikni shakllantirishda Alisher Navoiy ma'naviy merosining o'rni haqida to'xtalib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** yoshlik, meros, bilim, bag'rikenglik, zamonaviylik, do'stlik, dunyoqarash, meros, jamiyat, ma'naviyat, madaniyat, xalq.

Egamberdieva Zarina Uktamovna (Samarkand State Institute of Foreign Languages Lecturer at the Department of Humanities and information technologies; e-mail: zarinaegamberdieva24@gmail.com)

## THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S SPIRITUAL HERITAGE IN THE EDUCATION OF MODERN YOUTH IN THE SPIRIT OF TOLERANCE

**Annotation.** This article examines the role of the spiritual heritage of Alisher Navoi, a great scientist, poet and thinker who left an indelible mark on the culture of Central Asia and far beyond its borders. His work continues to inspire and deeply influence modern society, especially in the context of youth education. In this article we will consider the role of the spiritual heritage of Alisher Navoi in the formation of tolerance among modern youth of Uzbekistan.

**Key words:** youth, heritage, education, tolerance, modernity, friendship, worldview, heritage, society, spirituality, culture, people.

**Введение.** Духовное наследие Алишера Навои играет фундаментальную роль в формировании мировоззрения молодежи. Духовное наследие влияет на формирование таких качеств, как толерантность и уважение к различиям. В современном мире, где межкультурные взаимодействия становятся все более интенсивными, важность толерантности особенно актуальна. Великий поэт и мыслитель Центральной Азии XV века Алишер Навои, оставил глубокий след в литературе и культуре узбекского народа. Его творчество и философские взгляды являются неотъемлемой частью духовного наследия Узбекистана.

**Обзор литературы.** Особое внимание уделяется анализу тем, связанных с толерантностью, межкультурным диалогом и уважением к различиям. Многие исследователи, среди которых необходимо выделить работу Р.И.Исмагуллаева «Навои и современность», где автор анализирует концепцию толерантности у современной молодежи и исследует их актуальность для современного общества. Также исследователь Ш.Х.Касимов в сборнике «Алишер Навои и проблемы современности» объединяет исследования различных аспектов творчества Навои и его роли в современном мире, где особое внимание уделяется вопросам толерантности, культурного многообразия и межкультурного взаимодействия. В работе Г.А.Холмуратова «Навои и молодежь: путь к толерантности» рассматривается влияние творчества Навои на формирование мировоззрения и ценностных ориентаций современной молодежи. В данной работе автор анализирует реакцию молодежи на идеи толерантности, представленные в произведениях Навои, и выявляет их потенциал для развития гармоничного общества. Эти работы представляют собой важный вклад в изучение роли духовного наследия



Алишера Навои в воспитании толерантности у современной молодежи. Они обращают внимание на актуальность и значимость идей, заложенных в его произведениях, и исследуют их потенциал для построения мирного и гармоничного общества. Тема роли духовного наследия Алишера Навои в воспитании толерантности у современной молодежи привлекает внимание исследователей из различных областей, таких как литературоведение, культурология, история и психология.

**Методология исследования.** В данном исследовании были использованы такие методы и средства научного познания, как анализ и синтез, комплексный и системный анализ, сравнение концептуальных теорий.

**Анализ и результаты исследования.** Алишер Навои при жизни был не только поэтом, но и государственным деятелем, что делает его фигуру символом не только культурной, но и социальной идентичности для Узбекистана. Его работы, в которых сочетаются высокая поэтическая красота и глубокий философский подтекст, стали основой для многих уроков по литературе в узбекских школах и университетах. Творчество Навои играет значительную роль в формировании национального самосознания молодежи Узбекистана. В своих произведениях Навои обращался к темам идеального управления, справедливости и роли интеллигенции в обществе. Эти идеи способствуют формированию у молодежи представления о важности образования, уважения к истории и культуре своего народа.

В эпосе Алишера Навои «Хайрат ул-аброр» анализируются пути духовного совершенствования, качества зрелого человека в его духовности, такие как доброта, великодушие, чистота, восхищение, доброжелательность, порядочность, смирение, верность, удовлетворенность, правдивость, честность, справедливость, терпимость и т.д. Гуманизм и мечты Навои проявляются в его смелом оригинальном мировоззрении, взглядах на человеческие ценности на Востоке.

Уйти из мира без зрелости то же самое, что выйти из ванной нечистым. По мнению Навои, важно воспитать молодое поколение человеколюбивыми, образованными людьми с лучшими качествами [1]. Человек никогда не сможет стать совершенным, если он не очистит себя от своих склонностей, таких как алчность, похоть, небрежность и невежество. Жить в «Мировом доме»- значит стать его гражданином.

Алишер Навои хотел, чтобы человек поднялся до положения ребенка мира. Эту же позицию он рассматривал как высший пик зрелости» [7;136 с.].

Возрождение интереса к фигуре Навои в современном Узбекистане связано с процессами национального возрождения и поиска уникального культурного пути. Навои, как символ узбекской культуры, часто становится центральной фигурой в различных культурных инициативах, направленных на молодежь, включая фестивали, литературные конкурсы и образовательные программы. Это помогает молодым людям лучше понять и оценить свое культурное наследие.

Одним из ключевых аспектов творчества Навои является его взгляд на мир как на место, где разнообразие и различия делают общество богаче. Его произведения пропитаны идеей уважения к другим культурам, вероисповеданиям и точкам зрения. Именно через литературное наследие Навои молодежь может осознать важность толерантности и принять этот принцип как часть собственного мировоззрения.

Сочинения Навои написаны на чагатайском языке, который является предшественником современного узбекского языка. Изучение его текстов способствует не только развитию языковых навыков, но и углублению понимания уникальных аспектов узбекской идентичности и менталитета. Это, в свою очередь, укрепляет чувство национальной гордости и принадлежности у молодежи.

Навои пишет, что, пока в человеке есть хоть капля жизни, он должен сражаться за свою Родину, за ее свободу и процветание. Навои радуется за то, чтобы человек всецело связывал свою судьбу, свои чаяния и надежды с будущим своей страны. Заботясь о благе своего народа, любимые герои Навои-Фархад и Искандер, не могут в то же время безразлично относиться к судьбам других народов, стран, применяя всяческие старания для избавления их от горя. Великий подвиг Фархада во имя народа армян, который мучился от безводья, он, не раздумываясь прорывает канал и дает им воду- источник жизни и процветания. Навои, говоря об этом поступке Фархада отмечает, что доселе ни один из рода человеческого не делал такого поступка, который поистине восхищает саму Ширин и в ее лице весь народ армян.

В этих деяниях Фархада прослеживается большая и благородная любовь ко всему человечеству. Не чужды Фархаду любовь и преданность своей стране-Китаю, который сравнивает ее с раем на земле [3;102–11 с.1].

Краеугольным камнем философии Навои является воспитание гармонично развитой личности, которая обладает такими качествами как толерантность, дружба, добрососедские отношения, основанные на общечеловеческих ценностях и высокой морали [4;288 с.].

**Выводы.** Творчество Алишера Навои остается актуальным и в современном Узбекистане, играя ключевую роль в духовном и культурном развитии молодежи. Его литературное наследие не только обогащает внутренний мир узбекской молодежи, но и служит мостом к пониманию богатой истории и традиций Узбекистана. В контексте глобализации и культурных изменений, сохранение и популяризация наследия Навои среди молодого поколения является важным аспектом сохранения национальной идентичности и продвижения культурного разнообразия. Идеи Навои о дружбе и братстве народов были направлены против насилия, жестокостей и раздоров. Он призывает людей жить в мире и дружбе, осуждает вражду и недоверие:

Нет, не дело вражда. В добром мире живите, народы,

Дружба – дело людей, славить дружбу строкой моё дело. [5;146 с.]

Алишер Навои призывал все народы жить в мире и взаимопонимании, сам зачастую выступал дипломатом, примиряя отцов и сыновей, погрязших в многолетних войнах в борьбе за престол. Безмерная любовь к своему народу и родине нисколько не мешала поэту относиться с большим уважением и теплотой к другим народам. Он возвеличил и воспел дружбу между народами независимо от того, где они проживают, на каком языке говорят, к какой расе относятся и каково их вероисповедание. Он считал, что эта дружба обогащает, облагораживает народы:

*Поймите, люди всей земли: вражда- плохое дело,*

*Живите в дружбе меж собой- нет лучшего удела.* [6;29 с.]

Цитаты Алишера Навои продолжают вдохновлять и мотивировать современную молодежь на пути к пониманию и толерантности. Их мудрость и универсальность делают их не только актуальными для современного мира, но и важными инструментами в воспитании нового поколения, способного ценить и уважать многообразие культур и точек зрения. В их свете молодежь может найти вдохновение для создания более гармоничного и мирного общества.

«Друг в друге зерно мира познавайте, Скажи дай, не дай – никаких раздоров».

Эта цитата подчеркивает значение взаимопонимания и мирного сосуществования. Она напоминает о необходимости принятия и уважения других, несмотря на различия. Из статьи можно сделать вывод, что у наших великих мыслителей воплощены такие качества как терпимость, честность, доброта, терпение, человечность и другие качества толерантности. Именно поэтому, их имена сохранились в вечности, а их духовное и просветительское наследие изучается на протяжении веков. Наше молодое поколение также необходимо воспитывать в таком духе, и сформировать самодостаточных членов общества.

Важно подчеркнуть, что именно Навои как никто другой сумел выразить в своих произведениях самые возвышенные человеческие чувства. Мыслитель уже тогда продвигал ценности, которые сегодня мы называем толерантность и гуманизмом. Все самое прекрасное и значимое, воспетое в произведениях Навои, в наше время становится достоянием народа и служит эстетическому воспитанию и формированию благородных качеств, высокой духовности.

#### Список использованной литературы:

- (1). А.Навои. «Махбуб ул-кулуб». Навои, сочинения. Пятнадцать томов. Том 13, Ташкент, Литературное издательство, 1966.
- (2). Мирзиёев Ш.М. <https://uzsm.uz/ru/press-center/uzb-news/shavkat-mirziyeev-lyubaya-zadacha-kasayush-chayasya-budushchego-molodezhi-imeet-pervostепенное-znachenie/>.
- (3). Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Смятение праведных. Том III, Т., 1968, с. 102–111.
- (4). М.Муҳиддинов. Комил инсон – адабиёт идеали. «Маънавият», 2005.
- (5). Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. Фил. фанлари докт. диссерт., Тошкент, 1995, 288 бет.
- (6). Навои А. Сочинения. 1968, Ташкент, т.1, с. 146.
- (7). Алишер Навои. Поэмы. М., «Художественная литература», 1972.
- (8). Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Возлюбленный сердце. Т X, Т., 1970, с. 7.
- (9). Алишер Навоий. Тарихи мулуки ажам. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 16-том, Т., «Фан», 2020, 329 бет.
- (10). Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Стена Искандера. Т VII, Т., 1968, с. 335.
- (11). Ибрагим Хаккул. Суфизм и поэзия. Ташкент, 1991, с. 136.

Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich (Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD)  
O'ZLASHMA SO'ZLAR VA TILNING ME'YORLASHUVI

**Annotatsiya.** *Ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan taraqqiy topishi, hayotimizga bozor iqtisodiyotining bosqichma-bosqich kirib kelishi, ijtimoiy, siyosiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar o'zbek tili-ga kirib kelayotgan chet so'zlarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur maqolada tilga so'z o'zlashishi, o'zlashgan so'zlarning tiplari, o'zlashish bosqichlari va usullari, donor va akseptor tillarning rivoji uchun bajaradigan vazifalari haqida so'z ketadi.*

**Kalit so'zlar:** *til, kommunikativ vazifa, kumulyativ vazifa, direktiv vazifa, ekzotik leksika, o'zlashma so'zlar, qo'llanma so'zlar, kiritmalar, shakliy bosqich, mazmuniy bosqich, grammatik o'zlashish, semantik o'zlashish, baynalmilal leksika.*

Кузиев Умиджон Яндашалиевич (Наманганский государственный университет, доцент, кандидат филологических наук)

### ПРОБЛЕМЫ ЗАИМСТВОВАНИИ СЛОВ И СТАНДАРТИЗАЦИИ ЯЗЫКА

**Аннотация.** *Стремительное развитие науки и технологий, постепенное вхождение рыночной экономики в нашу жизнь, изменения, происходящие в социальной и политической жизни, делают необходимым научно, теоретически и практически изучать иностранные слова, входящие в узбекский язык. В этой статье обсуждаются языковые заимствования, типы заимствованных слов, стадии и методы усвоения, а также роль в развитии языков-доноров и акцепторов.*

**Ключевые слова:** *язык, коммуникативная задача, кумулятивная задача, директивная задача, экзотическая лексика, заимствованные слова, использование слов, вставное слово, формальный этап, семантический этап, грамматическое заимствование, семантическое заимствование, интернациональная лексика.*

Kuziev Umidjon Yandashaliyevich (Namangan State University, docent, PhD)

### PROBLEMS OF WORD BORROWING AND LANGUAGE STANDARTIZATION

**Annotation.** *The rapid development of science and technology, the gradual entry of the market economy into our lives, the changes taking place in the social and political life of the make it necessary to scientifically and theoretically and practically study foreign words entering the Uzbek language. This article discusses language borrowing, types of borrowed words, stages and methods of acquisition, and the role in the development of donor and acceptor languages.*

**Key words:** *language, communicative task, cumulative task, directive task, exotic vocabulary, borrowed words, utilize words, expletives, formal stage, semantic stage, grammatical task, semantic borrowing, international lexicon.*

**Kirish.** Til ijtimoiy tabiatga ega voqelik sifatida uch xil vazifa bajaradi: 1. Kommunikativ vazifa – insonlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, yuzaga chiqa olish xususiyati. 2. Kumulativ vazifa – tilning aks et-tirish, axborotni saqlash va jamlash xossasi. 3. Direktiv vazifa – shaxsni yo'naltiruvchi va shakllantiruvchi qurol sifatidagi ahamiyati [11:53-b.]. Yuqoridagi har uch omil so'z o'zlashtirishdek muhim lingvistik va ij-timoiy hodisaga aloqadordir, shu sabab so'z o'zlashuvi lingvistika, sosiologiya, tarix, etnografiya, mada-niyatshunoslik kabi sohalarining o'rganish obyekti hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligida o'zlashma so'zlar masalasiga M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», A.Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarlarida ilk bor e'tibor qaratilgan bo'lib, ular-da turkiy tilga o'zlashayotgan so'zlar, ularning qo'llanilishi borasidagi qarashlar ma'lum darajada o'z ifoda-sini topgan. XX asr o'rtalaridan boshlab, o'zbek tili lug'at tarkibini leksikografik asosda o'rganish keng tus oldi. Bu tadqiqotlarning ayrimlarida so'z o'zlashtirish hozirgi o'zbek tilining umumiy masalalari yuzasidan olib borilgan bo'lsa, boshqalarida bevosita so'z o'zlashtirish masalasining o'zi yoritilgan [3], [4], [8], [12], [15]. Jumladan, o'zbek tilidagi arabiy o'zlashmalar va so'z birikmalarini o'rganish o'tgan asrning 40-yil-laridan boshlangan. Bu yo'nalishdagi dastlabki yutuqlar F.Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasida o'z aksini topgan bo'lsa, keyinchalik, bir qator ko'zga ko'ringan olimlarning ilmiy ishlarida ham shu sohaning ayrim muammolari o'rganilgan. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik xususiyatlari E.Begmatov [4], A.Rustamov [16], B.Bafoyev [3] singari olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek tili leksikasining taraqqiyot yo'llari, uning etimologik tar-kibi, o'zbek tilidagi o'zlashma va baynalmilal so'zlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish M.Mirzayev, N.G'ulomova, K.Yusupov, T.Rahmonov, A.To'raxojayeva, U.Qo'ziyev, Sh.Jo'rayev, N.Isakova, E.Davla-

tova kabi tilshunoslarning ishlari alohida e'tiborga loyiq. Bundan tashqari, leksikadagi o'zlashma so'zlarni tavsiflash alohida maqsad qilingan qator lug'atlar ham yaratildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosini jamiyatning doimiy taraqqiyotda ekanligini aks ettiruvchi falsafiy qarashlar, bilish nazariyasi haqidagi tushunchalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, zidlash, qiyoslash, komponent va kontekstual tahlil, semantik-stilistik va sosiolingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** So'z o'zlashtirish keng tushuncha bo'lib, o'zlashtirish obyekti bo'lgan tushuncha yoki narsaga jamiyat tomonidan ehtiyoj tug'ilganda yuzaga chiqadi. Sun'iy ravishda qabul qilingan keraksiz so'zlar esa tabiiy ravishda lug'at tarkibidan nome'yoriy hodisa sifatida siqib chiqariladi. Madaniy o'zgarishlar ta'sirida tilning bosh manbasi muayyan darajada o'z vazifasini bajara olmay qolishi mumkin, bu narsa so'z o'zlashtirish jarayoniga turtki bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslikda so'z o'zlashtirish manbalari quyidagicha ko'rsatiladi: 1) tilning eski bosqichi; 2) shu tilning biror lahjasi; 3) boshqa til [7].

Ilmiy adabiyotlarda chet til so'zlari va o'zlashma so'zlar alohida hodisalar sifatida farqlanadi. Umuman olganda, chet tillardan kirgan so'zlar ikki guruhga bo'linadi:

1. O'zlashma so'zlar yoki o'zlashmalar.

2. Qo'llanma so'zlar yoki qo'llanmalar [20;85-b.].

Qo'llanma so'z va iboralar esa vazifasi va til qurilishiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi: 1) ekzotik leksika yoki ekzotizmlar; 2) kiritmalar, ya'ni chet til kiritmalari [20;84-b.].

Ekzotik leksika (yun. exotikos – yot, kelgindi) – o'zga tillardan o'zlashgan, nutqqa alohida bir o'ziga xoslik berish uchun qo'llanadigan so'z va iboralar [24;132-b.] demakdir. Ular ifodalagan tushunchalar qabul qiluvchi til egalari ijtimoiy hayotida kuzatilmaydi, ma'nodoshlari mavjud bo'lmaydi. Ekzotizmlarning muhim xususiyati axborot tashishidir. Ular orqali boshqa millatlar turmushi, madaniyati, urf-odatlarini, ijtimoiy qarashlari, hudud tabiati, geografik joylashuvi haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Masalan, *komiks* (qisqacha izohlar berilgan o'zaro aloqador suratlardan iborat, hikoya qilishga asoslangan kitobcha [17;244-b.]), *kshatriya* (Hindistonda uch kastadan biri), *bumerang* (avstraliya qabilalarining ov quroli), *chaxoxbili* (gruzin taomi), *tornado* (AQSHda quyunning atalishi) [18].

Kiritmalar deganda, badiiy asarda so'zlovchining turli xususiyatlarini (millat, madaniy holat kabi) ochib berish uchun xizmat qiladigan chet tilidagi so'z va iboralar tushuniladi: "*Ikkala qo'lini baland ko'tarib, nido berdi: Jamol, ego agapo imana su!..*" (*Jamol, oyingni yaxshi ko'raman*) (N.Dumbadze, "Hellados").

Kiritmalar qabul qilayotgan tilda tushunarli bo'lishi talab qilinmaydi, asosan, individual nutqqa xosligi bilan ajralib turadi. Ular o'zi mansub til imlosida bo'lishi yoki qabul qiluvchi til imlosiga moslashtirilgan bo'lishi mumkin.

Kiritmalar, asosan, tarjima adabiyotlarda uchraydi, sosiolingvistik jihatdan muhim qiymatga ega. Zero, qahramonlar nutqida chet tilidagi iboralarining uchrashi til egalari tomonidan o'z tillariga, shu asosda millatiga munosabat masalasiga ham oydinlik kiritadi. Jumladan, L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy asarlarida fransuzcha so'z va iboralarining ko'p uchrashi o'z davrida millatda fransuz tiliga ishtiyoq baland bo'lganligini, kiritmalar qo'shib gapirish, ijtimoiy maqomni ko'rsatish, madaniyat belgisi sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi. Bu jihatdan kiritmalar varvarizmlarga ham o'xshab ketadi: *Men ham, mana shunday deymen Ademain mouller* (Lev Tolstoy).

O'zga tildan qabul qilingan so'z keng ma'noda o'zlashma so'z deyiladi [24–138-b.]. O'zlashma so'zlar lug'at tarkibining tashqi manba asosida boyishi hosilasi hisoblanadi. O'zlashmalarining asosiy belgilari sifatida uning individual va kollektiv nutqda keng, uzluksiz, uzoq davr qo'llanishi, kerakliligi, o'z qatlam qonuniyatlariga bo'ysunishi, tilning leksik-semantik tizimiga singishganligi, amaliy yozuvga moslashganligi, tabiiy va aniqdigi, me'yor hisoblanishi ko'rsatiladi. Jumladan, ko'pgina tojikcha va arabcha o'zlashma so'zlar o'zbek xalqi nutqida asrlar mobaynida qo'llanib keldi. Bu hol so'zlarning o'zbek tili lug'aviy me'yorlariga singib ketishiga asos bo'ldi.

So'z o'zlashtirish sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: o'zlashma so'z yangi tushuncha, yangi narsani bildiradi (asosiy sabab), o'z so'zdan ko'ra qulayroq bo'ladi: o'zlashma so'z terminologik xarakterga ega bo'lib, tushunchani qisqaroq shaklda ifodalay oladi. Natijada uning qo'llanish doirasi kengayib boradi (demak, muloqot uchun qulay), va nihoyat, baynalmilal so'z bo'lishi mumkin (demak, tilning boyishi va xalqlarning yaqinlashuvi uchun qulay vosita) [9;13-b.]. Shuningdek, so'z o'zlashtirish ekspressiv omillar bilan bog'liq: o'zlashma so'z tushunchani birmuncha aniq ifodalaydi yoki kerakli ma'no ottenkalarini ko'rsata oladi [19].

Tillarning o'zaro ta'siri masalasi lingvistlarni ko'pdan buyon qiziqtirib kelayotgan muammolardan hisoblanadi. Keyingi yillarda bu sohadagi izlanishlar, asosan, turli sistemadagi tillarning o'zaro ta'siri masalasiga qaratildi [15]. Tillarning o'zaro ta'siri va so'z o'zlashtirish nazariyasidagi muhim o'rinlardan biri shuki, ularda "adaptasiya" va "assimilyasiya" tushunchalarining chegarasi aniq ko'rsatib beriladi. Bu tushunchalar o'z o'rnida so'z o'zlashtirilishi diaxronik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi [10].

Bir tildan boshqa tilga so'zlarning kirishi va singishi shunchaki oddiy, mexanik protsess emas, balki murakkab lingvistik va sotsial-tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq qonuniyatdir. So'z o'zlashishi uchun, avvalo, real sharoit lozim bo'ladi. Bunday sharoit tillar hamkorligi, ya'ni tillar kontaktidir [20;78-b.]. Bundan tashqari, «so'z o'zlashtirish bir xalq ikkinchi xalqdan nima o'rganganini ko'rsatib beradi» [5;503-b.]. Demak, tillar kontakti xalqlarning madaniy munosabatlarida muhim rol o'ynaydi: aloqa jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga intilish sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tili lug'at tarkibi shakllanishida turli etnik, madaniy, siyosiy, diniy va savdo aloqalarining o'rni muhimdir. O'zbekiston hududida turkiy xalqlar bilan birga eroniy urug'larlarning yashaganligi, bu xalqlar o'rtasida muntazam aloqalar bo'lganligi ma'lum. Natijada bilingvizm – ikki tillilik yuzaga kelgan. Bilingvizm ijtimoiy hayot bilan birga badiiy adabiyotda ham o'z aksini topgan. O'zbek adabiyotidagi zullisonaynlik, shir-u shakar, shahd-u shir-u shakar kabi terminlar bilingvizm bilan bog'liq.

Qadimgi davrlarda og'zaki so'zlashuv muhim rol o'ynagan bo'lsa, davrlar o'tishi bilan yozuv va yozma manbalarning ahamiyati yuksalib borgan. Yozuvning tarqalishi, kitob nashr etilishi so'z o'zlashtirishning yangicha sharoitini yaratadi, buning uchun xalqlarning real aloqasi va ikkitillilikning ahamiyati qolmaydi [11:138-b.]. Jumladan, ingliz va qisman arab tillaridan o'zbek tiliga so'z o'zlashishi bevosita kitob, yozuv va matbuot bilan bog'liq.

Bosma manbalar orqali o'zlashtirishda ikki hodisani farq qilish kerak:

1) ikkinchi bir tilda yozilgan adabiyotni o'zbek tiliga tarjima qilish yo'li bilan o'zlashtiriladi. Bunda kundalik matbuotning hissasi katta bo'ladi;

2) o'zbek badiiy adabiyoti orqali o'zlashtiriladi. Bular yozuvchining boshqa millat tili va adabiyotini chuqur o'rganishi asosida voqe bo'ladi [26;109-b.].

O'zlashma so'zlarning o'zlashuvi ikki bosqichdan iborat:

1. Shakliy bosqich. Bu bosqichda o'zlashma so'z akseptor tilning tovush, orfografik, morfologik va so'z yasash qoidalariga moslashadi.

2. Mazmuniy bosqich. Tillarning o'zaro ta'siri hamisha o'zining ijtimoiy sabablariga ega bo'ladi [10;36-b.]. Bu sabablar tillarning boyishiga yordam beradi.

Chet tilidagi so'zlarning o'zlashtirish usullari, asosan, ikki xil deb ko'rsatiladi (ayrim adabiyotlarda uch xil [20;86-b.]):

1. O'zicha olish.

2. Kalkalab olish [26;110-b.].

Shundan kelib chiqib, so'z o'zlashtirishning quyidagi tasnifi ham ilgari surilmoqda: 1) fonetik o'zlashtirish – so'zning o'zini qabul qilish (V.Pizani); 2) semantik o'zlashtirish – kalka, etimologik kalka, semantik kalka (V.V.Ivanov) [9;89-b.]. Bu muammolar nazariy sohada maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Tilga o'zlashma so'z o'z holicha qabul qilinganda, yangilik bo'yog'iga ega bo'ladi. Shuningdek, leksikaning nofaol, bir ma'noli so'zlar qatlamlariga ham mansub bo'ladi. Odatda, chet so'zlar fonetik, grafik, leksik-semantik, grammatik va me'yoriy stilistik jihatdan o'zlashadi [14;60-b.]. N.Z.Gadjiyevaning ta'kidlashicha, odatda, turkiy tillardagi barcha o'zlashmalar so'z yasash va so'z o'zgarish jihatidan turkiy tillarning ichki qonunlariga bo'ysunadi [8;33-b.]. Jumladan, arab tilidagi *z*, *t*, *d*, *h* tovushlarining variantlari o'zbek tilida bir tovush va harf shakliga kelgan, ' (*'ayn*) tovushi qisqa to'xtalishga aylanib, unlini undoshdan ajratib o'qishga yoki unlining cho'zib o'qilishiga xizmat qila boshlagan va shaklan grafik belgiga – tutuq belgisiga almashgan. Rus tilidagi *x*, *s* tovushlari, ayrim tovushlarning yumshoq va qattiq variantlari ham fonetik-grafik moslashuv asosida qabul qilingan.

O'zlashma so'zning morfologik jihatdan moslashuviga yunon tilidagi – *os*, lotincha *-um* qo'shimchalarining, hind-yevropa tillaridagi artikllar (*the*, *a*, *ap*, *la*, *le*, *die*, *das*)ning tushirilishini misol sifatida keltirish mumkin. Artikllar aniqlik-noaniqlik, jins kabi tushunchalarni bildirib, o'zbek tilida grammatik kategoriya sifatida uchramaydi.

So'zlarning semantik o'zlashishi ichki lisoniy omillar bilan bog'liq. O'zlashma so'z "bo'sh o'rin"ga tushishi – asosiy atash birligi bo'lib qolishi yoki sinonimlar qatoriga qo'shilishi mumkin. Har ikki holda ham oluvchi tildagi so'zlar bilan semantik jihatdan moslashuvi, paradigma hosil qilishi kerak [11:149]. Masalan, *marza* so'zi fors-tojik tilida – *chegara*, *sarhad*, *o'lka*, *egat* [21;544-b.] ma'nolarini bildirib, o'zbek

tiliga faqat oxirgi ma'nosi bilan o'zlashgan. Arabcha *markaz* so'zi o'rtalik, o'rta yer, holat, mavqe, vaziyat [21;545-b.] ma'nolarini ifodalasa, o'zbek tilida faqat o'rtalik, o'rta yerni bildiradi. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bunday so'zlar o'zbek tiliga qabul qilingach, qo'shimcha hosila ma'nolarga ham ega bo'lgan bo'lishi mumkin. Semantik moslashuvning so'nggi nuqtasida o'zlashmaning o'zga tilga mansubligi unutiladi, o'zlashtirayotgan tilning lisoniy birligi maqomini qo'lga kiritadi va so'z yasash bazasiga xos birlik sifatida so'z o'zlashtirgan tilni, uning lug'at tarkibini yangidan yangi yasama lug'aviy birliklar hisobiga boyitishda ishtirok etadi, xullas, yangi so'zlar hosil qiluvchi lisoniy manbaga aylanadi [22].

Chet tilidan so'z o'zlashtirishning yana bir usuli kalkalashdir. Bu usul "o'zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o'z til unsurlaridan foydalanib, yangi so'z yoki frazeologik birliklar hosil qilish" [23;47-b.]ni nazarda tutadi. Kalkalash, asosan, ikki xil bo'ladi: to'liq kalkalash va yarim kalkalash [26;110-b.].

Yarim kalkalashda esa so'zlardan birini almashtirishga ehtiyoj bo'lmaydi, u umumiste'molga avvalroq kirgan bo'lishi mumkin. Masalan, *infinitiv oborot – infinitiv o'ram, sistem-struktur naya lingvistika – sistem-struktur tilshunoslik* kabilar. Bu holda tarjima qilinmaydigan qism biz yuqorida ko'rsatib o'tgan fonetik, morfologik, semantik o'zgarishlarga uchrashi mumkin.

Kalkalash o'zbek tilida rus tili qoliplari asosida XIX asrdan vujudga kelgan. Oktabr to'ntarishigacha nisbatan kam qo'llangan [6]. Asosiy sababi bunday so'zlarning o'rnini bosuvchi so'zlar bo'lmaganidir. Mazkur usul terminlar hosil qilishda keng qo'llanadi va nutq uslublari bilan bevosita aloqador [9:90-b.]. Hozirgi kunda ham so'z o'zlashtirish va kalkalash til lug'at tarkibi boyishining asosiy usuli bo'lib kelmoqda.

O'zlashmalarning salmoqli qismini baynalmilal so'zlar (internasionalizmlar) tashkil etadi. Ular, asosan, ilmiy terminologiya bilan bog'liq. Baynalmilal so'zlarning muhim belgilari uning o'zlashish vaqti, shart-sharoiti emas, balki uchtdan kam bo'lmagan tilda uchrashi, qabul qiluvchi tilda asli (kelib chiqishi) bilan bog'liq emasligi, ma'lum hudud (areal)ga mansub bo'lmashidir [11:145-b.]. Baynalmilal so'zlarning qardosh bo'lmagan tillararo voqe bo'lishi ularni umumturkiy so'zlardan farqlaydi. Bundan tashqari baynalmilal so'zlar sinxronik xarakterga ega, u dunyodagi barcha tillarning lug'aviy boyligi hisoblanadi [2].

Ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan taraqqiy topishi, hayotimizga bozor iqtisodiyotining bosqichma-bosqich kirib kelishi, respublikamizda jahon infrastrukturasidagi uzluksiz ta'lim tizimi, diplomatiya, moliya, bank, kredit, soliq, auditorlik, menejmentlik, monitoring, marketing, mashinasozlik, samolyotsozlik kabi sohalarning yanada takomillashtirilishi natijasida mustaqillik yillarida o'zbek tili lug'at sistemasining ichki va tashqi imkoniyatlarini to'la ishga solgan holda, til taraqqiyoti qonuniyatlari talabiga mos ravishda ona tilimizning erkin rivojlanishi uchun yangicha shart-sharoitlar yuzaga keldi [23].

So'z o'zlashtirish va uning milliy tilga singishi quyidagi ehtiyojlar natijasida amalga oshadi:

1. Yangi tushunchaning ayni shu jamiyat bag'rida yuzaga kelmaganligi.
2. Yangi so'zga tilda semantik va shaklan muqobil yo'qligi. Ko'pincha, yangi tushunchani ifodalash uchun chet so'zga semantik jihatdan muvofiq so'z bo'lmasa, murakkab birliklarni qo'llashga to'g'ri keladi. Nutqdagi tejamkorlik tamoyili tushunchani bir so'z bilan atashni taqozo qiladi.

3. Asimmetriya hodisasi. Jumladan, o'zbek tilida o'qituvchi so'zi semantikasida faqat "jinsi erkak" semasi uning "jinsi ayol" bo'lgan tushunchani ifodalashiga yo'l qo'ymaydi. Natijada tilga *muallima, murabbiya*, shuningdek, *muallim, murabbiy* kirib keladi.

4. Taqlid, ibrat olish va boshqa psixologik omillar. Muayyan atoqli shaxsning jamoat oldidagi nutqi, albatta, uning qo'l ostidagi xodimlar yoki suhbatdoshlarga ta'sir qiladi yoki chet tilidagi adabiyotlar bilan ishlayotgan mutaxassis nutqida chet tilidagi so'z va terminlarni ko'p qo'llash holati kuzatiladi.

5. Terminologiya yoki jargonning kelib chiqish manbasiga ko'ra bir xil bo'lishiga intilish. Chunonchi, *geografiya – tabiatshunoslik. Geografik landshaft – birikmasida o'z qatlamdagi so'zning vazifasi to'rayganligi ko'rinadi.*

6. Atalayotgan narsaning maqomini ko'tarishga intilish natijasida muayyan davrlarda chet tilidagi so'zlarni qo'llashga qiziqish kuchayadi [25]: zal – xoll, namoyish – prezentasiya, boshqaruvchi – menejer.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, so'z o'zlashtirishning jamiyat va til egasi bo'lgan millat uchun ikki jihati mavjud:

- 1) til ijtimoiy hodisa ekan, jamiyatga xizmat qilar ekan, uning ehtiyojlarini to'la va o'z vaqtida qondirishi kerak. Davr, vaziyat til va tilshunoslikdan jamiyatning chaqirig'iga hozirjavoblik ko'rsatishni talab qilmoqda. So'z o'zlashtirish yangi so'z yasalishi va yangi so'zning jamiyat tomonidan tan olinishidan ko'ra kam vaqt talab qiladigan, oson usul. Demak, u vaqtdan yutishga yordam beradi, yangi so'z jamiyatning diqqatini tezda o'ziga jalb qiladi, qiziqish uyg'otib (*u nima?*), ong va tilga singishi yengil kechadi. Til egasi

bo'lgan millatning integrasiyalashuvi osonlashadi. Bundan tashqari, o'zlashma terminlar lakonik (lo'ndalik) belgiga egaligi bilan ajralib turadi;

2) so'z o'zlashtirish natijasida bugungi kunda ichki imkoniyatlar asosida so'z yasalishi unumsiz usullardan bo'lib qolmoqda. Bu holatning davom etishi tilning "yashash uchun kurash instinkti"ni borgan sari ishdan chiqarishi, chin ma'nodagi jonli tilning rivojlanishini sustlashtirishi mumkin. Ikkinchi qarash millatchilik xarakteridagi purizm tarafdorlari fikrlariga mos keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент, "Ўқитувчи", 1982.
- (2). Аҳмедов О. Байналмилал терминлар таҳлили (солиқ ва божхона терминологияси мисолида). "Тил ва адабиёт та'лими", 2013, 5-сон, 33–36-бетлар.
- (3). Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои. Лексико-семантические, статические и тематическая исследования. Дисс... канд. филол. наук, Ташкент, 1989.
- (4). Бегматов Э. Собственный пласт лексики современного литературного языка. Дисс... докт. филол. наук, Ташкент, 1988; шу муаллиф. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, 1989.
- (5). Блумфильд Л. Язык. М., 1968.
- (6). Боровский А. Узбекский литературный язык в период 1865–1867 гг. Ташкент, 1940.
- (7). Byron, Janet. Borrowing as a Process in the Standardization of Language // <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED105736.pdf>
- (8). Гаджиева Н.З. Тюркские языки. Языки мира. Тюркские языки. Бишкек, 1997.
- (9). Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. Ташкент, "Фан", 1985.
- (10). Зограф Г.А. Иранские и арабские элементы в урду. Москва, 1960.
- (11). Кузнецова Э. Лексикология русского языка. Москва, "Высшая школа", 1989.
- (12). Махмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. Монография ва луғат. Тошкент, "Akademnashr", 2014.
- (13). Мирзоева А., Султанова И. О методологических принципах общественной природы изучаемых языков. "Filologiya masalalari", 6-son, Ozarbaycan, Baku, 2012.
- (14). Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. М., 1975.
- (15). Рахмонов Т. Ҳозирги ўзбек тилидаги арабча ўзлашма сўзлар семантик тузилишидаги ўзгаришлар. Филол. фанлари номз... дисс, Тошкент, 1994.
- (16). Рустамов А. Фонетико-морфологические особенности языка А.Навои. Дис... докт. филол. наук, Ташкент, 1966.
- (17). Словарь иностранных слов. Москва, "Русский язык", 1979.
- (18). Улуков Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси. Филол. фанлари номз...дисс., Тошкент, 1997.
- (19). Якубинский Л.П. Несколько замечаний о словарном заимствовании. Язык и литература, т. I, вып. I, II, Л., 1926.
- (20). Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент, "Ўзбекистон", 1981.
- (21). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, II жилд, Тошкент, ЎзМЭ, 2006.
- (22). Ҳасанова Д. Сўз ўзлаштиришнинг сўз ясашига муносабати ҳақида. "ЎТА", 1-сон, 2008, 84-бет.
- (23). Ҳожиёв А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили луғат таркибининг ривожланиш асослари. "ЎТА", 1–2-сонлар, 1994, 20-бет.
- (24). Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, ЎзМЭ, 2002.
- (25). <http://www.mylanguage.ru/Mods/CoursFrm.asp?actid=104>
- (26). Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, "Universitet", 2006.

**Otaqulov Nodirjon Bahromaliyevich (O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD;**

**E-mail: [nodirorient@gmail.com](mailto:nodirorient@gmail.com))**

#### **KOLLOKVIAL FRAZEOLIGIZMLAR VA ULARNING NUTQIY MUNOSABATDAGI O'RNI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada tillar tizimida kollokvial frazeologizmlarning o'rni aniqlandi hamda leksikografik manbalarning ta'riflari asosida tillarda frazeologik birliklarni tanlab olish, tadqiq qilinayotgan frazeologik birliklarning kommunikativ statusini aniqlashtirish uchun ularning funksional-stilistik tegishliligi o'rgangan. Kollokvial frazeologizmlarning ichki shaklini aniqlashtirishda va ularning ma'nolarini ochib berishda, shuningdek, og'zaki kommunikatsiyada faolligi hamda kollokvial frazeologik birliklarning semantik o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** kollokvial, subkollokvial, frazeologizm, funksional-stilistik, pragmatik, kommunikativ, eksspressiv, so'zlashuv tili.*

## КОЛЛОКВИАЛЬНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ И ИХ РОЛЬ В РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ

**Аннотация.** В данной статье определено место коллоквиальных фразеологизмов в системе языков и изучена их функционально-стилистическая принадлежность для отбора фразеологических единиц в языках на основе определений лексикографических источников и уточнения коммуникативного статуса исследуемых фразеологизмов. При выяснении внутренней формы коллоквиальных фразеологизмов, выявлении их значений, а также их активности в устном общении был анализ семантической специфики коллоквиальных фразеологизмов.

**Ключевые слова:** коллоквиальный, субколлоквиальный, фразеологизм, функционально-стилистический, прагматический, коммуникативный, экспрессивный, разговорная речь.

### COLLOQUIAL PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR ROLE IN COLLOQUIAL SPEECH

**Annotation.** In this article, the place of colloquial phraseological units in the language system is determined and their functional and stylistic affiliation is studied for the selection of phraseological units in languages based on definitions of lexicographic sources and clarification of the communicative status of the studied phraseological units. When clarifying the internal form of colloquial phraseological units, identifying their meanings, as well as their activity in oral communication, the semantic specificity of colloquial phraseological units was analyzed.

**Key words:** colloquial, subcolloquial, phraseology, functional-stylistic, pragmatic, communicative, expressive, colloquial speech.

#### **O'zMU professori, f.f.d. D.I.Djafarova taqrizi asosida**

**Kirish.** Hozirgi kunda inson hayotini munosabatsiz tasavvur qilish mumkin emas. Bu aloqalarning ortishi, hayotning jadal sur'ati hamda turli xil hayotiy vazifalarni amalga oshirish uchun doimiy o'zaro munosabat istagi bilan bog'liq. Yildan yilga munosabatga ehtiyoj amalga oshirishning ko'pdan ko'p yo'llarini topadi. Bunday ko'lamdagi kommunikatsiya, shak-shubhasiz, munosabatning hozirgi verbal shakliga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, keyingi vaqtda so'zlashuv tilining muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar sonining salmoqli o'sishi kuzatilmoqda. Bu sohadagi ishlanmalarning intensivligi lingvistikada *kollokvialistika* degan shunday yo'nalishning rivojlanishiga olib keldi.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati shunda iboratki, ishda ilgari surilgan va asoslangan xulosalar hamda qoidalar tillarning materiali asosida kollokvial leksikaning, jumladan, frazeologizmlarni hosil qilish, pragmatik nazariya, chog'ishtirma tilshunoslik nazariyasidagi bir qator tushunchalarni aniqlashtirishga ko'maklashadi. Faktik materialning tahlili frazeologizmlarni shakllantirishning va so'zlashuv tilida ishlashining ba'zi bir qonuniyatlarini aniqlashga yordam berdi, bu leksikaning ushbu guruhi tadqiqotining istiqbollarini va yo'llarini aniqlashtirish va chuqurlashtirish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratadi. Olingan natijalar kollokvial frazeologizmlarning funksional o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda bebaho yordam ko'rsatishi, shuningdek, og'zaki kommunikatsiyada pragmatik rakursda frazeologizmlarning keyingi tadqiqotiga va kollokvialistikaga nisbatan ularni qo'llanilishining ancha yaxlit nazariyasini tuzishga ko'maklashishi mumkin. Umuman olganda, kollokvial leksikaning va xususan kollokvial frazeologizmlarning muammolarini ishlab chiqishdagi asosiy yo'nalishlar, ularning nutqiy munosabatdagi o'rni, frazeologizmlarning so'zlashuv tilida ishlashining pragmatik o'zaro munosabatdoshligi qarab chiqiladi.

Tilni harakatda o'rganishning zarurligiga qaramasdan, bu yo'nalish uzoq vaqtgacha faqat og'zaki nutqda qo'llaniladigan konstruksiyalarni namoyish qiluvchi adabiyotlarni yaratishga yoki og'zaki so'zlashuvning va iboralarni belgilashning lug'aviy belgilarini tayyorlashga olib keldi. Tilning kundalik og'zaki munosabat sharoitlarida ishlashining maxsus tadqiqoti yaqinda, o'tgan yuz yillikning 60-yillarining o'rtalaridan boshlandi. Umumnazariy jihatdan, mazkur ish lingvistikaning tadqiqotlariga tayanadi. Xususan, bizing faktik materialni tanlash bo'yicha ishimiz shu bilan osonlashdiki, lingvistikada frazeologizmlarni ajratib olishning va o'rganishning qulay metodlari ishlab chiqilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Lug'at tarkibini pragmatik aspektda, ya'ni, leksik va frazeologik birliklarni munosabatning vaziyatiga va maqsadlariga qarab qo'llashning kommunikativ muvofiqligi (mos kelishi) va mumkinligi, bularga erishishga so'zlovchining intilishi hamda nuqtai nazardan tadqiq qilish tilning tizimini va ishlashini o'rganishda yangi yo'nalishning – pragmatik (kommunikativ) leksikologiyaning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, uning vazifasiga har bir konkret holatda u yoki boshqa leksik va frazeologik birliklarni tanlashga va adekvat qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki qonuniyatlarni ochib berish kiradi.

So'zlashuv tilini hamda til mohiyatlarini pragmatik o'rganib chiqqan tadqiqotchilardan Sharl Balli, Y.M.Skrebnev, V.A.Xomyakov, A.Mamatov, Sh.Safarov, M.Hakimov, A.Ko'chiboev, L.A.Kiseleva, N.D.Arutyunova, L.Kalve, D.Fransua-Jeje, F.Gade, J.-P.Gudaye, P.Giro, I.G.Rey va h.k.



Asrning boshidayoq Sharl Balli so‘zlashuv tilini yoki betakalluf tilni (uning ta‘rifi bo‘yicha – o‘z o‘zidan yuzaga keladigan fikrlarning ifodasini real kundalik hayot bilan bog‘liligi) badiiy tilga taqqoslab ko‘rgan edi, so‘zlashuv tilining asosiy obyekti deb jonli tilni hisoblagandi, modomiki, badiiy adabiyot tilni bilaturib estetik maqsadlarda ishlatadi [1;18-b.]. Balli, uning ortidan Frey, Giro [2;35–38 b.] va boshqalar so‘zlashuv tilini milliy tilning umumiy grammatikasi ichida alohida tizim sifatida qarab chiqish mumkin deb hisobladilar. Bu holat haqiqatan so‘zlashuv tili (tagtil)ni lingvistik tadqiqotning mustaqil obyekti sifatida rasmiylashtiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kollokvial frazeologizmlar va ularning nutqiy munosabatdagi o‘rmini tadqiq qilish jarayonida A.V.Kuninning frazeologik identifikatsiya va frazeologik tahlil metodi, lug‘aviy definitiviyalar va kontekstli tahlil metodlari bilan birgalikdagi komponentli tahlil metodi qo‘llanildi. A.D. Rayxshteyn tomonidan ishlab chiqilgan frazeologik birliklarning qo‘llanilishi hamda stilistik bo‘yoqdorligi haqidagi ma‘lumotlarni aniqlashtirish maqsadida semaviy tahlil metodidan foydalanib, kollokvial frazeologizmlarning semantik strukturasi aniqlandi.

**Tahlil va natijalar.** Y.M.Skrebnevning fikriga ko‘ra, “so‘zlashuv tili – til munosabatidir, uning asosiy va etarli belgisi o‘z ishtirokchilarining tilni bilishlari uchun stilistik talablari rolining ahamiyati yo‘qligi yoki arzimasi hisoblanadi, bu munosabatda nutq muomalasi til normasining masalalariga e‘tiborsizlik bilan xarakterlanadi”, shu bilan birga, u quyidagi spesifik belgilarga ega bo‘ladi: 1) nutq tuzishning og‘zaki xarakteri; 2) turmushga oid tematika; 3) til munosabatining dialogik shakli; 4) ishtirokchilarning nutqdan tashqari faoliyatiga bog‘liqligi; 5) kechiktirib bo‘lmaydigan til reaksiyasiga ehtiyoj tufayli kelib chiqqan spontanlik; 6) emotsional mazmunga boyligi; 7) munosabatning to‘g‘ridan to‘g‘riligi; 8) nutq aktining ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarning norasmiyligi [12;40–45-b.].

Germaniyaning tilshunoslari tomonidan kundalik til adabiy tilning va shevalarning o‘zaro munosabati va o‘zaro bir-biriga ta‘siri jihatidan qarab chiqildi, buning ustiga so‘zlashuv tili adabiy til va sheva o‘rtasida joylashgan tilning qandaydir oraliq bir turi sifatida idrok qilinar edi [4;9–11-b.].

XX asrning 30-yillarigacha Praga maktabi, tilning stilistik stratifikatsiyasi bilan shug‘ullanib, adabiy tilga ommaviy til deb nomlanuvchi tilni qarama-qarshi qo‘ydi, amaliy jihatdan bu termin bilan so‘zlashuv tilini ifodaladi. “Adabiy – ommaviy” tushunchalarini taqqoslashga intilish ba‘zi bir rumin tilchilari uchun ham xarakterlidir. 60-yillar davomida Chexoslovakiyada kollokvialistikaning u yoki boshqa muammolariga bag‘ishlangan bir qator ishlar nashr etildi.

T.G.Popovanning ma‘lumotlariga ko‘ra, garchi ko‘p olimlar hozirgi tilning tarkibida tilshunoslikda har xil ataladigan so‘zlashuv turining mavjudligi haqida bir yoqadan boshqargan bo‘lsalar ham (*spoken variety, conversational variety, colloquial, informal, casual*), lingvistik adabiyotda so‘zlashuv tiliga taalluqli yagona fikr mavjud emas [11;36–37-b.].

Sodda so‘zlashuv tilining differensial belgilariga, shuningdek, uning birliklarini nonormativligi hamda keng tarqalganligini, hamma yerda qo‘llanilishining mavjud emasligini, peyorativ yoki ortiq soddalashtirilgan ekspressiyasini ham kiritishadi [9;343-b.].

Bir tomondan, “sodda so‘zlashuv tili” tushunchasiga haqiqiy sodda so‘zlashuv tili va jargon so‘zlar kiritiladi. Boshqa tomondan, “sodda so‘zlashuv tili” nostandart leksika ostiga ikkita tur terminlari kiritiladi – leksik ekspressiv sodda so‘zlashuv tili (ekspressiv nostandart leksika – “jo‘n (oddiy)” kollokvializmlar, jargonizmlar, slengizmlar) va ijtimoiy-professional sodda so‘zlashuv tili (ijtimoiy-professional nostandart leksika – professional va korporativ jargonlar, tubanlikka tushgan guruhlarining har xil argosi).

Shak-shubhasiz, so‘zlashuv tilining leksik tarkibi stilistik rang-baranglik bilan ajralib turadi. So‘zlashuv tilida neytral so‘zlar aniq ustunlik qiladi, buni ushbu sohadagi tadqiqotlar ham tasdiqlaydi, demak, shunisi bilan so‘zlashuv tili adabiy til bilan o‘xshashdir. So‘zlashuv tilining tadqiqotchisi norasmiy munosabatning leksikasini quyidagicha tasniflaydi: “eng avvalo: 1) umumtil neytral qatlam; 2) so‘zlashuv tus berilgan, “turmush nomenklaturasi” bilan, ya‘ni, rasmiy munosabat uchun dolzarb bo‘lmagan nomlar va kundalik turmushga ixtisoslashgan; 3) so‘zlashuv dubletlari hamda neytral nominatsiyalarning sinonimlari va 4) jonli bir onlik nutqda “muntazam ravishda qo‘llaniladigan leksik vositalarning almashtiruvchisi sifatida jalb qilinadigan “nolug‘aviy” leksik vositalar” [3;9–10-b.]. Shu bilan birga, tadqiqotlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, uchinchi qatlamning ahamiyatsizligida, birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qatlamlarning ustunligi tan olinadi [4; 54-b.]. Biroq ushbu funksional uslubda, shuningdek, jo‘n so‘zlashuv, sodda so‘zlashuv va jargon so‘zlarning ishlatilishlari mumkin, buning ustiga ma‘lum stilistik samaraga erishish uchun kitobiy, ixtisoslashtirilgan terminlar va h.k. uchrashlari mumkin.

Ekspressiv-kollokvial frazeologiyaning tadqiqotchilari uning rang-barangligini ko‘rsatib o‘tadilar. E.A.Petru o‘zining ekspressiv leksemalarning tadqiqotida “sodda so‘zlashuv tili birliklari” terminining

qo'llanilishiga afzallik beradi, unga kollokvial so'zlarni, slengizmlarni, shuningdek, vulgarizmlarni qo'shadi [10;235-b.]. T.A.Dunaevskaya ekspressiv-kollokvial frazeologiyaga quyidagi ta'rifni beradi – "tarixiy jihatdan shakllangan, genetik jihatdan boshqa-boshqa, sodda so'zlashuv tili frazeologiya tizimining nisbatan barqaror qatlami, ikkinchi darajadagi normaga ega bo'lgan va, asosan, hazil aralash-piching bilan aytilgan va betakalluf-masxara qilib aytilgan, kamdan-kam holda, peyorativ xarakterdagi, kundalik muno-sabatning sohalorida hamma yerda qo'llaniladigan jo'n (oddiy) frazeologiyani o'z ichiga olgan" [5 33-b.]. Shunday qilib, mualliflar kollokvializmlar va sodda so'zlashuv tili birliklari o'rtasidagi chegaralarni o'chirib tashlaydilar.

Lingvistik adabiyotda kollokvializmlarning va sodda so'zlashuv tili leksemalarining muammolariga boshqa nuqtai nazar ham mavjud. N.N.Kazayeva va boshqa mualliflar "sodda so'zlashuv tili", "ekspressiv sodda so'zlashuv tili" deb ataydiganlarning o'rniga "subkollokvializm" terminini qo'llashni taklif qiladi [7; 46-47-b.]. Tadqiqotchi oddiylik, ya'ni, jo'nlikning o'rtacha va maksimal darajasidagi so'zlar uchun "subkollokvial FB" terminining ishlatilishini to'g'ri deb hisoblaydi. Agar so'zlovchilar tomonidan tushunilmaydigan kollokvializmlarning jo'nligini, V.D.Devkinning iborasini qo'llab, "sodda" deb atash mumkin bo'lsa, subkollokvial birliklar esa jo'rttaga qilingan jo'nlikni namoyish qiladi. Frazeologizmlarning aynan mana shu qatlamini N.N.Kazayeva, O.S.Axmanovanning izidan borib, haqiqatda "jo'nlantirilgan" deb hisoblaydi [6;7-b.].

N.N.Kazayeva subkollokvial birliklar so'zlashuv tilining emas, balki qandaydir boshqa tagtilning, stilistik ifodalilikka, tegishli samaraga erishish uchun ataylab, fahmlab qilingan maxsus maqsadga ega bo'lgan betakalluf-dag'al so'zlashuv tagtilining leksik yoki frazeologik markerlari hisoblanadi, deb hisoblaydi. Ushbu tagtilning asosiy xarakteristikasi peyorativ yo'nalishdagi emotsionallik hisoblanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'rta darajadagi jo'nlikning leksikasi etarli darajada tarqalgan, tilning adabiy normasiga ega bo'lgan aholining ko'pchiligiga ma'lum va tushunarlidir.

"Sodda so'zlashuv tili" hamda "subkollokvializmlar" terminlarini aniqlashtirar ekan, N.N.Kazayeva birinchisini chalasavod odamlarning noto'g'ri, umummilliy madaniy standartlardan chetga chiqadigan tili deb izohlaydi.

Ayni paytda, subkollokvial leksika va FBlar esa hazil aralash, piching bilan aytilgan, yumoristik, shu bilan birga, nafratni ifodalaydigan va mensimaslik bilan qilinadigan samaraga erishishga yo'naltirilgan so'z va iboralar hisoblanadi..

Bu sohadagi munosabat vaziyatlari bir xil va tipik bo'lmaganidek, norasmiy munosabat sohasida qo'llaniladigan leksika va FB stilistik jihatdan bir xil emas. Munosabatning uchta alohida sohalari ajralib turadi:

1) haqiqiy kollokvial; 2) betakalluf-so'zlashuv; 3) odobsiz-dag'al.

Bu sohalarda uchta har xil "tilga" xizmat qiladi: 1) minimal darajada jo'nlashtirilgan (oddiylashtirilgan) til birliklariga (kollokvializmlar); 2) jo'nlikning o'rta darajasidagi birliklarga (subkollokvializmlar); 3) maksimal darajada jo'nlashtirilgan til birliklariga (vulgarizmlar).

N.N.Kazayevaning fikricha, ko'rsatib o'tilgan leksika va FBning barcha uch qatlamlari, kommunikatsiyaning nomlari tilga olingan alohida shakllari uchun rod tushunchasi sifatida chiqadigan kundalik turmushga oid og'zaki munosabatning leksik fondini tashkil qilib, bir-biri bilan birgalikda harakat qiladi [7; 47-b.].

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, biz kollokvial leksika va frazeologizmlarning quyidagi ta'rifini qabul qildik – bu estetik qadriyatlarining shkalasida bevosita norasmiy munosabatning sohasida ishlaydigan neytral so'zlardan keyin joylashgan, minimal darajada jo'nlashtirilgan birliklardir, shunday mezon o'rganib chiqiladigan faktik materialni tanlab olish uchun qabul qilindi. Biroq, biz, shuningdek, tan olamizki, so'zlashuv tilida haqiqiy kollokvializmlardan tashqari ham sodda so'zlashuv tiliga, jargon, argo hamda slengga tegishli bo'lgan, ham adabiy tilni xarakterlaydigan leksik va frazeologik birliklar ishtirok etgan bo'lishlari mumkin. Shunday qilib, biz kollokvial leksika va frazeologizmlarni tadqiq qilishdagi asosiy yo'nalishlarni qarab chiqdik hamda bu leksik va frazeologik birliklar tilning funksional uslublarini stratifikatsion tizimidagi o'rnini aniqladik. Ishlab chiqilgan konsepsiyalar nuqtayi nazaridan bayon qilingan kollokvial birliklarning nazariy asoslanganligi ushbu ishning yozilishi hamda faktik materialni tanlash uchun asos solishga imkon berdi.

**Xulosa va takliflar.** Kollokvial frazeologizmlar va ularning nutqiy munosabatdagi o'rnini o'rganib chiqib, quyidagi xulosaga kelindi, so'zlashuv tilida tilning vositalarini tejab ishlatishga pragmatik yo'naltirilganlik ilgaridan mavjud bo'lgan birliklarni boshqa predmetlarni va hodisalarni nomlashda butunlay yangi vazifada qo'llashga olib keladi.

Tadqiq qilinayotgan frazeologizmlarning ma'noli qismlarining semantikasi murakkab strukturaga ega hamda bivosita ifodalangan tarzda asoslanganligi, idiomatikligi, o'z ifodasining implitsitligi, tarkiblari-ning ma'nolaridagi semantik siljishlari bilan xarakterlanadi. Tilni pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish – jonli nutqda kechayotgan jarayonlarni interpretatsiya qilishning usullaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Балли Ш. Французская стилистика. М., 1961, 326 с.
- (2). Гиро П. Разделы и направления стилистики, и их проблематика. Новое в зарубежной литературе. М., "Прогресс", 1980, вып. IX, с. 35–68.
- (3). Девкин В.Д. Вовлечение внутренней формы слова в механизм экспрессии и комизма. Лексика и лексикография. Сб. научных трудов, М., 1994, с. 9–19.
- (4). Девкин В.Д. Немецкая разговорная речь: синтаксис и лексика. М., «Международные отношения», 1979, 154 с.
- (5). Дунаевская Т.А. Структурные и семантические особенности экспрессивно-коллоквиальной лексики в современных английском и русском языках. Дисс. ...канд. филол. наук, Череповец, 2005, 33 с.
- (6). Казаева Н.Н. Английская субколлоквиальная лексика. Автореф. дис. ...канд. филол. наук, Одесса, 1983, 7 с.
- (7). Казаева Н.Н. Семантическая стратификация английской субколлоквиальной лексики. Теория и практика лингвистического описания разговорной речи. Горький, 1981, вып. 12, республиканский сборник, с. 47.
- (8). Кунин А.В. О фразеологической номинации. Фразеологическая семантика. Сб. науч. трудов. М., 1983, вып. 211, с. 88–100.
- (9). Миллер А.А. Стилистически сниженная лексика и ее отражение в двуязычных словарях. Дисс. ... канд. филол. наук, Алма-Ата, 1972, 343 с.
- (10). Петру Э.А. Социо-прагматические и структурно-семантические особенности экспрессивной коллоквиальной лексики (на материале английских сложных существительных). Дисс. ...канд. филол. наук, Петру, Пятигорск, 1993, 235 с.
- (11). Попова Т.Г. Коллоквиальные сложные слова английского языка. Дисс. ...канд. филол. наук, М., 1998, 36–37 с.
- (12). Скребнев Ю.М. Введение в коллоквиалистику. Саратов, изд-во Саратовск. ун-та, 1985, 40–45 с.

**Roziqova Sayyora Xabibullayevna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi; e-gmail: sayyoraroziqova0@gmail.com)**

#### **O'ZBEK TILIDA PUNKTUATSIYA VA YOZMA NUTQ MUAMMOLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilidagi tinish belgilari o'rtasidagi sinonimik munosabatlar mavjudligi bayon etilgan, bu bog'lanish matnda birining o'rniga ikkinchisining qo'llanishi orqali sodir bo'ladi. Tinish belgilarining qo'llanish usuli va tartibi, tilning sintaktik tuzilishi bilan uzviy bog'lanishi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolada misollar yordamida boshqa bir tinish belgisi o'rniga boshqasini qo'llash amaliyoti mavjudligini ko'rsatadi, ammo bu amaliyotdan foydalanish har doim ham kutilgan natijani bermaydi.*

***Kalit so'zlar:** tinish belgilari, mantiqiy tamoyil, grammatik tamoyil, diakritik belgilar, differentsiatsiya (farqlash), punktuatsiya.*

**Розикова Сайёра Хабибуллаевна (Институт предпринимательства и педагогики Денова, преподаватель кафедры узбекского языка и литературы)**

#### **ПРОБЛЕМЫ ПУНКТУАЦИИ И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

***Аннотация.** В статье описывается существование синонимической связи между знаками препинания в узбекском языке, причем эта связь происходит посредством употребления одного знака вместо другого в тексте. Обсуждаются способ и порядок использования знаков препинания, целостная связь знаков препинания с синтаксической структурой языка. В данной статье на примерах показано, что существует практика использования одного знака препинания вместо другого, но использование этой практики не всегда дает ожидаемый результат.*

***Ключевые слова:** знаки препинания, логический принцип, грамматический принцип, диакритические знаки, дифференциация (разность), пунктуация.*

**Rozikova Sayyora Khabibullaevna (Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, teacher of the Department of Uzbek Language and Literature)**

#### **PROBLEMS OF PUNCTUATION AND WRITTEN SPEECH UZBEK LANGUAGE**

***Annotation.** The article describes the existence of a synonymous relationship between punctuation marks in the Uzbek language, and this connection occurs through the use of one instead of the other in the*

*text. The method and procedure of using punctuation marks, the integral connection of punctuation marks with the syntactic structure of the language are discussed. This article shows, with examples, that there is a practice of using one punctuation mark instead of another, but using this practice does not always produce the expected result.*

**Key words:** punctuation marks, logical principle, grammatical principle, diacritics, differentiation (difference), punctuation.

**Kirish (Introduction).** Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy ifodalash, uni zichlash, yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy va grammatik bog'lanishlarini ko'rsatish uchun muhim ko'rgazmali vosita sifatida qo'llaniladi. Yozma matn mazmunini, ma'no turlarini, sintaktik qismlarni (tuzilmasini), bu qismlar orasidagi semantik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining ahamiyati katta. Tinish belgilaridan foydalanish qoidalarini mantiqiy-grammatik, uslubiy va farqlash tamoyillari asosida belgilanadi. Tinish belgilari lotincha "punctum" so'zidan olingan bo'lib, nuqta yoki kichik nuqta ma'nosini bildiradi, grafik va orfografiya bilan bir qatorda, yozma tilning muhim tarkibiy qismi bo'lgan alifbodan tashqari belgilar tizimidir. Uning asosiy vazifasi matnni bo'limlarga bo'lish va uni grafik tarzda taqdim etishdir. Tinish belgilari yozma matnda tinish belgilarining qanday rasmiylashtirilishini tartibga soluvchi har bir tilga xos tarixiy qoidalar va me'yorlarni ham o'z ichiga oladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Bugungi o'zbek punktuatsiyasining ravnaqi va barqarorligi S.Ibrohimov, H.G'oziyev, O.Usmon, G'.Abdurahmonov, K.Nazarov va boshqa olimlarning nomi bilan bog'liq. Punktuatsiyaning orfografiya bilan aloqadorligi haqida S.Ibrohimov, H. G'oziyev, O.Usmon, G'.Abdurahmonov kabi tilshunoslrimiz aytib keladi.

Orfografiya so'zlarning to'g'ri yozilishini o'rganib, morfologiya bilan zich joylashsa, punktuatsiya gaplarning to'g'ri tuzilishi, undagi fikrning to'g'ri ifodalanishi uchun xizmat qilib, sintaksis bilan zich bog'lanadi. Masalan, so'roq, undov, nuqta kabi tinish belgilaridan so'ng gapning bosh harf bilan, ikkita nuqta, nuqtali vergullardan keyin gapning, ko'pincha, kichik harf bilan yozilish holatlari punktuatsiya bilan orfografiyaning aloqadorligini ko'rsatuvchi faktordir.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tinish belgilari, bir tomondan, yozuvchiga yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali ifodalash imkoniyatini beradi, ikkinchi tomondan, o'quvchiga yozuvchi tomonidan bildirilgan ma'lum bir matn g'oyasini tushunish imkoniyatini yaratadi. Yozuvchining niyatiga ko'ra tinish belgisini yozuvchi qanday ishlatgan bo'lsa, o'quvchi ham xuddi shunday tushunadi.

Yozma nutqda bu tinish belgisining qo'llanilishi ma'lum bir tizimga asoslanadi. Bu tizim, eng avvalo, o'zbek tilining gap tarkibiga qarab belgilanadi. Chunki "barcha tilni yaratishning mohiyati nutqdadir". (A.A.Shaxmatov). O'zbek tilining grammatik tuzilishi o'zbek tilining mantiqiy-grammatik asosi hisoblanadi. Demak, jarayonda tinish belgilaridan foydalanish yozma nutqning o'ziga xos ilmiy-nazariy va ijtimoiy-amaliy asoslari bor.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tinish belgilari yozishdan maqsadni aniq ifodalash va tushunishni osonlashtirish uchun ishlatiladi. Ular semantik, grammatik, intonatsion munosabatlarni, yozma nutqning sintaktik bo'linishini belgilovchi, uslubiy ravonlikni ta'minlovchi ko'rsatkich va vositalardir.

Tinish belgilari gapning turi, tuzilish xarakteri, emotsional xususiyatlari kabi tomonlarini ifoda maqsadiga muvofiq belgilashda katta ahamiyatga ega. Quyidagi uchta o'xshash gapni grammatik nuqtayi nazardan solishtirsak, tinish belgilarining yozma tilni ifodalashdagi o'rni juda aniq bo'ladi:

1. Paxta rejasi muddatidan oldin bajarildi.
2. Paxta rejasi muddatidan oldin bajarildimi?
3. Paxta rejasi muddatidan oldin bajarildi! Bu jummalarning birinchisi xabar, ikkinchisi so'roq, uchinchisi esa his-tuyg'uni bildiriyapti.

Bunday semantik munosabatlar og'zaki nutqda intonatsiya yordamida ifodalangani, yozma nutqda esa faqat tinish belgilari yordamida ko'rsatiladi. Ko'rinib turibdiki, yozma matndagi ma'no (maqsad)ni tinish belgilari yordamida aniq ifodalash mumkin. Hozirgi kunda tinish belgilarining roli ortib, vazifalari va qamrovi kengaymoqda.

Bu hodisa respublikamizda matbaa, matbaa va noshirlik ishlarining keng rivoji, o'zbek yozma madaniyatining yuksalishi, xalqning savodxonligi va nutqning barcha shakllaridan amaliy faoliyatida foydalana olish ko'nikmasining oshishi, badiiy adabiyot ta'sirining kengayishidir. Til, adabiy tilning funksional uslublarining vujudga kelishi, rivojlanishi va takomillashishi nutq madaniyatining keng miqyosda rivojlanishi va yuksalishi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, tinish belgilarining yozma nutqni ifodalashdagi o'rnini aniqlash nutq madaniyatining, ayniqsa, yozma nutq madaniyatining dolzarb masalalarini hal etish bilan chambarchas bog'liqdir.

Chunki tinish belgilarining qo'llanilishini kishilarning ijtimoiy faoliyatidagi muloqot va o'zaro munosabat shakli bo'lgan yozma nutqdan alohida tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakatimizda davriy matbuotning keng rivoji, ko'p nusxada gazeta va jurnallarning nashr etilishi, ishlab chiqarishning turli sohalariga oid yuzlab kitoblarning nashr etilishi barcha sohalarda yozma nutqning rivojlanishida muhim omil bo'ldi va buning uchun muhim omil bo'ldi. Hammada yozma nutqni rivojlantirishning muhim omili tarmoqlar.

*Aravachimi? Qovunni shu yerga olib boraman. Bilasizmi, u yerda usta To'yo'lat bor. Aravadagi farang ishlayapti. Qovunning puliga aravani tuzatasiz. Egasi hafsalasi pir bo'lmaydi.* Bu matn mantiqiy va grammatik jihatdan etti mustaqil qismga – yetti gapga bo'lingan. Bu parchada nuqta, so'roq va undov belgilarining qo'llanilishidan ko'rinadi. Matndagi so'roq, undov va nuqtalar nafaqat qismlarning tugallanganligini, balki ifoda maqsadini va bu qismlarning emotsional tomonini ham ko'rsatadi. Demak, matndagi savol belgisi, undov belgisi va nuqtalar ikkita asosiy vazifani bajaradi: a) gapni mantiqiy va grammatik jihatdan yakunlash; b) bu gapdagi kuzatiluvchi maqsad va emotsional holatlarni bildiradi. To'rtinchi gapdagi vergul ham mantiqiy-grammatik vazifani bajarsa-da, uning vazifasi so'roq, undov va nuqta vazifalaridan farq qiladi: vergul so'roq, undov va nuqta vazifalaridan farq qiladi.

Yozma nutqda tinish belgilarini qo'llashning barcha funksiyalarini ko'rsatmasdan turib, ularning umumiy tomonlarini va yozish jarayonida eng ko'p uchraydigan holatlarni ta'kidlash bilan cheklanamiz. Tinish belgilari yozma matn mazmunini (ma'nosini, g'oyasini) aniq ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: “Akam qursin... Shahodat!” Qo'ysangchi; qani endi! Birinchi gapda his-hayajon, ikkinchi gapda undov ifodalanadi. Tinish belgilari nafaqat butun gapga xos umumiy semantik munosabatlarni ifodalaydi, balki gap qismlariga xos semantik munosabatlarni ifodalash xususiyatiga ham ega (maqollar). Bu yo'ldan borganimiz – yetdik maqsadimizga, She'riyatimiz yetib yetdi kamolotga.

Bu qo'shma gaplarning birinchisi shart-sharoitni, ikkinchisi qarama-qarshilikni, uchinchisi sabab-natija munosabatini ifodalaydi. Bunda tire murakkab gapni tashkil etuvchi bo'laklar orasidagi turli semantik munosabatlarni (ma'nolarni) ifodalashga qaramay, u bitta sintaktik vazifani – gaplardan birini ikkinchisidan ajratish vazifasini bajaradi. Bitta tinish belgisining bunday turli ma'nolarda qo'llanilishi tinish belgilarining polisemiyasi hisoblanadi. Tinish belgilarining omonimiyasi – bir tinish belgisi turli vazifalarni bajarishi.

Bunday hollarda tinish belgilari birga qo'llaniladi. Bu mustahkam bog'lanishmi, shunday muhabbat?! (F.Usmon). Tinish belgilari bilan gap bo'laklarini bo'lish va ajratish har xil. Bu farq sintaktik munosabatlar, sintaktik-stilistik vaziyat bilan belgilanadi. Masalan, gap boshi va oxiridagi kirish so'z, undov va undov bir (bitta) tinish belgisi bilan ajratiladi; gap o'rtasida bo'lganda esa qo'sh (ikki) tinish belgisi bilan ajratiladi: Nihoyat, Ikees, xalqni hurmat qilishdan boshqa baxtni tasavvur qilish mumkinmi? Yuqoridagi misollarda vergulning bir va qo'shma qo'llanishi ularning vazifasi boshqacha ekanligini anglatmaydi. Vergul ikki xil (birlik va qo'shma) bo'lsa-da, ular bir maqsadni – kirish so'zlarni bosh gapdan ajratish uchun xizmat qiladi. Tinish belgilari gapning boshi va oxirini, gapning ayrim qismlarini ko'rsatish, aniqlik kiritish uchun qo'llaniladi.

Bu funksiya, asosan, qavs va qo'shtirnoq yordamida amalga oshiriladi. Tinish belgilarini vazifasiga qarab farqlaydilar. Masalan: “Nega uyqusiz yashay olmasan?” Ba'zan shunday tuyg'u meni o'rab oladi: “Odamlik abadiydir, boqiydir va senga beparvolik uyqusi kirmasin!” (Muzaffar Turobov). Go'yo. hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilarining asosi mantiqiy-grammatik, sintaktik-stilistik vazifani bajaradi. Tinish belgilarining hajmi, o'rni va tartibini aniqlashda ular ma'lum tilning sintaktik qoidalariga aylantiriladi. Yozma matndagi har bir tinish belgisi muayyan sintaktik va stilistik hodisani aks ettiradi.

**Xulosa (Conclusion).** Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yozma nutqda tinish belgilarining to'g'ri qo'llanilishi adabiy til va nutq madaniyati me'yorlarini takomillashtirish va barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki nutq madaniyati to'g'ri gapirish va yozish san'atidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Знаки препинания в поэзии Чолпона. “Узбекский язык и литература”, 2020, № 4, с. 26–33.
- (2). Основные правила пунктуации узбекского языка. Составители: Н.М.Махмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Махкамов. Ташкент, НМИУ, «Узбекистан», 2015.
- (3). Nurmonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., “Ilm ziyo”, 2013.
- (4). Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., “Talqin”, 2005.
- (5). G'ulomov A. O'zbek tili punktuatsiyasi. “Oqituvchi”, T., 1992.
- (6). Hamrayev M.A. Ona tili. T., 2007.

**Yunusova Baxora Axtamjonovna (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi,  
filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ANAGRAMMA – TIL HODISASI**

**Annotatsiya.** Maqolada anagrammaning tarixi, anagrammalar tilda sintaktik, lingvostilistik va lingvopoetik hodisa ekanligi, anagrammaning turlari va o'zbek tilida elektron anagramma dasturining yaratilganligi, dasturdan foydalanish yo'riqlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** anagramma, kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellekt, kombinatsiya, sintaktik, lingvostilistik, lingvopoetik.

### **АНАГРАММА – ЯЗЫКОВЫЙ ФЕНОМЕН**

**Аннотация.** В статье описывается история анаграммы, то, что анаграммы являются синтаксическим, лингвостилистическим и лингвопоэтическим явлением в языке, виды анаграмм, создание электронной программы анаграмм на узбекском языке, инструкция по использованию программы.

**Ключевые слова:** анаграмма, компьютерная лингвистика, искусственный интеллект, сочетание, синтаксическое, лингвостилистическое, лингвопоэтическое.

### **ANAGRAM IS A LANGUAGE PHENOMENON**

**Annotation.** The article describes the history of anagram, the fact that anagrams are a syntactic, linguostylistic and linguopoetic phenomenon in the language, the types of anagrams, the creation of an electronic anagram program in the Uzbek language, and instructions for using the program.

**Key words:** syntagmatic communication, artificial intelligence, explanatory combinatorial vocabulary, semantic imagination, antropocentric approach, "content-text" model, linguocognitive, paradigmatic unit.

**Kirish.** XVII–XIX asarlarda tabiatshunos olimlar o'z kashfiyotlarini anagrammalar ko'rinishida shifrlashi urf bo'lgan. Bunday anagrammalar ikki ehtiyoj uchun xizmat qilgan: gipotezalarini oxirgi sinovdan o'tkazgunga qadar yashirin tutish va gipoteza tayyor bo'lgach, muallifligini tasdiqlash. Masalan, Galileo Galiley lotincha "Altissimum planetam tergeminum observavi" ("Высочайшую планету тройною наблюдал" ("Men eng baland sayyora uchligini kuzatdim") jumlasini "Smaismmielmerpoetalem mibuvne-nugttaviras" shaklida shifrlagan va uning tarkibida Saturnning yo'ldoshlarini kashf qilganligini aytib o'tgan. Xristian Gyuygens mazkur anagrammani "Окружён кольцом, тонким, плоским, нигде не прилегающим, к эклиптике наклонным//Атрофи halqa bilan o'ralgan, yuqqa, tekis, hech qayerga qo'shni, ekliptikaga moyil" o'qib, Galiley sun'iy yo'ldoshni emas, uning halqalarini ko'rganligini ta'kidlaydi [mirslovarei.com/content\_psy/anagramma-36717.html].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Eng qadimiy dostonlar "Mahabharata" va "Ramayana", "Iliada" va "Odissey"da ham anagrammalar keng qo'llanilishi uchraydi. Bundan tashqari, "Bibliya"da, qadim zamonlarda sehrli qo'shiqlarda, xususan, "Veda"lar matnlarida ham mavjud. Biroq anagrammaning yaratuvchisi eramizdan avvalgi III asrda Qadimgi Yunonistonda yashagan shoir va olim Likopron hisoblanadi. U o'z hurmatini ko'rsatish uchun podshoh va malikalarning ismlarini anagramma qilgan. Vizantiyalik yozuvchi Jon Tsets birinchi anagrammani qirol Ptolemey nomidan yaratgan: Πτολεμαῖος– ἀπό μέλτος, ya'ni "asaldan" [<https://ru.wikipedia.org/wiki>].

O'rta asrlarda magik faoliyatda, keyinchalik, tibbiyotda keng qo'llanila boshlagan. Psixiatr-vrach Chezar Lombrozoning "Geniallik va aqldan ozish" asarida keng qo'llangan [Ломброзо.1892:87].

XX asrning ikkinchi yarmida rus she'riyatida Kedrovning "Допотопные Ев-Ангел-ИЕ" anagrammatik she'rida, 1980-yillarda V.Gershunining she'rlari, Y.Kasyubining "Свалка" (1983), "Астраль" (1986) asarlarida qo'llanila boshladi, ammo olimlar bu adabiy qurilmaning paydo bo'lishini taniqli tilshunos olim Ferdinand de Sossyur hayoti bilan bog'lashadi [Иванов. 1976:251].

Jahon kompyuter lingvistikasida sun'iy intellekt tizimi doirasida PLEO, AIBO, QRIO kabi o'yinchoq-robotlar, Via Voice – nutqni tovush orqali tanish tizimi kabi loyihalar ishlab chiqilgan. Sakrament Text-to-Speech Engine v 2.0 (2002) rus tilidagi nutq sintezi tizimi bo'lib, u Microsoft Speech API (SAPI) 5/1 standartiga to'liq mos keladi, erkak va ayol ovozi matnlarni talaffuz qiladi, foydalanuvchilarning xohishiga ko'ra, intonatsion pauzalar qiladi, nutq temбри va tonini o'zgartiradi.

Tilshunoslikdagi bu masalaga doir ta'riflar va o'zimizning kuzatishlarimizni umumlashtiradigan bo'lsak, anagrammalar tilda sintaktik, lingvostilistik va lingvopoetik hodisa ekanligi ma'lum bo'ldi. Matndagi anagrammaga nutq jarayonida so'z, tovush va bo'g'inlarning so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan

ma'lum bir uslubiy-lingvopoetik maqsadda ongli ravishda ataylab takror qo'llanishi, deb ta'rif berish mumkin. Adabiyotlarda olimlar tomonidan anagrammaning ta'rifi turlicha berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** *Anagramma* (yunoncha *ana* – “trans”+*gamma* “harf”) – ma'lum bir so'z yoki iboraning harf, tovushlarini o'zgartirishdan iborat bo'lgan adabiy usul bo'lib, natijada boshqa yangi so'z yoki ibora hosil qilishdir. Ya'ni, so'zdagi harf yoki tovushlarni boshqa so'z hosil qilish uchun o'zgartirishdir [Ямпольский. 1993:32–54-b.].

Anagrammalar so'zdagi harflarning kombinatsiyasi orqali yangi so'z yasash yoki berilgan harflardan so'z yasashini inobatga olib, ikki turga bo'linadi: *so'zli anagramma* va *harfli anagramma*.

*So'zli anagramma* – mavjud so'zdan harflarni olib tashlamasdan va qo'shmasdan harflarning kombinatsiyasi asosida yangi so'z hosil qilish usuli. Bosh so'z ham hosila so'z ham o'zbek adabiy tili lug'atida bo'lishi lozim. Masalan, bahor – ahbor.

*Harfli anagramma* – betartib berilgan harflarni kombinatsiyalash orqali so'z hosil qilish usuli. Masalan, nataf – vatana.


Bundan tashqari, anagramma hosil qiluvchi so'z matnning tarkibida ishlatilayotgan bo'lsa, u bir necha marta turli shakllarda qatnashishi mumkin, agar matn tarkibida qatnashmayotgan bo'lsa, unda “qismlari” matnga kiritiladi. Anagrammani hosil qilish uchun ijodkor keng so'z boyligiga ega bo'lishi kerak.

Anagramma so'zning asosiy ma'nosi bilan she'rning mazmuni o'rtasida aloqadorlik mavjud emas. She'rdagi so'zlarga urg'uning tushishi, she'r qofiyasi, zarur tovushlarning takrorlanish miqdori, so'zlarning turkumga aloqadorligi ham qat'iy qoidaga bo'ysunmaydi. Shu sababli ham anagrammalar, birinchidan, matnning to'liq shakllanishida faol ishtirok etib, semantik xarakterga ega bo'lgan hodisa sifatida baholanadi. Ikkinchidan, yo tovush, yo vizual shaklga asoslanadi. Demak, anagrammalar badiiy vosita, matnning bog'lovchi vosita sifatida, avvalombor, semantikaga bo'ysunadi va ikkinchidan shakliy tomondan inobatga olinadi. Ma'lumki, biror matndagi nutqiy birliklar ma'lum bir kommunikativ vazifani bajarishi bilan emotsional-ekspressiv vazifani ham ifodalaydi. Chunki so'zlovchi o'z nutqi orqali nafaqat axborot yetkazadi, balki o'z his-tuyg'ularini, munosabatini, kechinmalarini ham ifodalashga ehtiyoj sezadi va shu orqali tinglovchiga ta'sir o'tkazadi. So'zlovchi maqsadini ko'zlagan holda so'zlardagi nutq tovushlarining me'yordagidan cho'zib, orttirib yoki tushirib talaffuz etishi, bir tovush o'rnida boshqasini yoki takror qo'llashi hollari kuza-tiladi. Bu ma'noni kuchaytirish, belgini orttirish, ruhiy holatni yoki o'z munosabatini aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, anagrammalarni badiiy san'at turi sifatida qarash mumkin. Rus tilshunosligida anagrammalarning bir necha turlari keltiriladi: raqamli anagrammalar, harfli anagrammalar, jumboqli anagrammalar, oyna anagrammalar, to'liq bo'lmagan anagrammalar va hokazo.

Agar anagrammaning berilgan ta'rifiga qayta nazar tashlaydigan bo'lsak, matnning ham formal, ham semantik tashkil etadigan usul, matnning asosiy mazmuniga urg'u beradigan tovush yoki bo'g'inlarning takrori, harflarning o'zaro kombinatsiyasi orqali hosil qilinadigan vosita bo'lishi kerak. Shunday ekan, anagrammalar so'z shaklida namoyon bo'lar ekan, matnda so'zlarning tashqi ko'rinishi ham ichki ma'nosi singari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa, uslubiylik, ekspressivlik, ohangdorlik uchun xizmat qiladi. Matndagi ayrim so'z- fikrlarning ajratib berilishi orqali alohida ta'sirchanlikka erishiladi. G'arb ilmiy olamida anagramma tuzish kombinatorik mashqlarning qadimiy turi bo'lib 2000 yildan oshdi. Ulardan, ko'pincha, so'z o'yinlari va topishmoqlar tuzishda ishlatiladi hamda mantiqan fikrlash, mulohaza yuritishga chorlaydi, aqlni charxlaydi. Masalan, *qoramam-oqarmam*. Bunda “q” va “o” harfi, “r” bilan esa “a” harfi kombinatsiya qilinadi va bir-biriga antonim tushunchalar hosil bo'ldi. Harflar kombinatsiyasi natijasida: *latofatli – talofatli, ilg'asam – ilg'amas* va hokazo. Ko'rinadiki, anagrammalarni o'rganish alohida tadqiqot obyekti sanaladi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari asosida anagramma dasturi (sayt: <http://anagramma.uz>) yaratildi. O'zbek tili elektron anagramma dasturining funksiyalari quyidagilardan iborat.

1. Bosh sahifa.
2. Izlash maydoni.
3. Analizator.
4. Foydalanuvchilar yo'riqnomasi.



**Anagramma.uz** – bir soʻzdan soʻzlar hosil qiladigan maxsus veb dastur. Ushbu dastur *Php* va *JavaScript* dasturlash tillari va *MySQL* maʼlumotlar bazasi texnologiyalari yordamida ishlab chiqilgan. Tizimda 2 ta modul mavjud:

Foydalanuvchi modul – tizimning imkoniyatlaridan foydalana oladi. Mazkur modul uch menyudan iborat: soʻzni qism soʻzlarga ajratish; maʼno beradigan qismlarga ajratish; kiritilgan soʻzlarni koʻrish.

Admin moduli – foydalanuvchi modul imkoniyatlari va yangi soʻzlarni qoʻlda kiritish va Excel fayllari orqali yuklay oladi.

Dasturni ishlatish uchun quyidagi havoladan foydalaniladi: <http://anagramma.uz>

1. Dasturning asosiy sahifasi.
2. Maʼnoli soʻzlar sahifasi.
3. Kiritilgan soʻzlar sahifasi.
4. Soʻz kiritish sahifasi.

Xullas, anagrammalar matnda yuqori chastotali boʻlmasa-da, u matnning butun “maydon”ini egalaydi va anagramma hosil qilingan soʻz tovush-harf tarkibini bir necha bor takrorlaydi. Yoki anagramma hosil qilinishi lozim boʻlgan mazmun matnning biror soʻzida jamlanadi (masalan, *saodat* soʻzida – *ado*, *sado*, *odat*, *soat*, *ot*, *sot* kabi soʻzlar yashirin). Yuqorida taʼkidlaganimizdek, anagrammalar formal (koʻpincha diqqat shu jihatga qaratiladi) va semantik (sarlavhadagi mazmun bilan bogʻlanadi) jihatdan hosil qilinadi. Bundan tashqari, matndagi boshqa vosita va belgilar anagramma qilinadigan soʻz bilan chambarchas aloqada boʻladi, shu soʻzga ishora qiladi.

Anagrammalar matn tarkibidagi taqsimlanish qatʼiy qonuniyatga boʻysunadi yoki matn uchun eng muhim boʻlgan gʻoya, mazmunning mohiyatini ochish uchun matnning biror qismidagi elementga diqqat qaratiladi.

**Xulosa va takliflar.** Anagrammalar koʻz oldimizda, avvalo, ona tilimizning keng jabhadagi semantik-uslubiy rang-barangligini matn orqali namoyish qila oladigan imkoniyat sifatida namoyon boʻladi. Buni, birinchi navbatda, matnda koʻpchilik soʻzlarning koʻchma maʼnolarda qoʻllanilib, ularning semantik maʼnosida kengayish roʻy bera borishida kuzatamiz. Yaʼni, biror matn tili shu vosita yordamida umumxalq tilining eng nozik jihatlarini ham yuzaga chiqara oladigan maydonga aylanishi mumkin. Soʻzlar, umuman, til birliklari bunda gʻayriodatiy qurilishlarda qoʻllanilib, masalan, maʼnolar bir-biriga zid, yoki aksincha, maʼnolari bir-biriga yaqin, takror ifodalar ishlatilib, favqulodda original tasvirlar va obrazlar yaratiladi.

Nutqda anagrammalarining qoʻllanilishi, umuman, badiiyatdan, qolaversa, shoir yoki yozuvchining ijodiy mahoratidan kelib chiqadigan zarurat mahsulidir. Shu sababli ham badiiy tasvir vosita sifatida til birliklarini badiiy-estetik maqsadga xizmat qildirishga boʻysundirishi, shu yoʻlda ayrimlarining uslublarga xoslanishi va uslubdagi oʻrnini yana ham mustahkamlashi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- (1). [mirslovarei.com/content\\_psy/anagramma-36717.html](http://mirslovarei.com/content_psy/anagramma-36717.html)
- (2). <https://ru.wikipedia.org/wiki>
- (3). Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство. Архивная копия от 27 февраля 2007 на Wayback Machine/Перевод с 4-го итальянского издания К.Тетюшиновой. М., изд. Ф.Павленкова, 1892, с. 87.
- (4). Иванов В.В. Очерки по истории семиотики в СССР. М., “Наука”, 1976, с. 251.
- (5). Ямпольский М.Б. Память Тиресия. Интертекстуальность и кинематограф. М., «Культура», 1993, с. 32–54.



G'ayipov Dilshod Qadambayevich (Urganch davlat universiteti professori,  
O'zbek filologiyasi fakulteti dekani; [dilshod\\_gayipov@mail.ru](mailto:dilshod_gayipov@mail.ru))  
AMIRIYNING ZALILIY G'AZALIGA BOG'LAGAN "G'AMINGDIN, EY PARIRUXSORA..."  
DEB BOSHLANUVCHI MUXAMMASI XUSUSIDA

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Umarxon Amiriyning Muhammad Siddiq Zaliliy g'azaliga bog'lagan "G'amingdin, ey pariruxsora..." deb boshlanuvchi muxammasi, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Bu muxammasning turkman shoiri Gurbandurdi Zaliliyga nisbat berilishi xato ekanligi isbotlanadi.

*Kalit so'zlar:* Amiriy, Muhammad Siddiq Zaliliy, Gurbandurdi Zaliliy, g'azal, muxammas, badiiyat, qo'shiqchilik san'ati, ifoda, mahorat.

Гайипов Дилшод Кадамбаевич (профессор Ургенчского государственного университета, декан факультета узбекской филологии; [dilshod\\_gayipov@mail.ru](mailto:dilshod_gayipov@mail.ru))  
О МУХАММАСЕ АМИРИ С АНАФОРЫ «G'AMINGDIN, EY PARIRUXSORA...»,  
ПОСВЯЩЕННОМ ГАЗЕЛИ ЗЕЛИЛИ

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются идейно-художественные особенности мухаммаса Умархана Амири с анафорой «G'amingdin, ey pariruxsora...», посвященном газели Мухаммада Сиддика Зелили. Доказано, что приписывание данного произведения туркменскому поэту Гурбандурды Зелили является ошибкой.

*Ключевые слова:* Амири, Мухаммад Сиддик Зелили, Гурбандурды Зелили, газель, мухаммас, художественность, искусство пения, выражение, мастерство.

Gayipov Dilshod Kadambaevich (Professor of Urganch State University, Dean of the Faculty of Uzbek Philology; [dilshod\\_gayipov@mail.ru](mailto:dilshod_gayipov@mail.ru))

ABOUT MUHAMMAS OF AMIRI WITH THE ANAPHOR "G'AMINGDIN, EY  
PARIRUXSORA...", DEDICATED TO THE GAZELLE OF ZELILI

*Annotation.* In this article, the mukhammas of Umar Khan Amiri's, which begins with "G'amingdin, ey pariruxsora...", which he attached to the gazelle of Muhammad Siddiq Zalili, is discussed, as well as its ideological and artistic features. The attribution of this mukhammas to the Turkmen poet Gurbandurdi Zalili is proved to be a mistake.

*Key words:* Amiri, Muhammad Siddiq Zalili, Gurbandurdi Zalili, gazelle, mukhammas, artistry, singing art, expression, skill.

**Kirish (Introduction).** Adabiyot tarixida bir xil taxallusli shoirlar juda ko'p uchraydi. Jumladan, Navoiy, Mashrab taxallusli o'nlab ijodkorlar borligi ma'lum. Biroq ular iste'dodi darajasi bilan bir-biridan farq qilgan. Ushbu maqolani yozishimizga sabab, Zaliliy taxallusli ikki ulug' shoir yashaganligi va ularning iste'dod darajasi ham bir-biridan kam emasligidadir. Ikkinchi bir sabab shuki, Xorazm san'ati gultojiga aylangan "G'amingdin, ey pariruxsora..." deb boshlanuvchi qo'shiq muallifi shinavandalar, muxlislar tomonidan chalkashtirib yuborilishidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Birinchi Zaliliy taxallusi bilan ijod qilgan shoir uyg'ur adabiyotining iste'dodli vakili Muhammad Siddiq Zaliliydir. Po'latjon Qayumiy "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" asarida "Bu shoir Qoraxoniylarning Sharqiy Turkistondan to Buxoroga qadar istilo qilgan va rivojlangan davridagi shoirlardan. Mashhur Sulton Satug' Bug'roxon (998–1049-yillar) davrida uning shoiri bo'lganligi ba'zi she'rlaridan bilinib turadi" [1], deb yozgandi.

O'zbek milliy ensiklopediyasi 3-jildida: "Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida nom qoldirgan yana bir "Zaliliy" taxallusli shoir bo'lib, uning ismi Muhammad Sodik, taxminan, 1674-yilda tug'ilgan, uyg'ur mumtoz adabiyoti namoyandasi. Vafoti sanasi noma'lum. Bitta she'riy to'plami saqlanib qolgan. Turkiy tilda g'azal, qasida, muxammas, mustahzod va ruboiylar, "Safarnoma", "Tazkirayi chiston", "Tazkirayi Muhammad Sharif Buzurgvor" asarlarini yozgan" [2], degan ma'lumot keltirilgan. Taniqli adabiyotshunos O.Jo'raboyev va Muhammad Siddiq Zaliliy haqida maxsus tadqiqot ishlari olib borgan T.Qurbonov [3] Zaliliyning XI asr shoiri sifatida keltiradi. Bizningcha ham, Muhammad Siddiq Zaliliy XI asrda yashab ijod etgan. Biz fikrlarimizni Amiriyning Zaliliy g'azaliga bog'lagan muxammasi tahlili jarayonida ham isbotlashga harakat qilamiz.

Yana bir Zaliliy taxallusli shoir turkman adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Gurbandurdi Zaliliydir. Taniqli adabiyotshunos G'.Murodov yozadi: "Zaliliy, taxminan, 1779/1780–1846/1848-yillarda

yashab o'tgan, turkman yozma she'riyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilgan olovnafas ijodkordir" [3].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Gurbandurdi Zaliliy Maxtumqulining jiyani bo'lib, Xurmo ismli singlisining farzandidir. U turkmanlarning go'klang toifasidan hisoblanadi. Zaliliy iste'dodli shoir bo'lib, uning she'rlarini buxorolik ijodkor Jumanazar Qurboniy (Do'liyev) o'zbek tiliga tarjima qilgan. She'rlarini "Parvona qilmishdir mani" nomi bilan kitob holda 2018-yilda nashr ettirgan. Biz quyida tahlilga tortgan she'r Muhammad Siddiq Zaliliy g'azaliga Amiriy tomonidan bog'langan muxammasdir. "G'amingdin, ey pariruxsora..." deb boshlanuvchi muxammas adabiyotshunos Z.Qobilova [4], N.Jumaxoja va I.Adizova [5] tomonidan qisman tahlilga tortilgan. Bizning ham bu muxammas tahliliga murojaat qilishimizning sababi maqola boshida keltirildi.

Muxammas shunday boshlanadi:

*G'amingdin, ey pariruxsora, joni notavonim bor,  
Qilurg'a rangi hijroning qilichin qatra qonim bor,  
Firoqing bog'ida bulbul kabi ming dostonim bor.  
Yuzingni ko'rgoch, ey guluzorim, yuz figonim bor,  
Jahon bog'ida istarman sani to tanda jonim bor.* [6]

Zaliliyning ishqiy mavzudagi g'azaliga Amiriy badiiyat jihatdan mukammal muxammas bog'lagan. Muhammad Siddiq Zaliliy gul yuzlining chehrasini ko'rib, yuz fig'oni borligini, to tanida joni borki, jahon bog'ida uni istashini go'zal tarzda, "yuz" so'zini tajnis sifatida ham chehra, ham son, miqdor ma'nosida qo'llash bilan an'anaviy tarzda ifodalagan. Amiriy esa pariruxsorga murojaat qilar ekan, uning g'amida chorasiz joni, ayriligi qilichida qatra qoni, firoqi bog'ida esa bulbul kabi ming dostoni borligini qo'shimcha qilganki, Zaliliy matla'siga Amiriy misralari go'zallik baxsh etgan.

Bu muxammas yuqorida ta'kidlanganidek, xorazmlik san'atkorlar tomonidan suvoralariga savt sifatida ijro etilgan. Matn musiqaga juda mos tushganki, chinakam ma'noda oshiqning dil izhori sifatida yang-raydi. Ba'zi san'atkorlar birinchi bandning to'rtinchi misrasidagi yuz so'zini ming, deya aytishadi. Bu noto'g'ridir. Asl manbaga nisbatan ham, mazmun-mohiyat nuqtayi nazaridan ham. Shoir bu misrada tajnis she'riy san'atidan foydalangan. Yuz so'zini chehra, miqdor son ma'nosida qo'llab, o'z san'atkorligini namoyon qilgan.

Muxammasning ikkinchi bandida tasvir yana ham jonlanadi:

*Tutoshdi ishq o'ti ko'nglim aro, tadbir etolmayman,  
Guli serobi ruxsoring ango tasvir etolmayman,  
Muhabbat shavqini jon o'rtanur, takrir etolmayman,  
Junun maktubining mazmuni taqrir etolmayman.  
Eshitgon xalq yig'lar, shu'layi tiyg'i zabonim bor.* (6;412-b.)

Lirik qahramon ko'ngliga ishq olovi tutashganidan yozg'iradiki, bunga hech tadbir etolmasligini, ko'ngliga "guli serobi ruxsorini" tasvir qila olmasligini, joni o'rtanadiki, azoblanadiki, muhabbat sharhini tahriray olmasligini zorlanib bayon qiladi. Keyingi ikki misrada so'z jununlik haqida ketadi. Oshiq endi majnunga aylangan. U o'zidan ketgan. Oshiqqa jazba tekkan. U junun maktubini taqrir qila olmaydi, ahvolini eshitgan xalq yig'laydi, hatto tilining tig'ining shu'lasini bor.

Keyingi bandda ishq ko'chasiga qadam qo'yanlar afsona bo'lishi, parilar bilan suhbat qurganlar o'zdan ketib, devona bo'lishi, yorning g'amini istaganlar begona bo'lishi-yu, junun shahri oxir-oqibatda vayrona bo'lishi tajohuli orifona san'atiga qurilgan. Bu holdan oshiqning ko'zdagi yoshlari daryoga mengzaladi. Har tomonga ravon oqadigan suvlari borligidan lirik qahramon zorlanadi:

*Qadam urg'on muhabbat ko'yiga afsona bo'lmasmu?!  
Parilar birla suhbat aylagon devona bo'lmasmu?!  
G'ami yor istagon ag'yordan begona bo'lmasmu?!  
Junun shahri sarosar oqibat vayrona bo'lmasmu?!  
Ko'zim yoshi chu daryo, har taraf obi ravonim bor.* [6;412-b.]

Navbatdagi bandni muxammasning avj nuqtasi deyish o'rinni. Chunki undagi tasvir, ifoda, mazmun-mohiyat shunday deyishga asos beradi:

*Pariruxsorlar yuzini moh derman, ayb qilmanglar,  
Sihi qadlar g'amidin oh derman, ayb qilmanglar,  
Harimi dilni Baytulloh derman, ayb qilmanglar,  
Ko'ngulni poytaxti shoh derman, ayb qilmanglar,  
Vujudim shahrida lashkarkashi sohibqironim bor.*

Ba'zi san'atkorlar qo'shiqqa solingan ushbu she'rni kuylash jarayonida ikkinchi misradagi "sihi" so'zini "shahi", deya qo'pol xatoga yo'l qo'yishgan. Bu o'rinda shoir yorning tik qaddini sihi qad, deya ta'riflaydi.

Yuqorida baytni adabiyotshunoslar N.Jumaxo'ja, I.Adizovalar maromiga yetkazib tahlil qilishgan. Ular yozadi: "Zaliliy g'azalidagi ma'no ramziylikka ega. Amiriy ana shu murakkablikni o'z misralari bilan oydinlashtirib yuboradi. U orqali xosga ham, avomga ham birday anglash imkoniyatini yaratadi. Oy yuzli pariruxsorlar haqida so'zlab kelib, ishq manzili dilni Ollohning uyi, Olloh makon tutadigan manzil, deb e'lon etadi. Bu lirik qahramonning vujudni bir shahar bilib, ko'ngilni uni boshqaruvchi zo'r podshohga mengzashiga mutanosib tushadi" [5;257-b.].

Muxammasning oxirgi bandi quyidagicha:

*Amiro, manga o'xshab g'amda mu'tod o'lmag'il hargiz,*

*Asiri jilvayi ul sarvi ozod o'lmag'il hargiz,*

*Mani mahzun topib, ey ishq, jallod o'lmag'il hargiz,*

*Yiqildi deb Zaliliyni, aduv, shod o'lmag'il hargiz,*

*Madadkorim maning Sulton Sutuqi Bug'roxonim bor.* [6;412-b.]

So'nggi baytda Amiriy o'z-o'ziga murojaat qiladi. O'ziga o'xshab hargiz g'amda qolishga odatlanmaslikni, u sarvmonandning jilvalariga asir bo'lmaslikni so'raydi. Ishqqa jallod bo'lmaslikni uqdiradi. Zaliliy dushmaniga murojaat etar ekan, meni yiqildi deya, shod bo'lma, chunki menga madadkor bo'ladigan Sulton Sutuq Bug'roxon podshohim bor, deydi. Bu misralar hukmdorga madhiya bo'lish bilan bir qatorda, bir qancha masalalarga oydinlik kiritadi. Birinchidan, shoir Zaliliyning yashagan davrini oydinlashtiradi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Demak, Zaliliy Sulton Sutuq Bug'roxon davrida, 998 - 1048-yillarda yashagan. Yoki zamondosh. Ikkinchidan, ba'zi tadqiqotchilar, qo'shiq muxlislari muxammasga asos bo'lgan g'azalni turkman shoiri Zaliliyga nisbat beradilar. Bu yanglish fikr ekanligini she'rning matni, keltirilgan hukmdor nomi ham tasdiqlaydi. Uchinchidan, ba'zi san'atkorlar Bug'roxonim bor birikmasini Zuhraxonim bor, deya noto'g'ri kuylashadi. Mana shu xatolik ham g'azalning muallifi borasidagi chalkashlikni keltirib chiqargan. Asl matnda Zuhraxonim bor emas, Bug'roxonim bor, deya yozilgan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xullas, Amiriyning Zaliliy g'azaliga bog'langan bu muxammasi tasvir, ifoda, mazmun-mohiyatda o'ziga xos she'rlardandir. Muxammas har ikkala ijodkorning badiiy mahorati yuksak ekanligini isbotlaydi. Mazkur muxammas asosida yaratilgan qo'shiq esa o'zbek san'atining nodir namunasiga aylangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlarning ro'yxati:

- (1). Qayyumov P. Tazkurayi Qayyumiy. Uch kitobdan iborat. 1-kitob, Toshkent, 1998, 79–86-betlar.
- (2). O'zbek milliy ensiklopediyasi. 3-jild, Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 704-bet.
- (3). Murodov G'. Zaliliy: biografiya va badiiy ijod. "So'z san'ati", 2018, 4-son, 70–77-betlar.
- (4). Qobilova Z. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik (Amiriy she'riyati misolida). T., "Turon-iqbol", 2021, 96-bet.
- (5). Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI – XIX asrning birinchi yarmi). Darslik, Toshkent, "Noshir", 2019, 256 – 258-betlar.
- (6). Amiriy. Devon. 1-jild, Nashrga tayyorlovchilar: A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov. T., "Tamaddun", 2017, 412-bet.

#### Xolmurodov Abduhamid (NavDPI professori, filologiya fanlari doktori) SHE'RIYATNING YANGICHA TALQINLARI

*Annotatsiya.* Maqolada munaqqid I.G'aniyevning Rauf Parfi O'z turk ijodini tadqiq etishdagi mahorati, shoir fenomenini kashf etishdagi izlanishlari va tadqiqot natijalariga munosabat bildirilgan. Rauf Parfi ijodini o'rganish bo'yicha salmoqli ilmiy ish amalga oshirilganligiga alohida urg'u berilgan.

*Kalit so'zlar:* ijod, tagma'no, ishora, ramz, belgi, modernizm, she'r, satr, misra, badiiylik, obraz, talqin.

#### Холмуродов Абдухамид (профессор НавДПИ, доктор филологических наук) НОВЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПОЭЗИИ

*Аннотация.* В статье идёт речь о мастерстве литературоведа И.Ганиева по исследованию творчества Рауфа Парфи Узтурка, об открытии феномена поэта, выясняется отношение автора

к проведенным исследованиям. Делается ударение на факт осуществления большой научной работы по творчеству Рауфа Парфи.

**Ключевые слова:** творчество, подстрочная мысль, намеки, символ, знак, модернизм, стихотворение, строк, рифмы, художественность, образ, изображение.

**Kholmurodov Abduhamid (Professor of NavDPI, doctor of philology)**

### NEW INTERPRETATIONS OF POETRY

**Annotation.** In the article, critic I.Ganiyev's skill in researching the work of Rauf Parfi Ozturk, his search for the discovery of the poet's phenomenon, and his reaction to the research results were expressed. A special emphasis was placed on the fact that significant scientific work has been carried out on the study of Rauf Parfi's work.

**Key words:** creation, meaning, sign, symbol, sign, modernism, poem, line, verse, artistry, image, interpretation.

**Kirish.** Har bir shoir, chinakam ijodkor sir, qalbida xazina yashirib yurgan, uni qiynalib, azob chekib, mashaqqatlar bilan yuzaga chiqaradigan, so'z, obraz, til qudrati bilan mo'jizalar yaratadigan xazinabon. Shuning uchun adabiyotda chuqur iz qoldirgan, adabiy tamoyillar, ijodiy mezonlar va meyorlarni buzib, zamon va makonni, har qanday adabiy to'dani lolu hayron etgan, o'lehov va baholarga sig'maydigan shoir yoki yozuvchi ijodi sirlar dunyosidir va u kitobxon, muhib, adabiyot ilmi zahmatkashlari tomonidan zabt etilishi talab etiladi. Jahon adabiyotining Gyote, Stendal, Jon Golsuorsi, E.Xeminguey, L.N.Tolstoy, Navoiy, Nizomiy, Fuzuliy singari daho san'atkorlari ijodini bugungi kitobxon tushunib yetishi, ulardagi so'z qudratini his etishlari uchun ularning sirlar dunyosiga qadam qo'yish va bu sirlarni o'zlashtirish, kashf etish iqtidoriga ega bo'lish lozim. Herman Hesse yuksak darajadagi qiroatxonlikka faqatgina durdona asarlar o'qish orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Durdona asarlar oson tushuniladigan emas, balki o'tkir aql-farosatni talab etadi. "Ular o'zlariga jiddiy munosabatda bo'lishni talab qilishadi, ular o'zlarining fath etilishini istaydi" [1;32-b.]. Afsuski, bizda ham yengil-yelpi asarlar bilan kifoyalanib qo'yadigan, aql-farosat, badiiy idrok talab qiladigan asarlarga tishi o'tmaydigan kitobxonlar ham ko'p. "Durdona bizga munosib ekanlarini namoyish etishlaridan oldin biz o'zimiz ularga munosib ekanimizni namoyon etmog'i-miz zarur", deydi Herman Hesse [1;32-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ushbu maqolani yozishda atoqli adabiyotshunos olimlar I. G'aniyev, Sh.Otabeklarning nazariy qarashlariga, internet saytlarida mavzuyimizga dahldor fikrlarga, R. Parfi she'riy to'plamlariga, jahon adabiyotining mashhur yozuvchi va tanqidchisi H.Hesse mulohazalariga e'tibor qaratildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanib, ilmiy ma'ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Modernizm tushunchasi biz uchun yot va sirli emas. Alisher Navoiydan boshlab bugungi kungacha o'zbek adabiyotida yaratilgan durdona asarlar orasida ong osti oqimi yordamida anglanadigan, idrok etiladigan badiiy tafakkur namunalari ko'p. O'zbek she'riyatida bu sifat o'zgarishi Rauf Parfi O'zturk ijodi bilan bog'lanadi va talqin etib kelinadi. Bugungi kunda shoir ijodi o'zbek she'riyatida fenomen hodisa ekanligi, uning badiiy qudrati, poetik sarhadlari nihoyatda keng va ko'lamdor ekanligi ilmiy tadqiqotlar orqali ochib berilmoqda. "Rauf Parfi uslubidagi betakror ohang, ichki mukammallik, fikr, rang va hissiyotning o'ta quyuqligi uning ijodiga alohida fayz, fusun baxsh etib, she'riyatini chinakam, san'at darajasiga ko'taradi" [3;106-b.]. Zahmatkash va sermahsul munaqqid Ilhom G'aniyevning "Rauf Parfi O'zturk dunyosi" fundamental tadqiqoti ana shu ezgu ishni amalga oshirish yo'lida qilingan ulkan sa'y-harakatdir.

"Rauf Parfi O'zturk dunyosi" kitobi muallifi shoirning shakllanishi, ijodida isyonkorlik, haqparastlik, milliy g'urur, teran falsafiylik ildizlari avlod-ajdodlaridan o'tganligini ta'kidlaydi. Shoirning otasi Parfi Muhammad Amin fors-tojik, usmonli turk, rus tillarini bilgan ziyoli kishi bo'lgan. Ammo qatag'onlardan jon saqlash uchun u o'zi haqidagi barcha hujjatlar va ma'lumotnomalarga o'zini savodsiz deb ko'rsatgan. Katta bobosi Muhammad Rasul Farg'oniy Imom Shomil qo'shiniga yordamga ketayotganlar bilan qo'shilib, rus qo'shinlari bilan kurashish uchun jangga ketgan. Otasining do'sti Abdurahmon Vodiliy uning shoir bo'lib shakllanishida, ilk ijodidan boshlab isyonkorlik, erk va ozodlikka intilish tuyg'ularining baralla yan-grashiga katta ta'sir ko'rsatgan. Erkinlik, hurlikka erishish uchun o'zini kurashga bag'ishlash uning qonida, zoti-zurriyatida bo'lganligidan xabardor bo'lish o'zbek adabiyotidagi bu noyob fenomenni anglash, ijodiga xolis baho bera bilishda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Ilhom G'aniyev buni obdon o'rgangan va shu sababli shoirning har bir she'rini tahlil qilganida xalq va millat erki uchun fidoyilik, jasorat, kurashchanlik manbalarini, erkin ruh mavjlarining ildizlarini to'g'ri ko'rsatib bera olgan.

**Tahlil va natijalar.** Munaqqidni lol qoldirgan, hayajon va hayratga solgan she'r hajman kattaroq bo'lib, har bandi olti misradan iborat bo'lib, bandning so'nggi misrasi "Assalomu alaykum dorning og'ochi" deb tugallanadi. Bu "Kuntug'mish" dostoni qahramonining dorga qarata aytgan murojaati. She'rdan g'oyat mutaassir bo'lgan yosh olim she'ri ko'chirib olib, unga "Fig'on" deb sarlavha qo'yadi va barcha talabalarga yod olishni, she'ning har bir misrasida ifodalangan mazmunni o'rganishni, har bir so'z ustida bosh qotirish, mulohaza yuritishni topshiradi. Yosh olimni hayratga solgan, shoirga ixlosini yanada oshirgan she'rga qaytsak. Hali sho'ro siyosati hukmron bo'lgan, tanazzulga yuz tutayotgan imperiyaning zulmi yanada kuchayayotgan bir paytda yozilgan va erk va ozodlikka tashna talabalarga o'qib berilgan bu she'r 2013 yili chop etilgan shoirning "Saylanma" siga "Akif Bag'irga" sarlavhasi ostida kiritilgan. Bu ishni bajargan Sanjar Nazar va Abdulkarim Bahriddinni chinakam jasorat ko'rsatganliklarini qayd etadi. She'r shunday boshlanadi:

*Ko'nglim qorong'idir, tevarak tutun,  
Yolg'iz boshim uzra uvillar shamol.  
Ko'zlarimni g'ajir allaqanday tun,  
Sen kimsan, nimsan, sen kimning boji?!*  
*Aqlimni g'ijimlar yalang'och savol—  
Assalomu alaykum, dorning og'ochi.*<sup>1</sup> [2;18–19-b.]

Munaqqidning she'rdan olgan tassurotlari, hayajonlarini shunchaki qayd etib bo'lmaydi. Bu taassurotlar va hayajonlar po'rtnasi xuddi she'ning har bir misrasidagi "toshlarni yoradigan" (Sh.Rahmon) sehriga so'zlardek yuraklarni titratadi. Ba'zi so'z va iboralar iqtibos keltirilayotganda muallif tomonidan kursivda quyuq rangda berilgan. "Ko'nglim qorong'idir", "uvillar shamol", "ko'zlarimni g'ajir", "Aqlimni g'ijimlar yalang'och savol—Assalomu alaykum, dorning og'ochi" kabilar haqida chuqurroq o'ylashni, bu so'zlar nimaga ishora qilayotgani, tagma'nolarda qanday ma'nolar yashirilib yotganini ko'rish, his etishga undaydi. Xuddi shunday she'ning keyingi bandlari misralari ham ana shunday tahlil va tadqiq etiladi. Bu tahlil va tadqiq, shular asosida bildirilgan fikr-mulohazalarni o'qib, shoirni o'zingizga qayta kashf etasiz.

"Men bu she'ri, deb yozadi munaqqid, —minglab nusxa ko'paytirganda so'nggi misra-na'radan so'ng o'zim uchta undov ham qo'ygandim. Shahobiddin O'rinov degan iste'dodli shogirdim undov yoniga yana uchta nol-u bitta bir (0001) qo'yib qo'yibdi. Men yuragim to'lib ketib, bu alam va izzat to'la she'r belgilarini darsda 120 talabaga ko'rsatib, hammani jo'r qilib shu munajatni o'qitdim. Bu nihoyatda baxtli, tozarish onlari edi" [2;24-b.].

Rauf Parfida har bir so'z ulkan ma'no yukiga ega. Unda biror so'z behuda qo'llanmaydi. Uch misradan iborat she'r, undagi har bir so'z jiddiy o'ylashga, qanday ma'noni yashirgani, nimani anglash mumkinligiga odamni majbur qiladi. Bu she'r uzoq 1964-yilda, shoirning endi shakllanayotgan paytida yaratilgan. Mana o'sha she'r:

*Tong-sahardan o'tiribsan daryo bo'yida,  
Bir fikrga kelmadingmi? Ayt. Ayt.  
Yo'qsa kech bo'ladi, quyosh so'nadi hozir* [2;36-b.]

Daryo bo'yida nega o'tiribdi, nima demoqchi, "bir fikr" qanday fikr u? Nega uni aytmasa kech bo'lishi, quyosh botib ketishidan ogohlantiryapti? Bunday savollar quyilib kelaveradi, ammo javob topish mushkul. Ko'proq o'ylash, ko'proq mulohaza yuritish, har bir so'z tagma'nolari haqida chuqur va uzoq xayol surish lozim.

Shu savollarni bergan munaqqid sizni ham xayolga cho'mishga, o'ylashga, mulohaza yuritishga majbur qiladi. Rost, uch misragina she'rda shoir nima demoqchi? Bu dunyoga kelib, avlodlarga o'z aytar so'zi, fikri yo'q, aniq bir a'moli bo'lmagan insonlar haqida so'z boryaptimikin, degan mulohazaga boradi. Daryodagi bu sifatlar, xususiyatlar uni keng miqyoslarda mushohada yuritishga, xayol ufqlarini yanada kengaytirishga undaydi va uch misradangina iborat she'rdagi sirlar dunyosini ko'zingiz oldida ochishga harakat qiladi:

"Ha, shu daryo so'zida ochqich, belgi, kod borga o'xshaydi. Yana shoir "o'tiribsan" deb meyoriy adabiy tildagi so'zni emas, atayin "o'tiribsan" deydi, ikkinchi so'z ohangida bemalollik, emin-erkinlik, ozgina holsiz, tushkunlik ruhi ustuvor. Chunki daryo—olamning bir bo'lagi doimiy harakat—kurashda, abadiy o'zini namoyish etish—yer, nabotot, hayvonot, odamga hayot, rizq, farovonlik berish bilan qadrli, e'zozda. Suv mangu tiriklik ramzi. Inson ham harakat qilmas ekan, yashashga haqsiz, halokatga mahkum. Odam

<sup>1</sup>G'aniyev Ilhom. Rauf Parfi O'zturk dunyosi, "Muharrir", Toshkent, 2021, 18–19-betlar (Keyingi iqtiboslar ham shu kitobdan olinadi va faqat bet ko'rsatiladi).

dunyoga keldimi, “Bir fikr”ni aytib ketishi, o‘zligini, bunyodkorligini namoyish qilsagina, u mukarram, sharaf.

Takror shoir ijodida san’at darajasiga ko‘tarilgan. Takror shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrning eng asosiy mag‘zini she’rxon shuuriga singdirishning bir vositasi. Takrorlanayotgan so‘z ko‘p hollarda obrazning xarakterli qirrasini, obrazni kishi ko‘z oldida jonlantiruvchi vazifani bajaradi. Mana shunday holat:

*Daf’atan yomg’ir yog’ar,  
Tinar Daf’atan.  
Daf’atan yer yiqilib tushsa.  
Nahot shu qadar dushman  
Daf’atan so‘zi? [2;144-b.]*

Munaqqid bu misralardagi so‘zlarni bir-bir “yorib”, ularda yashirinib yotgan shirani sizga tutadi. Bu shunday shiraki, butun vujudingizga yoyilib, jimirlatadi, junjiktiradi, titratadi.

“Birdan yomg’ir yog’ar”—bu mustabid tuzumdagi o‘zgarib turgan mafkuraviy tuturuqsiz iqlim-siyosat—“tinar birdan”—ya’ni ishonib bo‘lmaydi, sobit biror narsa yo‘q. Go‘yo zulm zanjirlari bo‘shasa, ozgina nur—hur fikr yoritsa, go‘yo imperiya uchun “Daf’atan yer yiqilib tushsa”, bu o‘zbekona fikr tarziga ham sal yot gap tuzilishi? Nega? Atay, jo‘rttaga fikr, istehzoni kuchaytirish uchun sarfi nahv o‘zgartirilgan. Aslida, bu yolg‘on vahm, zulm—istibdod vasvasasidan go‘yo Daf’atan yer to‘ntarilib ketganday tuyuladi zolimlarga, demoqchi. Bu yashirin kinoya fikrga keyingi satr ochqich, izohdek: “Nahot shu qadar dushman”. Bu imperiya rahnamolarining “Kim biz bilan teng emas, o‘sha qattol dushman” degan aqidasi eslatadi. Zulm ustiga qurilgan nahs saltanat daf’atan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalardan olovdan qo‘rqqandek qochadi. Imperiya(lar)ning yagona dushmani daf’atan, qo‘qqisdan, kutilmaganda sodir bo‘lishi mumkin(aslida, muqarrar) bo‘lgan milliy erk, ozodlik uchun kurash, isyonlar” [2;56–57-b.].

Fikrimizni asoslash uchun keltirilgan bu iqtibos munaqqidning shoir asarlarini uzoq vaqt chin ixlos bilan mutolaa qilganligini, birgina so‘z, ibora, tashbeh va istioralar vositasida berilgan fikrning o‘nlab ma’nolarini kashf etganligi, shoir ijodi sir-sinoatga to‘la bebaho xazina ekanligini isbotlashga xayrli sa’y-harakat qilganligini ko‘rsatadi. Katta salmoqqa ega tadqiqotda muallif sevimli shoirning yuzdan ortiq she’rlarini tahlil etadi, badiiy saviyasi, til imkoniyatlaridan mohirona foydalanish, she’riy san’atlarning har bir she’rga joziba, go‘zallik, nafosat bag‘ishlaganligini tadqiq etgan va shu bilan chinakam xalq shoiri Rauf Parfi fenomeni mohiyatini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan.

Shoirning “Sabr daraxti” to‘plamiga so‘zboshi yozgan Asqad Muxtor Rauf Parfi ijodiga, uning shoirlik iste’dodiga katta baho berdi. I.G‘aniyev bu she’rni to‘liq keltirib, har bir misradagi ma’no va tagma’-nolarni atroflicha tahlil qilib chiqqan.

*Vido tabassumli olam—yoshligim,  
Ko‘zlarimda qotgan jolam—yoshligim.  
Ko‘klarga yetmagan nolam—yoshligim,  
Suvga cho‘kib ketgan bolam—yoshligim,  
Vido tabassumli olam—yoshligim. [2;348-b.]*

Bu misralardagi har bir so‘z ulkan ma’no tashiydi, har bir so‘z shu qadar o‘z o‘rniga tushganki, birortasining joyini o‘zgartirib ham, boshqa bir so‘z bilan almashtirib ham bo‘lmaydi.

Shavkat Rahmon, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor, shuningdek, Xurshid Davron, Usmon Azimning ba’zi she’rlarini tushunish, tagma’nolarda ifodalangan fikrlarni anglash ancha-muncha zukkolikni talab etadi. Rauf Parfi esa o‘zi bir olam. Munaqqid Ilhom G‘aniyev shoir asarlarini o‘rganish, tahlil etishga bag‘ishlab shunday ulkan tadqiqot yaratibdikini, bu adabiyotshunosligimizda alohida e’tirof etiladigan adabiy hodisadir. Kitobga kiritilgan “Sharq taqvimi bo‘yicha yaratilgan she’rlar”, “Rauf Parfi O‘zturk she’rlarida qo‘llangan badiiy san’atlar” ilovalari munaqqidning shoir ijodini o‘rganish yo‘lida ulkan izlanishlar olib borganligini, katta zahmat chekkanligini tasdiqlaydi. Shoir asarlarida qo‘llangan 17 ta lafziy san’atlar, 28 ta ma’naviy san’atlar, 5 ta ma’naviy-lafziy san’atlar qo‘llangani, ular qaysi asarlarda uchrashi aniq ko‘rsatib berilgan.

**Xulosa va takliflar.** Rauf Parfi O‘zturk she’riyati—sirlar dunyosi. Zahmatkash olim Ilhom G‘aniyev siz-u bizni ana shu sirlar dunyosiga sayohatga boshlaydi. Bu sayohat shu qadar dilkash, sururli, zavqli, hayajonli kechadiki, qalbi uyg‘oq, ovozi zarbli, zalvorli, mudroq qalblarni uyg‘otuvchi, sergak torttiruvchi she’riyatga oshno bo‘lganingizdan, shoirmi qayta kashf etganingizdan minnatdor bo‘lasiz. Bu ilmiy kitobda mashhur shoirning ijodi yangicha yo‘sinda tahlil qilingan, jahon adabiyotining yetakchi fikrlari bilan qiyoslangan. Uni mutolaa qilish orqali muhim bilim, badiiy lazzatga ega bo‘linadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Herman Hesse. Jahon adabiyoti kutubxonasi. "Jahon adiblari adabiyot haqida". Ozod Sharafiddinov tarjimalari, Toshkent, "Ma'naviyat", 2010.
- (2). G'aniyev Ilhom. Rauf Parfi O'zbek dunyosi. "Muharrir", Toshkent, 2021.
- (3). Shodmon O. Adabiyot qismatidir. So'nggi darvesh. Toshkent, "Sharq", 2014.

Quvonov Zarif Omonboyevich (NDPI dotsenti; [zarif\\_1178@mail.ru](mailto:zarif_1178@mail.ru))

#### “XAMSA”NING POETIK OBRAZ VA XRONOTOP MUAMMOLARI KESIMIDA TADQIQ QILINISHI

*Annatsiya.* Mazkur maqolada Navoiy “Xamsa” sining xronotop nazariyasi asnosida tadqiq etilishi borasida mulohazalar yuritilgan. Adabiyotshunos Uzoq Jo ‘raqulovning bu boradagi tadqiqotlariga munosabat bildirilgan. Mustaqillik davri o‘zbek navoiyshunosligi yaratilayotgan tadqiqotlarda shoir ijodini umuminsoniy ko‘lamda, muallif diniy-ma‘rifiy dunyoqarashi, badiiy-konseptual prinsiplari asosida o‘rganish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim masalalardan ekanligiga e‘tibor qaratilgan.

*Kalit so‘zlar:* xronotop, metodologiya, uch hayrat, epik kompozitsiya, obrazlar tizimi, sujet, kompozitsiya.

Куванов Зариф Омонбоевич (доцент НДПИ; [zarif\\_1178@mail.ru](mailto:zarif_1178@mail.ru))

#### ИССЛЕДОВАНИЕ ПЕРЕСЕЧЕНИЯ ПОЭТИЧЕСКОГО ОБРАЗА И ПРОБЛЕМ ХРОНОТОПА «ХАМСА»

*Аннотация.* В данной статье рассматривается исследование «Хамсы» Навои на основе теории хронотопа. Были высказаны исследования литературоведа Узока Джуракулова по этому поводу. В исследованиях узбекского навоиведения периода независимости уделяется внимание тому, что изучение творчества поэта в общечеловеческом масштабе, на основе авторского религиозно-просветительского мировоззрения, художественно-концептуальных принципов, является одной из важных проблем, стоящих перед литературоведением.

*Ключевые слова:* хронотоп, методология, три чуда, эпическая композиция, образная система, сюжет, композиция.

Kuvonov Zarif (docent of NDPI; [zarif\\_1178@mail.ru](mailto:zarif_1178@mail.ru))

#### RESEARCH OF THE INTERESTING OF THE POETIC IMAGE AND PROBLEMS OF THE “KHAMSA” CHRONOTOPE

*Annotation.* This article discusses the research of Navoi's “Khamsa” based on the chronotope theory. Literary critic Uzog Dzhorakulov's researches in this regard were expressed. In the researches of Uzbek Navoi studies of the period of independence, attention is paid to the fact that the study of the poet's work on a universal scale, on the basis of the author's religious-educational outlook, artistic-conceptual principles, is one of the important issues facing literary studies.

*Key words:* chronotope, methodology, three wonders, epic composition, image system, plot, composition.

**Kirish.** “Xamsa” hazrat Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi, daho ijodkor badiiy tafakkuri mahsuli o‘laroq, asar yozilganidan bugunga qadar u haqdagi fikr-u qarashlar, tahlil-u talqinlar oqimi to‘xtagan emas, to‘xtamaydi ham. Har bir millat, har bir avlod “Xamsa”dan yangi-yangi ma‘no va badiiyat qatlamlarini kashf etadi. Ayni paytda, o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligi, joriy yuz yillik ibtidosida shakllanib kelayotgan yangi estetik tafakkur Navoiy ijodini jahon, shuningdek, islom Sharqi badiiy voqeligi doirasida o‘rganish zaruratini sezyapti.

Istiqoldan so‘ng navoiyshunoslik O‘zbekistonda tubdan o‘zgarib, to‘la erkinlashdi.<sup>1</sup> Shoir ijodiyotining diniy-ma‘rifiy mohiyati uning yetakchi xususiyatlaridan ekanligiga e‘tibor kuchaydi. Shu bilan birga, jahon adabiyotshunosligining ilg‘or metodologik tamoyillari asnosida, ya‘ni, germenivtik, struktural tahlillar orqali Navoiy ijodining mohiyatining tub ildizlariga kirib borish, dahoning san‘atkorlik mahoratini yorqinroq ko‘rsatib berishga qaratilgan tadqiqotlar yaratilmoqda.

Navoiyshunos Uzoq Jo ‘raqulov tadqiqotlarida “Xamsa”, “Lison ut-tayr” dostonlari syujetida xronotop va uning asar qurilishi, badiiyatidagi o‘rni tahlil etilgan. Olim birinchilardan bo‘lib Navoiy epik merosini xronotop mezonlari asosida tadqiq qiladi. O‘rinli ta‘kidlaganidek: “Navoiy dostonlari xronotopini ilmiy tadqiq etish, buyuk mutafakkir yetuk dunyoqarashi va poetikasini kengroq egallashda muhim omil bo‘lib

<sup>1</sup>Хакқул И. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul-matn-manodorligi-va-talqin-masuliyati.html>

xizmat qiladi. Navoiyshunoslik borasida yangi sahifalar ochadi. Navoiyni jahon adabiyoti kontekstidagi qonuniy maqomini tiklash imkonini beradi. Nafaqat o'zbek, balki jahon navoiyshunosligi jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, xronotop poetikasi va nazariyasini yangi konsepsiyalar bilan boyitadi".<sup>1</sup>

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Adabiy asarda makon va zamon muammosi, garchi unga qadar ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa ham, bevosita "xronotop" termini rus olimi M.Baxtin tomonidan o'tgan asrning 30-yillarida adabiyotshunoslikka tatbiq etilgan. Olim atamani "xronotop – yunoncha xronos (zamon) va topos (makon) so'zlarini birlashtirish orqali hosil qilingan" deb izohlaydi.<sup>2</sup> Ya'ni, adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makonaro uyg'unlikni xronotop deb ko'rsatadi. Ushbu istiloh matematika ilmidagi (Eynshteynning) nisbiylik nazariyasi negizida qo'llab kelinadi. Istilohning biz uchun, matematikada qo'llanadigan, maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo'q. Uni adabiyotshunoslikka (tom ma'noda bo'lmasa ham) istiora o'laroq, qabul qilamiz. Biz uchun muhimi, bu o'rinda istilohning zamon va makonni uyg'un holatda (zamonni makonning to'rtinchi o'lchami sifatida) ifodalashidir. Xronotopni biz adabiyotdagi shakl-mazmun kategoriyasi sifatida talqin qilamiz".<sup>3</sup>

U.Jo'raqulov «Nazariy poetika masalalari» kitobining «Badiiyat va nazariya» deb nomlangan birinchi bo'limida atoqli nazariyotchi Mixail Baxtinning ilmiy-nazariy kashfiyotlari, Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asarida xronotop shakllari, «Layli va Majnun» dostonida tragik vaziyat xronotopi haqida to'xtalgan. M.Baxtin kashfiyotlaridan xronotop nazariyasini izohlab, uch omil asosida, ya'ni: a) Yevropa ilmiy-adabiy tafakkurida markaziy o'rin tutuvchi Aristotel «Poetika»sidan Mixail Baxtingacha bo'lgan nazariy adabiyotshunoslik, ularda qayd etilgan kanonlar, kategoriyalar va mezonlar tizimini; b) M.Baxtin ilimga kirib kelayotgan davrlarda rus adabiyotshunosligida ro'y bergan konseptual o'zgarishlar, akademik maktablar, xususan, A.N.Veselovskiy asos solgan tarixiy poetika – estetik tafakkurni adabiy-tarixiy aspektda o'rganish, nazariy va tarixiy aspekt sintezi natijasida maydonga kelgan metodologiya – baxtinona nazariy tafakkurni harakatga keltirganini; d) sof baxtincha falsafiy tafakkur uchun intuitiv mushohada, badiiy tahlil, erkin tafakkur xizmat qilganini tekshiradi.<sup>4</sup>

Olimning «Alisher Navoiy «Xamsa»sida xronotop poetikasi» nomli tadqiqotida xronotopning badiiy asar syujetidagi o'rni, xronotopning poetik xususiyatlari, dunyo adabiyotshunosligi, jumladan, rus olimi M. Baxtinning bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlari bilan Sharq adabiyotidagi xronotop hodisasi tekshiriladi. Buyuk beshlikning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini shunday izohlaydi: "Xamsa" sharq-islom adabiy muhitida maydonga kelgan, poetik mundarija nuqtayi nazaridan, ulkan ko'lamga ega, mazmunan teran, mohiyat-e'tibori bilan umumbashariy muammolar talqiniga qaratilgan jahon adabiyoti tarixidagi yangi va universal hodisadir. Uning tarixiy asoslarini "Xamsa" dunyoga kelishidan besh yuz yil burun butun insoniyatga nozil etilgan so'nggi din – islom ta'limoti, turli jaholatlar, politeistik e'tiqodlar ta'siridan qutulib, shu ta'limot ichida shakllangan yangi odamning o'z Yaratguvchisini tanishi, borliq va dunyo, inson va jamiyat, zohir va botin, hayot va o'lim, iymon va kufr, ezgulik va yovuzlik kabi azaliy muammolarni o'zga-cha idrok etishi singari ulkan jarayonlar tashkil etadi".<sup>5</sup>

Navoiy asarlarini xronotop poetikasi nuqtayi nazaridan tekshirish ayrim tanqidiy fikrlarni ham o'rtaga tashlagani ayon.<sup>6</sup> Zamonaviy adabiyotshunoslikning ilg'or nazariy metodlari va yo'nalishlari (modernizm, postmodernizm) borasida ham ko'plab bahslar maydonga kelgan. Ilmda har bir yangilik munozara, turfa mulohazalarga asos bo'lishi haqiqat. O'z navbatida, U.Jo'raqulov ham o'tgan asrning ikkinchi choragida navoiyshunoslikdagi ba'zi fikr-qarashlar bilan bahsga kirishadi. Sho'ro davri navoiyshunosligida ilgari surilgan romantizmga doir qarashlarni tanqid qiladi: "Xamsa" zamonining universal mohiyatini to'g'ri anglash va baholash zarurati, xronotop nazariyasi hamda sharq mumtoz adabiyotini o'rganish metodlari masalasini qayta ko'rib chiqishga olib keladi, degan qat'iy qarashlarini ilgari suradi.<sup>7</sup>

<sup>1</sup> Жўрақулов У. Адабий-тарихий жараён: ижодкор, жанр, хронотоп. Тошкент, 2015, 120-бет.

<sup>2</sup> М.Бахтин. Романда замон ва хронотоп шакллари. «Академнашр», Тошкент, 2015.

<sup>3</sup> Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе (Очерки по исторической поэтике) /В кн.: Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. М., "Художественная литература", 1975, с. 234.

<sup>4</sup> Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. Т., Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015, 354 бет.

<sup>5</sup> Жўрақулов У. Аlisher Navoiy «Xamsa»sida xronotop poetikasi. Istiqloq davri navoiyshunosligi. 30 jildlik, Тошкент, «Тамадун» нашриёти, 2021, 31-бет.

<sup>6</sup> Ҳаққул И. Матн маънодорлиги ва талқин масъулияти // <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul-matn-manodorligi-va-talqin-masuliyati.html>

<sup>7</sup> Кўрсатилган асар, 35-бет.



Xamsashunoslikda besh dostonni birlashtiruvchi asarlar poetikasi, ya'ni, kompozitsion qurilishi, vazn, sujet tizimi, obrazlar va xarakterlar haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Uzoq Jo'raqulov nazariy qarashlarining yangiligi shundaki, xamsani mustaqil janr sifatida tahlilga tortadi. "Xamsa"ni bir butun poetik sistema (ya'ni mustaqil janr) sifatida tasavvur etmasdan turib, "Xamsa" xronotopning poetik xususiyatlar, universal ko'lami, turli-tuman shakllari, umumbashariy mohiyati xususida fikr yuritish mumkin emas"ligini ilgari suradi.<sup>1</sup> "Xamsa"—mustaqil janr degan nazariy konsepsiyani asoslash uchun olim quyidagi nazariy umumlashmalarni o'rta tashlaydi: 1. Sharq va dunyo adabiyotida mavjud sintetik janrlar va ularning xamsa janrining shakllanishidagi o'rni. 2. Xamsa janri strukturasi "kompozitsion qolip (yoki qoliplovchi doston)"ning vazifasi. 3. "Xamsa"da epik konsepsiya, epik xronotop, epik sujet va obrazlar universalligi.<sup>2</sup> Tadqiqotchi keltirib o'tilgan bu tasnifni Sharq va dunyo adabiyoti nuqtayi nazaridan tekshiradi, mulohazalarini qiyosiy-tipologik jihatdan dalillaydi. «Hayrat ul-abror»ni «Qutadg'u bilig» bilan janriy, ichki uzviy tuzilishini tekshiradi. Buyuk beshlikni universal janr sifatida baholar ekan, janrning universallik xususiyatlarini epik makon universalligi (osmon-yer-yer osti); epik zamon universalligi (o'tgan, hozirgi, kelasi zamon); syujet va fabulaviy tizim universalligi (Odam (a.s.)ning yaratilishi, iblis bilan bog'liq voqealar, yer hayotining boshlanishi, ilk avlodlarga oid axborotlar, Payg'ambarlar hayoti, muayyan xalq va millatning shakllanishi, biror mashhur shaxs haqidagi qissa va hikoyatlar, maishiy turmushga doir epizodlar va h.k.lar); universal obraz va epik konsepsiya (makon, zamon, sujet, obraz uyg'unligi). Shu paytga qadar Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostoni va Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonining janriy bir xilligi haqida aytilar, ammo bu ikkala dostonning qiyosiy tahlili, janriy o'ziga xosliklari o'rganilmagan. Adabiyotshunos Suvon Meli «Xamsa»ni superjanr sifatida baholagan bo'lsa, Uzoq Jo'raqulov uni universal janr ekanligini qator tahliliy mulohazalar orqali ko'rsatib berdi.

U. Jo'raqulov "Xamsa"ning obrazlar tizimini tasnif qilar ekan, ularni:

a) *ideal tarixiy obrazlar* (Bunday obrazlarning yetakchi xususiyati ularning tarixiy haqiqatga zarracha ham xilof qilmagan holatda talqin etilganidir. Shu ma'noda ideal tarixiy obrazlar asar badiiy dunyosida badiiy obrazdan ko'ra real inson fenomenini ko'proq namoyon etadi. Bu siraga Payg'ambarlar (s.a.v.), sahobalar (r.a.), tobe'inlar (r.a.), avliyolar obrazlari); b) *real tarixiy obrazlar* (ushbu tipni shajarasi, tarixiy xronotop tizimiga ko'ra muallifga bevosita bog'lanadigan, muallif ijodiy va ijtimoiy hayotida real mulotqotga kirishgan tarixiy shaxslar tashkil etadi); d) *biografik obrazlar* (Ayni obrazlar aksariyat asarning kirish qismlari, xotimalari, lirik chekinishlarida bevosita muallif bilan bog'liq nuqtalarda kuzatiladi. Muallifning ota-onasi, tug'ishganlari, do'st-birodarlari, bir davrda yashagan ustozlari va pirlari, hukmdorlar qaysidir jihati bilan muallif biografiyasiga bog'lanadigan tarixiy shaxslar biografik obraz hisoblanadi. Ammo ular tarixiy-biografik obrazlarning aynan o'zi emas; e) *metaforiklashtirilgan tarixiy obrazlar*. Bunday obrazlar konkret tarixiy xronotop chegaralaridan oshib o'tib, umumiy (kvazi) xronotop maydonini egallaydi, ham gorizonta, ham vertikal xronotop sarhadlari bo'ylab harakatlanadi. Shunga ko'ra, metaforiklashtirilgan tarixiy obrazlar to'rt guruhga bo'linadi: muallif obrazi, homiy obrazi, odil va zolim shoh obrazlari; ye) *asar-dagi metaforik obrazlar*. Ular uch guruhga bo'linadi: 1) inson metaforik obrazi; 2) "quyi olam" vakillari metaforik obrazi; 3) suv osti dunyosi metaforik obrazi. Metaforik obrazlar "Xamsa"dagi birinchi doston, ayniqsa, keyingi to'rt doston doirasida faol harakatlanadigan, asar badiiyati va poetik konsepsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan obrazlar silsilasi hisoblanadi. Ayni obrazlar muallifning, umumiy ma'noda dunyo hayoti, borliq, jamiyat, inson fenomeni, xususan, abror-odam haqidagi ideallarini ifodalab kelganidek, inson va dunyo ("dahr arusi" singari)ga xos turfa xossalarni ham to'laligicha qamrab oladi.<sup>3</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada sharq adabiyotida "Xamsa"chilik an'anasi, Navoiy "Xamsa"sining badiiy xususiyatlari, jumladan, xronotop poetikasiga doir o'zbek navoiyshunosligida keyingi yillarda amalga oshirilgan ishlar tahliliga e'tibor qaratildi.

**Tahlil va natijalar.** Sharq mumtoz adabiyoti muhitida shakllangan xamsachilik an'anasi jahon xalqlari estetik tafakkuri tarixidagi siyrak uchraydigan badiiy hodisa. Qadim tarixga ega jahon adabiyoti xamsachilikka qadar va undan keyin ham bunday yirik badiiy sistemani, ilohiyot-samovat-inson uchligini bir butun estetik idrok etishning bu kabi universal shaklini kashf eta olgan emas. Hatto ulkan qamrovga ega jahon eposi, asosan, tor milliy, hududiy doiralarda o'ralashib qolgani bois na vertikal, na gorizonta ko'lami jihatidan, xamsachilik ulkan badiiy sferani ishg'ol etishga erisha olmagan edi. "Xamsa"ga xos samoviy kom-

<sup>1</sup> Kўrsatilgan asar. 27-бет.

<sup>2</sup> Kўrsatilgan asar. 27 бет.

<sup>3</sup> Kўrsatilgan asar. 36–37-бетлар.

pozitsion doira, oliy matematika o'lchamidagi sujet tizimi, izchil obrazlar dunyosi mazkur noyob badiiyat namunasini bashariy tafakkurning haddi a'losiga olib chiqdi.

**Xulosa.** Hazrat Navoiy "Xamsa" sini xronotop nazariyasi asosida tadqiq etish, asarga xos janr, kompozitsiya, syujet va obrazlar mohiyatini belgilashda olim tarixiy poetika ilmi tajribalariga tayanadi. Birinchi marta buyuk beshlikning xronotop yo'sinda tadqiq qilar ekan, Navoiy "Xamsa" sidagi epik xronotop univerralligi "Hayrat ul-abror" ning "debocha" qismi semantik-struktural tizimida o'z aksini topganiga e'tibor qaratadi. Xronotop shakllari "avvalgi", "o'rta", "quyi" olamdan iborat uch o'lchamli badiiy zamon-makon tasviri yohud Yaratgan-borliq-inson uchligi ko'rinishida talqin etiladi. Farhod va Shirin", "Sab'ayi sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarida makonning folklor janrlariga xos g'aroyib ko'rinishlari, zamonning mo'jizaviy shakllari "yo'l", "suv" xronotoplari orqali ochib beriladi. Shuningdek, olim "Xamsa" tarkibidagi dostonlar misolida juda ko'plab makon-zamon ma'nosidagi badiiy vositalarni aniqlaydi, obrazlar tizimini ham shu konsepsiyaga tayanib, tasnif qiladi.

Ko'rinib turibdiki, Navoiy asarlariga yondashuv yangilanib bormoqda. Uning diniy-tasavvufiy mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyati, janriy tabiati, matniy strukturasiga munosabatda ko'rinmoqda. Bu yangilanishlar navoiyshunoslik ilmining mukammallashuviga, dunyoning adabiyotining ilg'or nazariy tamoyillariga to'la javob beradigan asar ekanligini dalillaydi.

**To'rayeva Sadoqat Qahramonovna (Urganch davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi)**

### **XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron she'riyatidagi tabiat tasviri tahlilga tortilgan. Shoirning bir qancha she'rlari misolida Xurshid Davronning peyzaj yaratish mahorati ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** tabiat hodisalari, badiiy obrazlar, tun, lirika, sifatlash va qiyoslashlar, kuz fasli, bulutlar, ko'm-ko'k dala, tabiat va surat.*

**Тураева Садокат Кахрамоновна (студентка 1-курса кафедры узбекского языка факультета узбекской филологии Ургенчского государственного университета)**

### **ОПИСАНИЕ ПРИРОДЫ В ПОЭЗИИ ХУРШИДА ДАВРОНА**

***Аннотация.** В данной статье анализируется образ природы в поэзии народного поэта Узбекистана Хуршида Даврона. Способность Хуршида Даврона создавать пейзаж раскрывается на примере нескольких стихотворений поэта.*

***Ключевые слова:** явления природы, художественные образы, ночь, лирика, прилагательные и сравнения, осень, облака, зеленое поле, природа и картина.*

**Torayeva Sadokat Kahramonovna (1<sup>st</sup>-year student of the Uzbek language department of the faculty of Uzbek philology of Urganch state university)**

### **DESCRIPTION OF NATURE IN THE POETRY OF KHURSHID DAVRON**

***Annotation.** This article analyzes the image of nature in the poetry of the national poet of Uzbekistan, Khurshid Davron. Khurshid Davron's ability to create landscape is revealed on the example of several poems of the poet.*

***Key words:** natural phenomena, artistic images, night, lyrics, adjectives and comparisons, autumn, clouds, green field, nature and picture.*

**Kirish.** Xurshid Davron lirik shoir, tarjimon sifatida XX asr o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning she'riyatida, ayniqsa, tabiat tasviri bilan bog'liq bo'lgan misralar o'quvchi qalbini larzaga solmasdan qo'yamaydi. Xurshid Davron ermak uchun she'r bitmaydi. She'r yozish uning uchun shunchaki bir ko'ngilxushlik emas, balki ichki bir ehtiyojga aylangan. Hatto bu ehtiyojni ham tabiat hodisalari orqali tasvirlaydi. U shunday deydi: "Adirdan maysa unib chiqqanidek, mendan she'r unib chiqadi. Qush daraxtga qo'nganidek, she'r menga qo'nadi. Osmondan yomg'ir tomchilab yog'ganidek, mendan she'r oqadi. Qor zaminni ko'mganidek, she'r meni ko'madi".<sup>1</sup>

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Xurshid Davron lirikasi o'ziga xosligi va betakrorligi bilan kitobxonlarning mehrini qozongan. Shoir ijodi turli xil bahs va munozaralarga tortilganligi sababli shu xususda har xil maqola va konferensiyalar bo'lib o'tgan. Xususan, shoir she'riyati yuzasidan Ulug'bek Ham-

<sup>1</sup> <https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/adabiyot/xurshid-davron-she-riyatida-poetik-obraz-va-shoir-mahorati>

dam,<sup>1</sup> Qozoqboy Yo‘ldoshevlarning<sup>2</sup> ilmiy maqolalarida ayrim mulohazalar bildirilgan. Lekin ularning maqolalarida tabiat mavzusi batafsil yoritilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xurshid Davron she‘riyatini tahlilga tortar ekanmiz, uning she‘rlari zamiridagi tub mohiyatni turli xil qiyoslashlar, sifatlashsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uning lirikasida hech qaysi shoirda uchramaydigan sifatlashlarni va o‘zgacha so‘z qo‘llash mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, mavzuni o‘rganish jarayonida qiyosiy-tipologik tasniflash, struktural tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Qorong‘ulikdan yorug‘lik sari deganlaridek, ushbu she‘r oddiy tabiat hodisasi bo‘lmish tunning tasviriga bag‘ishlanadi. G‘oyiblik, ya‘ni g‘ayb kechasi o‘z yulduzlarini osmonga sochgani, oy ham sochlarini to‘zg‘itib ko‘kka chiqqani va oy xuddi ayb ish qilib qo‘ygandek yuzini ro‘mol, ya‘ni ko‘kdagi bulutlar bilan to‘sib, yashirgani go‘zal o‘xshatishlar yordamida aniq ochib berilgan.

*Yulduzlarin ko‘kka sochdi g‘ayb,*

*Oy ham chiqdi sochlari to‘zib,*

*Go‘yo qilib qo‘ygandayin ayb,*

*Shol ro‘mol-la yuzini to‘sib.*<sup>3</sup>

Sokin tunda barcha mavjudot shirin uyquga ketadi. Xususan, shoir tabiatning har bir hodisasini inson hayotiga bog‘lab, dalalarni go‘dakka, ko‘kka chiqqan oyni esa bolasiga sut berish istagida bo‘lgan onaga qiyoslaydi. Bu paytda esa qayerlardadir tabiatga alla aytilayotgandek qo‘shnay nola qilib bo‘zlayotgani tasvirlanadi.

*Sukut aro uxlaydi dala,*

*Oy sutini ichib go‘dakday-*

*Qaylardadir, qilgancha nola,*

*Bo‘zlayotir g‘amdiyda qo‘shnay.*<sup>4</sup>

Har bir inson kim bilandir sirlashgisi keladi. Hatto moviy osmon ham bag‘ridagi bulutlarni haydab tiniqlashib o‘zini, o‘zligini ko‘rsatadi. Ammo tabiatdagi hamma mavjudot ham sirini ochavermaydi.

*Tiniq tortib boradi osmon,*

*Ammo sirin ochmas mavjudot...*<sup>5</sup>

So‘zga usta shoir har bir narsadan go‘zallik axtaradi. U, hatto ko‘z ilg‘amas, kichik tabiat hodisasini ham takrorlanmas o‘xshatishlar orqali tasvirlab beradi. Xususan, tumanlar erib yo‘qolib ketishi va yalpizning kapalakdek uyqudan uyg‘onishini aytadi. Shoir o‘zini tabiat bag‘rida tasvirlar ekan, maysalar ustida yotib cheksiz, musaffo osmonni xuddi daryoga qiyoslaydi.

*Erib ketar xira tumanlar,*

*kapalakdek uyg‘onar yalpiz.*

*Osmon daryo bo‘lib tuyular,*

*o‘tlar uzra chopqillaydi ko‘z.*<sup>6</sup>

Har bir faslning o‘z tarovati bor. Shoir shuni inobatga olgan holda so‘zlar yordamida har faslning o‘ziga xos suratini chizadi. Shu asnodda kuz fasliga bag‘ishlangan she‘rini tahlilga tortamiz. Hammamizga ma‘lumki, kuz yog‘ingarchilik fasli hisoblanadi. Xuddi osmon ko‘z yosh to‘kayotgandek sokin oqshomda shitirlab yomg‘ir yog‘adi. Yarim kechasi g‘amlarimiz esimizga tushar ekan, hatto g‘amlar ham nimalarnidir qulog‘imizga shivirlashi tasvirlangan.

*Yana sokin chorbog‘lar aro*

*Yomg‘ir yog‘ar shitir-shitirlab,*

*Yana mening qulog‘imga g‘am*

*Nimanidir aytar shivirlab.*<sup>7</sup>

Har bir inson o‘zining davomchisi sifatida farzand katta qiladi, tarbiyalaydi. Shoir esa “Tabiatdir mening davomim...”, deya tabiatni ulug‘lab, o‘zining davomi sifatida talqin qiladi va uni bag‘rining bag‘-

<sup>1</sup> Ulug‘bek Hamdam. Yangi o‘zbek she‘riyati. T., 2012.

<sup>2</sup> Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006

<sup>3</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-sherlar-2.html>

<sup>4</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-sherlar-2.html>

<sup>5</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-sherlar-2.html>

<sup>6</sup> Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986, 99-bet

<sup>7</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-sherlar.html>

riga tutashligini aytadi. Bundan tashqari, shoir umri ham tabiatning har bir bo‘lagi bilan: oy va oftobi bilan, daryo, qir, adirlari bilan, daraxt va gulzorlari bilan chambarchas bog‘liqligini tasvirlagan.

*Tabiatdir mening davomim,  
Tutash erur bag‘rim bag‘riga.  
Umrim bog‘liq oy-u oftobi  
Daryo, dala, daraxtlariga.<sup>1</sup>*

Muhabbatga, mehrga oshno qalb har bir go‘zal narsaga mehr qo‘yadi va baxtdan sarmast bo‘la oladi. Xurshid Davron ham shunday insonlardan biri. Shoir, hatto xayolining ham davomi borligini aytib o‘tadi. Bu xayolning davomi sifatida esa boshi uzra uchib o‘tayotgan qushlarni keltiradi.

*Yalpizlarni quchoqlab sarxush,  
Muhabbatga chulg‘anar qalbm.  
Boshim uzra uchib o‘tar qush,  
Xayolimning davomi kabi.<sup>2</sup>*

Inson qalbi mehr va quvonchga yoki g‘am-g‘ussaga to‘la payti nafas olayotganini ham, olmayotganini bilmay qoladi kishi. Quvonganimizda quvonchimizni cho‘chitib yubormaslik uchun hatto nafas ham olmaslikka rozimiz. Ammo bizni g‘am va alamlarimiz bo‘g‘zimizdan bo‘g‘ishi ham mumkin. Xalqimizda “Kulgi bilan yig‘i yonma-yon yuradi”, degan naql bor. Shoir buni o‘z she‘rlarida daraxt timsolida tashxislar orqali tasvirlab bergan. Masalan, mevali daraxt har yili har xil meva beradi. Bir yili ko‘p bo‘lsa, yana bir yili mevalari g‘uj-g‘uj bo‘ladi.

*Tunlar nafas olmay yotaman,  
Meni quchar quvonch-u alam.  
Daraxt kulgusini ko‘rganman,  
Ko‘rganman ko‘z yoshlarini ham.<sup>3</sup>*

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xurshid Davron tabiatni borligicha tasvirlabgina qolmay, uni sifatlashlar va o‘xshatishlar, jonlantirishlar orqali uning go‘zal tarovati hamda borliqdagi suratini xayolimizda gavdalanitira oldi. Shuning uchun ham shoir she‘rlarining sodda va ravon tili orqali ijodkor qalbidagi yashirin tuyg‘ularini tushunib olishimiz birmuncha oson bo‘ladi. Shoirning bunday mahoratiga tan bermay iloj yo‘q. Hamma ham tabiat tasviri haqida she‘rlar yozishi mumkin, ammo Xurshid Davronning o‘zgacha uslubi, dunyoqarashi mavjudligi she‘rlarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Shoirning tabiat bilan oshnoligi va unga bo‘lgan mehr-muhabbati yuqoridagi misralarda o‘z aksini topgan. Xurshid Davron ijodida tabiatning turli xil manzaralari gavdalanitirilar ekan, tabiat obrazi ijodkor nuqtayi nazari bilan turlicha talqin qilinadi. Shuning uchun ham shoirning ijod namunalari hamisha kitobxonlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986.
- (2). <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-sherlar.html>
- (3). <https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/adabiyot/xurshid-davron-she-riyatida-poetik-obraz-va-shoir-mahorati>
- (4). Ulug‘bek Hamdam. Yangi o‘zbek she‘riyati. T., 2012.
- (5). Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006.

<sup>1</sup> Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986, 56-bet.

<sup>2</sup> Shu manba.

<sup>3</sup> Shu manba.

Yusupov Abdulaziz Ibragimovich (TDTU professori v.v.b., f.m.f.n.; e-mail: [ayusupov@tdtu.uz](mailto:ayusupov@tdtu.uz)),  
Arzikulov G'olibjon Pardayevich (TDTU dotsenti v.v.b., PhD; e-mail: [arzikulov79@mail.ru](mailto:arzikulov79@mail.ru))  
MUHANDISLIK TA'LIMIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH TAJRIBALARI HAQIDA

**Annotasiya.** Maqolada muhandislik ta'limida matematika fanining o'rni, fanni o'qitilishidan maqsad va vazifasi, shuningdek, muhandislik ta'limida matematika fanining o'qitilishini ilmiy, pedagogik va metodik o'rganish jarayonida aniqlangan ayrim muammolar hamda matematika fanini o'qitish sifat va samaradorligini oshirish borasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov va uning natijalari tahlili, xulosalar va takliflar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** salohiyatli muhandis kadrlar, muhandislik ta'limi, matematik bilim, o'qitish sifati, metodlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tajriba-sinov, samaradorlik.

#### ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В ИНЖЕНЕРНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

**Аннотация.** В статье рассмотрена роль математики в инженерном образовании, цели и задачи естественнонаучного образования, а также некоторые проблемы, выявленные в процессе научно-педагогического и методического изучения математического образования в инженерном образовании. Описаны качества и эффективность математического образования, основываясь на проведенном педагогическом эксперимент-тесте при обучении по технологии ЛИМ, анализ его результатов, выводы и предложения.

**Ключевые слова:** компетентные инженерные кадры, инженерное образование, математические знания, качество преподавания, методика, индивидуализированное обучение, апробация опыта, эффективность.

#### ABOUT EXPERIENCES IN TEACHING MATHEMATICS IN ENGINEERING EDUCATION

**Annotation.** The article discusses the role of mathematics in engineering education, the goals and objectives of natural science education, as well as some problems identified during the scientific-pedagogical and methodological study of mathematical education in engineering. It describes the qualities and effectiveness of mathematical education based on a conducted pedagogical experiment-test using the IBL (Inquiry-Based Learning) technology, analysis of its results, conclusions, and recommendations.

**Key words:** engineering education, engineering personnel, mathematical knowledge, teaching quality, methods, personalized education, experience-testing, efficiency.

**Kirish (Dolzarbligi).** Davlatlarning rivojlanish tarixlaridan ma'lumki, mamlakatning yuksak iqtisodiy qudratga ega bo'lishi, yangi texnika va texnologiyalarni tez suratlarda rivojlanishi, shu mamlakatda ta'limni, ilm-fanni yuqori darajaga ko'tarilishi va salohiyatli kadrlar tayyorlanishi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekistonda ta'limni, ilm-fanni rivojlantirish, malakali va salohiyatli mutaxassis kadrlar tayyorlash mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning markazida turadi [1;6-b.]. O'zbekistonni yangi taraqqiyot strategiyasida ham ta'lim tizimini, ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan [1]. Har qanday mamlakatning ilmiy-texnik rivojlanishi va global raqobatbardoshligi muhandislik fanlarining va muhandislik ta'limining rivojlanish darajasiga bog'liq [12]. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida muxandislik ta'limi, salohiyatli muhandis kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Zamonaviy muhandis kadrlarga qo'yilayotgan talablar va tadqiqotlarimiz tahlillariga ko'ra, bo'lajak muhandis o'zining mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan birga, u mantiqiy matematik tafakkur qilish, matematik bilimlarni, matematik usullarni o'z sohasiga qo'llay olish, muhandislik masalalarini matematik modellashtirish kabi qobiliyat komponentlariga ega bo'lishi zarur [9;11-b.]. Muhandis bunday qobiliyat komponentlariga ega bo'lishi uchun yetarlicha matematik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Shu sababdan ham muhandislik ta'limida o'quv rejadagi majburiy fanlardan hisoblangan matematika fanini o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Tahlil va metodologiya.** Hozirgi globallashtirish, axborotlar oqimi kuchaygan va tezlashgan, axborot-kommunikatsiyalar, katta aniqlikdagi avtomatik qurilmalar, shuningdek, fan, texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi va yangilanishida aniq va tezkor texnik hamda texnologik yechimlarga ega bo'lishda tekshirishlarning matematik apparati, matematik usullari, matematik modellashtirish va loyihalash katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham muhandis kadrlar tayyorlashda matematika va matematika siklidagi fanlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi hamda ularni o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish dol-

zarb masalalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida matematika ta‘limini hamda matematika va uning tatbiqlariga doir ilm-fanni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan [7;8-b.].

Matematik bilimlar talabaning o‘zini anglashda, ilmiy dunyoqarashini o‘shida, intellektini tarbiyalashda, aqliy qobiliyatini ya‘nada rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizning oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayoni kredit-modul texnologiyasiga o‘tish munosabati bilan, yangi qabul qilingan muhandislik ta‘lim yo‘nalishlarining malaka talablari va namunaviy o‘quv rejalarida “Oliy matematika” fani majburiy fanlar guruhiga kiritilgan. “Oliy matematika” fanining namunaviy fan dasturida fanning talabalarga o‘qitilishidan maqsadi va vazifalari aniq belgilab qo‘yilgan. Fanning maqsadi – talabalarni muhandislik, texnologik, iqtisodiy masalalarni tahlil qilish, modellashtirish va yechishda yordam beradigan zarur matematik bilimlarga ega bo‘lishiga va bu bilimlarini o‘z sohasiga tatbiq eta olishga erishishdan iboratdir. Fanning vazifasi esa talabalarni logik va algoritmik masalalarni yechish, tekshirish usullarini bilish, o‘zining matematik bilimini mustaqil oshirib borish va muhandislik, texnologik hamda iqtisodiy masalalarni tatbiqiy matematik tahlil qilish va yechish malaka hamda ko‘nikmalarini hosil qilishdir [9;11-b.].

Lekin fanning madsad va vazifalarini to‘liq amalga oshirishda ayrim omillar ma‘lum bir imkoniyatlarni cheklab qo‘ymoqda. Quyida muhandislik ta‘limida muhim o‘rin tutuvchi matematika fanining o‘qitilishi borasida mualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar davomida aniqlangan ayrim muammolar va fanni o‘qitish sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar, o‘tkazilgan pedagogik sinov-tajriba natijalari haqida fikrlar bildirilgan. Ma‘lumki, muhandislik ta‘limida “Oliy matematika” kursi birinchi kursdan boshlab uch semester o‘qitiladi. Bizning o‘tkazgan tajribalarimiz, kuzatuv va o‘rganishlar hamda tahlillarimiz natijasida muhandislik ta‘limida quyidagi muammolar aniq bo‘lib qolmoqda [14-19]:

- muhandislik sohasida kadrlar tayyorlanadigan bakalavr ta‘lim yo‘nalishlarida ta‘lim oluvchi talabalarining katta qismini o‘rta ta‘lim matematik bilimlari darajasi past;

- bir guruhdagi talabalarining o‘rta ta‘lim matematika fanidan bilim darajalari bir-biridan sezilarli yoki keskin farq qiladi, ya‘ni matematik bilim darajalari turli xil darajada tabaqalashgan;

- talaba bo‘lgan o‘rta ta‘lim bitiruvchilarining katta qismi oliy ta‘limning aniq bir ta‘lim yo‘nalishiga o‘qishga kirishga mo‘ljallangan test savollariga tayyorgarlik ko‘rishgan, shu jarayonda test variantlarini yechish va imkon qadar, test savoli javobini tez topishga o‘rganishgan, ya‘ni, kirish testidan, imkon qadar, ko‘proq bal to‘plash asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Matematik isbotlash, muhokama qilish, mulohaza yuritish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, nostandart qarorlar qabul qilish qobiliyatlari yaxshi rivojlanmagan;

- o‘rta ta‘lim o‘qitish texnologiyasi bilan oliy ta‘limdagi o‘qitish texnologiyasi orasida sezilarli farq mavjud bo‘lib, birinchi kurs talabalarining oliy ta‘limni o‘qitish texnologiyalariga adaptatsiya qilinishi (moslashuvi) ma‘lum bir muddat davom etmoqda va bu jarayon talabalarda biroz qiyin kechmoqda;

- o‘rta ta‘lim bitiruvchilarida mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalari yaxshi shakllanmaganligi sezilmoqda, bu birinchi kurs talabalarini “Oliy matematika” fanidan belgilangan mustaqil topshiriqlarni bajarib topshirishda yaqqol namoyan bo‘lmoqda;

- o‘rta ta‘lim matematikasi bilan “Oliy matematika” kursi o‘rtasidagi uzviylikda kamchiliklar mavjud, ayrim takrorlanishlar uchraydi;

- talabalarining o‘rta ta‘lim matematikasini mustaqil o‘rganishi uchun qulay bo‘lgan lotin imlosidagi o‘quv adabiyotlari yetishmaydi.

Yuqorida keltirilgan muammo va kamchiliklar professor-o‘qituvchilarni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi va natijada pedagogik texnologiyalardan kam foydalaniladilar.

**Tajriba.** Aniqlangan muammo va kamchiliklarga yechim topish, muhandislik ta‘limida matematika fanini o‘qitish sifat va samaradorligini oshirish, talabalarda muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha Toshkent davlat Texnika universitetining «Oliy matematika» kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yuqorida keltirilgan muammolarni mavjudligi va bir guruhdagi talabalarining matematika fanidan bilimlari turli xil darajada bo‘lganligi e‘tiborga olinib, 2021–2022-o‘quv yilidan boshlab «Oliy matematika» kursini shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi asosida o‘qitish bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov olib borilmoqda. Pedagogik tajriba-sinov ishlari shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va unga qo‘yilgan talablar asosida o‘tkazilmoqda (13).

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi asosida o‘qitish bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish uchun 2022–2023-o‘quv yilidan Elektr energetika fakultetining “Elektr stansiyalari, tarmoqlari va tizimlari”, “Elektr ta‘minoti”, “Elektr mexanikasi va elektr texnologiyalar”, “Gidroenergetika va gidravlika”, “Alternativ energiya manbalari”, “Issiqlik energetikasi” va “Atom elektr stansiyalari” ta‘lim yo‘na-

lishlarining 1-kurs akademik guruhlaridan talabalarining o'rtta ta'lim matematika fanidan matematik bilim darajalarining yaqinligi mezoni asosida 12 ta guruh tanlab olindi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida o'qitiladigan guruhlar tajriba guruhi (T), an'anaviy usulda o'qitiladigan guruhlar nazorat guruhlar (N) deb belgilandi. Tajriba guruhlarida elementar matematikadan test sinovi, yozma ish, og'zaki so'rov, suhbatlar va psixologik so'rovnomalar o'tkazilib, bilim darajalari, qiziqishlari asosida tabaqalash-tirilgan uchta (A,B,D) guruhchaga ajratildi. A-o'rtta ta'lim matematik bilimi yaxshi, B-o'rtta ta'lim mate-matik bilimi o'rtacha, D-o'rtta ta'lim matematik bilimi past. Pedagogik tajriba-sinov 1,2 va 3-semestrlar davomida olib borildi. Tajriba-sinovda qatnashgan guruh talabalarining keyingi semestrlardagi mutaxassis-lik fanlaridan o'zlashtirish ko'rsatkichlari va boshqa o'quv hamda ilmiy, ijodiy jarayonlari bilan bog'liq holatlari ham muntazam o'rganilib, monitoring qilib borilmoqda. Tajriba-sinov o'tkazilayotgan guruh uchun har bir kichik guruhni matematik bilim darajasiga muljallab, murakkablik darajasi uch xil (oddiy, o'rtacha, murakkab) bo'lgan amaliy mashg'ulot materiallari tayyorlandi. Tajriba-sinov asosan, amaliy mashg'ulot darslarida o'tkazilib, har bir guruh uchun maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar tarqati-ladi va har bir guruh uchun hamda talabalar bilan ishlanadi. Har bir talabaning bilim darajasiga, qiziqishiga va boshqa holatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Quyida tajriba guruhi uchun "Oliy matematika" fanining ama-liy mashg'ulot darsida "Aniqmas integralni bo'laklab integrallash" mavzusidan har bir kichik (A,B,D) gu-ruhlar uchun, kichik guruhchalardagi talabalarining matematik bilim darajalarini e'tiborga olib tayyorlan-gan tarqatma material namunasi keltirilgan:

A guruhcha uchun	B guruhcha uchun	D guruhcha uchun
1). $\int x \cos x dx;$	1). $\int x \ln(1-x) dx;$	1). $\int \ln(x^2 + 1) dx;$
2). $\int x \sin x dx;$	2). $\int x \arctg x dx;$	2). $\int \frac{x}{\sin^2 x} dx;$
3). $\int x e^x dx;$	3). $\int x e^{2x} dx;$	3). $\int x \cdot tg^2 x dx;$
4). $\int \arcsin x dx;$	4). $\int \sqrt{x} \ln x dx;$	4). $\int x^3 e^x dx;$
5). $\int ctg x dx;$	5). $\int \arctg \sqrt{x} dx;$	5). $\int \sin(\ln x) dx;$
6). $\int \arctg x dx;$	6). $\int (x-1) \ln x dx;$	6). $\int \frac{x}{\cos^2 x} dx;$
7). $\int \ln(1+x) dx;$	7). $\int e^x \sin x dx;$	7). $\int (2x+3) \ln x dx;$
8). $\int x \cdot 3^x dx;$	8). $\int x \cdot \cos 2x dx;$	8). $\int (x^2 - 1) \cdot \sin x dx;$
9). $\int (1+x) \cos x dx;$	9). $\int e^x \cos x dx;$	9). $\int \cos(\ln x) dx;$
10). $\int x \sin 2x dx;$	10). $\int x \cdot 7^x dx;$	10). $\int x^2 \cos x dx.$

Tajriba va nazorat guruhlarini talabalarining joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlaridagi o'zlashtirishlari natijalari monitoringi olib borildi. Monitoring va tahlillar natijasi bo'yicha ba'zi talabalar B guruhchadan A guruhchaga, D guruhchadan B guruhchaga o'tkazib borildi.

2022–2023-o'quv yili Elektr energetika va Issiqlik energetikasi fakultetlarining 12 ta akademik gu-ruhida tajriba o'tkazilib, 6 ta akademik guruhda «Oliy matematika» kursini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari quyidagicha bo'ldi. 6 ta tajriba guruhidan 148 nafar talaba, nazorat guruhidan 150 nafar talaba ishtirok etdi.

Tajriba-sinov o'tkazilgan guruhlarda talabalarining "Oliy matematika" fanidan o'quv yili yakunidagi o'zlashtirishi natijalari amaldagi matematik statistika usullaridan biri,  $\chi^2$  metodi asosida statistik tahlil qilin-di. Bahoning o'rtacha qiymati tajriba guruhlarida 3.49 ni, nazorat guruhlarida esa 3.15 ni tashkil qilib, sama-radorlik 1.10 ga teng bo'ldi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish professor-o'qi-tuvchilardan ma'lum darajada fidoyilikni talab qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Muhandislik ta'lim yo'nalishlarida "Oliy matematika" fanini shaxsga yo'naltiril-gan ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishda ta'lim samaradorligi oshishi bilan birga, quyidagi ijobiy nati-jalarga erishilishi ham kuzatildi:

– guruh talabalarining o‘rta ta’lim matematikasidan bilim darajalari bir-biridan sezilarli yoki keskin farq qilganda, «Oliy matematika» kursini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish ijobiy samara berishi aniqlandi;

– talabalarda “Oliy matematika” fanini o‘rganishga qiziqishlari ortdi;

– talabalarni faol mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari rivojlandi;

– talabalarining ijodiy faolligi sezilarli darajada oshdi.

Tadqiqotlarimiz asosida quyidagi takliflarni beramiz:

- o‘rta ta’lim matematika fani bilan oliy muhandislik ta’lim matematika fani o‘rtasida uzviylikni ta’minlash;

– o‘rta ta’limda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga e’tibor qaratish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- [1]. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, 2021.
- [2]. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 6-сон, 70-модда.
- [3]. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 18-сон, 313-модда.
- [4]. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 30-сон, 729-модда.
- [5]. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2018, 23-сон, 474-модда.
- [6]. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2019, 41-сон, 765-модда.
- [7]. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2019, 28-сон, 504-модда.
- [8]. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2020, 18-сон, 192-модда.
- [9]. Кудрявцев Л.Д. Современная математика и её преподавание. Москва, 1980.
- [10]. Гнеденко Б.В., С.Х.Сирожиддинов. Университеты и научно-технический прогресс. Сборник научно-методических статей по математике. Москва, 1987.
- [11]. Рождественская Е.А. «Модель математических способностей инженера и ее реализация в процессе обучения высшей математике». “Молодой учёный”, 2010, № 1–2(13), т. 2, с. 292–295.
- [12]. Базжина В.А., Лобатюк В.В., Литвинов А.Н. Кадровый резерв как вид инвестиций в человеческий капитал вуза. “Проблемы современной экономики”, 2013, № 4 (48), с. 373–377.
- [13]. Олимов К.Т. Педагогик технологиялар. Т., “Fan va texnologiyalar”, 2011.
- [14]. Юсупов А.И., Эргашев Ж.Ж. Муҳандислик таълимида “Олий математика” фанининг ўрни ва уни ўқитишга янгича ёндашув ҳақида. “ЎЗМУ хабарлари”, 2019, 1/2/1, 252–256-бетлар.
- [15]. Юсупов А.И., Эргашев Ж.Ж. Муҳандислик таълимида математика фанининг ўрни ва уни ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида. «Замонавий таълимида математика, физика ва рақамли технологияларнинг долзарб муаммолари ва ютуқлари» мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Чирчиқ, 2021.
- [16]. Yusupov A.I., Ergashev J.J. The importance of the mathematical knowledge in preparation of engineers and the test-experience conducted on the basis of the applied approach to the subject of mathematics, as well as the analysis of its results resume European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 8, № 10, 2020, Part II.
- [17]. Юсупов А.И., Куромбоев Ҳ.Н. Муҳандис кадрлар тайёрлашда математик билимларнинг ўрни ва муҳандислик таълимида математика ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида. “Математика физика ва математик моделлаштиришнинг долзарб муаммолари” халқаро-илмий амалий конференция материаллари. Қарши, 2021.
- [18]. A.Yusupov, Sh.Pirmatov, J.Ergashev and Kh.Kuromboev. Teaching problems of mathematics in modern higher technical education and experimental results on improving the education quality IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. Application deadline. January 31, 2023.
- [19]. Юсупов А.И., Арзикулов Г.П. Муҳандислик таълимида “Олий математика” курсини инновацион ўқитиш ҳақида. Innovatsiya–2023” XXVII xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2023.

**Adilova Dilorom Nurillaevna (Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy pedagogika” kafedrası dotsenti v.b., PhD; [diloromadilova77@gmail.com](mailto:diloromadilova77@gmail.com))**

#### **BADIIY PEDAGOGIKA VOSITASIDA TALABALARDA MA’NAVIIY-AXLOQIY QADRIYATLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH**

*Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy ta’lim-tarbiyaning maqsadi, talabalarni badiiy pedagogika vositasi orqali fikrlashini rivojlantirish, hamda ularda so‘z san’ati orqali ta’sir ko‘rsatish, hissiy idrok etish, o‘rganilgan materialni vizual-obrazli gavdalantirish va shaxsiy tajribaga yo‘nalganlikni qaror toptirishga oid ma’lumot berilgan.*



*Kalit so‘zlar: badiiy pedagogika, qadriyat, ma’naviy, axloq, tizim, rivojlantirish, vosita, obraz, idrok, so‘z, fikrlash.*

Адилова Дилором Нуриллаевна (ТДПУ имени Низоми, в.и.доцент кафедры “Общей педагогики”;  
[diloromadilova77@gmail.com](mailto:diloromadilova77@gmail.com))

## РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ

*Аннотация. В данной статье целью художественного образования является развитие мышления учащихся посредством художественной педагогики, а также воздействие на них посредством искусства слова, эмоционального восприятия, наглядно-образного воплощения усвоенного материала и личного опыта. жалоба подана.*

*Ключевые слова: художественная педагогика, ценность, духовная, нравственная, система, развитие, среда, образ, восприятие, слово, мышление.*

Adilova Dilorom Nurillaevna (TDPU named after Nizomi, temporary docent of the “General pedagogy”  
department; [diloromadilova77@gmail.com](mailto:diloromadilova77@gmail.com))

## DEVELOPMENT OF A SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN STUDENTS THROUGH ARTISTIC PEDAGOGY

*Annotation. This article provides information on the purpose of art education, the development of students' thinking through the means of artistic pedagogy, and influencing them through the art of words, emotional perception, visual-image embodiment of the learned material, and deciding the direction of personal experience.*

*Key words: artistic pedagogy, value, spiritual, moral, system, development, Motor, Image, perception, word, thinking.*

**Kirish.** O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma’naviy barkamol va mustaqil fikrlaydigan avlodni tarbiyalash orqali jamiyatda zamonaviy ma’naviy makonni yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. “O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevori barpo etilayotgan hozirgi tarixiy jarayonda yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish” [1] ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish mazmunini yoritib berish, Bobur asarlarini o‘rganish jarayonida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo qiladi. Mazkur maqsadlarni amalda tatbiq etishda badiiy pedagogika vositalaridan foydalanish ahamiyatlidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Xo‘sh, biz badiiy pedagogika orqali bugungi yoshlarimizni mutafakkirlarimiz ijodini o‘rganishga qiziqтира оlyapmizmi? Mashg‘ulot jarayonda qanday usullardan foydalanish imkoniyatlari mavjud? Darhaqiqat, badiiy pedagogika pedagogika va adabiyotni birlashtirishga asoslangan pedagogika fanining sohasi bo‘lib, ta‘lim va inson taraqqiyoti qonunlarini badiiy adabiyot orqali o‘rganishni nazarda tutadi. Badiiy pedagogika hissiyotlar haqiqatini izlashda insoniyatning qo‘llanmasi hisoblanadi [2].

Badiiy ta‘lim-tarbiyaning maqsadi har tomonlama rivojlanishning axloqiy-estetik insonparvarlik idealini shakllantirishdan iborat bo‘lib, ularga erishish badiiy-estetik rivojlanish, badiiy did, produktiv obrazli fikrlashni yuzaga kelishini ta‘minlashdir. Fikrlash shakli sifatida badiiy obrazda tabiat, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ong haqida to‘liq ma‘lumot jamlanadi. Badiiy obrazlar yordamida inson fikrlaydi, yangi umumlashma va xulosalarga keladi.

Insonning barcha ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ulardan foydalanishga qaratilgan shaxsning ma’naviy dunyosi hamda munosabatlar tizimiga insonparvarlik ta‘sirini ko‘rsatish uchun tashkil etilgan badiiy ta‘lim-tarbiya voqelik hodisalarini har tomonlama faol idrok etish, to‘g‘ri baholashga yordam beradigan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu sababli badiiy-estetik munosabatni rivojlantirish voqelikni o‘zlashtirishga yordam beradigan va har qanday estetik jihatdan sayoz madaniyat, qo‘pol munosabatlar, soxta, g‘ayriinsoniy illatlarning tarqalishiga qarshi tura oladigan, shaxsga yo‘naltirilgan keng qamrovli qadriyatlarning o‘zlashtirilishini anglatadi.

Badiiy ta‘lim-tarbiya insonning atrof-muhit va san‘at asarlaridagi mazmun orqali estetik hissiyotlarini uyg‘otadigan jarayonlarni aniqlash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Ta‘limiy faoliyatni estetik voqelik sifatida tashkillash orqali yuzaga chiqadigan estetik tuyg‘ular, o‘z navbatida, estetik kechinmalarni paydo qiladi: hayajon, teran fikrlash, qalban poklanish, azoblanish, chorasizlik, xursandchilik va quvonch, ham-

dardlik. Estetik kechinmalar, asosan, o'quv fanlari mazmunida, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda aks ettirilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan muloqotda zarurat sifatida namoyon bo'ladigan badiiy-estetik ehtiyojlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga yordam beradi.

Badiiy ta'lim-tarbiya talabalarining estetik g'oyalar, nazariyalar, qarashlar, baholash mezonlarining umumiylikida ifodalangan voqelik va san'atga ongli estetik munosabatini o'z ichiga oladi. Estetik ongning markazida tabiatda, jamiyatda, inson va san'atda mukammal go'zallik to'g'risidagi ijtimoiy shartlangan ta'savvur, turli predmetlar, hodisalar, hayotiy vaziyatlar va san'at asarlarini shaxsiy badiiy-estetik did nuqtai nazaridan baholash qobiliyati – estetik ideal o'rin egallaydi.

O'quv faoliyati ijtimoiy badiiy-estetik ta'lim shakli sifatida ham hayot tarzi, ham uning ma'naviy mazmunini yorqin va betakror bilish manbai hisoblanadi. San'at asarlari orqali oliy ta'lim muassasalarida bir qator fanlarini o'rganish har doim chuqur va puxta tarzda amalga oshadi, chunki u hissiy jihatdan boyitilgan aniq obrazli fikrlashning butun tizimini harakatga keltiradi. Aynan shu orqali badiiy ta'limda o'quv faoliyatning kognitiv va o'qitishga doir funksiyalari namoyon bo'ladi. Masalan, san'at asarlarida mavjud bo'lgan ma'naviy dunyoni anglash va tushunish uchun katta axloqiy dunyoqarash, hissiy madaniyat, o'tkir idrokka ega bo'lish kerak. Buning uchun o'quv jarayonida milliy va jahon san'atining ajoyib durdonalari asosida talabalarining estetik ongini rivojlantirishga intilish muhimdir.

Badiiy pedagogika san'at va ta'lim-tarbiya jarayonlarining uyg'unlashuvi sifatida o'tgan asrning o'rtalaridan qo'llanila boshlangan. Badiiy-estetik tarbiya bilan bog'liqlikda ana shu paytdan boshlab xalqaro kongresslarda mazkur atamani qo'llash urfga aylana borgan. Pedagog olim B.Xodjajev o'zining tadqiqotlarida mazkur tushunchaga quyidagicha izoh bergan: “Badiiy pedagogika – integrallashgan soha sifatida so'z san'ati va pedagogikaning umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini o'zida ifoda etuvchi, emotsiya – idrok etish – badiiy obrazlarda olam manzarasini anglash triadasining uyg'unligidir” [3;314-b.].

Badiiy pedagogika insonparvar tizim sifatida madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy meros vositasida insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlarga hurmat tuyg'usini hosil qiluvchi hamda badiiy-estetik shakllar orqali ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaruvchi sotsiumning ideallari va qadriyatlari yig'indisi, desak, xato bo'lmaydi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar sohasiga doir badiiy pedagogika – bu talabalarining ijodiy, badiiy-estetik va o'quv-bilish faoliyati vositasida shaxsning motivatsion-qadriyatli, ma'naviy va intellektual rivojiga majmuaviy ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy-axloqiy tarbiya va badiiy asarlar integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan insonparvar ta'lim tizimi.

Talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish nuqtayi nazaridan badiiy pedagogika badiiy-ijodiy faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularda kreativ qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, bilishga ehtiyojni oshirish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. So'z san'ati orqali ta'sir ko'rsatish badiiy faoliyatni hissiy idrok etish, o'rganilgan materialni vizual-obrazli gavdalandirish, shaxsiy tajribaga yo'nalganlikni qator toptirish jarayonlari jadalligini ta'minlaydi. Umuman olganda, badiiy pedagogika o'zida ko'p komponentli ta'limni yaxlit aks ettiradi. Uning tarkibidagi barcha elementlar o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini doimiy to'ldirib turadi.

Badiiy pedagogikaning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalari ikki jihatni o'zida ifoda etadi: fanga doir va shaxsiy. Badiiy pedagogikada aks etuvchi fanga doir jihat pedagogikaga oid turli mashg'ulot shakllarida san'at elementlaridan foydalanishning o'ziga xosliklarini aks ettiradi. Badiiy pedagogikaning shaxsiy jihati pedagogika va badiiy adabiyotning aksiologik imkoniyatlarini kengaytirish orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishda o'z aksini topadi hamda fikrlash jarayonlari, ijodiy, bilishga doir, badiiy va kommunikativ qobiliyatlar orqali amalga oshadi. Badiiy pedagogika vositasi orqali buyuk mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik qarashlariga oid ma'ruza mashg'ulotini quyidagicha tashkil etish mumkinligiga to'xtalib o'tamiz.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 2-kursida o'qitiladigan “Umumiy pedagogika” fanining “Pedagogika tarixi” modulining to'rtinchi – “XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji” mavzusida “Boburning pedagogik qarashlari” o'quv elementi sifatida faqat ma'ruza mashg'ulotida o'rganiladi. Quyida ana shunday interfaol ma'ruzalar, keys-stadi va o'quv loyihasi metodidan foydalanish yo'llarini yoritib beramiz.

**Tahlil va natijalar.** Auditoriya bilan o'zaro muloqotga kirishishga asoslangan ma'ruza – talabalarining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning nisbatan keng tarqalgan shakli. Buning uchun o'qituvchidan talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish so'raldi:

1. Bobur hayoti va ijodi yoritib berilgan qanday tarixiy-badiiy asarlarni o'qigansiz?

2. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini pedagogik manba deb aytish mumkinmi? Agar pedagogik manba deb hisoblasangiz, o‘z asoslaringizni keltirib o‘ting.

3. “Bobur – Vatan sog‘inchining yorqin namunasi” deyish mumkinmi?

4. Boburning yaxshilik, do‘stlik, ilm olish haqidagi qanday fard yoki ruboiylarini bilasiz?

5. Bobur ijodining ta‘lim falsafasi bilan aloqadorligi bormi?

Mazkur ma‘ruza turi o‘rganilayotgan masalaning dolzarbligiga talabalarning diqqatini jalb etish, ta‘lim yo‘nalishining o‘ziga xosliklarini hisobga olish orqali o‘quv materiallarini tanlash uslubini maqsadli tarzda belgilab olish imkonini beradi.

**Munozaraga asoslangan ma‘ruza.** Boburning ijodi va pedagogik qarashlarini o‘rganish jarayonida mazkur ma‘ruza turidan foydalanish orqali o‘qituvchi talabalarning o‘rganilayotgan voqelikka munosabatlarini bilish bilan birga, alohida muammoli-mantiqiy masalalar bo‘yicha fikrlar almashinuvini ham ta‘minlashga erishadi. Masalan, Boburning ijodi va faoliyati haqidagi samimiyatga to‘liq fikrlarni tahlil etish jarayonida o‘qituvchi quyidagi savollardan foydalanishi mumkin:

1. Boburni Navoiysiz tasavvur qilish mumkinmi?

2. Bobur oliyjanoblikka xos qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan?

3. Bobur Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasi deyish mumkinmi?

4. Bobur ruboiylari bilan Navoiy ruboiylari o‘rtasida qanday o‘xshashlik va farqlar mavjud?

5. Boburning taqdirini takrorlay olgan yana boshqa hukmdor bo‘lganmi?

Yuqoridagi kabi savollarni taqdim etish asosida auditoriyada kreativ muhit yaratish orqali talabalarining jamoaviy fikrlash faoliyatini jadal boshqarish hamda o‘rganilayotgan mavzuni ijobiy-emotsional o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

**Keys-ma‘ruzadan ham Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati va pedagogik qarashlarini o‘rganishda foydalanish imkoniyati yuqori bo‘lib, uning ijodi bilan bog‘liq vaziyatlarga doir topshiriqlarni taqdim etish mumkin.** Keys topshiriqlari asosida o‘tkaziladigan ma‘ruza mashg‘ulotini quyidagi bosqichlarga asoslanib, loyihalash maqsadga muvofiqdir. Birinchi – tayyorlov bosqichi. O‘qituvchi Boburning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq biror-bir vaziyat asosida keys topshirig‘ini loyihalaydi va talabalarga kamida bir yoki ikki hafta avval taqdim etadi:

**Keys: “Bobur va betoblik”.** Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning 47 yillik umri tinimsiz jang-u jadallar, qarindosh-urug‘lar, temuriy shahzodalar va beklarning birin-ketin qilgan xiyonatlari, farzandlarining bevaqt vafoti g‘ussalarida o‘tdi. Ustiga-ustak, umr poyonida turli kasalliklar bu irodasi mustahkam kishining ham ruhiyatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. “Boburnoma”da bunday mashaqqatlarga naqadar bardosh bergani, ayrim hollarda dardning zo‘rayishi Bobur ko‘zlaridan achchiq yosh oqizganini ko‘ramiz:

*Jismimda isitma kunda mahkam bo‘ladur,*

*Ko‘zdin qochadur uyqu, chu aqsham bo‘ladur.*

*Har ikkolasi g‘amim bila sabrimdek,*

*Borg‘on sari bu ortadur, ul kam bo‘ladur.*

Bu mavzuda Bobur yaratgan ruboiylarda yana nimalar nazarda tutilgan, uning kasallikdan ranj tortgan vujudida nimalar sodir bo‘lgan? Boburni bezovtalagan, azob tortishiga sabab bo‘lgan bu davrda yaratilgan ruboiylarning barchasi yuqorida keltirilgan parchaning detallari – isitma, uyqusizlik, g‘amning mohiyatini yanada ochish, muallif holatini batafsilroq etkazishga xizmat qilgan. Masalan, mana bu ruboiyda Bobur vujudini isitma tutishi – tana harorati o‘ta yuqoriligi ta‘kidlangan. Bunda muallif darddan forig‘ bo‘lish yo‘lini uning ahvolidan xabar olgan habib-do‘stining so‘rog‘idan so‘ng ko‘ngliga yengillik shabadasi kirib kelganligini bildiradi:

*Jismimda isitma tobidin otashdur,*

*Jonimg‘a balou g‘ussa be barkashdur.*

*Ko‘p dard ila g‘amdin manga noxushlug‘ edi,*

*Sen so‘rg‘ali, ey habib, ko‘nglum xushdur.*

Bobur “Boburnoma”da bir necha o‘rinda uni kasallik tashvishiga solayotganini yozadi. Irodasi mustahkam, har qanday qiyinchiliklarga bardoshli Boburdek shaxs ham bebaho umrning bu imtihoni paytida anchagina uqubat ko‘rgan, gohida tushkunlikka tushganga o‘xshaydi. “Ko‘nglumda o‘tu ikki ko‘zimda suvdur” deb, dil dardini bayon etgan shoir uyqusizlik, firoq, beqarorlik, beorom oqshomlar kabi detallar orqali “Boburnoma”dagi mavzuni yanada yorqinroq ifoda etadi, boyitadi. O‘quvchi uning xasta holatiga davo topish, ko‘zlariga uyqu baxsh etishni o‘ylab qoladi.

**Vaziyatni baholash uchun savollar:**

1. Bobur hayoti bilan bog'liq mazkur vaziyatda qanday ma'naviy-axloqiy qadriyatlar aks etgan?
2. Boburning kasallanishlariga undagi oliyjanoblik va odamlarga ko'p iltifot ko'rsatish, ishonish ham ta'sir ko'rsatgan, deb hisoblaysizmi?
3. Boburning qattiq betob bo'lishiga Ibrohim Lo'diyning onasi malika Baydani ayblash uchun asoslar yetarliymi?
4. Boburning o'g'li Humoyun kasal bo'lgan vaqtdagi xatti-harakatlarini tasavvur qilish orqali ko'z o'ngingizda qanday holatlar gavdalandi?

Ikkinchi – tanishuv bosqichida talabalarga “Bobur va betoblik” nomli keysni muhokama qilish taklifi etildi. Ulardan quyidagi vazifalarni bajarish so'raldi: vaziyat yuzasidan qisqa annotatsiya tuzish; vaziyatni tavsiflash; material ustida ishlash, asosiy tushunchalar lug'atini tuzish.

Uchinchi – asosiy bosqichda dastlab o'qituvchi vaziyatni tahlil etishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan talabalarni tanishtiradi. Keyin talabalarni 4–5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratdi. Guruhlarda hamkorlikdagi ijodiy faoliyatni tashkil etishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim: vaziyatni tahlil qilish asosida asosiy va kichik muammolarni aniqlashtirish; birlamchi va asosiy munozaralarni amalga oshirish. Birlamchi munozaralarda vaziyat muhokama qilinib, turli g'oyalar tahliliga e'tibor qaratilsa, asoslovchi bosqichda esa, natijalar umumlashtirilib, yechimlar ishlab chiqilishi lozim.

To'rtinchi – yakuniy bosqichda vaziyatda aks etgan muammolar yechimi bo'yicha taqdimotlar o'tkazish, guruhlar ishini tahlil etish va baholash hamda o'qituvchining yakuniy xulosasini tinglash amalga oshirildi.

**Xulosa** o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi glaballashuv jarayonlarida badiiy ta'lim-tarbiyaning muhim ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, badiiy pedagogika orqali talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga oshno etish, ularda ishonch, muhabbat, minnatdorlik, burch, oliyjanoblik, hayo, javobgarlik, yomonlikka qarshi kurashish, vahimaga berilmaslik, ma'naviy takomillashuvga intilish kabi ma'naviy-axloqiy tuyg'ularini kamol toptirish, hamda mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagi shaxsiy tajriba va tarixiy haqiqatlarni o'qib-o'rganishlari uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5040-qarori. “Xalq so'zi” gazetasi, 2021 йил 27 март.
- (2). B.T.Jurayev. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma, Buxoro, “Fan va ta'lim”, 2022.
- (3). B.X.Xodjayev. Umumta'lim maktabi talabalarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori. ... diss., Toshkent, 2016, 314 bet.
- (4). Zahiriddin Muhammad Bobur. G'aribing Andijoniydur. Saylanma va she'rlar. Toshkent, “Sharq”, 2008, 288 bet.
- (5). Umumiy pedagogika. Fan dasturi. Toshkent, 2018, 10 bet.

**Daryabaeva Aygul Batirbaevna (O'zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filialining o'quv bo'limi inspektori; Aygul3856@gmail.com)**

#### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH METODLARINING TUTGAN O'RNI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dunyo yuzi va o'zbek umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda qo'llaniladigan eng foydali metodlar haqida so'z bo'lib, asosan chet el metodlarining O'zbekiston Respublikasida bolalar ta'limiga berilayotgan e'tiborning qanchalik ahamiyatliligi haqida so'z bo'ladi. Bugungi kunda yurtimizda oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'lim mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalarni o'qitishda professor-o'qituvchilar tomonidan nimalarga katta e'tibor berilishi kerakligi ochiqqlangan. Shuningdek, yosh kadrlarni ishlab chiqarishda oliy ta'lim muassasasining ahamiyati va kasbi yuzasidan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalt so'zlar:** metod, dars jarayoni, umumta'lim maktablari, boshlang'ich sinf, kadrlar, chet el ta'limi, yuqori sinf va h.k.

#### **РОЛЬ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о мировых и наиболее полезных методах, используемых при обучении учащихся младших классов узбекских школ, главным образом о значении зарубежных методик в обучении детей в Республике Узбекистан. Сегодня выявлено, на что следует

обратить особое внимание профессорам и преподавателям при обучении студентов по специальности «Начальное образование» в высших учебных заведениях нашей страны. Также была дана информация о значении высшего учебного заведения и профессии в подготовке молодых кадров.

**Ключевые слова:** метод, учебный процесс, общеобразовательная школа, начальный класс, кадры, зарубежное образование, старший класс и т.д.

## THE ROLE OF METHODS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Annotation.** This article talks about the world and the most useful methods used in teaching elementary school students of Uzbek schools, mainly about the importance of foreign methods in the education of children in the Republic of Uzbekistan. Today, it has been revealed what should be paid special attention to by professors and teachers in the education of students majoring in elementary education in higher education institutions in our country. Information about the importance of the higher education institution and profession in the production of young personnel was also given.

**Key words:** method, teaching process, general education schools, primary class, personnel, foreign education, upper class. and so on.

**Taqrizchi R.O.Allanbayev, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali direktori, professor.**

**Kirish.** Har bir shaxs shaxs bo‘lib kamolga yetgunicha ancha yo‘l va katta mehnat sarf qilishi sir emas, siz va biz bu yo‘lda ta‘lim degan katta bir mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tganimiz ayni haqiqat. Shunday haqiqat ichida siz-u bizning qo‘limizga qog‘oz-qalam tutqazib, harf yozishni o‘rgatgan ustozlarning mehnati kattaligi, u zotlarning arzimagan oylik maoshga ishlab, u ham yetmaganiday, dalalarda mehnat qilgan davrlari hech kimga sir emas.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida, asosan chet el davlatlarining o‘qitish metodlari tahlil qilindi. Yurtimizda so‘nggi yillarda soha yuzasidan amalga oshirilgan islohotlar, Prezidentimiz qaror va farmonlari o‘rganildi va havola sifatida foydalanildi. Shuningdek, “Science and education scientific journal” jurnalida joriy etilgan Nazarova G., Primova Z., Qadirova F. “Boshlang‘ich sinf ona tili darsida qo‘llaniladigan metodlar” nomli maqolasidan ham foydalanilib, havola berildi va lex.uz, Prezident.uz manbalaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida, asosan, maktab o‘quvchilarining boshlang‘ich sinf davri o‘rganilib, bugingi kunda amalga oshirilayotgan islohatlar va uchinchi renessans davrida umumta‘lim maktablariga berilayotgan katta e‘tibor hamda shu e‘tiborga bo‘lgan munosabatlar qay tarizda ekanligini, ta‘lim dasturida muvaffaqiyatlarimiz, ayniqsa davlatimiz ham-da Prezidentimiz tomonidan joriy etilgan qaror va farmonlarning ahamiyatligi o‘rganildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ko‘pgina rivojlangan davlatlarning ta‘lim dasturlarida boshlang‘ich sinf davri tahlil qilindi.

•Amerika Qo‘shma Shtatlarida 3–5 yosh maktabgacha ta‘lim musassasalarida ta‘lim olsa, maktabga o‘quvchilarni 6 yoshdan qabul qilish joriy etilgan. 1–5-sinf davri boshlang‘ich sinf davrini hosil qilib;

•kunchiqar davlat Yaponiyada bolalar ta‘limga 6 yoshidan qabul qilinadi. 1–6-sinf davrlari boshlang‘ich sinf, 7–9-sinflar o‘rta ta‘lim, 10–12 sinflar yuqori sinf etib belgilangan;

•Fransiya davlatida maktablarga 6 yoshdan qabul qilinadi va boshlang‘ich sinf davri 6–11 yoshni tashkil qiladi;

•O‘zbekistonda maktablarga, asosan, 7 yoshidan qabul qilinishi, 10 yoshgacha boshlang‘ich sinf davrini belgilaydi, 1–4-sinf davri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qamrab olgan.

Tadqiqot tahlil qilish jarayonlarini kuzatar ekanmiz, umumta‘lim maktablarini asosiy 3 ta davrga, ya‘ni, 1-boshlang‘ich sinflar, 2-o‘rta sinflar, 3-yuqori sinflar etib tabaqalashtirish tizim, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda bir xil, lekin o‘qishga qabul qilish yosh ko‘rsatkichi har xilligini ko‘rishimiz mumkin.

**Asosiy qism.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-farmonida<sup>1</sup> “Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta‘limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish...” haqida aniq va-zifalar belgilab berilgan.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>

O'tgan asrning oxirlarida asosan maktab o'quvchilari ommalashgan metodlar – suhbat metodi, bayon metodi, mustaqil ish metodi, analiz va sintez metodi, induktiv metodlar va h.k. bo'ldi. Yuqorida keltirilgan metodlar yordamida o'quvchilar kutilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtira oldilar.

XXI asrning 1-choragi yakunlanish arafasiga kelib, metodlar tushinчасiga katta e'tibor berilib, bolalarimiz bugungi kunda dunyo standartlari asosida tahlil qilingan, aniq maqsadlarga erishishi ko'zlangan metodlar bilan sug'orilmoqda. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida har bir fanni o'qitishda o'ziga xos metodlardan foydalaniladi. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda, induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi. Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi. Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.<sup>1</sup>

Matematika fanida esa suhbat metodi, izohli-illustrativ metodi, reproduktiv metod va h.k.lar qo'llanilishi mumkin.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf pedagog kadrlarni yetishtirib chiqaruvchi mutaxassisliklar ko'p. Maktab ta'limini yanada yaxshilash bo'yicha qabul qilayotgan chora-tadbirlarimizning pirovard natijasi, avvalo, sizlarga, sizlarning fidokorona mehnatingizga bog'liq.

Shunday imkoniyatlardan foydalanib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z kasbiga fidokorona yondashishi turgan gap. Yurtimizda olib borilayotgan yangi islohatlar zamirida har bir pedagog, davlat ravnaqiga xizmat qiluvchi shaxslarning komol topishida xizmatlari cheksizligini anglab yetmoqdalar.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Tadqiqot natijasidan ko'rinib turibdiki, dunyo standartlari asosida bugungi kunda yurtimizdagi umumta'lim maktablarida darslar tashkil etilmoqda. Yangi metod va yangi o'qitish uslublari bugungi zamon talabi hisoblanadi. Pedagog xodimlarning oylik maoshining keying 7–8 yil ichida sezilarli darajada oshirilganligining o'zidan ham ayon bo'lganidek, bu soha vakillari hamisha davlatimiz va Prezidentimizning nazoratida turganligini sezinishimiz lozim. Shunday imkoniyatlardan xulosa qilib o'tganimizdek, ta'lim sifatini oshirish maqsadida quyidagi takliflarning kiritilishi muvofiq bo'ladi:

1. Har bir maktabda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlarini tashkil etish joiz, sababi, malakali pedagog xodimlarning bilim darajasini, ularning dars o'tish jarayonlarini tahlil qilib borish maqsadga muvofiq.

2. Maxsus fanlar uchun bezatilgan sinf auditoriyalarini yaratish, bu orqali fanlarni chuqurlashtirib o'qitish imkoniyati yaratilgan bo'lar edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>

(2). Nazarova G., Primova Z., Qadirova F. Boshlang'ich sinf ona tili darsida qo'llaniladigan metodlari. Science and education scientific journal. Favral 2023, 4 p.

#### **Ortiqov Mironshoh (Toshkent davlat Transport universiteti dotsenti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori) TEMIR YO'L TRANSPORTI SOHASIGA OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz temir yo'l transporti korxonalarida sirtqi ta'lim shaklida ishlaydigan mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari va OTMda kunduzgi bo'limda texnik mutaxassislar tayyorlashning an'anaviy tizimi bilan bog'liq holda ko'rib chiqishni davom ettiramiz. Ushbu yondashuvning qonuniyligi shundan iboratki, OTM bitiruvchisining oliy texnik ma'lumot to'g'risidagi diplomining bilim darajasi va shakllangan universal va kasbiy kompetensiyalari uchun DTSning malaka talablari bilan belgilanadigan qadriyatlarini birlashtirilgan va ta'lim shakllariga ko'ra diversifikatsiya qilingan.*

***Kalit so'zlar:** innovatsion, elektron resurs, animatsiya, texnologiyalar, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, transfer, loyihalash, konstruktorlik.*

<sup>1</sup> Nazarova G., Primova Z., Qadirova F. Boshlang'ich sinf ona tili darsida qo'llaniladigan metodlar. Science and education scientific journal. Favral 2023, 4 p.

Ортиқов Мироншоҳ (Ташкентский государственный транспортный университет,  
доктор технических наук, доцент)

## ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ И ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СПЕЦИАЛИСТОВ С ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ В ОБЛАСТИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА

*Аннотация.* В данной статье мы продолжим рассмотрение особенностей подготовки специалистов, работающих на предприятиях железнодорожного транспорта по заочной форме обучения, к профессиональной деятельности и в связи с традиционной системой подготовки технических специалистов на очной форме обучения в вузе. Правомерность такого подхода заключается в том, что значения диплома о высшем техническом образовании выпускника вуза, определяемые квалификационными требованиями ДТС к уровню знаний и формируемым универсальным и профессиональным компетенциям, объединяются и диверсифицируются по формам обучения.

**Ключевые слова:** программные средства, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирование, конструкторский.

Artykov Mironshakh (Tashkent State Transport University, Doctor of Technical Sciences, docent)

## FEATURES OF PROFESSIONAL TRAINING AND PROBLEMS OF IMPROVEMENT OF SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION IN THE FIELD OF RAILWAY TRANSPORT

*Annotation.* In this article, we will continue to consider the features of training specialists working at railway transport enterprises by correspondence for professional activity and in connection with the traditional system of training technical specialists in full-time education at a university. The validity of this approach lies in the fact that the values of the diploma of higher technical education of a university graduate, determined by the qualification requirements of the DTS to the level of knowledge and the universal and professional competencies formed, are combined and diversified by forms of training.

**Key words:** software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

**Kirish.** Kirish bosqichida oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan dasturlar va ko'rsatmalar orqali temir yo'l transporti sohasidagi oliy ma'lumotli mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini boshlash lozim. Bu jarayon, ularning soha bo'yicha asosiy bilimlarni o'rganish, amaliy mashg'ulotlar orqali tajribalar olish va texnikaviy innovatsiyalarga qiziqishlarini oshirish orqali olib boriladi. Shu sababli sirtqi bo'lim talabalarini tayyorlash ko'p hollarda kunduzgi ta'lim shakli bilan bir xil o'quv rejalarini, bir xil o'quv fanlari dasturlari, bir xil darsliklar va o'quv qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Biroq oliy ta'limning kunduzgi va sirtqi tizimlarining maqsadlari bir xilligiga qaramay, ular "avtoritar ta'lim – o'z-o'zini o'rganish" didaktik aloqasidagi akademik ta'lim va talabalarining mustaqil ishi vaqti nisbatida tubdan farq qiladi" [2] va o'quv faoliyati subyektlari (OTM, o'qituvchilar, tyutorlar) va ta'lim subyektlari (sirtqi bo'lim talabalarini) o'rtasidagi kommunikativ aloqalar ta'minlanadi [3].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Talabalarining sirtqi ta'limning o'ziga xosligini aniqlashga doir tahlil tushunchasini berib tashlash maqsadida, o'zlashtirish uchun yetarli vaqt ajratishning ahamiyatini belgilovchi adabiyotlarga oid o'zbek tilidagi bir tahlil keltirilgan. Ular oliy ta'limning DTSlarining kadrlar tayyorlash mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni va sirtqi ta'limga oid cheklangan 5 yillik o'qitish muddatini, shuningdek, ishlab chiqarishdagi mehnatni OTM ta'limi bilan birlashtirgan shaxsning cheklangan psixofiziologik imkoniyatlari bilan obyektiv ravishda taqdim etadi.

Bu tahlil qatorga olingan ilmiy tadqiqotlar, nazariy o'zbek tadbirlar, va so'nggi yillar davomida sirtqi ta'lim sohasida olib borilayotgan yangiliklar asosida amalga oshirilgan. Ushbu tahlilning natijalari talabalarining sirtqi ta'limning xususiyatlarini va ularning oliy ta'limning DTSlariga mos keladigan o'quv vaqtini ta'minlashga qaratilgan talablar va cheklangan o'qitish muddatini qanday o'zlashtirishlari haqida fikrlar ta'komillashtirilgan. Bu esa oliy ta'lim tizimi va sirtqi ta'limning integratsiyasini va o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratishni maqsad qiladi.

Talabalarining sirtqi ta'limning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy, eng muhim omil bu ularning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishi uchun o'qish vaqtining yetishmasligidir. Bu omil, bir tomondan, oliy ta'limning DTSlarining kadrlar tayyorlash mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablari bilan, ikkinchi tomondan, cheklangan 5 yillik o'qitish muddati bilan, ishlab chiqarishdagi mehnatini OTM ta'limi bilan birlashtirgan shaxsning cheklangan psixofiziologik imkoniyatlari bilan obyektiv ravishda belgilanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).** Temir yo‘l transporti sohasiga oliy ma‘lumotli mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirish muammolari bilan bog‘liq tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi.

**Maqsadlarni aniqlash.** Tadqiqotni boshlashda, oliy ma‘lumotli mutaxassislar kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonidagi muhim maqsadlar va yo‘nalishlarni aniqlaydilar. Bu bosqichda tadqiqotchilar kasbiy faoliyatga tayyorlashda qo‘yilgan maqsadlar va ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan takliflar haqida ma‘lumot to‘plashadi.

**Muammolar va zarurliklarni tahlil qilish.** Tadqiqot jarayonida, kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolarini va ularning yechimlari va talablarini tahlil qilish muhimdir. Bu bosqichda oliy ma‘lumotli mutaxassislar, soha ekspertlari va tajribali o‘qituvchilar bilan muloqotlar olib, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonidagi boshqa muammolar va zarurliklarni tahlil qilishadi.

**Ma‘lumot to‘plash usullari.** Tadqiqot jarayonida, kasbiy faoliyatga tayyorlashning eng samarali usullari aniqlanadi. Bu usullar o‘quv darslaridan, o‘quv usullaridan, ishlab chiqarish stajlari va o‘quv markazlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

**Natijalarni tahlil qilish va taqdim etish.** Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlashning muhim natijalarini tahlil qilish va o‘zlarining kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonidagi tavsiyalarni taqdim etishadi. Bu bosqichda tadqiqotchi olishgan ma‘lumotlarni tahlil qilish, ma‘lumotlarni ta‘minlash va takliflarini taqdim etishadi.

**Tavsiyalar va ilg‘or fikrlar.** Tadqiqot jarayonida olingan natijalar asosida, kasbiy faoliyatga tayyorlashning qanday rivojlanishi kerakligi haqida tavsiyalar va ilg‘or fikrlar formulash muhimdir. Bu fikrlar oliy ma‘lumotli mutaxassislar va tadqiqotchilar tomonidan taqdim etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi orqali, temir yo‘l transporti sohasiga oliy ma‘lumotli mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muammolarini va jarayonlarini samarali, tizimli va ma‘lumotlarga ega bo‘lgan shaklda o‘rganib chiqish mumkin. Bu metodologiya natijasida olingan ma‘lumotlar asosida ma‘lumotli va kasbiy taraqqiyotni ta‘minlash uchun mosliklar va tavsiyalar taqdim etiladi.

OTMda sirtqi ta‘lim shakli bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning muhim o‘ziga xosligini belgilovchi omillardan yana biri bu toifadagi talabalarining “kattalar” deb ilmiy asoslangan e‘tirof etilishidir [3,4,5]. Bunday e‘tirof ularning ta‘lim olishida individual va talabaga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanishni qonuniy va didaktik jihatdan maqsadga muvofiq qiladi [6,7,8,9]. Sirtqi bo‘lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda individual va talabalarga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish “kattalar”ni o‘qitishning asosiy tamoyillarini amalga oshirishga imkon beradi:

– talabalarining shaxsiy qiziqishlari va kasbiy ehtiyojlarini, ularni tayyorlashning boshlang‘ich darajasini hisobga oladigan individual ta‘lim dasturlaridan foydalanishni ta‘minlaydigan ta‘limni individuallashtirish;

– o‘qitish profili va talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan asosiy o‘quv dasturlari mazmunining ularning ishlab chiqarish faoliyatining mavzulariga, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish va malakasini oshirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta‘minlaydigan kontekstli ta‘lim;

– talabalarining kasbiy va hayotiy tajribasiga tayanish, ularni o‘rganish manbalaridan biri sifatida foydalanish;

– ta‘limning selektivligi, ya‘ni, talabalarga ta‘lim maqsadlari, mazmuni, metodlari va vositalarini, ta‘lim vaqti va joyini tanlash, uning natijalarini baholashda ma‘lum erkinlik berish;

– o‘z kasbiy faoliyati doirasida olingan bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy sifat va fazilatlaridan zudlik bilan amaliy foydalanishni ta‘minlovchi ta‘lim natijalarini dolzarblashtirish;

– ta‘lim mustaqilligining ustuvorligi, bu nafaqat talabaning mustaqil ishini, balki o‘quv faoliyatining ustun turini, balki ularni o‘rganish jarayonini mustaqil boshqarishni ta‘minlaydi va buning natijasida talabalarining motivatsiyasi va akademik faolligi, asosiy ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish samaradorligi, ish beruvchilarning bitiruvchilarning sifatli kasbiy tayyorgarligidan qoniqish darajasi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha ishlaydigan talabalarining masofaviy ta‘lim jarayoni kunduzgi bo‘lim talabalarini o‘qitish jarayonidan ta‘lim natijasiga erishish uchun beqiyos katta imkoniyatlar – talabalar o‘rtasida umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari bilan sezilarli darajada farq qiladi. Bu juda muhim omil va didaktik jihatdan muhim ustunlik kompetensiyalarning shakllanishining o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq, ularning rivojlanishi va shakllanishi faoliyat kasbiy jarayonida sodir bo‘ladi.

Sirtqi ta‘lim talabalarini faoliyati haqiqiy kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lsa, kunduzgi talabalar bu faoliyatni sun‘iy simulatsiya qilingan kvaziprofessional muhitda amalga oshiradilar.



Biroq talabalar ishlaydigan temir yo'l transporti korxonalari bilan integratsiyaviy tashkiliy-metodik aloqalar mavjud bo'lgan va faol faoliyat ko'rsatgan taqdiridagina korxonalarda ishlaydigan sirtqi bo'lim talabalarining barcha potensial qadriyatlarini va afzalliklaridan to'liq foydalanish va amalga oshirish mumkin.

Masofaviy ta'lim jarayoni va kunduzgi bo'lim talabalarini o'qitish jarayoni o'rtasidagi yana bir muhim farq shundaki, sessiyalararo vaqtlarda (va bu o'quv yilining ko'p qismi) sirtqi bo'lim talabalarini OTM-dan tashqarida o'qituvchilarsiz, sof mustaqil tarzda o'qishlari kerak. Ushbu obyektiv mavjud voqealiklar, bir tomondan, qo'shimcha ravishda, sirtqi bo'lim talabalarining mustaqil o'quv ishlari orqali o'zini-o'zi tashkil etish va o'zini-o'zi boshqarishga o'rgatishini, ikkinchi tomondan, sirtqi bo'lim talabalarini ta'minlashni o'z ichiga olgan muammolar va ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

**Xulosa va takliflar (Summary and suggestions).** Shuni takidlash lozimki, ilmiy tadqiqotimizda kompetentli yondashuvga asoslangan modulli ta'lim dasturlari va ularni o'z-o'zini boshqarish mustaqil ta'lim faoliyati rejimida rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan mavjud o'quv qo'llanmalarini yaratish muammosi yechimi uchinchi bobda keltirib o'tiladi. Sirtqi ta'lim bo'limi talabalarining o'z-o'zini boshqarish mustaqil ishlarini qo'shimcha o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Dexkanova M.U. Kasb ta'limi metodikasi. O'quv qo'llanma, ToshTYMI, T., 2013, 148 bet.
- (2). Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы). Автор-состав., Ставрополь. 2012, 145 с.
- (3). Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Дисс. канд. пед. наук, 13.00.02. М., МГПУ, 2003, 332 с.; РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
- (4). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент, 2010, 1-сон, 54–57-бетлар.
- (5). Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса. Автореф. дис. канд. пед. наук, Карачаевск, 2003, с. 23.
- (6). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент, 2010.
- (7). Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University, 2019.
- (8). Смолкин, А.М. Методы активного обучения (Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров), М., "Высш. шк.", 1991, с. 175.

#### **Ismoilov Davron Maxmadaliyevich (Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Fizika va elektronika" kafedrasida dotsenti)**

### **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARNING FIZIKADAN EKSPERIMENTAL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida talabalar fizikadan eksperimental tayyorgarligini rivojlantirish uchun bir nechta yo'llar mavjud. Bu yangi texnologiyalar va onlayn resurslardan foydalanish orqali talabalarni amaliy tajribalar bilan ta'minlashga yo'l ochadi va ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar sifatida dasturiy vositalardan foydalanishning ta'lim va tarbiya jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlash samaradorligi fizika fanining "Molekular fizika va termodinamika asoslari" bo'limi misoli yordamida yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** innovatsion faoliyat, tabaqalashtirish, interfaol metodlar, dasturiy vositalar, ideal va real gazlar, modulli ta'lim, ta'limning uzluksizligi, ta'lim oluvchilar, multimedia, ijodiy yondoshish, tanqidiy fikrlash.*

**Исмаилов Даврон Махмадалиевич (доцент кафедры «Физика и электроника» Каршинского инженерно-экономического института)**

### **РАЗВИТИЕ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПО ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются несколько путей развития экспериментальной подготовки студентов по физике на основе цифровых технологий. Это открывает путь к предоставлению учащимся практического опыта за счет использования новых технологий и онлайн-ресурсов, а эффективность использования программных средств в качестве инновационных*

технологий для обеспечения успеха в учебно-воспитательном процессе освещается на примере раздела физика “Основы молекулярной физики и термодинамики”.

**Ключевые слова:** инновационная деятельность, дифференциация, программные средства, интерактивные методы, идеальные и реальные газы, модульное обучение, непрерывность обучения, учащихся, мультимедиа, творческий подход, критическое мышление.

**Ismailov Davron Makhmadalievich (Docent of the Department of Physics and Electronics at the Karshi Institute of Engineering and Economics)**

## **DEVELOPMENT OF EXPERIMENTAL TRAINING OF STUDENTS IN PHYSICS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES**

**Annotation.** This article discusses several ways to develop experimental training of students in physics based on digital technologies. This opens the way to providing students with practical experience through the use of new technologies and online resources, and the effectiveness of using software tools as innovative technologies to ensure success in the educational process is highlighted by the example of the physics section “fundamentals of molecular physics and thermodynamics”.

**Key words:** innovative activity, differentiation, software, interactive methods, ideal and real gases, modular training, continuous learning, students, multimedia, creativity, critical thinking.

**Kirish.** “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’min-lash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi”, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xiz-mat qiladi [1].

**MathCAD.** Bu dastur matematik amallarini bajarish, formulalarni yechish va natijalarni tushuntirishga yordam beradi. “Molekular fizika va termodinamika asoslar” bo‘limida, matematik konseptlarni grafik ko‘rinishda namoyish etish, formulalarni yechish va kompyuter modelligi orqali tasavvur qilish uchun qulaydir.

**Borland C++Builder6.** Bu dasturlash tili dasturlarni yaratish va o‘zgartirish jarayonlarini osonlashtiradi. Molekular fizika va termodinamika bo‘limida, talabalar C++ tilida kompyuter dasturlarini yaratish va fizikaviy modellarni yaratish orqali teorik bilimlarni amaliy ko‘rib chiqishlari mumkin.

**Interaktiv darsliklar.** MathCAD va Borland C++Builder6 dasturlaridan foydalanish, interaktiv darsliklar yaratishga imkon beradi. Talabalar o‘zlarining o‘rganishini osonlashtirish uchun grafik ko‘rinishda materiallarni ko‘rsatish, animatsiyalar va interaktiv vazifalar orqali konseptlarni tushuntirish mumkin.

**Lavhalar va vizual asboblari.** Bu dasturlardan foydalanish, talabalarga fizikaviy materiallarni vizual ravishda tushuntirish imkoniyatini beradi. Grafiklar, chizishlar va modellar orqali konseptlarni o‘qitish, talabalar uchun nazariy ma’lumotlarni amaliy ko‘rib chiqishni osonlashtiradi.

Bular bilan birga, MathCAD va Borland C++Builder6 dasturlaridan foydalanish, “Molekular fizika va termodinamika asoslar” bo‘limini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni tashkil etadi va talabalarni ma’ruza va amaliy bilimlarni osonlashtirishda yaxshi natijalarga olib keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Adabiyotlarni tahlil qilish davomida biz quyidagi innovatsion faoliyati quyidagilarni talab etadi:

Oliy ta’lim muassasalarida ta’limning shakl va mazmunidan kelib chiqib, yangidan yangi metodlarni joriy etishni keng ko‘lamda amalga oshirish zarurati yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda. Shuning uchun o‘qituvchining tashabbuskor, yangilikka intiluvchan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq eta olishi ta’limda sifat va samaradorlikka erishishdagi asosiy omil hisoblanadi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati quyidagilarni talab etadi:

- o‘quv-tarbiya faoliyatini tabaqalashtirish;
- talabalar qiziqishini oshirish uchun kerakli sharoit yaratib berish;
- ta’lim-tarbiya faoliyatining qulayligini ta’minlash;
- talaba shaxsining aqliy qobiliyatlari va imkoniyatlariga ishonish;
- ta’lim-tarbiya muvaffaqiyatini ta’minlash [2], [3].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, fizika fanidan ta’lim jarayonida dasturiy vositalarni qo‘llashni keltirib o‘tamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).** Raqamli texnologiyalar asosida talabalarining fizikadan eksperimental tayyorgarligini rivojlantirishning tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi.

**Maqsad va muammolar tushunchasi.** Tadqiqot boshlanishida, maqsadlar va muammolar belgilanadi. Bu qismda, talabalarining eksperimental fizika tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan maqsadlar, ularning muammolari va talablar ko'rsatiladi.

**Tajribalar tashkil etish.** Talabalar uchun rivojlangan tajribalar tashkil etiladi. Bu tajribalar, kompyuter dasturlari yordamida mo'ljallangan virtual laboratoriyalardan, fizik modellaridan va real tajribalardan iborat bo'lishi mumkin.

**Tavsiyalar va keyingi yo'nalishlar.** Tadqiqot natijalariga, asosan, talabalar tashqi o'qituvchilar va soha mutaxassislaridan tavsiyalar va keyingi yo'nalishlar olinadi. Bu tavsiyalar talabalarning shaxsiy rivojlanishini va qayerda qo'llanishlarini belgilashda yordam beradi. Bu metodologiya orqali, talabalar raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar va modellash texnikalarini qo'llay oladilar, shu orqali eksperimental fizika tayyorgarligini rivojlantirish uchun moslashtirilgan muhitda o'rganishlari mumkin bo'ladi. Ular o'z fikrlarini o'rgangan va o'zlashtirgan natijalarni qo'llash orqali shaxsiy va ilmiy rivojlanishlarini oshirishlari mumkin.

Real gaz molekulari absolyut qattiq sharchalar sifatida qaraladi, ular o'rtasida ishqalanish va o'zaro ta'sir kuchlari mavjud bo'ladi. Real gaz holatini ifodalochi tenglamani keltirib chiqarish uchun Van-der-Vaals, ideal gazning holat tenglamasi bo'lib hisoblangan Klapeyron-Mendeleyev tenglamasi  $PV = \nu RT$  ga molekularning o'lchamini va o'zaro ta'sir kuchlarini hisobga oluvchi tuzatmalarni kiritdi.

Real gazning har bir molekulasini idish ichida  $V' = \frac{1}{6} \pi d^3$  hajmini egallab harakatlanadi. Real gaz molekularining ideal gaz molekulariga o'xshab erkin harakatlana olmasligini hisobga olib, Mendeleyev-Klapeyron tenglamasi  $pV_\mu = RT$  ra  $V_\mu$  o'rniga  $V_\mu = V'_\mu + b$  tuzatma kiritamiz. Bu yerda  $b$  – erkin hajmini hisobga oluvchi Van-der-Vaals tuzatmasi bo'lib hisoblanadi. U 1 mol gazda xususiy hajmi bo'lib hisoblanadi va quyidagiga teng bo'ladi:

$$b = 4N_A V' \quad (0.1)$$

Bu yerda:  $N_A$ –Avogadro doimiysi,  $V'$ –bitta molekulaning hajmi. Bunda molekular o'rtasida juda qisqa o'zaro ta'sir kuchlari yuzaga keladi, shuning uchun ham molekula o'zidan  $r = 10^{-9}$  m masofadan uzoq bo'lmagan zarralar bilan to'qnashadi. Shu masofni molekularning ta'sir chegarasi deb yuritiladi [4].

Idish sirtidan ichkaridagi qatlamlarda harakat qilayotgan molekular o'rtalaridagi o'zaro ta'sir kuchlari muvozanatlashib turadi, gazning chegara qatlamlaridagi, ya'ni, idish sirtiga yaqin sohalarida molekular o'rtasidagi ta'sir kuchlar muvozanatda bo'lmaydi va ularning harakat yo'nalishi idish ichiga tomon yo'nalgan bo'ladi.

$$p_{id} = p + p^* \quad (0.2)$$

Bu yerda  $p^*$  –o'zaro ta'sir kuchlariga asoslangan Van-der-Vaals tuzatmasi bo'lib, u ichki bosim deb ataladi. Ichki bosim gaz hajmining kvadratiga teskari proporsional bo'ladi.

$$p^* = a / V_\mu^2 \quad (0.3)$$

Bunda  $a$  –Van-der-Vaals koeffitsiyenti. Shunday qilib, 1 kilomol gaz uchun Van-der-Vaals tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\left(p + \frac{a}{V_\mu^2}\right)(V_\mu - b) = RT \quad (0.4)$$


Ixtiyoriy  $m$  massali gaz uchun Van-der-Vaals tenglamasi  $\nu$  – modda miqdorini hisobga olganda quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\left(p + \frac{m^2}{\mu^2 V_\mu^2}\right)\left(V_\mu - \frac{m}{\mu} b\right) = \frac{m}{\mu} RT \quad (0.5)$$

Agar ideal gazda molekular o'rtasida ishqalanish kuchlarining hisobga olinmasligini nazarda tutsak, ya'ni  $V_\mu \gg b$  va  $p^* \ll p$  ekanligini e'tiborga olsak Van-der-Vaals tenglamasi Mendeleyev-Kla-

peyron tenlamasiga aylanib qoladi. Shularni inobatga olib, dasturiy vositalardan foydalanib, ikki xil uslubda grafiklarni hosil qilamiz [5], [6].

**1-uslub.** Van–der–Vaals tenglamasidan bosim va hajmning o‘zaro bog‘lanish grafigini hosil qilishda MathCAD matematik dasturiy paketinig ishchi oynasiga kattaliklar ( $a_1, a_2, b_1, b_2, T, R$ ) kiritilgandan so‘ng, quyidagicha (1-rasm) grafik hosil bo‘ladi:



**1-rasm. MathCAD matematik dasturiy paketida grafik tasvir.**


**2-uslub.** Borland C++ dasturlash tilida taqsimot funksiya grafigini quyidagicha hosil qilamiz [6]:

1. Borland C++ builder dasturlash tilini ishga tushiramiz.
2. Formaga komponentalar palitrasidan quyidagi komponentalarni joylashtiramiz.
3. System tarkibidan PaintBox komponentasini formaga joylashtiramiz.
4. Standart tarkibidan Button komponentasini formaga joylashtiramiz.
5. Button tugmachasini OK nom bilan belgilaymiz.

OK (Button) tugmachasiga sichqonchani chap tugmachasini ketma-ket ikki marta bosamiz va quyidagi dastur kodlarini kiritamiz:

```
#include <vcl.h>
#include <math.h>
#pragma hdrstop
#include "Unit1.h"
//_____
#pragma package(smart_init)
#pragma resource "*.dfm"
TForm1 *Form1;
//_____
__fastcall
TForm1::TForm1(TComponent* Owner)
: TForm(Owner)
{ }
//_____
void __fastcall
TForm1::Button1Click(TObject *Sender)
{
double g=10,t,v0,pi=3.1415926;
double x,x1,f,h,x2,x0,y0,fx,fy;
Canvas->MoveTo(450,200);
Canvas->LineTo(440,205);
Canvas->MoveTo(450,200);
Canvas->LineTo(440,195);
Canvas->MoveTo(10,0);
Canvas->LineTo(5,15);
Canvas->MoveTo(10,0);
Canvas->LineTo(15,15);
Canvas->MoveTo(10,200);
Canvas->LineTo(10,0);
Canvas->MoveTo(450,200);
Canvas->TextOutA(20,5,"F(v)");
Canvas->TextOutA(450,210,"v");
//f=StrToInt(Edit1->Text);
//v0=StrToInt(Edit2->Text);
//x=v0*v0*sin(2*pi*f/180)/(2*g);
//t=x/(v0*cos(pi*f/180));
//h=v0*sin(pi*f/180)*t-g*t*t/2;
//Label1->Caption="H="
"+FloatToStr(h)+"m; t="+FloatToStr(t)+"s; Sx="
"+FloatToStr(x)+"m";
x0=0;y0=195;
```

Kompilatsiya jarayoni amalga oshirilgach quyidagicha grafik tasvir kelib chiqadi [6]:



**2-rasm. Borland C++ dasturlash tilida grafik tasvir.**

Funksional komponentlarini ro'yobga chiqarish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Birinchi bosqichda axborot tahlil qilinadi va qayta ishlanadi. Ikkinchi bosqichda muammoni shakllantirish, maqsadni aniqlash, maqsadga erishish sharoitlarini aniqlash va muammoni mumkin bo'lgan yechimlaridan kelib chiqadigan oqibatlarni baholash, vazifalarni xal etish tartibi va metodlarini ishlab chiqish natijalarini baholash yuzasidan qaror qabul qilinadi.

–ta'limda dasturiy vositalardan foydalanishning eng asosiy jihatlari deb quyidagilarni belgilash mumkin [1]:

–kompyuter texnologiyalari dasturlari modulli ta'lim asoslari negizida quriladi. Ta'lim oluvchilar, ya'ni talabalar tomonidan alohida-alohida o'zlashtirilgan har bir o'quv fani doirasida amalga oshiriladi;

–talabalar o'quv jarayonidan so'ng, o'ziga qulay vaqtda, ish jarayonidan uzilmagan holda foydalanish mumkin. Ta'limning uzluksizligi ta'minlanadi;

–talabalar ta'lim muassasasidan qanchalik uzoqda joylashishidan qat'iy nazar, o'quv jarayonini tashkil qilinishiga, teskari aloqa o'rnatilish imkoni bo'ladi;

–ta'lim oluvchilar, ya'ni talabalarining soni jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmasligi uchun "om-maviy jalb" etiladi;

–kompyuter texnologiyalarining barcha yangi dasturlaridan, kompyuter tarmoqlaridan, multimedia tizimi kabilardan oqilona foydalaniladi.

**Xulosa va takliflar (Summary and suggestions).** Raqamli texnologiyalar asosida talabalarining fizikadan eksperimental tayyorgarligini rivojlantirishga oid xulosalar va takliflar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar va simulatsiya dasturlari talabalarga fizikadagi tajribiy tushunchalarini oshirishda samarali vositalar sifatida ishlaydi. Bu texnologiyalar talabalarga amaliy tajribalar o'tkazish, ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Eksperimental tajribalar o'tkazishning ilg'or usullaridan biri modellashtirishdir. Modellashtirish jarayonida talabalar modellar yaratish va ularga raqamli texnologiyalarni qo'llay oladilar. Bu mo'ljallangan tajribalar tashkil etish va natijalarni ta'limda ishlatish imkoniyatlarini oshiradi.

Talabalar internetdagi ma'lumotlar bazasidan foydalanish orqali ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish jarayonlarini o'rganishlari mumkin. Bu, ularning istiqbolga qaratilgan tajribalar va soha ustida tajribalaridan foydalanishiga imkon beradi.

Raqamli darsliklar va o'quv modullari, talabalarga konseptlarni oson tushuntirish va mustaqil o'rganishga imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Bu texnologiyalar tajribiy tayyorgarlikni oshirish va o'zlashtirishda muhim vositalar sifatida faol ishlaydi.

**Takliflar.** Oliy o'g'itish muassasalarida va litsey va kollejlarda fizika o'qituvchilari raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyalar ustida kasb-hunar bilimlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xususiy darsliklar tayyorlash kerak.

Talabalar uchun masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish uchun raqamli darsliklar va interaktiv o'quv modullari yaratish va ularga erkin kirish imkoniyatlarini ta'minlash muhimdir.

Fizika o'qituvchilari va soha mutaxassislarining hamkorlikda, talabalarining virtual laboratoriyalarda o'zlarining tajribalarini o'rganish va tahlil qilishga rahbarlik qilish uchun tayyorlovchi dasturlar tuzish lozim.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni ko'rib chiqish, darsliklarni yangilash va o'qitish uslublarini integratsiyalash va o'quv jarayonini mustahkamlash lozim. Bu yordamda talabalar eksperimental tayyorgarlik va fizika bilimlarini oson va samarali o'rganishlari mumkin bo'ladi.

Ta'limda dasturiy vositalardan foydalanish o'quv-tarbiya jarayoni faoliyatidagi harakatlar majmuasini talabalar xotirasida uzoq vaqt saqlanishini ta'minlab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish uchun zamin yaratishdir. Bunda mustaqil ta'lim madaniyati rivojlanadi, o'qituvchining ko'rgazmali qurol tayyorlash uchun sarflanadigan vaqti va mablag'i tejaladi, o'qituvchilarning kompyuter savodxonligi ortadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Абдукодилов А.А., Турсунов С.К. Таълимда ахборот технологиялари. Дарслик, Т., “Адабиёт учкунлари”, 2019.

(2). Байденко В.И. Болонский процесс: результаты обучения и компетентностный подход. М., Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2009, с. 48–492.

(3). Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. М., «Народное образование», 2007, № 2, с. 54 – 55.

(4). Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2019. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/voll/iss10/55>

(5). Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту №1/1-Ф и применением технологий программирования. Преподаватель XXI век. М., 2018, с. 88–92. <http://prepodavatel-xxi.ru/sites/default/files/10.pdf>.

(6). Ismoilov D.M. <http://www.idpublications.org/wpcontent/uploads/2020/06/Full-Paper.METHODS-OF-SCIENTIFIC-KNOWLEDGE-AND-RESEARCH-IN-THE-CONTENT-OF-SECONDARY-EDUCATION.pdf>.

(7). Исмоилов Д.М. Методы научного познания и исследования в содержании среднего образования по физике. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 2020, t. 8, № 8, с. 92–99.

(8). Исмоилов Д.М. (2021). Место междисциплинарной связи в профессиональных компетенциях. Инновации в технологиях и образовании (с. 96–98).

(9). Makhmadalievich, Ismoilov Davron. Development of methods of scientific knowledge at the modern stage. The 4th International scientific and practical conference “Fundamental and applied research in the modern world” (November 18–20, 2020). BoScience Publisher, Boston, USA. 2020, 1036, p. 2020.

**Allaberganova Muyassar Rimberganovna (TATU Urganch filiali katta o'qituvchisi;  
email: [amuyassar83@gmail.com](mailto:amuyassar83@gmail.com))**

#### **SMART TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITET TALABALARINING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA**

*Annotatsiya. Maqolada “Smart ta'lim” tushunchasi va uning olimlar tomonidan berilgan ta'riflari, ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ushbu ta'lim tizimining mohiyati ochib berilgan va uning asosiy tamoyillari haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Oliy ta'lim muassasalarida smart texnologiyalardan foydalanib ta'lim resurslari yaratish, shu asosda talabalar bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha fikr-mulohazalar tavsiflangan.*

**Kalit so'zlar:** smart, smart ta'lim, smart texnologiya, smart ta'lim konsepsiyasi, interaktiv ta'lim, smart jamiyat.

**Аллаберганова Муяссар Римбергановна (старший преподаватель Ургенчского филиала ТУИТ; email: [amuyassar83@gmail.com](mailto:amuyassar83@gmail.com))**

#### **SMART-ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВУЗА**

*Аннотация. В статье раскрывается понятие «smart образование» и его определения, данные учеными, его место в образовательном процессе и сущность этой образовательной системы, а также общие сведения о ее основных принципах. Описаны мнения о создании образовательных ресурсов с использованием smart-технологий в высших учебных заведениях и формировании на этой основе у студентов знаний, умений, навыки и компетенций.*

**Ключевые слова:** smart, smart образование, smart технологии, концепция smart образования, интерактивное образование, smart общество.

**Allaberganova Muyassar Rimberganovna** (senior teacher of the Urgench branch of TUIT;  
email: amuyassar83@gmail.com

## SMART TECHNOLOGIES AS A TOOL FOR FORMING THE COMPETENCES OF UNIVERSITY STUDENTS

**Annotation.** The article reveals the concept of “smart education” and its definitions given by scientists, its place in the educational process and the essence of this educational system, as well as general information about its basic principles. Opinions are described on the creation of educational resources using smart technologies in higher educational institutions and the formation on this basis of students' knowledge, abilities, skills and competencies.

**Key words:** smart, smart education, smart technologies, smart education concept, interactive education, smart society.

**Kirish (Introduction).** Zamonaviy inson muhitining ajralmas qismiga aylangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi natijasida ta'lim tizimi sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An'anaviy o'qitish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladigan odatiy sinf xonasi va cheklangan dasturlarga ega elektron ta'lim, asta-sekin aqlli ta'lim, moslashuvchan boshqaruv muhiti bilan almashtiriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** “Elektron universitet” xalqaro konsorsiumi prezidenti, Moskva davlat Iqtisodiyot, statistika va informatika universiteti (MESI) professori V.P. Tixomirov: “Smart – bu jamiyat taraqqiyotining yangi paradigmasi bo'lib, u internet imkoniyatlarini va yangi bilimlarni yaratuvchi maxsus tayyorlangan insonlarni talab qiladi” [1].

Respublikamiz yetakchi olimlaridan A.A.Abduqodirovning ta'kidlashicha, smart texnologiyalar – o'zaro ta'sir va tajriba almashish negizida protseduralarga uzatiladigan, avvallari axborot va bilimlarga asoslangan texnologiyalardir. “Smart”ning tayanch xossasi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir etish va unga moslashish qobiliyatidir. Uning ushbu xususiyati mustaqil qiymatga ega va shahar, universitet, ta'lim texnologiya, jamiyat va ko'pgina boshqa kategoriyalarga qo'llanishi mumkin [2].

Ta'lim tizimida smart texnologiyalardan foydalanish jarayonini quyidagi olim va o'qituvchilar tavsiflab berdilar: Bekturova Z.K., Vagapova N.N., Esina L.S., Grizlova O.Y., Belova E.S., Pugachev A.A., Molchanova E.A. va boshqalar

Pugachev A.A aqlli ta'limni amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishga yordam beradigan butun ta'lim tizimini rivojlantirishning yangi vektori sifatida belgilaydi [3].

Grizlova O.Y. “smart texnologiya” tushunchasini ta'lim jarayoni elektron muhitda, internetda amalga oshiriladigan innovatsion texnologiya sifatida belgilaydi.

Bekturova Z.K. va Vagapova N.N. smart texnologiyalar bilim va ma'lumotlarga asoslanganligini unutmashlik kerakligini aytganlar. Ularning fikricha, smart texnologiyalar, o'qitish va tarbiyalashning sifat jihatidan yangi shakl va usullarini yaratish uchun zamin yaratadi. Ular kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga va o'quv fanlarini doimiy ravishda yangilashga yordam beradi [4].

Belova E.S ta'lim tizimiga smart texnologiyalarni joriy etish ikkita fundamental omil mavjudligini taqozo qiladi:

– aniq maqsadni belgilash, ya'ni, talabalarning zamonaviy raqamli dunyoda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirish [5];

– ta'lim jarayonining barcha subyektlari kompetensiyalarini doimiy ravishda samarali shakllantirish uchun intellektual muhitni yaratish [6].

Esina L.S kasb-hunar ta'limi tizimiga smart texnologiyalarni joriy etish bo'yicha quyidagi tarkibiy qismlarni ilgari suradi:

– o'quv va ta'lim jarayonini moslashtirish va shaxsiylashtirish;

– elektron interaktiv ta'lim muhitida ta'lim erkinligi;

– butun dunyo bo'ylab ma'lumotlardan cheksiz foydalanish [7].

Molchanova E.A smart texnologiyalardan foydalangan holda, pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarning kompyuter savodxonligi yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish va malaka oshirish kurslaridan o'tishlari zarurligi haqida gapiradi.

Smart ta'lim konsepsiyasi talabalarning jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz rivojlantirish uchun intellektual, do'stona, moslashuvchan muhitni yaratishdir. Ushbu

ta'limning asosiy g'oyasi an'anaviy ma'ruzalar, seminarlar va boshqalar bilan bir qatorda qo'llaniladigan yangi bilim manbalari va texnologiyalarini birga qo'llanilishidir.

Smart ta'lim – bu o'qituvchilar, mutaxassislar va talabalarining global bilimlardan foydalanish va “ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va jamiyatning globallasuvi sharoitida zamonaviy mamlakatning rivojlanishi”ga muvofiq faol kontentga o'tish bo'yicha sa'y-harakatlarini birlashtirgan eng yangi ta'lim muhiti. [6;7-b.].

“Smart ta'lim” – bu umumiy standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida internetda qo'shma ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari va pedagogik xodimlarni birlashtirish [8]

Smart ta'lim – bu barcha ta'lim jarayonlari, shuningdek, ushbu jarayonlarda qo'llaniladigan usullar va texnologiyalarning har tomonlama aloqasini o'z ichiga olgan yo'nalish. Talabalar uchun bilim manbalari nafaqat sinflarda yoki elektron muhitda ishlaydigan darslik va o'qituvchilar, balki dunyoning istalgan vaqti-da va istalgan nuqtasida mavjud bo'lgan cheksiz internet kengliklari bo'lishi kerak.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Smart ta'lim: o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillari. Tez rivojlanayotgan axborot jamiyati smart texnologiyalar (kompyuter dasturlari, intellektual ta'lim dasturlari, multimedia va boshqalar), shuningdek, aqlli qurilmalar (aqlli doska, smart ekran) asosida yangi ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi. Smart texnologiyalar, aqlli qurilmalar va internet resurslari ishtirokchilar uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarga ega integratsiyalashgan intellektual virtual o'quv muhitini yaratish imkonini beradi.

Smart ta'lim elementlarini mavjud ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli kiritish uchun smart ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak:

1. Yuqori texnologiyali qurilmalardan foydalangan holda, interaktiv ta'lim muhitida o'rganishning moslashuvchanligi.

Smart trening bugungi kunda hamma uchun tanish bo'lgan zamonaviy AKT va internet resurslaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. O'quv jarayoni, iloji boricha, talaba hayotida, uzluksiz, shu jumladan, kasbiy muhitda, kasbiy faoliyat vositalaridan foydalangan holda o'qitilishi kerak. Davom etayotgan o'zgarishlar va talabalarining ortib borayotgan talablarini qondirish uchun smart ta'limni moslashuvchan, sifatli va innovatsion bo'lishi kerak.

2. Integratsiyalashgan o'quv muhiti. Zamonaviy smart-jamiyat va uning “hayot davomida ta'lim” yondashuvi hamma joyda “tinglovchilar uchun qulay bo'lgan joyda o'qitish” tamoyili bo'yicha o'qitish zarurligini ko'rsatadi, ya'ni, smart-ta'limni amalga oshirishning muhim tamoyili bilim berish moslashuvchan content yordamida amalga oshiriladi. Ya'ni, o'quv jarayoni joyga, umuman, uni o'tkazish vaqtiga nisbatan o'zgarimasdir. Internet-resurslar har qanday foydalanuvchi uchun ochiqdir va ko'plab ta'lim internet-kontentlarining mavjudligi va mavjudligi bizga ma'lumot olish va bilimingizni oshirish zarurligini anglashga imkon beradi. Biroq, o'qitishning o'zi maqsadli jarayon sifatida, elektron o'quv materiallaridan tashqari, smart o'qitishda AKT vositalari tomonidan amalga oshiriladigan integratsiyalashgan axborot muhiti doirasida talabalar va o'qituvchilarning ijtimoiy-axborot birlashmasi orqali ta'minlanadigan uslubiy komponentning mavjudligini talab qiladi.

3. Barcha universitetlar tomonidan kontentni almashish. Smart-ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish oliy o'quv yurtlari tomonidan smart-ta'lim texnologiyalari asosida oliy o'quv yurtlarining “elektron qarindoshlik” loyihasi o'quv kontentining umumiy ombori (axborot ombori)ni birgalikda ishlab chiqish va ulardan foydalanish mumkin [9]. Ushbu yondashuvning afzalliklari aniq: universitet o'qituvchisi noldan mustaqil ravishda o'quv mazmunini yaratishi shart emas, umumiy ombordan foydalanib, u bilan ishlashda materialni yangilash kifoya. Smart-ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ish beruvchi tomonidan universitet bitiruvchisi talabasiga taqdim etiladigan vakolatlar modelini obyektiv ravishda shakllantirishga imkon beradi, maxsus o'quv dasturlari, seminarlar va master-klasslarni yaratish ko'p marta soddalashtirilgan,

4. O'qitishni shaxsiylashtirish va moslashtirish. Aqlli texnologiyalarga asoslangan ta'lim o'rganilayotgan kurs mazmunini o'z natijalari bilan taqqoslash, shaxsiy fazilatlariga e'tibor qaratgan holda individual ta'lim trayektoriyasini qurish orqali ichki salohiyatni ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy talaba, agar unga quyidagi imkoniyatlar taqdim etilsa, individual traektoriya bo'ylab oldinga siljishi mumkin: o'rganishning optimal shakli va sur'atini tanlash; uning individual xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullaridan foydalanish; faoliyatini baholash va tuzatishni amalga oshirish.

Shaxsiy ta'lim trayektoriyasini tuzishda talaba o'z maqsadiga sifatli kasbiy ta'limga erishish uchun o'z imkoniyatlarini, qobiliyatlarini, istiqbollarni, qiziqishlarini va materialni o'rganishga tayyor bo'lgan sa'y-harakatlarini baholashi kerak. Bunday holda, o'qituvchi maslahatchi sifatida ishlaydi, talabaga talabaning ta'lim trayektoriyasi bo'ylab harakatini tanlash, baholash va tuzatish imkoniyatini beradi. Bunda tala-



baning individual qiziqishlari, imkoniyatlari va maqsadlariga, o'quv materialini o'zlashtirishda uning xususiyatlariga, u bilan ishlash usullariga alohida e'tibor beriladi [10].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O'quv jarayonining bunday qurilishi individual ravishda tabaqalashtirilgan yondashuvga asoslanadi, bu o'z-o'zini o'qitishni samarali amalga oshirishga, shuningdek, ish sur'ati va o'quv materialining mazmunini tartibga solishga imkon beradi. Tadqiqot ishida AKT sohasida kasb ta'limi yo'nalishi talabalari uchun "Latexga kirish" fani tanlandi, elektron content tayyorlandi. Dasturiy ta'minot majmuasida har bir ma'ruza 5 ta bo'limdan iborat: videoma'ruza, taqdimot, ma'ruza matni, topshiriq va internet havolalari, har bir ma'ruza 3 darajada, oson, o'rtacha va murakkab qiyinlik darajasida taqdim etiladi. Oson ma'ruzadan topshiriqni bajarib o'tgan talabaga, o'rtacha qiyinlik darajasidagi ma'ruza taqdim etiladi, o'rtacha qiyinlik darajasidagi ma'ruzani o'zlashtirgan talabga o'rtacha qiyinlik darajasidagi topshiriqni bajarsa, juda qiyin murakkab darajasidagi ma'ruza taqdim etiladi. Misol uchun, agar talaba ma'ruzani juda qiyin deb belgilagan bo'lsa, biz unga ushbu ma'ruza uchun zarur bo'lgan mavzularni o'rganishni dastur yordamida maslahat berishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Aqlli jamiyat, birinchi navbatda, jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qiluvchi aqlli texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Smart jamiyat sivilizatsiya rivojlanishining yangi bosqichini ifodalaydi, insoniyat taraqqiyoti uchun sifat jihatidan yangi imkoniyatlar beradi va yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, xususan, aqlli ta'limni rivojlantirish imkoniyatlarini ochadi. Smart ta'lim konsepsiyasining rivojlanishi dunyoda yangi texnologik paradigmaning rivojlanishiga mos keladi, bu aqlli hayot sharoitlariga va butun mamlakatga tezroq moslashish imkonini beradi.

Smart-ta'lim bu zamonamizning global muammolari va imkoniyatlariga javob beradigan, eng yuqori darajadagi ta'limni ta'minlashga qodir bo'lgan, universitet bitiruvchilariga nafaqat tez o'zgaruvchan professional muhitda o'zini anglash, balki innovatsion jamiyatga moslashish imkonini beradigan ta'limni endi aqlli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Тихомиров В.П. Мир на пути Smart education. Новые возможности для развития. Открытое образование. 2011, № 3, с. 22–28. ISSN: 1818-4243eISSN: 2079-5939
- (2). Abduqodirov A.A. Smart-texnologiyasiga oid tushunchalar va uning asosiy tamoyillari. Axborot ta'lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari (15 aprel 2019-yil), Toshkent, TDPU, 2019.
- (3). Ваганова О.И., Алешугина Е.А., Максимова К.А. Проектирование электронных учебных курсов. Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2019, т. 8, № 3 (28), с. 57–59.
- (4). Миралиев А.М., Шарипов Ф.Ф. Управление образовательным процессом вуза на основе современных информационных технологий. Вестник Педагогического университета, 2012, № 3–2 (46), с. 20–25.
- (5). Ваганова О.И., Кутепов М.М., Карпова М.А. Информационные технологии обучения бакалавров в высшем учебном заведении. Карельский научный журнал, 2019, т. 8, № 3 (28), с. 7–10.
- (6). Шарипов Ф.Ф. Подготовка преподавателей и студентов вузов к применению информационных технологий обучения. Вестник университета (Российско-Таджикский (Славянский) университет), 2011, № 32, с. 285–291.
- (7). Везетиу Е.В., Ваганова О.И. Проблема определения структурных компонентов педагогического такта как одной из составляющих профессионального мастерства учителя. "Проблемы современного педагогического образования", 2018, № 59-1, с. 93–95.
- (8). Борисенко И.Г. Виртуальные тенденции в глобальном образовательном пространстве: Smart-технологии. "Философия образования", 2015, № 3 (60), с. 55–64. DOI: 10.15372/PHE20150307
- (9). Пфаненштиль И.А., Яценко М.П., Борисенко И.Г. Проблемы образования в информационном обществе: социально-философский аспект. "Профессиональное образование в современном мире", 2013, № 4 (11), с. 60–65. ISSN: 2224-1841
- (10). Тихомиров В.П., Тихомирова Н.В. Smart eLearning – новая парадигма развития образования и обеспечения устойчивой конкурентоспособности страны. ИКТ в образовании: педагогика, образовательные ресурсы и обеспечение качества. Мат-лы междунар. конф., М., Институт ЮНЕСКО, 2012, с. 17–19.
- (11). Завражин А.В., Карманов М.В., Шубина И.В., Карманов А.М. SMART: содержание и особенности проникновения в современное общество. М., МЭСИ, 2015, с. 247. ISBN: 978-5-7764-0973-8
- (12). Данченко Л.А., Невоструев П.Ю. SMART-обучение: основные принципы организации учебного процесса. "Открытое образование", 2014, № 1 (102), с. 70–74. ISSN: 1818- 4243eISSN: 2079-5939

**Baxieva Palzada Baxitbaevna (Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)**  
**CHET TILLARINI O'QITISHDA TIL XABARDORLIGINI QO'LLANISHNING AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Chet tillarini o'qitish metodikasida til xabardorligi termini keng qo'llanilib va o'qitish jarayoniga kiritilishi taklif etilmoqda. Chet tillarini o'qitish va uni o'rganishda, birinchi navbatda, tilni sezib va tushunib o'rganish alohida ahamiyatga ega. Bu maqolada til xabardorligi tushunchasi, chet tillarini o'rganishda til xabardorligining o'rni, o'rganuvchilarda til xabardorligini rivojlantirish usullarining ahamiyati haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** kontekst, til bilimi, til xabardorligi, tilni tushunish, til komponentlari, ta'lim, chet tili.*

**Бахиева Палзада Бахитбаевна (Нукусский государственный педагогический институт, докторант)**  
**ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЯЗЫКОВОЙ ОСВЕДОМЛЕННОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ**

***Аннотация.** В методике обучения иностранным языкам широко используется термин языковая осведомленность, и ее предлагается включить в процесс обучения. В преподавании и изучении иностранных языков, прежде всего, важно понимать язык. В данной статье говорится о понятии языковая осведомленность, и её роли в изучении иностранных языков, а также о важности способов развития языковой осведомленности у учащихся.*

***Ключевые слова:** контекст, знание языка, языковая осведомленность, понимание языка, языковые компоненты, образование, иностранный язык.*

**Bakhieva Palzada Bakhitbaevna (PhD student, Nukus State Pedagogical Institute)**  
**THE IMPORTANCE OF USING LANGUAGE AWARENESS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE**

***Annotation.** In the methodology of teaching foreign languages, the term language awareness is widely used and it is proposed to include it in the learning process. In teaching and learning foreign languages, it is first of all important to understand the language. This article defines the concept of language consciousness, in the study of foreign languages, as well as the importance of ways to develop language awareness in students.*

***Key words:** context, language knowledge, language awareness, language understanding, language components, education, foreign language.*

**Kirish.** Tilning ta'limdagi o'rni yillar davomida tadqiqotlarning asosiy qiziqishlaridan biri bo'lib kelgan va turli nuqtayi nazardan o'rganilgan. Butun dunyo tadqiqotchilari bu sohaga qiziqish bildirishdi. Ta'limda tilga qanday munosabatda bo'lishni tekshirishning ko'plab usullari ishlab chiqilgan. Tadqiqotchilar umumiy tilni rivojlantirish, shuningdek, chet va ikkinchi tillarni o'rganishga qiziqish bildirishgan. Tilning ta'limdagi o'rni bilan bog'liq bo'lgan yana bir soha bu tilni bilishdir. O'quv dasturida tilni biladigan o'qituvchi til uchun namuna va maxsus til o'qituvchisi ekanligi aytiladi. Ko'proq qiyin, ijodiy va kelajakka yo'naltirilgan til ta'limiga bo'lgan hozirgi talab til o'qitish va o'rganishga yanada yaxlitroq qarashni talab qiladi. Til ta'limiga yaxlit nuqtai nazar lingvistik, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy jihatlarni hisobga olishi va "tinglash, gapirish, o'qish va yozish o'zaro ta'sir qiladigan va bir-biriga bog'langan vaziyatlardan foydalangan holda real hayot tiliga" e'tibor qaratish kerak. "Til haqida aniq bilim, tilni o'rganish, til o'rgatish va tildan foydalanishda ongli idrok etish va sezgirlik" deb ta'riflangan til xabardorligi tilni o'rgatish va o'rganish bo'yicha ushbu yaxlit nuqtayi nazarga mos keladi. Til xabardorligi tilni o'rganish orqali tilni o'rganishni to'ldirishga qaratilgan, lingvistik aks ettirishga yordam beradi va yuqori darajadagi va ijodiy fikrlash qobiliyatlaridan foydalanishni ta'minlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** "Til xabardorligi" tushunchasi 1970-yillarda mashhur bo'lgan "Britaniya til xabardorligi harakati"ning asoschisi Erik Xokins tomonidan kiritilgan. Xokins til xabardorligining yakuniy maqsadini ona tili ta'limini jonlantirish hamda chet tili ta'limi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishni ko'radi. Xususan, u til xabardorligi maqsadlarini quyidagicha ishlab chiqadi:

- 1) boshlang'ich maktabdan o'rta maktabga o'tishni ko'prik qilish;
- 2) o'qituvchilarga uchrashuv joyini va talabalarga til ta'limining mustaqil yo'nalishlarida tilni muhkama qilish uchun umumiy lug'atni taklif qilish, shu jumladan, ona tili ingliz tili, ingliz tili chet tili, ikkinchi til sifatida ingliz tili, etnik ozchiliklarning ona tillari va lotin tilini o'rganish;
- 3) talabalarni tilga qiziqtirish;
- 4) yosh ota-onalarning chaqaloqlarning til rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganish uchun "bolaga g'amxo'rlik" kurslarida til elementiga yo'l tayyorlash;

5) lingvistik muammolarni hal qilish uchun til xilma-xilligini ochiq muhokama qilishni rag'batlantirish;

6) qarama-qarshi o'rganish orqali o'quvchilarning til namunalarini tushunishga ishonchini oshirish;

7) o'quvchilarning tinglash qobiliyatini, o'qishga bo'lgan ishonchini va yozma tillardan foydalanishga motivatsiyasini rivojlantirish rag'batlantiradi.

Xokinsning funksional maqsadlari, birinchi navbatda, 70–80-yillardagi ingliz tilini o'qitishning noto'g'ri ishlashi va u bilan bog'liq ijtimoiy muammolarga javob bo'lib, bu davrda maktab bitiruvchilarining ona tili savodxonligi bo'yicha past natijalarga erishganligi va o'rta maktablarda chet tili kurslarini tark etganlarning soni qayd etiladi [4;5–17-b.].

Ta'limda Til bo'yicha milliy kengash ishchi guruhi til xabardorligining quyidagi qisqacha ta'rifini berdi:

“Til xabardorligi – bu insonning tilga nisbatan sezgirligi va ongli ravishda anglashi tilning tabiati va uning inson hayotidagi o'rni” hamda til o'rganuvchilarning sezgirligi va ongliligi rivojlanadigan uchta keng ko'lamlı parametr: kognitiv parametr (masalan, til shakllaridan xabardor bo'lish), affektiv parametr (masalan, chet tillari va ularning so'zlovchilariga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish) va ijtimoiy parametr (masalan, fuqarolar va mijozlar kabi ijtimoiy rollarda o'quvchilarning samaradorligini oshirish)

**Tadqiqot metodologiyasi.** CoBins Cobuild English Language Dictionaryga ko'ra, “biror narsadan xabardor bo'lish” nimanidir ikki darajada bilish yoki amalga oshirishni nazarda tutadi: birinchidan, siz bu haqda o'ylab ko'rganingiz uchun yoki uni endigina payqaganingiz uchun bilasiz, ikkinchidan, siz nimanidir anglaysiz, chunki uni eshitasiz, ko'rasiz, hidlaysiz yoki his qilasiz. Longman lug'atining zamonaviy ingliz tiliga ko'ra, “ogoh bo'lish” “bilim yoki tushunish” va “o'zini, atrofini va boshqa odamlarni tushunishni ko'rsatish”, ya'ni sezgir bo'lishni anglatadi [1;3–6-b.].

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, til o'rganuvchida anglash til hodisasiga qatnashish, uning xususiyatini payqash, u haqida fikr yuritish, uni tushunish yoki bilishdan boshlanadi. Til xabardorligining psixolingvistik ma'nosini o'rganishdagi xabardorlikning rovida ham ko'rish mumkin. Shmidt ongning ikki darajasi belgilaydi. Ogohlilikning pastki, subyektiv darajasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan “diqqat” va “sezish” bilan ifodalanadi; ongning yuqori darajasi “ong” va “tushunish” bilan ifodalanadi. Avvalroq Shmidt ta'kidlaganidek, “eng ko'p e'tibor beradiganlar ko'proq o'rganishadi”. Adabiyotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, o'rganish tushunish va ongni nazarda tutadi, bu esa, o'z navbatida, sezishni nazarda tutadi va sezish diqqat bilan chambarchas bog'liq [3;15-b.].

Til xabardorligi “insonning tilning tabiati va uning inson hayotidagi o'rni”ga nisbatan sezgirligi va ongli ravishda anglashi”, aniqrog'i, “insonning tilga munosabati”ni bildiradi. Til xabardorligi bu yerda tilning haqiqiy qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ortib boruvchi insoniy sifat sifatida talqin etiladi. Til xabardorligi Buyuk Britaniyadan Fransiya, Germaniya va Kanada kabi mamlakatlarga qadar til ta'limidagi til xabardorligi harakatini shakllantirdi va ahamiyat berdi va maktab o'quv dasturiga asosiy tarzda kirdi. Bu o'rta maktab o'quvchilarini tilni o'zlashtirish, tildan foydalanish va tilni o'zgartirish bilan tanishtirish, shu bilan ularning ushbu sohalarga qiziqishini oshirish va maktabda o'qish orqali ularga til haqida bilim berishga qaratilgan o'quv tashabbuslarining asosiga aylandi.

**Tahlil va natijalar.** Til xabardorligi ta'limning ko'plab zamonaviy sohalariga tarqaldi. Tadqiqotga bevosita taalluqli bo'lish uchun biz ta'lim ma'nosida til xabardorligining to'rta istiqboliga e'tibor qarata-miz: til xabardorligi rivojlanish sifati, o'quv komponenti, til ta'limi, metodologiya sifatida va ijtimoiy-ma'rifiy ma'noda tanqidiy tadqiqot sifatida. Keng ta'lim kontekstida qanday pozitsiyani egallashdan qat'i nazar, til xabardorligi o'quvchilarning til haqidagi bilimlarini egallashini va til haqida mulohaza yuritishni o'z ichiga olgan sifat va o'quv rejasini rejalashtirish va rasmiy o'qitishni ishlab chiqish va yaxshilash mumkin bo'lgan sifat ekanligi umumiy qabul qilinadi.

Til xabardorligi metodologiyasi sifatida Wright va Bolito, Borg va Gnutzmann tomonidan til o'qituvchilari ta'limida til xabardorligiga e'tibor qaratgan holda ilgari surilgan. Wright va Bolito til xabardorligini “til va tildan foydalanishni, uning sinf amaliyoti bilan aloqalari va oqibatlarini o'rganish uchun metodologiya” deb hisoblashadi [5;293-b.]. Ularning o'qituvchilar va o'qituvchi trenerlariga mo'ljallangan til xabardorligi faoliyatining uslubiy asosi o'qituvchilik kasbining tili haqidagi fundamental bilimlarga asoslanadi, bu hal qiluvchi ahamiyatga ega, lekin, ko'pincha, kam rivojlangan. Til xabardorligi ishi o'qituvchilarni lingvistik hodisalarga sezgir qiladi va “tilni o'rganish, kashfiyotlar va oldingi bilimlar haqida fikr yuritish, tilni turli yo'llar bilan ko'rish orqali” tilga bo'lgan izlanishlarini ilhomlantiradi. Wright va Bolito faqat tildan xabardor o'qituvchi til o'rganishni kuchaytirishi mumkinligiga ishonch bilan til xabardorligini yuqoridan pastga yondashuv bilan targ'ib qiladi, birinchi navbatda, til xabardorligi faoliyatining imkoni-

yatlarini sinab ko'rish va ularni o'qituvchilarga ko'rsatish, so'ngra ularni loyihalash tamoyillarini ishlab chiqish va oxir-oqibat o'qituvchilarni o'z til sinflarida til xabardorligi ishlarini qo'llash uchun kerakli tajriba va kengaytirilgan va boyitilgan bilim bazasi bilan ta'minlaydi. Wright va Bolito qarashlaridan kelib chiqqan holda, Borg chet tillarini o'qitish metodologiyasi sifatida til xabardorligi asosi bo'lgan tamoyillari turli til xabardorligi konsepsiyasi sifatidagi umumiy tushunchadan kelib chiqqan holda tushunchalar beradi. Til xabardorligiga yo'naltirilgan o'qituvchilarni tayyorlashning xususiyatlarini bayon etadi va tilni o'rganish muhimligi, "Tilni o'rganish – bu dinamik hodisaning davom etayotgan tadqiqoti" ekanligini ta'kidlaydi [2;120-b.]. U "kashfiyotga yo'naltirilgan, ham ta'sirchan, ham kognitiv jihatdan rag'batlantiruvchi vazifalar" o'qituvchilarning tilni aniq tushunishini va o'z o'rganishlari haqida xabardorligini qanday oshirishi mumkinligini tasvirlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, rivojlanish sifati va ta'lim amaliyoti sifatida til xabardorligi tarafdorlari ba'zi xususiyatlarni baham ko'radilar: ular maqsadli tillar, maqsadli til foydalanuvchilari va maqsadli madaniyatni qadrlashadi; ular yuqori til xabardorligi o'qituvchining kognitiv-lingvistik va ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga foyda keltirishiga ishonishadi; ular til xabardorligini yaxlit ko'rishadi; va ular til xabardorligini ta'lim kontekstida rivojlantirish, yaxshilash va targ'ib qilish mumkinligiga ishonishadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Bolitho, R. (1998). Language awareness in the English classroom. *English Teaching Professional*, 6, 3–6.
- (2). Borg, S. (1996). Language pedagogy and linguistics. *Language Awareness*, 5, 2, p. 118–124.
- (3). Hawkins, E. (1984). *An Awareness of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
- (4). Hawkins, E. (1992). Awareness of language. Knowledge about language in the curriculum of England and Wales: An historical note on twenty years of curricular debate. *Language Awareness*, 1, 1, p. 5–17.
- (5). Wright, T. & Bolitho, R. (1993). Language awareness: a missing link in language teacher education? *ELT Journal*, 47, 4, p. 292–304.

**Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna (Urganch Innovatsion universiteti "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi, UrDU mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: [feruzaxonkutlieva@gmail.com](mailto:feruzaxonkutlieva@gmail.com))**  
**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHI SHAXSINING SHAKLLANISHIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINING ROLI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasi, pedagogik mahorati va o'qituvchi shaxsini rivojlantirishda kompetensiyalarning ahamiyati xususidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, pedagogik, refleksiv kompetensiya, maxsus kompetensiya, fanga oid kompetensiya, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.

#### **РОЛЬ КОМПЕТЕНЦИИ САМОРАЗВИТИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация.** В данной статье даются соображения о важности компетенций в развитии самоконтроля, педагогического мастерства и личности будущего учителя начального образования.

**Ключевые слова:** компетенция, профессиональное, педагогическое, рефлексивная компетенция, специальная компетенция, предметная компетенция, компетенция саморазвития.

#### **THE ROLE OF SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY OF A FUTURE PRIMARY TEACHER**

**Annotation.** This article provides ideas on the importance of competencies in the development of self-management competence, pedagogical skills and teacher personality of a future elementary education teacher.

**Key words:** competence, professional, pedagogical, reflexive competence, special competence, competence in science, competence in self-development.

**Kirish.** Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlaniishi, o'zini-o'zi anglash qobiliyatini shakllantirishi, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish xislatlarini shakllantirishga erishishi lozim. "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmuni va uning dolzarbligidan kelib chiqib, unga quyidagicha izoh keltirish mumkin: birinchidan, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohasining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir, ikkinchidan, ta'lim tushuncha-

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi, uchinchidan, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat, ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi, to'rtinchidan, fan jamiyatining ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shaklidir. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib, ma'naviy barkamol insonni yetishtirishda, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni tiklashga xizmat qiladi”.

Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'lim tizimi yosh avlodni barkamol ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgandir. Ana shunday barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi o'qituvchining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. Buyuk alloma inson ruhiyatining muhandisi Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida shunday fikr bayon qiladi: “O'qituvchining barcha xatti-harakatlari ezgulikdan iborat bo'lmog'i lozim”. Ezgulik, avvalo, bola qalbiga yo'l topishdan boshlanadi. U bilan g'amxo'r, hamnafas bo'lish, beg'ubor qalb egasini hurmat qilish, xohish-istaklariga befarq bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda, bolajon bo'lish zarur”.

Bola tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirishda yangi zamonaviy bilimlarni keng ko'lamli olib borilishi kerak. Chunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to'g'ri samarali foydalanish esa o'qituvchilarning, tarbiyachilarning vazifasidir.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'quvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Shu munosabat bilan, uzluksiz ta'lim, o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalasi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo'yildi.

Yangi metodik mahorat, bu yangi pedagogik texnologiya deganidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va shaxsiyati rivojlanishdagi muhim bosqich bo'lib, u yuqori darajadagi ta'limni kafolatlashi shart. Maktab har bir o'quvchiga individual o'quv dasturini taklif qila olmasligi sababli o'qituvchilarimiz individual, psixologik va intellektual qobiliyatlarni hisobga oladigan, shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydigan o'quv modellarini izlaydilar.

Agar kompetensiyaga asoslangan yondashuvning paydo bo'lishi, rivojlanishi va pedagogik amaliyotga tatbiq etilishi masalasi tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, kompetensiyaga asoslangan ta'limni shakllantirish uchun bosqichda amalga oshirilganligiga guvoh bo'lamiz.

Birinchi bosqich (1960–1970) ilmiy apparatga “kompetensiya” toifasini kiritish, kompetensiya, kompetentlik tushunchalarini farqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan tavsiflanadi. 1965-yilda Massachusetts universitetida tilning nazariy grammatikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot doirasida N. Chomskiy birinchilardan bo'lib “kompetensiya” tushunchasini kiritdi. U kompetensiya (so'zlovchi-tinglovchining o'z tilini bilishi) va foydalanish (muayyan vaziyatlarda tildan haqiqiy foydalanish) o'rtasidagi tub farqni ko'rsatdi. Shu vaqtdan boshlab, tillarni o'rgatishda lingvistik kompetensiyaning har xil turlarini o'rganish boshlanadi va “kommunikativ kompetentlik” tushunchasi kiritiladi [1].

Ikkinchi bosqich (1970–1990) o'qitish nazariyasi va amaliyotida “kompetensiya” va “kompetentlik” atamalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda turli xil faoliyat turlari uchun “ijtimoiy kompetensiyalar va kompetentlik” tushunchalari ishlab chiqiladi. J.Raven ushbu masala bo'yicha tadqiqotlarida kompetensiyani ma'lum bir fan sohasida muayyan harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus qobiliyat sifatida batafsil talqin qiladi. Jumladan, yuqori ixtisoslashgan bilim, ko'nikma, fikrlash usullari va o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishga tayyorlik. O'zining ilmiy tadqiqotida J.Raven o'ttiz yetti turdagi kompetensiyalarning ro'yxatini taqdim etadi. U “kompetentlik” atamasini ko'p sonli tarkibiy qismlardan tashkil topgan hodisa sifatida qaraydi, ularning aksariyati bir-biriga nisbatan mustaqildir.

Ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muammosi bo'yicha uchinchi bosqich o'tgan asrning 90-yillarida boshlangan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Bu UNESKOning tadqiqotlari va materiallarida ta'limning kerakli natijasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan bir qator kompetensiyalarni belgilab berishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, so'nggi paytlarda mutaxassisni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan, kasbiy madaniyat bilan bog'liq mavjud bilim va ko'nikmalarni, o'z-o'zini tahlil qilish, shuningdek,

shaxs xususiyatlarining davlat tartib-qoidalarining mazmuni, jamoat odob-axloq me'yorlari, guruh an'analari va munosabatlari bilan o'zaro bog'liqlik darajasi bilan o'lchanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Hozirgi vaqtda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish muammosi mustaqil maqomga ega bo'lib, pedagogika fanining alohida sohasiga aylandi. Bu ko'plab omillar, birinchi navbatda, shaxsning hayot yo'lining o'ziga xosligini, uning shaxs sifatida shakllanishining o'ziga xosligini belgilaydigan hodisa sifatida o'z-o'zini rivojlantirishning ahamiyati bilan bog'liq. M.A.Shukinaning nazariy sharhida ta'kidlanganidek, zamonaviy nazariy tushunchalarda o'z-o'zini rivojlantirish faoliyatning maxsus turi sifatida yoki hayot tarzi sifatida, yoki faoliyat usuli sifatida, yoki hayot strategiyasi, yoki hayot yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi [2]. Biroq yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, ko'pchilik olimlar o'z-o'zini rivojlantirish – bu ichkaridan belgilanadigan jarayon ekanligi va insonning o'z hayotiy faoliyati va o'zini-o'zi o'zgartirish subyekti bo'lish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligiga qo'shiladi. Xususan, V.I. Slobodchikov va E.I.Isayevlar ta'kidlashlaricha, “o'z-o'zini rivojlantirish – bu insonning o'z hayotining haqiqiy subyekti bo'lish va o'z hayotiy faoliyatini amaliy o'zgartirish subyektiga aylantirishning asosiy qobiliyatidir” [3]. O'z-o'zini rivojlantirish haqida ko'plab ta'riflar N.A.Nizovskixning asarlarida berilgan. O'z-o'zini rivojlantirish deganda muallif “insonning o'z ongida, munosabatlarida, tajribalarida va xulq-atvorida sifat jihatidan yangi narsalarni yaratish bo'yicha hayotiy vazifalar va ichki motivatsiyalarga muvofiq maxsus psixologik vositalar yordamida amalga oshiriladigan o'ziga xos faoliyati”ni tushunadi [4].

**Tadqiqot metodologiyasi,** O'qituvchi shaxsining o'z-o'zini takomillashtirishi – uning kasbiy rolini bilishi, mumkin bo'lgan pedagogik qarorlar va ularning oqibatlarini tushunishi, uning kasbiy faoliyatini umumlashtirishi, istiqbollarini prognozlashi, o'z-o'zini boshqarishi va rivojlantirish qobiliyati, tayyorligi bilan shakllanadi. O'z-o'zini takomillashtirish jarayonining ildizida mavjud professionallik darajasi (I-real) va uning simulyatsiya qilingan holati (1-ideal) o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklarni doimiy ravishda bar-taraf etishning psixologik mexanizmi yotadi. O'qituvchi shaxsini takomillashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasining shakllanish darajasini o'rganish;
- maqsadlar tizimini loyihalash;
- qo'yilgan maqsadlarga erishishning mazmuni va adekvat usullarini aniqlash;
- muayyan vaqt davomida olingan natijalarni va ularning belgilangan maqsadlar bilan bog'liqligini aniqlash;
- shu asosda yangi maqsadlarni belgilash.

O'z-o'zini takomillashtirish progressivlikning asosidir. Kasbiy rivojlanish o'qituvchining shaxsiyatini belgilaydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kompetensiya va ularning turlari tizimli va xilma-xildir. Ulardan eng universalini tanlash muammosi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchi kompetensiyalarining turlari ikkita asosiy elementni o'z ichiga olishi kerak. Birinchisi, ijtimoiy-psixologik jihat. Bu jamiyat bilan uyg'unlikda faoliyat yuritish istagini anglatadi. Ikkinchi element – professionallik. Bu muayyan faoliyat sohasida ishlashga tayyorligi ta'minlaydi. Ushbu komponentlarning har biri, o'z navbatida, ma'lum turdagi kompetensiyalarga bo'linishi mumkin. Pedagogik jarayonda asosiy va maxsus elementlar mavjud. Birinchisi OTM bitkazuvchilarning barchasi, ikkinchisi ma'lum mutaxassislar uchun muhim.

Kompetensiya so'zi lotincha “compete” so'zidan olingan bo'lib, erishyapman, munosibman, loyiqman kabi ma'nolarni anglatadi. Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talab. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, o'quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi. Jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga, kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. A.G.Bermusning fikriga ko'ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtiradi” [5].

Ta'lim-tarbiya sohasida asosiy universal kompetensiya unsurlarini anglab olish zamonaviy pedagogikaning asosiy muammolaridan biridir. Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an'anaviy o'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda, kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo'lib, hali yechilmagan masalalar talaygina. A.Avloniy nomidagi O'qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi L.T.Xurvaliyeva: “Kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatleri, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati”, deb ta'riflaydi [6].

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi doimiy ravishda jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish kamolotga intilish hayot davomida mustaqil o'qib o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini mustaqil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining ayrilmas sifati uning kasbiy kompetensiyasidir. Kasbiy pedagogik kompetensiya – "ma'lum bir qadriyatlar, ideallar tashuvchisi sifatida o'qituvchining uning pedagogik faoliyati, pedagogik aloqasi va o'qituvchi shaxsining shakllanishini belgilaydigan bilim, ko'nikma va malakalarning kerakli miqdoriga egaligi", deb tariflanadi va pedagogik ong deb nomlanadi. Ta'limning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq pedagogik kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mustaqil ravishda o'qish;
- malaka oshirish yoki to'liq qayta tayyorlash;
- vaziyatni va o'zingizning imkoniyatlaringizni tezda baholang;
- qarorlar qabul qilish va ular uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish;
- o'zgaruvchan yashash va mehnat sharoitlariga moslashish.

Refleksiv kompetensiyalar mazmuniga quyidagilar kiradi: o'z faoliyatini va ta'lim oluvchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish va baholash malakasi, o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi undash va o'z ustida ishlash. U pedagogning shaxsiy yutuqlarining tartibga soluvchisi, shuningdek, kasbiy o'sish va pedagogik mahoratni takomillashtirishga undovchi hisoblanadi. Refleksiv kompetensiya alohida maxsus kompetensiyalar bilan bevosita integratsiyalashgandir.

Maxsus kompetensiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchisini boshqa pedagoglardan farqlaydi va qo'shimcha o'rganishni talab etadi. Biz uning mazmunini quyidagicha belgiladik: a) fanga oid kompetensiya – boshlang'ich ta'lim kursi mazmunining ilmiy asoslariga oid bilimlarini qo'llashga tayyorgarlik, o'quv faniga ijobiy munosabat, o'quv materialini mazmuni bilan o'zaro aloqadorlikda zarur hajmdagi maxsus tushunchalarni ongli egallaganlik, fan bo'yicha ilmiy axborotni tushunish va tizimlashtirish malakasi, o'quv fani mazmunini ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirish malakasi; b) metodik kompetensiya – o'quv fani bo'yicha o'quv materialini rejalashtirish, tanlash, sintezlash, o'quv fani bo'yicha mashg'ulotlarning turli shakllarini tashkil etishga tayyorgarlik, shuningdek, ta'lim olishga faoliyatli yondashuvlarni amalga oshirishga tayyorgarlik va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv ishlarini tashkil etish malakasi, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini qo'llashga tayyorgarlik, o'qitishning sog'liqni saqlash texnologiyalarini malakali qo'llash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kompetentligi tuzilmasini aniqlashga bunday yondashuvda uni ta'limning yangi mazmunini hamda yangi o'quv rejalari, dasturlarini ishlab chiqishda, darsliklar yozishda foydalanish, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda unga tayanish hamda yosh mutaxassisning moslashish davrini qisqartirish imkoniyati yuzaga keldi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati kichik yoshdagi o'quvchilarda bilim olishga qiziqishni rivojlantirish, ularning shaxsini shakllantirish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati ko'p qirrali hodisa bo'lib, ta'lim jarayoniga yangiliklarni kiritish bilan tavsiflanadi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga bog'liq ravishda ko'plab boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu boshlang'ich maktab faoliyati innovatsiyasining xos xususiyatlari va tabiatida bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi.

O'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini boshqarish va uning rivojlanishining yuqori darajasiga ko'tarilish qobiliyati boshlang'ich sinf o'qituvchisining ilmiy pedagogik qidiruvni amalga oshirish, oldindan ma'lum natijaga ega bo'lmagan pedagogik vaziyatda ijodiy muammolarni ilmiy asosda hal qilish, mohiyatan doimiy ravishda o'zgarib turadigan ko'p o'lchovli ta'lim makonida tadqiqotchi bo'lish qobiliyatini anglatadi.

**Xulosa.** Ta'lim sohasini isloh qilishni, avvalambor, boshlang'ich ta'limdan boshlash zarur. Zero, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar birlashtirib qo'yilishi darkor. Shu zaruratdan, maktab ta'limini, o'rta maxsus ta'lim tizimini, shu bilan birga, oliy ta'limni ham tubdan isloh qilish rejalashtirilgan. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo'lishi kerak. Pedagogning o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarishi, ota-onalar va bolalarning izzat-hurmatiga sazovor bo'lishi uchun ham unda qobiliyat, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Samarali ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'zi mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli

kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borishi lozim.

O'qituvchining o'z-o'zini takomillashtirish jarayoni ikkita o'zaro bog'liq shaklda amalga oshiriladi. Professional o'z-o'zini tarbiyalash – bu kasbiy kompetensiya darajasini oshirish maqsadida o'qituvchining bilim, ko'nikma, malakalarini amaliyot vositasida yangilash va takomillashtirishdir. O'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari: shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi; kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish; umumiy, huquqiy va pedagogik madaniyatni, estetik va jismoniy fazilatlarini rivojlantirish; o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, doimiy o'zini-o'zi takomillashtirish qobiliyati, shaxsning o'zini-o'zi shakllantirishi uchun barqaror motivatsiya; o'z xatti-harakati, ehtiyojlari va his-tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, hissiy-irodaviy o'zini-o'zi boshqarish usullarini o'zlashtirish.

O'qituvchilarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish muhim vazifadir.

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligining bu tomoni har doim dolzarb bo'lib kelgan, ammo uning ahamiyati, ayniqsa, mahalliy ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida ortib bormoqda. Bu amaliyotga yo'naltirilgan pedagogika fanining hal qiluvchi roli va o'qituvchining taktik va strategik ta'lim muammolarini hal qilishdagi eksperimental ishi bilan bog'liq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. М., 2004, с. 40.

[2]. Щукина М.А. Саморазвитие личности: история и современное состояние проблемы в отечественной психологии. Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 12. Психология. Социология. Педагогика. 2009, № 1-1, с. 154 – 164.

[3]. Слободчиков В.И. Основы психологической антропологии. Психология развития человека: развитие субъективной реальности в онтогенезе. В.И.Слободчиков, Е.И.Исаев. М., 2000.

[4]. Низовских, Н.А. Человек как автор самого себя: психосемантическое исследование жизненных принципов в структуре саморазвивающейся личности. М., 2007.

[5]. [https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-kasbiy-kompetensiyani-shakllantirishga-oid-ilmiy-yondoshuvlar/International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2/issn: 2181-3337 pedagogik kasbiy kompetensiyani shakllantirishga oid ilmiy yondoshuvlar.](https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-kasbiy-kompetensiyani-shakllantirishga-oid-ilmiy-yondoshuvlar/International%20scientific%20journal%20volume%201%20issue%208%20uif-2022%3A8.2/issn%3A2181-3337) Jakbarova Oyazimxon Mutalipovna.

[5]. <https://prezi.com/p/fobbzhlt3yyd/kompetensiya-tushunchasi/>

[6]. Бусыгина, А.Л. Профессор – профессия. Теория проектирования содержания образования преподавателя вуза. 2-е изд., испр. и доп., Самара, изд-во СамГУ, 2003.

[7]. Asadov Y.M. va b. O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korrektsiyalash metodikalari. T., Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITi, 2016.

[8]. Деркач А.А., Заикин В.Г. Акмеология. Учебник, СПб., 2003.

[9]. Жуков Ю.М. Коммуникационный тренинг. М., 2003.

[10]. Isayev I.F. O'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyati. M., 2002.

[11]. Колесникова И.А., Титова Е.В. Педагогическая праксеология. М., 2005.

[12]. Психология и педагогика. Учебник, под ред. А.А.Бодалева, В.И.Жуков, Л.Г.Лаптева, В.А.Сластенина. М., 2002.

[13]. Садовникова Н.О., Симанюк Е.Е. Методика профессиональной подготовки учителей. Екатеринбург, 2005.

[14]. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.

[15]. Asqarova O'.M. Pedagogika. Toshkent, «Talqin», 2008.

[16]. Bo'ronov M., Qurbaniyozov G. Pedagogik amaliyot–ixtisoslik kamoloti. Nukus, «Bilim», 1995.

[17]. <https://pkvolt.ru/uz/seweraqe/professionalnoe-samosovershenstvovanie-budushchih-specialistov.html>.

**Otanazarova Mohira Hamidbekovna (BuxDU doktoranti; otanazarovamohira15@mail.com)  
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM  
METODOLOGIYASI**

*Annotatsiya. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim metodologiyasi turli innovatsion yondashuvlarni, pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada biz bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim metodologiyasining asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, texnologiya*



*integratsiyasi, faol o'qitish strategiyalari, tabaqalashtirilgan ta'lim, madaniyatga mos ravishda o'qitish, baholash va qayta aloqa, kasbiy rivojlanish, refleksli amaliyot va innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'rganamiz.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, metodologiya, malaka, tajriba, ijodkorlik, zamonaviy ta'lim metodlari, ilmiy salohiyat, o'qitish usullari.

## СОВРЕМЕННАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Аннотация.** Современная педагогическая методика в подготовке будущих учителей включает в себя различные инновационные подходы, педагогические технологии. В данной статье мы представляем основные компоненты современной педагогической методики в подготовке будущих учителей, в том числе интеграцию технологий, исследуем стратегии активного обучения, дифференцированность обучения, преподавание с учетом культурных особенностей, оценка и обратная связь, профессиональное развитие, рефлексивная практика и инновационные педагогические подходы.

**Ключевые слова:** образовательная система, методика, квалификация, опыт, креативность, современные методы обучения, научный потенциал, методы обучения.

## MODERN EDUCATIONAL METHODOLOGY IN TRAINING FUTURE TEACHERS

**Annotation.** Modern educational methodology in training future teachers includes various innovative approaches, pedagogical technologies. In this article, we present the main components of modern educational methodology in training future teachers, including technology integration, teaching strategies, differentiated instruction, culturally responsive teaching, assessment and feedback, professional development, reflective practice, and innovative pedagogical approaches.

**Key words:** educational system, methodology, qualification, experience, creativity, modern educational methods, scientific potential, teaching methods.

**Kirish.** Bugungi kunda texnologiyalarning jadal rivojlanishi, jamiyatda o'zgarishlar va shaxsiylashtirilgan ta'limga e'tibor kuchayishi bilan o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Binobarin, bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim metodologiyasi pedagoglarni bugungi ta'lim sharoitlarida ilmiy salohiyatlarga ega bo'lishi uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi. An'anaviy, barchaga mos keladigan o'qitish usullari zamon o'tib ketdi. Zamonaviy ta'lim metodologiyasi o'qituvchilarni samarali jalb qilish va mazmunli o'rganish tajribasini osonlashtirish uchun pedagogikada yangilik, moslashuvchanlik va ijodkorlik zarurligini tan oladi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilar o'qituvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijodkorlikni rivojlantirish va sinfning doimiy o'zgaruvchan talablariga moslashish uchun turli xil vositalar va strategiyalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim metodologiyasining asosiy ustunlaridan biri texnologiya integratsiyasidir. Raqamli vositalar va resurslar o'qitish va o'rganishning ajralmas qismiga aylangan davrda bo'lajak o'qituvchilar ta'limni yaxshilash, o'qituvchilarni jalb qilish va mazmunli o'rganish tajribasini osonlashtirish uchun texnologiyadan foydalanishda malakali bo'lishlari kerak [1;56–57-b].

Ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga olgan o'quv dasturlari o'qituvchilarni dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratish uchun raqamli vositalar, onlayn platformalar va interfaol resurslardan foydalanish ko'nikmalari bilan ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim metodologiyasi o'qituvchilarning faolligini, tanqidiy fikrlashni va hamkorlikni rivojlantirish uchun faol ta'lim strategiyalaridan foydalanishga urg'u beradi. Bo'lajak o'qituvchilar loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim va hamkorlikda o'qitish kabi pedagogik yondashuvlar bo'yicha tayyorlanadi, bu esa o'qituvchilarni o'z ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Faol ta'lim strategiyalarini o'z o'qitish amaliyotiga kiritish orqali o'qituvchilar ijodkorlik, izlanish va amaliy izlanishni rivojlantiradigan sinf xonalarini yaratishi mumkin, bu esa o'qituvchilarda bilimlarni chuqurroq tushunish va saqlashga olib keladi [5;116-b].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim metodologiyasining yana bir muhim tarkibiy qismi tabaqalashtirilgan ta'limdir. O'qituvchilarni turli xil ta'lim uslublari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga ega ekanligini e'tirof etgan holda, o'qituvchilar individual farqlarni hisobga olish va inkluziv ta'lim muhitini targ'ib qilish uchun o'z yo'riqnomalarini moslashtirishga o'rgatiladi. Differensial ta'lim bo'yicha trening o'qituvchilarni har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun tarkibni, o'qitish usullarini va baholash usullarini o'zgartirish strategiyalari bilan jihozlaydi, natijada barcha o'qituvchilarning akademik muvaffaqiyati va faolligini rag'batlantiradi. Borgan sari rang-barang va ko'p

madaniyatli jamiyatda madaniy jihatdan sezgir o'qitish zamonaviy ta'lim metodologiyasining muhim jihati sifatida paydo bo'ldi. Bo'lajak o'qituvchilar o'z o'quvchilarining madaniy kelib chiqishi, o'ziga xosligi va tajribasini tan olish va hurmat qilish, inkluziv va adolatli ta'lim muhitini yaratishga o'rgatiladi. Madaniy jihatdan sezgir o'qitish xilma-xillikni qadrlash, ijtimoiy adolatni targ'ib qilish va o'quvchilarni madaniy boyliklari va tajribalariga asoslangan mazmunli va tegishli ta'lim tajribasiga jalb qilish muhimligini ta'kidlaydi [4;89-b.].

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy ta'lim metodologiyasi o'qitish va o'qitishda doimiy baholash, fikr-mulohazalar va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishdan foydalanishga ustuvor ahamiyat beradi. Bo'lajak o'qituvchilar formativ baholash strategiyalarini qo'llashga, o'quvchilarga o'z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etishga va o'quv amaliyotlari va o'quvchilar taraqqiyoti haqida ma'lumot berish uchun baholash ma'lumotlaridan foydalanishga o'rgatiladi. O'qituvchilar o'zlarining o'qitish amaliyotiga baholash va qayta aloqa mexanizmlarini kiritish orqali o'quvchilarning o'rganishini kuzatishlari, o'sish yo'nalishlarini aniqlashlari va individual o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitishni sozlashlari mumkin. Kasbiy rivojlanish va aks ettirish amaliyoti bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim metodologiyasining ajralmas tarkibiy qismidir [2;15-b.].

Pedagoglar uzluksiz bilim olish, ustozlik izlash va pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z pedagogik amaliyoti haqida fikr yuritishga rag'batlantiriladi. O'quv dasturlari umrbod ta'lim va kasbiy o'sish madaniyatini yuksaltirish orqali bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim sohasidagi tadqiqotlar, ilg'or tajribalar va innovatsiyalardan xabardor bo'lish imkoniyatini beradi, natijada ularning samaradorligi va sinfdagi ta'sirini oshiradi. Zamonaviy ta'lim metodologiyasi bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limni rag'batlantiradigan innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan tanishtiradi. O'qituvchilar o'quvchilar o'rtasida faol ishtirok etish, hamkorlik va chuqur tushunishni rag'batlantiradigan aylantirilgan sinflar, so'rovga asoslangan o'rganish, o'yinlashtirish va tajribaviy o'rganish kabi strategiyalarga duch keladilar. Ushbu innovatsion yondashuvlarni o'z o'qitish amaliyotiga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning turli ehtiyojlari va qiziqishlarini qondiradigan dinamik, interfaol va shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini yaratishi mumkin [3;110-b.].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim metodologiyasi muhim o'rin tutadi o'qituvchilarni bugungi murakkab va dinamik ta'lim muhitida ustunlik qilish uchun tayyorlash. O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga texnologiya, faol ta'lim strategiyalari, tabaqalashtirilgan ta'lim, madaniyatga mos ta'lim, baholash va fikr-mulohazalarni, kasbiy mahoratni oshirish, reflektiv amaliyot va innovatsion pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash orqali ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishi mumkin. Ta'lim sohasidagi o'zgaruvchan muammolar va imkoniyatlarga moslashishda davom etar ekanmiz, bo'lajak o'qituvchilarning malakasini oshirish va o'qitishga sarmoya kiritish, ularning har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rishlari, samarali va o'z amaliyotlarida innovatsion bo'lishlarini ta'minlash zarur. Bo'lajak o'qituvchilarga joriy ta'lim yo'nalishlari, pedagogik tadqiqotlar va innovatsion o'qitish amaliyotlaridan xabardor bo'lishlari uchun doimiy malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etish. Seminarlar, seminarlar, konferentsiyalar va onlayn kurslar ularning o'qitish ko'nikmalarini oshirishi va umrbod ta'limni rivojlantirishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar bo'lajak o'qituvchilarga ularning kasbiy rivojlanishida yo'l-yo'riq ko'rsatadigan va qo'llab-quvvatlaydigan murabbiylik dasturlarini yo'lga qo'ying. Mentorlar yangi o'qituvchilarga o'qituvchilik kasbining qiyinchiliklarini hal qilishda yordam berish uchun qimmatli fikrlar, fikr-mulohazalar va amaliy maslahatlar berishlari mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'limda tadqiqotga asoslangan amaliyotlar bilan shug'ullanishga undash. Dalillarga asoslangan o'qitish strategiyalari, pedagogik yondashuvlar va ta'lim nazariyalarini ilgari surish o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirishi va o'quvchilar natijalarini yaxshilashi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003, 1;56-57-b.
- [2]. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. RTM, 2000, 2;15-b.
- [3]. Ziyomammedov Abdullayeva B.SH. Ilg'or pedagogik texnologiya. Nazariya va amaliyot. «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomli tibbiyot nashriyoti, 2001, 3;110-b.
- [4]. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent, «Iqtisodmoliya», 2011, 4;89-b.
- [5]. Yuldoshev A.J. Ta'lim yangilanish yo'lida. Toshkent, "O'qituvchi", 2000, 5;116-b.

**Bobokulov Zafarbek Rustamovich (O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti bosh inspektori)**  
**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA ILMIY SALOHİYATLI KADRLAR TAYYORLASH –**  
**ZAMON TALABI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ichki ishlar organlarida ilmiy salohiyatli kadrlar tayyorlash zamon talabi ekanligi xususida fikr yuritilgan. Globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuksak salohiyatli, bilimli, mas’uliyatli, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish har qachongidan dolzarb masalaga aylangan. Ichki ishlar organlarini har jihatdan professional kadrlar bilan ta’minlash borasida mutlaqo yangi bosqichga qadam qo’yilmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** ilmiy salohiyat, kasbiy-axloqiy madaniyat, xulq, axloq, tarbiya.*

**Бобокулов Зафарбек Рустамович (главный инспектор института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан)**

**ПОДГОТОВКА НАУЧНО-КОМПЕТЕНТНЫХ КАДРОВ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ –**  
**ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ**

***Аннотация.** В данной статье рассматривается тот факт, что подготовка кадров с научным потенциалом в органах внутренних дел является потребностью времени. В условиях глобализации и рыночной экономики воспитание высокопотенциальных, знающих, ответственных, конкурентоспособных кадров стало как никогда актуальным вопросом. Наступает совершенно новый этап в обеспечении органов внутренних дел профессиональными кадрами по всем направлениям.*

***Ключевые слова:** научный потенциал, профессионально-этическая культура, поведение, мораль, образование.*

**Bobokulov Zafarbek Rustamovich (Chief Inspector of the Institute for Advanced Studies of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan)**

**PREPARATION OF SCIENTIFICALLY COMPETENT PERSONNEL IN MINORAL AFFAIRS BODIES – A REQUIREMENT OF TIME**

***Annotation.** This article discusses the fact that the training of personnel with scientific potential in the internal affairs bodies is the need of the hour. In the conditions of globalization and market economy, the cultivation of high-potential, knowledgeable, responsible, competitive personnel has become an urgent issue more than ever. A completely new stage is being taken in terms of providing internal affairs bodies with professional personnel in all aspects.*

***Key words:** scientific potential, professional and ethical culture, behavior, morality, education.*

**Kirish (Introduction).** Insoniyat taraqqiyotga erishib borar ekan, tadrijiy rivojlanish jarayonida har bir sohada yuqori malakali mutaxassisga ehtiyoj sezgan. Shu sababli yuksak salohiyatli yetuk kadrlarni tayyorlash har doim eng muhim va dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Chunonchi, ichki ishlar organlarida ham davlatimiz islohotlarning to’la amalga oshirish va uni rivojlantirish uchun yetuk, professional va ilmiy salohiyatli kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarni qondirish, qolaversa, ichki ishlar tizimini professional kadrlar bilan to’ldirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3413-qarori qabul qilindi [1]. Ushbu qaror ichki ishlar organlari rahbarlari oldiga ichki ishlar safini axloqiy va kasbiy xislatlarga ega bo’lgan ilmiy salohiyatli kadrlar bilan to’ldirish vazifalarini yuklamoqda. Natijada ichki ishlar organlari kadrlar zahirasini o‘z sohasini yaxshi biladigan, tezkor ammo xato va kamchiliklarsiz qarorlar qabul qila oladigan professional, ilmiy salohiyatli kadrlar bilan to’ldirib borishga alohida ahamiyat berildi. Shuningdek, “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-qarori ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada ichki ishlar organlari xodimlarining muntazam malaka oshirishi tashkil etilib, mutaxassislik kafedralarida ilmiy salohiyatga ega bo’lgan ilmiy daraja va unvonli xodimlarning jalb etilishiga hamda ilmiy faoliyat bilan shug’ullanuvchi malakali kadrlarning ko‘payib borishiga olib keldi. Bir so‘z bilan aytganda, salohiyatli kadrlar tayyorlashning o‘ziga xos noyob tizimi yaratildi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Yangi O‘zbekiston sharoitida tinchlik va osoyishtalikni ta’minlab borish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston o‘tgan o‘ttiz yil davomida asrlarga tatigulik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Tadrijiy rivojlanish va xronologik nuqtayi nazardan mana shunday qisqa davrda mamlakatimiz jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallagan vatanimiz, o‘zining olamshumul yutuqlari bilan bir necha bor xalqaro e’tiroflarga ham sazovor bo‘ldi. Har bir

qo'lga kiritgan yutuq zamirida va oliyjanob xalqimizning mashaqqatli mehnati hamda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning samarasi yotadi.

Bugun xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O'zbekistonni barpo etar ekanmiz, bunda, eng avvalo, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorligimizga shukrona keltirishimiz va uni mustahkamlash yo'lida faoliyat yuritayotgan ichki ishlar xodimlari faoliyatini alohida e'tirof etmog'imiz darkor. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim – bu ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi" [2]. Shubhasiz, ushbu e'tiroflar ichki ishlar xodimlarining qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida fidoyiligini oshirishga, ularning o'z professionlligi va salohiyatini oshirishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va texnologik taraqqiyot bugungi, zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va global o'zgarishlar oliy ta'limning ustuvor vazifalarini zamon talablariga moslashtirish hamda shunga mos ravishda muqobil milliy ta'lim tizimini yaratish jamiyatning zaruriy vazifalaridan biriga aylanib qolmoqda. Hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuksak salohiyatli, bilimli, mas'uliyatli, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish har qachongidan dolzarb masalaga aylangan. Har qanday davlatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuksak malakali kadrlar muhim o'rin tutishi hech kimga sir emas.

Yangi O'zbekiston sharoitida yangilanishlar va izchil islohotlar olib borilayotgan bir davrda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirib borish ham mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Xususan, ichki ishlar sohasini chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish, yangicha zamonaviy mexanizmlar joriy etish borasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunda, eng avvalo, ichki ishlar organlarini aholining turli qatlamlari bilan bevosita muloqot olib bora oladigan yuksak ilmiy salohiyatli kadrlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlab borish xodimlarning professionalligini oshirib borishi bilan birga, ularning manzilli ishlashi, yuzaga kelgan muammolarni o'z joyida va vaqtida hal etishiga hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga yordam beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotning metodologik asosini chki ishlar organlarida ilmiy salohiyatli kadrlar tayyorlash mexanizmlari kabi tushunchalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-falsafiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va germeneytik tahlil kabi ilmiy bish usullaridan foydalanildi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlaridagi ijobiy o'zgarishlar yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasidir. Xususan, ichki ishlar organlari xodimlarining huquqbuzarliklarning oldini olishi, jamoat tartibini saqlashi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashi hamda ichki ishlar organlarini ilmiy salohiyatli kadrlar bilan to'ldirib borish borasidagi amaliy ishlar tubdan yaxshilanib bormoqda. Natijada ichki ishlar organlarining xalq orasidagi obro'yi va mavqeyi har qachongidan oshib, ularning aholi hamkorligi va jonli muloqotining kuchayib borishiga erishilmoqda.

Ichki ishlar organlarini har jihatdan professional kadrlar bilan ta'minlash borasida mutlaqo yangi bosqichga qadam qo'yilmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida yangi ichki ishlar organlarida islohotlarning samarali amalga oshirilish borasida ichki ishlar xodimlari oldiga o'ziga xos dolzarb talablarni qo'ymoqdaki, bu ularning yetuk, salohiyatli, vatanparvar va fidoyi bo'lishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, har bir xodimning muntazam kasbiy malakasini oshirish, ularning oliy ta'limdan keyingi ta'limda mustaqil tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritib, ilmiy daraja va ilmiy unvonlarni olishiga keng imkoniyatlar ochib berilmoqda. Bu, o'z navbatida, xodimlarning axloqiy kompetensiyasini rivojlantirib, professionalligini oshirishga hamda har bir huquqbuzarlikni nafaqat kasbiy professional, balki ilmiy nuqtayi nazardan ham tahlil qilinib, o'ziga xos metodik taklif va tavsiyalarni ham ishlab chiqishga imkon yaratmoqda. Bu ichki ishlar xodimlarining ilmiy salohiyatining yuksalib borishiga imkon berishi bilan birga, ularga ilmiy faoliyat bilan muntazam shug'ullanib borish kabi ulkan mas'uliyatni yuklaydi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bugungi kunda, ichki ishlar organlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish shaxsiy tarkibning kasbiy salohiyati va bilim saviyasini oshirish, qolaversa, ilmiy salohiyatli kadrlarni shakllantirish ma'naviy yuksak, jonkuyar, xalq bilan muloqot qila oladigan xushmuomala, fidoyi va bag'rikeng, buyuk ajdodlaridan faxrlanadigan oliyjanob fazilatli xodimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Vatan manfaati uning istiqboli yo'lida xizmat qilish sharaflı burchdir. Vatanparvar kishi o'z baxtini ona Vatan ravnaqida ko'radi. Shunday ekan, ichki ishlar organlari xodimlarini yuksak axloqiy madaniyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalanishida ilmiy salohiyatning o'rni beqiyosdir.

Zero, ichki ishlar organlari xodimlarining professionalligi va o'z xizmat vazifasini samarali bajarishida ilmiy salohiyatning ahamiyati beqiyosdir.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada yaxshilash, asrlar davomida sayqallanib kelayotgan an'ana va qadriyatlarimizni targ'ib etish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohalar singari, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkib o'rtasida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, xodimlarning bilim saviyasini yanada oshirish, yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi xodimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi"-ga muvofiq ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish hamda xodimlarning ma'naviy va ilmiy salohiyati hamda mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg'usini yanada mustahkamlash kabi maqsadlar ko'rsatib o'tilgan [4]. Yurtimiz tinchligi va undagi qonun ustuvorligini ta'minlashda soha xodimlaridan juda katta mas'uliyat talab etiladi. Aynan ushbu mas'uliyatli vazifalarni mard, vatanparvar, fidoyi, o'z burchiga sodiq yetuk salohiyatli xodimlarga amalga oshira oladi. Shuning uchun ham mazkur konsepsiyada ichki ishlar organlari xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablar qatorida muomala madaniyatiga rioya etish, murojaat qilgan shaxsni e'tibor bilan tinglash, holatga xolisona, burchiga vijdonan yondashish orqali shaxsiy namuna ko'rsatishi alohida qayd etilgan. Zero, bugungi taraqqiyot ichki ishlar xodimlaridan xalq manfaatlariga, yurt tinchligi va Vatan ravnaqi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilishni talab qilmoqda.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat burchiga sadoqat va mas'uliyat hissini oshirish, Vatanga sidqidildan xizmat qilish sharaflil burch ekanligini ongu shuuriga singdirishda ilmiy salohiyatni oshirish uchun ilm bilan shug'ullanish, xodimlar orasida amaliyotda ko'rilgan professional faoliyatini yosh kadrlarga mohirona nazariy uslubda yetkazib berishni taqozzo etmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan qabul qilingan taraqqiyot strategiyasida ham inson huquqlarini ta'minlash, har bir xodimning xalq manfaatlariga xizmat qilishni ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2017-yil 29-noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-qarori. <https://lex.uz/docs/3430641>

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar organlari xodimlariga yo'llagan tabrigi. 24.10.2020. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar>

(3). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar organlari xodimlariga yo'llagan tabrigi. 25.10.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6794>

(4). Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi <https://lex.uz/docs/5353841>

**Burxonova Gulrux Umurzakovna (O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti "Musiqqa ta'limi" kafedrasida mustaqil izlanuvchisi; E-mail: [gulruhburxonova@gmail.com](mailto:gulruhburxonova@gmail.com))**

#### MUMTOZ MUSIQA VA O'ZBEK ADABIYOTI UYG'UNLIGINING TARIXIY ILDIZLARI

*Annotatsiya.* Maqolada musiqqa asari kuy va qo'shiq matni uyg'unligining tarbiyaviy ahamiyati, uning qisqacha tarixi yoritilgan. Umumta'lim maktablari musiqqa madaniyati darslarida o'rgatilayotgan musiqqa asarlarining mazmuni orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalash haqida so'z yuritilib, ular asosida takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** "Avesto", musiqqa tarixi, musiqqa madaniyati, Temiriylar davrida sozanda va bastakorlar, Sharq adabiyoti, umumta'lim maktabi, musiqqa madaniyati darslari, musiqqa san'ati, qo'shiq ijrochiligi, o'quvchi.

#### ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ СОЧЕТАНИЯ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

*Аннотация.* В статье описывается воспитательное значение сочетания музыки и песенного текста, его краткая история. Рассказывается об эстетическом воспитании учащихся через содержание музыкальных произведений, преподаваемых на уроках музыки в общеобразовательных школах, на основе чего внесены предложения.

**Ключевые слова:** “Авесто”, история музыки, музыкальная культура, музыканты и композиторы во времена правления Темуридов, Восточная литература, общеобразовательная школа, уроки музыки, музыкальная наука, песенное исполнение, ученик.

## HISTORICAL ROOTS OF THE HARMONY OF CLASSICAL MUSIC AND UZBEK LITERATURE

**Annotation.** The article describes the educational value of the combination of music and song lyrics, its brief history. Talks about the aesthetic education of students through the content of musical works taught in the lessons of musical culture in secondary schools, on the basis of which proposals were made.

**Key words:** “Avesto”, music history, musical culture, musicians and composers during the reign of the Temurids, oriental literature, comprehensive school, musical culture lessons, musical science, performance of the song, student.

**Kirish.** Insoniyat aql-u tafakkuri shakllana boshlagandan buyon go‘zallikka intilish tuyg‘usi shakllanib borgan va o‘z his-tuyg‘ulari, hayajonlarini mavsum marosimlarda qo‘shiq orqali bayon etib kelganlar. Bu hol, ayniqsa, qadimiy tarixga ega Ramazon, Navro‘z marosim qo‘shiqlarida o‘z aksini topgan. Aslida, qo‘shiqlar juda go‘zal, ular insonni hayron qolarli darajada xursand qiladi.

Yozma manbalarda qo‘shiq bilan bog‘liq ilk ma‘lumotlar zardushtiylarning muqaddas kitobi hisoblangan “Avesto”da uchraydi. Asarda olovni muqaddas bilib, unga sig‘inganliklari, ular bilan bog‘liq qadimiy marosim qo‘shiqlarini ijro etganliklari haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan [6;15-b].

Qo‘shiq paydo bo‘lishi, uning ijrosi bilan bog‘liq ehtiyojlardan kelib chiqib, sekin-asta turli musiqa asboblari yaratila boshlagan. Shu o‘rinda setor, rubob, nay, dapp, doira kabi qadimiy musiqa asboblarning nomlari, ularning ijro yo‘llari bevosita “Navro‘z” bayrami tadbirlarida musiqa sadolari ostida ko‘pkarilar, har xil o‘yinlar, kamon otish musobaqalarini o‘tkazish kabi marosim Pomir tog‘i bag‘ridagi xalqlar o‘rtasida keng tus olganligi haqidagi ma‘lumotlar mavjud [4;152-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Inson tafakkurining shakllanib borishi natijasida, kuy hamohangligida she‘riy matnlardan qo‘shiq ijro etish yo‘llari kashf qilina boshlagan. Musiqa va qo‘shiq ijro etish asrlar davomida katta tajribaga ega bo‘lishi barobarida, taniqli musiqashunoslar faoliyati boshlanib, markaziy shaharlarda maxsus maktablarning ilk namunalari vujudga kela boshladi.

Musiqa ilmi bilan shug‘ullangan bir qator MDH davlatlari olimlari: E.B.Abdullin, L.A.Bezborodova va Y.B.Aliyev, G.B.Dvoynina, M.S.Osenneva va boshqalar, musiqa san‘atining mohiyati obrazli va tushunchali, ratsional va emotsional voqelikni ifodalanuvchi ohangni tushinish, his qilish orqali anglashilishini aytishgan. O‘zbekistonlik olimlardan D.Soipova, M.Xo‘jayeva, G.Sharipova, D.Karimovalar musiqa-ning badiiy mazmunini his etish asar bilan bevosita aloqadorlikda, yangrayotgan ohangni o‘zlashtirish esa u bilan bevosita uyg‘unlashib ketish asnosida his etilishi alohida ta‘kidlagan.

Mana shu o‘rinda, yirik ma‘rifat markazi bo‘lgan Samarqand ma‘lum ma‘noda musiqa va hofizlar shahri sifatida manbalarda tilga olib o‘tilgan. Ular ilm-fanning turli sohalarini egallash bilan bir qatorda, inson ruhiyatiga go‘zallik, nafislik hadya etuvchi musiqa san‘ati ilmidan ham xabardor bo‘lish bilan bir qatorda, uning targ‘ibotiga katta e‘tibor berganlar [5;8-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda analiz va sintez, umumlashtirish, tasniflash, tavsiflash, qiyosiy tahlil, sistem-struktur, komponent tahlil, transformatsion, statistik hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Ma‘lumki, musiqa ilmi, bevosita Sharqda keng o‘rganilgan aruz vazni va mazkur vaznlar vositasida yaratilgan mumtoz she‘riyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Demak, musiqa va badiiy she‘riyatning hamohangligidan xabardor bo‘lgan kishigina, betakror san‘at asarlarini yarata olgan va xalqqa manzur qilishga alohida e‘tibor berganlar. Albatta, bu ulug‘vor vazifani amalga oshirishda, musiqashunos, shoir, qo‘shiq ijrochilarining hamkorligi, ularning asriy tajribalari, har bir ijodkorning kashf qilgan usullari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu hamkorlikning asosini mashaqqatli mehnat, o‘tkir zehn, kuchli xotira, ma‘nan yuksak tafakkur tashkil qiladi.

Musiqa ilmi tarixiga e‘tibor berar ekanmiz, uning tub ildizlari o‘rta asrlar tarixidan boshlanganligini ko‘ramiz. IX–X asrlarga kelib esa musiqa ilmi bevosita qomusiy olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino ilmiy faoliyati bilan uyg‘unlikda rivojlanganligini ko‘rish mumkin [1;56-b.].

Temuriylar hukmronligi davrida esa Samarqandda yashab ijod etgan shoirlar bilan bir qatorda ma‘lum va mashhur sozanda, bastakor, musiqashunos va xonandalar XVI–XVII asrlarda faoliyat olib borganligi haqida manbalarda ma‘lumot keltirilgan. Amir Ali Akbar Samarqandiy, Baqoiy mavlono, Boqiy jarroh, tabib, shoir, musiqashunos, Darvesh Ahmad Qonuniy, Darvesh Buzg‘oli Samarqandiy, Kavkabiyy mavlono hoja Muhammad binni Abulhasan Samarqandiy. Kohiy mavlono Qosim Samarqandiy shular jumlasidandir.

Nomlari zikr etilgan musiqa bilan shug'ullangan shaxslarning ayrimlari turli kasb egalari bo'lsa, ayrimlari maxsus musiqashunos, bastakor, sozanda, qo'shiq ijro etish bilan shug'ullanganlar. Ular asosan xonadonlardagi ulfatchilikda, muxlislari bo'lgan madrasa talabalar davrasida o'z mahoratlarini namoyon etgan.

Ayniqsa, ta'lim maskanlari sifatida muhim dargoh hisoblangan madrasa hujralarida ham, she'rxonlik, ularning badiiy tahliliga oid, qiziqarli suhbatlarda ham musiqa va qo'shiq hamohangligida ma'naviy mashvaratlar bo'lib turgan. Shu bois o'zlarining turli ilmlarni jamlagan qomusiy asarlarida, o'z davrlarida yaratilgan musiqa asboblari, ularning ijro yo'llari va qo'shiqlarning yaratilishi bilan mulohazalarini ilmiy asoslab berganlar [5;44-b.]. Albatta, bu ulug'vor vazifalarni amalga oshirishda musiqashunos, shoir va qo'shiq ijrochilarining maqbul kashf qilgan usullari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayon asrlar davomida yanada takomillashib, sayqal topib borgan. Demak, inson shuurida san'atga, adabiyotga bo'lgan mehr bevosita ta'lim va tarbiya bilan shug'ullana boshlagan davrlardan boshlangan desak xato bo'lmaydi.

Ammo, musiqa va Sharq adabiyoti namunalarini sharhlash, matn mohiyatini chuqur anglash uchun talabgordan o'tkir zehn, uzoq esda saqlab qolish bilan bog'liq xotira, ma'nauy yuksak tafakkur talab qilingan [2;289-b.].

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda ham, umumta'lim maktablarining o'quv dasturlarida ham musiqa faniga alohida e'tibor berilgan. Xususan, 5–7-sinflarda o'tiladigan musiqa darslarida xalq qo'shiqlari, dostonlarda kuylangan ashulalar, maqom, mumtoz musiqa, Sharq taronalari, sahnaviy musiqa asarlari, shuningdek, zamonaviy opera va boshqa matn bilan bog'liq asarlar shular jumlasidandir. Tabiiyki, musiqa darslaridan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo, o'quvchilarning musiqa ilmiga oid bilim orqali ularni estetik didini, go'zallikni his qilishni o'rgatadi. Shuning barobarida, o'quvchi ruhiyatiga ta'sir qiluvchi musiqani ilk hayotiy mulohazalari, tushunchalari, o'ylari va kechinmalari darajasini ko'rsatuvchi nafis oynaga qiyos qilish mumkin.

Agar o'quvchi o'z oilalarida, musiqa borasidagi suhbatlarni tinglasa, biror musiqiy asbob bilan kuy chalinsa yoki qo'shiq ijro etilsa, uy egalari faqat farosatligina emas, balki estetik didi yuksak ekanligini ko'rsatadi. Gap qo'shiq ijrochiligi bilan bog'liq estetik did haqida so'z borar ekan, bevosita badiiy didga, ya'ni she'riy nafosatga aloqador soha bilan ham uzviy bog'lanadi.

Eng muhimi, yoshlik chog'idanoq estetik didi tarbiyalangan o'quvchilarning, hayot go'zalliklarini, quvonchlarini his qilib voyaga etadi. Deylik, hozirgi kunlarda qishloq sharoitida voyaga etayotgan o'quvchilarni olib ko'raylik. Ular o'qiyotgan maktabda musiqa darsi deyarli o'tilmaydi. Imkoni bo'lganda musiqani, qo'shiqlarni televideniya orqali tomosha qiladilar. Bu ularning badiiy estetik didini shakllantirishlariga qisman ta'sir qilishi mumkin. Lekin ular tabiat go'zalligini, qushlar sayrashiyu, irmoqlarning shildirashini nozik qalblari bilan his qiladilar. Erta tongning go'zal nafosatini bilganlari uchun ularni estetik didi bor inson deb hisoblaymiz. Ular bu tabiiy go'zallikni o'z sezgi a'zolari quloqlari, ko'zi va yuraklari bilan his qiladilar [7;25-b.].

Demak, go'zallikning oliy ko'rinishidagi shakllari haqidagi tushuncha faqat san'at turlaridan bahramand bo'lish bilangina cheklanmaydi. Eng muhimi, ularni o'rab turgan voqelikka, muhim, sharoit bilan bog'liq shaklda paydo bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, inson ma'lum ijtimoiy sharoit vakili sifatida, uning ruhida, dunyoqarashida zamon va u yashagan muhitning ta'siri kuchli bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Musiqa ilmi yurtimizning qaysi hududida bo'lmasin, imkon qadar, mazkur masalani keng miqyosda amalga oshirish uchun bevosita muqobil o'qitish usullarini ishlab chiqish va amalyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Zero, musiqa san'ati ham madaniy hayot bilan chambarchas bog'liqligi, har bir shaxs ma'naviyatiga daxldorlik, musiqiy ta'limni insonparvarlashtirish, nihoyatda muhim jarayon bo'lib, uni birgina musiqa darslari vositasida amalga oshirishning imkoni bo'lmaydi. Musiqa fanini o'qitish o'quvchilarni musiqashunos, bastakor qilib tarbiyalashni maqsad qilmaydi, balki imkon qadar ma'naviyatli, nafis tuyg'ularni idrok etuvchi shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Eng muhimi, o'quvchilarda musiqiy bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni musiqa, qo'shiq singari sehrli olamga olib kirish, nafosatga yo'g'rilgan ma'naviy kamolot tarbiyasi musiqa o'qituvchisining g'oyat muhim va zaruriy vazifalaridan hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarining o'quv rejasida dars soatlarining cheklanganligi bois, musiqiy tushunchalarni o'quvchilarga etkazish imkonini bermaydi. Vaziyatdan chiqishning birdan-bir yo'li mustaqil tarzda shug'ullanish, musiqiy asboblarni chaldirish, qo'shiqlar ijro ettirishdan iboratdir. Buning uchun o'qituvchi mustaqil mashg'ulotning qat'iy rejasini tuzmog'i va fidoyilik bilan shug'ullanmog'i lozim. Aslida, bolada musiqiy tushuncha belgilari ommaviy axborot vositalari televideniya, internet, tarmoqlarida namoyish qilingan multfilmlarni ko'rish, oilaviy an'analar, ota-ona ibrati asosida asta-sekinlik bilan shakllanib boradi. Keyinchalik faollashib tushunchalar doirasi kengayib, estetik zavqlanish, huzurlanish va ilhomlanishga

bo'lgan moyilliklar vujudga kela boshlaydi. Zero, estetik didi musiqa ilmi vositasida shakllangan yoshlarimiz, axloqan sof va ma'naviy yetuk bo'lsagina, kelajakning oltin qasrini, nafosat go'zalligi bilan bezay oladilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). T.E.Solomonova. O'zbek musiqa tarixi. T., "O'qituvchi", 1981.
- (2). I.Rajabiy. Maqom asoslari. T., 1969.
- (3). X.Hamidov. "Avesto" fayzlari. T., "O'qituvchi", 1998,
- (4). O.Madayev T.Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. T., "Sharq", 2001,
- (5). Samarqand – olimlar va shoirlar shahri. Samarqand, 1967.
- (6). O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1959, 3-jild,
- (7). A.Jabborov. O'zbeklar turmush tarzi va madaniyati. T., 2003.

**Nishanova Xafiza Vafokulovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti tadqiqotchisi;  
hanifa\_81@mail.ru)**

#### **TURIZM SOHASIGA OID TERMINLARNI O'QITISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodlari yoritilgan. Turizm sohasiga oid terminlarning to'g'ri yetkazib berilishi soha taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Turizm bugungi kunda dunyo mamlakatlari va hududlarini qamrab olgan yo'nalishdir.*

***Kalit so'zlar:** turizm, sayyoh, metodlogik, leksik, dastur, tourism police, lingvistik.*

**Нишанова Хафиза Вафокуловна (научный сотрудник Узбекского государственного университета мировых языков; hanifa\_81@mail.ru)**

#### **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕРМИНОВ ТУРИЗМА**

***Аннотация.** В данной статье описаны методы использования информационных технологий в преподавании терминов, связанных с туризмом. Правильная интерпретация терминов, связанных со сферой туризма, занимает особое место в развитии данной сферы. Сегодня туризм – это направление, охватывающее страны и регионы мира.*

***Ключевые слова:** туризм, турист, методический, лексический, программа, полиция туризма, лингвистический.*

**Nishanova Khafiza Vafokulovna (Researcher of Uzbekistan State World Languages University;  
hanifa\_81@mail.ru)**

#### **USING INFORMATION TECHNOLOGY IN TEACHING TOURISM TERMS**

***Annotation.** This article describes the methods of using information technologies in teaching terms related to tourism. The correct delivery of terms related to the field of tourism occupies a special place in the development of the field. Today, tourism is a direction that covers the countries and regions of the world.*

***Key words:** tourism, tourist, methodological, lexical, program, tourism police, linguistic.*

**Kirish (Introduction).** Xalqaro aloqalarning rivojlanib borishi va axborotlar almashinuvi, mamlakatlararo aloqa va transport kommunikatsiyalarining rivojlanib, xalqaro logistikaning yo'lga qo'yilishiga bugungi kunda turizmning barqaror rivojlanib borishiga keng imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Xususan, mamlakatlararo sayohat qiluvchi sayyohlar ulushining keskin ortishi, turizm orqali kelib tushadigan sezilarli mablag'lar har bir mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli daromad manbasi bo'lib qo'shilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Dunyo davlatlariga tashrif buyuruvchi har bir sayyoh o'ziga xos xizmat turlari yoki ish o'rinlariga ehtiyojni keltirib chiqarishi bilan birga, mahalliy aholi bilan jonli aloqani o'rnatish hamda bir vaqtning o'zida, qisqa muddatlarda o'sha mamlakatning tarixiy-me'moriy obidalari va qadamjolari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga intiladi. Natijada sayyohga yaxshi tarjimon va sifatli yoki so'ngi rusumdagi gadjetlar orqali bevosita qo'llay olish mumkin bo'lgan axborot dasturlariga ehtiyoj seziladi. Axborot dasturlarini yaratishda muammoga deyarli duch kelinmaydi, biroq sifatli tarjimaga erishish, xalqaro turizmni, qolaversa, har bir sayyohni qoniqtiradigan darajada tarjimaga erishish yoki turizmga xos terminlarni mahalliy so'zlar bilan intensiv integrallashtirish har doim ham amalga oshirib bo'lmaydigan jarayondir. Aynan mana shu jihat bizning tadqiqot doiramizning qamrovini tashkil etib, turizmga oid terminlarni ingliz tilida o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirishning zamonaviy jihatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.



Turizm hozirgi kunda dunyo mamlakatlari va hududlarini qamrab olgan yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, xalqaro mehnat tashkiloti bugungi kunda xalqaro turizm bilan dunyoning mehnatga layoqatli aholisining 500 mingdan ziyod aholisi band ekanligini e'tirof etmoqda [1]. Shunday ekan, xalqaro turizm dunyodagi eng barqaror va rivojlanishda bo'lgan tarmoqlardan biridir.

Turizm sohasiga oid terminlarni shakllantirishda turizmning maxsus yo'nalishi (tili) bilan shug'ullanish bir qator murakkabliklarga ham olib keladi. Masalan, muayyan mamlakat hududiga tashrif buyuruvchi sayyoh ushbu mamlakat yoki shaharning milliy urf-odat va an'analari, yangi taom, qoida, libos va odatlariga duch keladi. Bunga qadar sayyoh tomonidan ilk taassurotlar internet tarmog'i, vebsaytlar va turli reklamalar hamda turizmni targ'ib qiluvchi vositalar orqali olingan bo'ladi. Aynan ushbu vositalar orqali berilgan tarjimalardagi noto'g'ri tarjima va mulohazali jarayonlar joy nomlari yoki milliy etnik unsurlar tarjimasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa ilmiy tadqiqot nuqtayi nazaridan mulohazali jarayon bo'lib, atqoli otlar tarjimasida ma'lum ma'nodagi bahs-munozarali holatni yuzaga keltirsa, ba'zi nomlarning transformatsiya qilinishida metodologik qonuniyatga amal qilishni taqozo etadi, ya'ni, muayyan joy yoki narsalar nomlarining tarjimasida yetarlicha samara bermaydi. Bunda esa eng muhim vazifa tarjimonning mahorati va sharhlay olish qobiliyatiga bog'liq bo'lib qoladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotning metodologik asosini turizmga oid terminlar va ularni qo'llashda axborot texnologiyalardan foydalanish metodlari kabi tushunchalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-metodologik tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba sinov kabi usullardan foydalanildi.

Turizmga oid atamalarning metodik jihatdan tadqiq etilishida uning katta qismini aynan ingliz tili lekiskologiyasiga moslashtirilishi yoki o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, avvalo, dunyo tili sifatida ingliz tili e'tirof etilib, o'zlashma so'zlar sof tilning o'zi bo'lmaganidek, turli millat va elatlarning tadrijiy rivojlanish jarayonida ma'lum sabablarga ko'ra, boshqa etnik guruhlardan so'zlar va atamalarning kirib kelishini shakllantirgan. Shuning uchun turizmga oid atamalarning ayrimlari muayyan sayyohlikga oid atamalardan, ayrimlari esa ba'zi xorijiy atamalarning bevosita so'zma-so'z tarjimasida orqali o'zlashtirilganligi tadqiqotlarda keltirilgan.

Dunyo ekspertlari tomonidan turizm sohasining istiqboli ijobiy baholanib borilayotgan bugungi kunda, uning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, "turizm" tushunchasining asl mohiyatini ilmiy asosda yoritib berish maqsadga muvofiqdir. Zero, tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, turizm bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning ko'lami qanchalik ko'p bo'lsa, unga beriladigan ta'riflar salmog'i ham shunchalik ko'p bo'ladi [2;21-b.].

Yurtimizda turizmni rivojlantirishga berilayotgan e'tibor nafaqat turizm sohasini rivojlanishiga, balki shu sohaga oid lingvistik, leksikografik muammolarning hal etilishiga qaratilgan bo'lib, bu borada bir qator ilmiy loyihalar hamda ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelmoqda. Shuningdek, turizmga oid terminlarning xususiyatlariga va ularning metodologik talqinlariga oid ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Turizmning rivojlanish tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Dastlab, o'rta asrlardan boshlab rivojlangan yoki mashhur shaharlarga yakka sayyohlik safarlari tashkil etilib, ushbu shaharlar aholisi va urf-odatlar bo'yicha ma'lumot to'planib, dunyo xalqlariga taqdim etilgan bo'lsa keyinchalik, ana shu ma'lumotlar asosida sayohat qiluvchilarning qiziqishi va soni ortib borishi natijasida xalqaro turizm vujudga kelgan. Masalan, yurtimiz tarixida, dastlab, Marko Polo, keyinchalik, Amir Temur saltanatiga qiziqishi orqali ispaniyalik sayyoh Rui Gonsalez de Klavixoning sayohatlarini bunga misol keltirish mumkin [3;75-b.]. Biroq ilmiy tadqiqotlarda turizmning rivojlanishi XX asrning boshlariga to'g'ri kelishi va ommaviy hodisa sifatida rivojlanishi qayd etiladi.

Turizm terminologiyasi haqida so'z borar ekan, shuni aytib o'tish lozimki, undagi aksariyat atamalar zamon talabiga monand ravishda o'zlashtirilgan atamalar sifatida ilmiy tadqiqot doirasiga olingan. Shunday atamalardan keng qo'llanilayotgani "tourism police", ya'ni, "turizm polisiyasi" bo'lib turizmga o'ziga xos atamalarning milliy atamalarga moslashuviga va integratsiyalashuviga olib kelmoqda.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bugungi kunda turizmning yurtimizning barcha hududlardagi faoliyati va muvaffaqiyati uning barqaror rivojlanib borishini ko'rsatib, turizmning xizmatlarni takomillashtirish uchun bevosita har bir sayyohga qulay servis xizmatlarini tashkil etish, shuningdek, me'moriy obidalar va sayyohlar tashrif buyuradigan shaharlarda o'ziga xos turizm atamalarini o'zida mujassamlashtirgan texnologik dasturlarni ishlab chiqish ushbu sohaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bunda asosiy e'tibor milliy an'analardan kelib chiqqan holda, milliy liboslar, milliy taomlar va hududiy qadamjolar yoki ko'chalarning nomlanishiga qaratilib, ularning ingliz tilidagi muqobil atamasi yoki tarjimasini o'zbek tilidan ingliz tiliga to'g'ri integratsiyalashtirish orqali turizmga oid atamalarni boyitib borish mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, turizmga oid atamalarning sayyohlar foydalanishi uchun qulay bo'lishi, ularning zamonaviy texnologiyalar va gajetlarda maxsus dasturlar orqali oson topa olishi hamda lug'at ko'rinishida tizimli shakllantirilishi turizmni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishi bo'lishi bilan birga tashrif buyuruvchi har bir sayyohga erkin va sifatli ma'lumotni olish imkonini beradi. Zero, dunyo madaniyatlari orasida betakror bo'lgan urf-odat va an'analarimiz, ularda qo'llaniladigan milliy va mahalliy terminalogiyalarning o'zak ma'nolarining qadimgi forsiy va turkiy atamalar bilan qorishiq holda rivojlanib, avloddan avlodga o'tib kelishi turizmga oid yangicha terminlarning ingliz tiliga o'zlashtirilishi va dunyo miqyosida jaranglashiga olib kelishi shubhasizdir.

Turizmga oid terminlarni o'qitishda sayyohlikka tegishli bo'lgan atamalarning aksariyati tarjima qilinmagan holatda ham tushunarli bo'lsa, ayrimlari milliy etnik xarakter kasb etganligi yoki qadimiy tarixiy ahamiyatga molilik sababli ingliz tiliga tarjima qilishda birmuncha murakkabliklarni ham keltirib chiqarishi ayni haqiqatdir. Xususan, o'zbek milliy taomi yoki liboslaridagi ayrim leksemalarni tarjimasini ishlab chiqish bilan tushunarli bo'lsa-da, ayrimlarining mohiyati qo'llanilish sabablari yoki tarkibiga ham izoh berishni taqozo etadi. Masalan, palov yoki registon kabi so'zlar tushunarli bo'lsa-da, somsa, so'ri, piyola kabi so'zlarning asl mohiyatini tushuntirib berish va tarkibiy mohiyatini sayyohga to'g'ri anglatish yurtimizga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi. Turizmga oid atamalar tarjimasidagi aynan mana shu metodologik jihatlarga e'tibor qaratish turizm sohasiga oid terminlarni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Barcha sohalarida mutaxassislikning ahamiyati katta bo'lganligi sababli, turizmga o'z yo'nalishi va mutaxassis tarjimoni bo'lishi lozim. Aynan turizm sohasiga oid terminlarni shakllantirishda atamalarning turizm kontentiga mos bo'lishi va ingliz tiliga o'girishda xatolarga yo'l qo'ymaslik bevosita tarjimonning nomutaxassis bo'lishi yoki tarjimaning nomutaxassis bo'lgan soha vakili qo'lida tarjima qilinganligiga bog'liqdir.

Metodologik nuqtayi nazardan tarjimada funksional yondashuvga e'tibor qaratish, muayyan atamalarini saqlab qolgan holda tarjima qilish, matnning lingvistik, madaniy xususiyatlarini tarjima tili qolipiga moslashtirish, muayyan tarjimani inglizabon sayyohlarga tushunarli tarzda taqdim etish turizmga oid terminlarni eng muqobil tarjima vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki aynan ushbu metodning funksional tahlili tarjimada matnning asliyatini va tarixiy-madaniy xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, turizm sohasiga oid terminlarni tarjima qilish tarjimondan muayyan tilning milliy imkoniyatlariga suyanishni talab etadi hamda "oltin o'rtaliq", ya'ni, neytral pozitsiyani saqlab turish orqali turizmga oid matnning tarjimasida muayyan tilning milliy madaniy qonuniyati chegaralarini inobatga olgan holda, imkon qadar, ingliz tiliga tarjima qilish mutaxassisning professionalligidan dalolatdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Travel & Tourism Economic Impact, 2015, World. <https://sete.gr/media/2614/150430-economic-impact-2015.pdf>
- (2). Yakubova N. Turizmga oid o'zlashgan terminlarning leksik-semantik xususiyatlari (ingliz, o'zbek va rus tillari misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023, 59-bet.
- (3). Rakhmonov S.M. Social and moral worldview of Amir Temur and Sufism. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2020. 03 (83), p. 74–77.
- (4). Yakhshieva Z., Ortiqova E., Babadjanova G., Khasanova K. The Versatility of Genres of Tourism discourse. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. SCOPUS Index Journal, 2021. 5698-5700 P.

**Rasulova Zilola Durdimurotovna (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasida doktoranti, p.f.f.d (PhD), dotsent; e-mail: [zrasulova383@mail.ru](mailto:zrasulova383@mail.ru))**

#### **AXBOROT TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Axborot kompetensiyasi, ijodiy axborot tarkibiy qismlarining tavsifi, axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun ichki motivatsiya, intellektual ijodiy faoliyatni tashkil etish yo'llari bayon etilgan. Axborot ta'lim muhitida o'zaro aloqa vositalari orqali pedagogik ta'sir ko'rsatish, individual ijodiy shaxsni shakllantirish usullari ifodalangan.*

***Kalit so'zlar:** kreativlik, kreativ kompetensiya, intellektuallik, kreativ salohiyat, ijodiy qobiliyat, ijodiy fikrlash, qiziquvchanlik, axborot ta'lim muhiti.*

Расулова Зилола Дурдимуротовна (докторант кафедры педагогики Бухарского государственного университета, д.ф.п.н (PhD), доцент; e-mail: [zrasulova383@mail.ru](mailto:zrasulova383@mail.ru))

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

**Аннотация.** В статье анализируются теоретические основы развития творческой компетентности будущих учителей. Описаны информационная компетентность, творческие информационные компоненты, внутренняя мотивация использования информационных технологий, способы организации интеллектуальной творческой деятельности. Выражены методы педагогического воздействия и формирования индивидуальной творческой личности посредством взаимодействия в информационной среде обучения.

**Ключевые слова:** креативность, творческая компетентность, интеллектуальность, творческий потенциал, творческие способности, творческое мышление, любознательность, информационная образовательная среда.

Rasulova Zilola Durdimurotovna (doctoral student of the Department of Pedagogy of Bukhara State University (PhD), docent; e-mail: [zrasulova383@mail.ru](mailto:zrasulova383@mail.ru))

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN THE INFORMATION EDUCATION ENVIRONMENT

**Annotation.** The article analyzes the theoretical foundations of the development of creative competence of future teachers. Information competence, description of creative information components, internal motivation for using information technologies, ways of organizing intellectual creative activity are described. The methods of pedagogical influence and formation of an individual creative person through means of interaction in the information learning environment are expressed.

**Key words:** creativity, creative competence, intellectuality, creative potential, creative ability, creative thinking, curiosity, informational educational environment.

**Taqrizchi p.f.d., professor Dilova Nargiza Gaybullayevna**

**Kirish (Introduction).** Modernizatsiyalangan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mavjud voqeliklarga javoban, mamlakatimiz oliy ta'limi tizimi ham o'zgarimoqda, bu esa talabalarning innovatsion ta'limini va kreativ rivojlanishini malakali, kreativ va kasbiy jihatdan amalga oshira oladigan o'qituvchilarga ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-qarorida ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida, ta'lim sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish, o'quv jarayonlari va xizmatlar ko'rsatishni yangi tamoyillar asosida tashkil etish, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish kabi ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan [1]. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual va kreativ salohiyatini oshirish o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan innovatsion ta'lim muhitining mazmunini aniqlashtirishdan iborat bo'lib, uning asosiy g'oyasi bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish omili sifatida ijodiy rivojlanayotgan ta'lim maydonini yaratishdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi: fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish, o'ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati, xayol qila olish [2;447-b.]. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda ko'pincha ushbu muammo haqida gapiriladi. Talabalarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muhim, ya'ni, qobiliyatlar bunga bog'liqligini unutmaslik darkor, bu shaxsning eng muhim ruhiy xususi-yatlaridan biridir deb qaraladi. Torrensning fikricha, ijodkorning tafakkuri va faolligini turlicha mezonlar bilan baholash mumkin: ravonlik (ko'p sonli g'oyalarni yaratish), moslashuvchanlik (turli usullar yoki strategiyalardan foydalanish vazifa yoki muammoni hal qilish uchun), o'ziga xoslik (nostandart yechimlar, g'oyalar ishlab chiqish), yo-pilishga qarshilik (stereotiplarni rad etish, yangilikka ochiqlik) [6;44-b.].

Rubinshteyn shaxsiyatni o'rganishga uning ijodiy faoliyatini o'rganish orqali yondashadi. U bu dunyoni yaratgandan ko'ra ko'proq tushunmaydigan odamning faol faoliyatiga katta ahamiyat beradi. Shaxsning shakllanishi va o'z-o'zini anglashning rivojlanishi Rubinshteyn tomonidan bir martalik emas, balki ontologik jarayon deb hisoblaydi, chunki inson uzoq vaqt davomida uning fazilatlarini, xususiyatlarini, motivlarini, ehtiyojlarini o'rganadi. O'zini bilish, inson o'zini faoliyatda yaxshiroq anglay boshlaydi [5;146-b.].

Postayuk fikriga ko'ra, kreativ qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

1) muammoni tizimlilikini belgilaydigan eng muhim sifat sifatida ko‘rish qobiliyati amaliy-kognitiv jarayon;

2) fikrlashning o‘ziga xosligi, obyektga noan’anaviy tarzda qarash qobiliyatida namoyon bo‘ladi;

3) dialektik fikrlash ijodiy uslubning eng muhim integral xususiyati;

4) yangi psixologik shakllanishlarni yaratish qobiliyati sifatida birlashma qulayligi;

5) g‘oyalarni birlashtirish qulayligi yoki g‘oyalarni yaratish qobiliyati;

6) qat’iy nazorat ostida bo‘lgan harakatlarni baholash qobiliyati va fikrlashning tanqidiyligi, kiruvchi ma’lumotlarga munosabat;

7) bilimlarni keng tarqatish qobiliyati [4;97-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradigan innovatsion muhit mazmunini aniqlash muammosi bo‘yicha mavjud o‘rganish natijalarini nazariy tahlil qilish. Xususan, qiziqish, ijodkorlikni ta‘minlaydigan kashf etilgan doiralar g‘oyasiga asoslanadi. Axborot ta‘lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ kompetentlik darajasini oshirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish.

**Tahlil va natijalar (Analysis and result).** Oliy ta‘lim sohasida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy tayyorlash amalga oshirish va ishlab chiqarish qobiliyatini nazarda tutadi. Innovatsion uslub va shakllarni mazmunan takomillashtirish bilan ularning kasbiy faoliyatini yanada rivojlantirish mumkin. Avvalo, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining mohiyatini tushunib olish talab etiladi.

“Kreativlik” tushunchasini quyidagicha ta‘riflash mumkin. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati [3;72-b.].

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy kompetensiyani tushunishning asosiy savoli ham quyidagi shaxsiy ijod konsepsiyasi bilan bog‘liq:

– muammo izlash va fikrlash uslubini hal qilish;

– shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari (qiziqish, moslashuvchanlik, jo‘shqinlik, yangilik);

– faoliyatdagi xavfga tayyorlik va h.k.

Tadqiqotchi olim Verbitskiy ijodkorlik va tashabbus xarakter sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sohada eng muhim manba hisoblanadi deydi [7;8-b.].

Ijodkorlik shaxsni “butun shaxs” yoki alohida qismlar, mahsulotlar birikmasi sifatida tavsiflaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z faoliyatini ijodiy amalga oshirishni o‘rganishga qodir bo‘lib, ular umuman kreativlik darajasini, xususan, ijodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun turli ko‘nikmalar bilan jihozlanishi kerak. Bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorlik saviyasining yuksalishi, bilim va yangi ko‘nikmalarning ortib borishi bilan bog‘liq, bu esa o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari zamonaviy ta‘limga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Zamonaviy ta‘lim bu o‘z-o‘zidan ma‘lum o‘quv jarayonlari mazmunini axborotlashtirishni nazarda tutadi. Axborotlashtirish bilan bog‘liq innovatsion ta‘lim muhitini qurish, bo‘lajak mutaxassislarda ijodiy barqarorlikni ta‘minlaydi va bevosita ta‘lim tizimiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Axborot-ta‘lim muhiti “ko‘plab axborot ob‘yektlari va ular o‘rtasidagi aloqalar; axborotni, bilimlarni to‘plash, saqlash, uzatish (eshittirish), qayta ishlash, ishlab chiqarish va tarqatish vositalari va texnologiyalari, audiovizual axborotni takrorlash vositalari; axborot jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi tashkiliy-huquqiy tuzilmalar” kabilardir.

Axborot-ta‘lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarga pedagogik tizimda o‘qitishni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi, ya‘ni, axborot-ta‘lim muhitining moddiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, tartibga soluvchi va boshqaruv potensial imkoniyatlari ta‘lim va ijodkorlikni rivojlantirishni ta‘minlaydi.

Texnologik jihatdan kreativ kompetentlikni rivojlantirishni tashkil etish quyidagi shakllar, usullar va o‘qitish vositalarini o‘z ichiga oladi:

•maxsus seminarlar, mahorat darslari, treninglar;

•an’anaviy usullar;

•ijodiy bilim darajasini oshirish uchun innovatsion ta‘lim usullari;

•muammolarni hal qilish usullari, pedagogik ijodga motivatsion e‘tibor darajasini oshirish;

•ijodiy pedagogik jarayonda shaxsiy ishtirokni rag‘batlantirishga qaratilgan ijodiy usullar;

•turli o‘quv materiallari, varaqalar, multimediali o‘quv dasturlari, didaktik materiallar.


Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni axborot ta‘lim muhitida zamonaviy vositalarni amalga oshirishdan tashqari, maxsus vazifalarni tanlashni talab qiladi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun ichki motivatsiya axborot ta‘lim muhitini qurish talabalarning ma‘lumotlardan ongli ravishda foydalanishi deb hisoblanadi, ya‘ni, o‘z faoliyatidagi texnologiyalar, o‘z-o‘zini

rivojlantirish, shu jumladan, turli innovatsion yo‘llarni aniqlash qobiliyati va shaxsiy malaka va professionallikni oshirish vositalarini tanlash imkonini beradi.

**Axborot ta’lim muhitida talabalarining kreativ faolligini oshirish yo‘llari**

Sifat mezonlari	Yuzma-yuz muloqot	Bilvosita o‘zaro ta’sir
Kuchli aloqani o‘rnatish.	Jamoaviy guruh va individual o‘yinlar, seminar-munozaralar.	Talabalar uchun individual topshiriqlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali guruhlarda ishlash.
Ko‘rsatmalarni oddiy va tushunarli ishlab chiqish.	Mezonlarga asoslangan baholash ishlari.	Elektron o‘quv-uslubiy vositalar.
Interaktiv usullar, texnologiyalar va trening.	Hisobot namunalari.	Talabalarining ijodiy, ilmiy yondashuvlari, maqolalari.
Dasturiy ta’minotdan foydalanish o‘quv qurollari.	O‘quv-uslubiy imtiyozlar.	Ijtimoiy tarmoqdan foydalanish zoom, elektron pochta.

O‘qitishning innovatsion shakllaridan foydalanish mashg‘ulotlar doirasida amalga oshiriladi, o‘qituvchi ko‘magida interaktiv ta’lim shakllaridan foydalanish, talabalarga pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatish talabalarda ijodiy kompetensiyalarning namoyon bo‘lishiga olib keladi. Xutoriskiy tadqiqotlariga nazar soladigan bo‘lsak, ijodiy kompetensiya – bu maqsadli, mazmunli, semantik, ijodiy, hissiy, shaxsning qiymat xususiyatlarini ifodalaydi [8;171-b.].



**Talabalar kreativ kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi.**

Tuzilmada, shaxsning asosiy elementi sifatida malaka shaxsning shaxsiy tajribasi bilan ifodalanadi. Maqsad talabalarining o‘z tajribasi ijodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni o‘rtasidagi farq va atrofda-gi voqelikni idrok etish jarayonini aniqlash. Talabaniing kreativ kompetensiyasining eng muhim tarkibiy qismi uning muloqot qilish qobiliyati hisoblanadi. U shaxslararo muloqotni o‘z ichiga oladi, ya’ni axborot-lar almashishni ifodalaydi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations).** Umuman olganda, shaxsiy xususiyat sifa-tida kreativlik yangi va qimmatli g‘oyalar, tushunchalar va moddiy natijalar yoki faoliyat mahsulotlari hi-soblanadi va g‘ayrioddiy yoki noyob qobiliyat sifatida qaraladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ faoliya-tini rivojlantiruvchi axborot vositalaridan samarali foydalanish, ularda erkin muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantiradi, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal eta olish, mustaqil qarorlar qabul qila olishga imkoni-yatlar yaratadi. Axborot ko‘nikmasi orqali ijodkorlikni rivojlantirish shaxsni “butun shaxs” yoki alohida qismlarning birikmasi, shaxs faoliyati mahsulotlari va ularni yaratish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Axborot-lashgan muhiti bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda o‘qituvchilar ta’limidagi nostandart vazifalarni tezda hal qilish qobiliyatini oshirish tendensiyasini ko‘rsatadi, ijodiy bilimlarni kengaytiradi va hayotning turli sohalarida turli innovatsion tizimlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Takliflar quyidagilardan iborat.

1. Tarmoqlararo pedagogik ko‘rsatmalar ishlab chiqish va ulardan foydalangan holda talabalarining ijodiy axborot kompetensiyasini rivojlantirish.

2. Axborot ta'lim muhitida pedagogik o'zaro ta'sir aloqalarini yo'lga qo'yish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-54-qarori.
- (2). Guilford J.P. (1950). Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, p. 444–454.
- (3). Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Pedagogik kreativlik va kompetentlik asoslari. O'quv-metodik qo'llanma, Toshkent, 2015, 120 bet.
- (4). Postalyuk N.Y. (1989). Creative style of activity: pedagogical aspect. Kazan, Publishing House of Kazan University, 1989, p. 206.
- (5). Rubinshteyn L. Fundamentals of general psychology. St. Petersburg: Peter, 2019, 713 p.
- (6). Torrance E. 1988. The Nature of Creativity as Manifest in its Testing. The Nature of Creativity. Cambridge. Press. Russia, p. 32–75.
- (7). Verbitsky, A.A. (2016). The theory of contextual education as a conceptual basis for the implementation of the competence approach. Collection of humanitarian studies, 2 (2), p. 6–12.
- (8). Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования. "Народное образование", 2003, № 2, с. 168–173.

**Jumanyazova Muxabbat Xusinovna (UrDU dotsenti, f.f.n.; [muxabbat.j@urdu.uz](mailto:muxabbat.j@urdu.uz);**

**ORCID: 0000-0002-2471-5823),**

**Shukurullayeva Nodira Kahramon qizi (UrDU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi;**

**[nodirashukurullayeva6@gmail.com](mailto:nodirashukurullayeva6@gmail.com))**

#### **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA ORFOGRAFIK MASHQLARDAN FOYDALANISH ORQALI TA'LIMGA INNOVATSION YONDASHUV**

***Annotatsiya.** Orfografiya tilning to'g'ri yozish qonun-qoidalarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi hisoblanadi. Shu bilan birga, tilning sofligi ham ushbu bo'lim orqali namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinif ona tili darslarida orfografik mashqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bu boradagi bilimlarini yanada mustahkamlash hamda darslarga innovatsion yondashuv metodlari keltirib o'tilganidir. Shu bilan birga, mavzuga doir bir qancha adabiyotlar tahlili hamda maktab darsliklaridan olingan mashqlar tahlili maqoladan o'rin olgan. Maqola so'ngida orfografik mashqlardan foydalanish metodlari bo'yicha taklif hamda xulosalari keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** orfografiya, orfografik mashqlar, induksiya, eksperiment, analiz, sintez, grammatika, imlo.*

#### **ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЧЕРЕЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

***Аннотация.** Орфография – это раздел лингвистики, изучающий закономерности правильного написания языка. Однако чистота языка также проявляется через этот раздел. В данной статье приведены методы инновационного подхода к обучению и дальнейшему закреплению знаний учащихся посредством использования орфографических упражнений на уроках родного языка в начальных классах. При этом был взят анализ нескольких литератур по теме, а также анализ упражнений из школьных учебников. В конце статьи приводятся предложения и выводы автора о методах использования орфографических упражнений.*

***Ключевые слова:** правописание, орфографические упражнения, индукция, эксперимент, анализ, синтез, грамматика, правописание.*

#### **INNOVATIVE APPROACH TO EDUCATION THROUGH THE USE OF ORTHOGRAPHIC EXERCISES IN PRIMARY – GRADE MOTHER TONGUE CLASSES**

***Annotation.** As we all know, orthography is the branch of linguistics that studies the laws and regulations of the correct writing of a language. At the same time, the purity of the language is also manifested through this section. In this article, the methods of further strengthening students' knowledge in this regard and innovative approach to the lessons were introduced through the use of orthographic exercises in primary language classes. At the same time, an analysis of a number of literature on the topic, as well as an analysis of exercises from school textbooks, were included in the article. At the end of the article, the author's suggestions and conclusions on the methods of using orthographic exercises were drawn.*

***Key words:** orthography, orthographic exercises, induction, experiment, analysis, synthesis, grammar, spelling.*

**Kirish.** Har bir millatning dunyoda borligini belgilab beruvchi yagona omil bu uning tili hisoblanadi. Shunday ekan, har bir millat o'z tilini puxta egallamog'i darkor. Tilning to'g'ri hamda sof shaklda saqlanishini esa orfografiya bo'limi ta'minlab beradi. Jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida esa faol, maqsad sari intiluvchan, ijodkor, yangiliklarga moslashuvchan yoshlarga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish o'rindir: "Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz" [1;225-b.].

Bugun barcha sohalarda ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida esa aynan ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni, ya'ni, ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan yangiliklarni misol qilib keltirishimiz ham yetarli. Bularning barchasi kelajak avlodni mustaqil firlashga, o'z fikrlarini mustaqil tarzda bayon eta olishga va doimiy tarzda rivojlanish uchun intilishga o'rgatishga qaratilgan chora-tadbirlar sanaladi.

Orfografik mashqlarning turli xil ko'rinishlaridan maqsadga muvofiq foydalanish orqali ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv ham mazkur mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimlarini kengaytirishga hamda o'quvchilar dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilganidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot ishida *kuzatish, induksiya* hamda *eksperiment* metodlari orqali boshlang'ich sinf ona tili darslarida orfografik mashqlardan foydalanish orqali innovatsion ta'lim tizimini tashkil etish metodlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot obyekti esa bevosita dars jarayoni hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinfda o'quvchilarda shakllantiriladigan orfografik bilimlar o'quvchilarning keyingi sinflarda shakllanadigan orfografik bilimlarining asosi hisoblanadi. Shu boisdan ham ushbu bilimlar dastlabki sinflardan oq mustahkam bo'lishi darkordir. Binobarin, boshlang'ich sinf o'quvchilarining imloviy malakalarini shakllantirish metodikasini belgilashda o'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib belgilab oladi.

Ma'lumki, fonetik, so'z yasalishi hamda grammatik materiallarini o'zlashtirishmasdan imlo qoidalarini bilish mumkin emas. Chunki imlo qoidalari uchun grammatik nazariya poydevor sanaladi. Shu sababdan ham imlo qoidasi boshlang'ich sinfda mazkur qoidaga asos bo'luvchi grammatik materiallarga tayanilib o'rgatiladi. Xususan, ot, sifat, son, kishilik olmoshlari hamda fe'l o'rgatilganda shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi xususidagi qoidalar ham o'rganiladi. Bu esa orfografiyaning grammatika bilan uzviy holda o'rganilishini ifodalaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'quvchilarga bilim berishda, ularning mustaqil va ijodiy fikrlashlarida turli interfaol usullardan hamda didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunda o'quvchilarning darsga qiziqishi oshadi, faolligi kuchayadi. Binobarin, biror metod yoki usulni qo'llashda muayyan maqsad ko'zda tutiladi, uni amalga oshirish uchun vositalar belgilanadi [2;10-b.].

Shuni aytish joizki, orfografik bilimlar, ya'ni, imloga oid bilimlarni shakllantirishda ham didaktik va intellektual o'yinlar hamda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning imlo borasidagi ko'nikmalarini yuqori darajada shakllantirishga yordam beradi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan imloviy malaka juda murakkab hisoblanadi hamda u ko'p vaqt davom qiluvchi mashqlar jarayonida shakllantiriladi. Bu malaka fonetik jihatdan so'zni tahlil etishga hamda sozning morfemik tarkibini aniqlay olish ko'nikmasiga tayanadi. Malakani psixologiya fani mashqlar orqali uning natijasida sekin-asta avtomatlashgan ongli harakat sifatida qaraydi. Bu avtomatlashish esa o'rganilayotgan imlo qoidasining qiyin yoxud oson ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shu bois o'z tabiatiga ko'ra, imloviy malaka avtomatik sanalmaydi. Ko'nikma, albatta, malakaga asoslanganda mustahkam bo'ladi, yaxshilanib takomillashib boradi. Shuningdek, bunda faoliyat tuzilmasi ham qayta quriladi, ya'ni, kichik birliklar bilan ishlash keng hamda butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tib boradi. Shundan bir imlo malakasi avtomatlashib boraveradi. Imloga doir yana bir holat o'rganilib, shu tarzda so'zlarni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'la boshlaydi. Demak, murakkab harakat sifatida yozuv ongli jarayon bo'lib qolaveradi [3].

Aytish kerakki, imloviy savodxonlik o'quvchidan fikrlash, mushoda yuritishni talab qiladi. Chunki to'g'ri yozish hodisasini o'zlashtirish o'quv hamda yodda olib qolishnigina emas, balki analiz va sintezni ham talab etadi. Bu esa grammatik hamda imloviy holatlarning farqli va o'xshash jihatlarini aniqlash maqsadida taqqoslash usulidan foydalanish muhimligini belgilaydi. Shuningdek, so'z va uning shakllarini muayyan grammatik yoxud grafik guruhlarga ajratgan holda ma'lum bir tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning imloviy malakalari grammatikaga asoslanib o'rgailar ekan, bunda imlo qoidalari yakka so'znigina emas, balki umumiylik asosidagi barcha so'zlar guruhi yozilishini

tartiblaydi. Shu xususiyat bilan qoidalar xat yozuvchini har bir soʻzni yodda saqlab qolishdan qutqaradi, mazkur qoidaga asoslangan holda belgilangan meʼyorga amal qilib butun soʻzlar guruhini yozish imkonini beradi [4].

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalariga koʻra, aynan soʻz tarkibidagi imloviy xatolar sifatida quyidagilarni keltirib oʻtishim mumkin:

1. Undoshlar hamda jarangli va jarangsiz undoshlar bilan bogʻliq imloviy xatolar (masalan, *kitob* soʻzida **b** ning oʻrniga **p** yozilishi, saxiy soʻzida **x** oʻrniga **h** yozilishi).

2. Unlilar bilan bogʻliq imloviy xatolar (masalan, *ilm* soʻzi *ilim* shaklida, *bilim* soʻzi esa *bilm* shaklida yozilishi).

3. Grammatik birliklarga doir imloviy xatolar (yaʼni, qoʻshimchalar qoʻshilishiga doir yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan xatolar, masalan, *boryapti* emas, *borayapdi*, *togʻga* emas, *toqqa* shaklida yozilishi).

4. Tutuq belgisi bilan bogʻliq imloviy xatolar.

Orfografik mashqlar esa oʻquvchilarning malakalarini shakllantirib berish vazifasini bajaruvchi vosita hisoblanadi. Ularni bajarishda turli xil metodlardan foydalanish esa oʻquvchilarning dunyoqarashini hamda bilim koʻlamini oshiruvchi vosita ekanligi aniqlangandir. Shu jumladan, quyidagi metodlarni hamda mashqlarni misol qilib keltirishim mumkin.

**“Poyezd vagonlarini joyla”** metodini orfografik mashqlarda quyidagicha qoʻllay olamiz:

M e . n a t  
b a . t  
a . v o l  
j . s . r . t  
k . l g .  
d . v . m . t  
b a . o r  
m u . m . l a  
a . d . d  
. o t . r a  
m e . m . n  
. a r a k . t

Ushbu mashqda, har bir soʻz poyezd deb tasavvur qilinadi hamda tushirib qoldirilgan harflarni toʻgʻri qoʻyish talab qilinadi. Mashqni bajarish davomida oʻquvchining ham imloviy savodxonligi tekshiriladi, ham fikrlay olish qobiliyati sinab koʻriladi. Chunki mavjud harflarga yana qaysi harflar qoʻshilsa, maʼno bildiruvchi soʻz hosil boʻlishini topishlari lozimdir.

**“Qizil va koʻk”** metodi ham oʻquvchilarning darsda faol boʻlishini taʼminlovchi metod hisoblanadi. Mazkur metodda oʻquvchilarga imlo qoidalariga koʻra xato va toʻgʻri yozilgan soʻzlar taqdim etiladi. Oʻyin davomida esa imlo qoidasiga asoslanib, toʻgʻri yozilgan soʻzlar koʻk qutichaga, xato yozilgan soʻzlarni esa qizil qutichaga joylashtiradilar. Oʻyin quyidagi koʻrinishda boʻlishi mumkin: *sahiy*, *borayapti*, *behi*, *kitob*, *mazmun*, *xayot*, *doʻst*, *xayrat*, *ehtiyot*, *koʻylakim*, *tabiyat*, *oyila*, *kibir*, *masʼuliyat*, *suʼrat*, *xulosa*, *mehmon*, *singl*, *muhabbat*.

**Topshiriq:** yuqorida berilgan soʻzlarni imloviy jihatdan toʻgʻri va xatoligiga qarab, 2 guruhga ajrating.

Behi, kitob, mazmun, doʻst, ehtiyot, masʼuliyat, xulosa, mehmon, muhabbat.

Sahiy, borayapti, xayot, xayrat, koʻylakim, tabiyat, oyila, kibir, suʼrat, singl.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni aytish joizki, orfografik mashqlardan foydalanish oʻquvchilarning har tomonlama bilimlarini tekshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, yuqoridagi metodlardan foydalangan holda ona tili darslarini tashkil qilish orqali dars jarayonida barcha oʻquvchining faol qatnashishiga erishish mumkin. Agar oddiy mashqlar ham qiziqarli metodlar yordamida oʻtkaziladigan boʻlsa, maqsadga muvofiq boʻlar edi. Chunki aynan boshlangʻich sinf oʻquvchilari bir xillikdan tezda zerikadilar hamda qiziqarli metodlarga tezda diqqatini jalb qiladilar. Bundan tashqari, qiziqarli metodlar oʻquvchilarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini ham kengaytirish imkonini beradi. Mashqlarni interaktiv metodlar orqali bajartirish va darsni samarali tashkil qilish har bir pedagogning koʻnikmaga aylangan xatti-harakati boʻlmo-gʻi darkor.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2022, 416-bet.



(2). Qudratova Sh.B. Boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsiya jarayonini amalga oshirishda kompetensiyaviy yondashuvlar. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2023, 15-son, 4–13-betlar.

(3). Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "Nosir", 2009, 352-bet.

(4). Matchonov S., Bakiyeva H., Gulyamova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Chirchiq, 2020, 669-bet.

**Otaqulova Gulgunoy (Navoiy davlat Pedagogika institute Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistri)**  
**TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJTIMOYIY KOMPETENSIYASINI**  
**SHAKLLANTIRISHDA "KVEST" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish masalalari va bu jarayonda yuzaga kelgan murakkabliklar, ularni yanada optimallashtirishda Kvest texnologiyasining o'rnini, uning turlari va o'ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi markazlar faoliyatlari asosida kvest o'yinlaridan foydalanishning texnologik xaritasi xususida batafsil ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, tayyorlov guruhi, Kvest texnologiyasi, Kvestning texnologik xaritasi, ijtimoiylashuv, ijtimoiy kompetensiya.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ «KVEST» ТЕХНОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ**  
**КОМПЕТЕНЦИИ ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ ГРУПП**

***Аннотация.** В данной статье подробно рассматриваются вопросы формирования социальной компетентности детей подготовительной группы в дошкольных образовательных организациях и сложности, возникающие в этом процессе, роль квест-технологий в их дальнейшей оптимизации, ее виды и специфические особенности, технологическая карта использования квест-игр в деятельности центров на базе о дошкольных образовательных организациях*

***Ключевые слова:** дошкольная организация, подготовительная группа, квест-технология, технологическая карта квеста, социализация, позитивная компетентность.*

**USE OF "QUEST" TECHNOLOGY IN FORMING THE SOCIAL COMPETENCE OF**  
**PREPARATORY GROUP CHILDREN**

***Annotation.** This article details the issues of the formation of social competence of children of the preparatory group in preschool educational organizations and the complications arising in this process, the role of Quest technology in their further optimization, its types and specific features, the technological map of the use of Quest games in the activities of centers based on preschool educational organizations.*

***Key words:** preschool organization, preparatory group, Quest technology, quest technological map, socialization, positive competence.*

**Kirish.** Insoniyat paydo bo'libdiki, jamiyat bilan bir butunlikda yashaydi, rivojlanadi va ijtimoiylashuv jarayonini boshdan kechiradi. Shu xususiyatiga ko'ra, inson ijtimoiy tabiatga ega. U tug'ilgandan to umrining oxirigacha atrof-muhit va boshqa insonlar bilan bevosita aloqadorlikda hayot kechiradi. Har bir shaxsning o'zaro bir biriga ta'siri turli yo'llar bilan rivojlanadi. Shuning uchun ham inson ma'lum bir ijtimoiy ko'nikmalar va qobiliyatlarga muhtoj. Ushbu ko'nikma va qobiliyatlar ilmiy adabiyotlarda "ijtimoiy kompetensiya" atamasi bilan ifodalanadi. Inson ijtimoiylashuv jarayonining to'laqonli subyekt sifatida shakllanishi uning erta yosh davridanoq bu tushuncha bilan bog'liq kompetensiyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Xususan, MTTdagi tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy muhitga moslashishi, jamoada o'z o'rnini topa olishi, boshqalar bilan erkin muloqotga kirishishida ularning bu boradagi bilim va ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiylashuv jarayonida turli xil fazilatlar, xususiyatlar, harakatlar shakllanadi. Buning natijasida bola o'zaro ijtimoiy munosabatlarning qobiliyatli ishtirokchisiga aylanadi. Shu bilan birga, hozirda aksariyat oilalarda ota-ona va farzand, umuman, katta avlod va yosh avlod o'rtasida munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi, bolaning mustaqil fikrini eshitmaslik, oqibatda ularning muloqot jarayonlariga jalb etilmasligi kabi muammolar ularda ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu kabi muammolarga oqilona yechim vositasi sifatida "Kvest" texnologiyasidan foydalanish tayyorlov guruhi bolalarini tarbiyalash tizimida, ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq kompetensiyalarni shakllantirishda samarali bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalar shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirish, qaror qabul qilishda ularning fikrlash, mustqil bo'lish qobiliyati va jamoadagi erkin faoliyati birinchi o'rinda turadi. Shu nuqtayi nazardan, qiziquvchanlik o'quv jarayonini faollashtirishning kuchli vositasi bo'lib, ta'limda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish eng dolzard masala darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda Kvest texnologiyasi ta'lim jarayonlarini tashkil etishdagi innovatsiyalar orasida eng ilg'or va mashhurlik kasb etgan tex-

nologiyalardan biri hisoblanadi. “Kvest” tushunchasiga maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ilk qadam davlat o’quv dasturida quyidagicha ta’rif berilgan: kvest (ingliz, “Quest”, “muammo”, “izlanish”, “sarguzasht” degan ma’noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o’yin (ingliz “Adventure game”), uning ishtirokchilari belgilar orqali harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi. Kvest o’yini – bu bolalarning kognitiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o’ziga xos ta’lim texnologiyasi [1].

Kvest o’yinlari dastlab kompyuter o’yinlaridan kelib chiqqan bo’lib, unda o’yinchilar o’zlarining kompyuterdagi qahramonlarini o’yinda g’olib bo’lishi uchun jumboqlarni hal qilishlari va to’siqlarni yengib o’tishlari kerak bo’lgan. Faqat bu vazifalarning barchasi virtual dunyoda amalga oshirilgan. Birinchi marta virtual kompyuter kvestlarini haqiqiy dunyoga olib o’tishga urinishlar 2007-yilda Osiyo mamlakatlari amalga oshirilgan, shundan so’ng ular Yevropada, keyin esa Rossiyada (2013-yil) joriy qila boshladilar. Kvest o’yinlari butunlay yangi ko’ngilochar dasturlar bo’lib, ular yordamida bolalar sodir bo’layotgan voqealarni to’la his qila oladi va bu jarayonda faol ishtirok etishga harakat qiladi.

“Kvest” dan foydalanishning quyidagi turlari mavjud:


- Chiziqli. Halqali. Muammoli.

“Kvest” texnologisining chiziqli turida o’yin zanjiriga qurilgan bitta vazifani bajargandan so’ng, qatnashchilar yo’nalishni oxiriga yetkazgunga qadar topshiriqlarni birin-ketin bajarib boradi (1-rasmga qarang)




1-rasm. “Kvest” texnologisining chiziqli turidan foydalanish tuzilmasi.

“Kvest” texnologisining halqa turi, chiziqli shakliga aynan o’xshash, ammo aylana shaklida amalga oshiriladi. Bunda jamoalar boshlang’ich nuqtalardan boshlaydilar va o’yin oxirida shu nuqtaga qaytadilar (1.2-rasmga qarang).



1.2-rasm. “Kvest” texnologisining halqa turidan foydalanish tuzilmasi.

“Kvest” texnologisining muammoli turida barcha ishtirokchilar asosiy vazifani, masalani yechimiga qaratilgan javoblarini o’z fikrlarni umumlashtirib, jamlab, takliflarini tanlashadi (1.3-rasmga qarang) [2].



1.3-rasm. “Kvest” texnologisining muammoli turidan foydalanish tuzilmasi.

Kvest texnologiyasi ta’lim jarayonini tashkil etishda quyidagi o’ziga xos xususiyatlarga ega:

- Ta'lim muammolari o'yin faoliyati orqali hal qilinadi.
  - Ta'lim faoliyatini bilim yoki ijodiy o'yin shaklida tashkil etish.
  - Individual va guruh (jamo) tarzida o'tkazilishi.
- /Faoliyat jarayonida bolalar erkin harakatlanishi.

Kvest texnologiyasi o'ziga xos cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ham alohida ajralib turadi. Xususan kvest o'yinlarida nafaqat bolalar, balki ota-onalar ham ishtirok etishi mumkin. Bu o'yinlar bir vaqtning o'zida ishtirokchilarning jismoniy qobiliyatini, ijodkorlikni, jamoaviylikni va shu kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Natijada birgina bolalar jamoasi emas, balki ota-onalar hamjamiyati ham birlashadi, shuningdek, ota-ona va bola musosabatlarining yaxshilanishiga zamin yaratiladi. Bola hayoti davomida egallagan bilim va ko'nikmalarining asosiy qismini oila muhitidan oladi. Shuning uchun ham bola bilan oila a'zolari ko'proq ularni muomala musosabatlariga jalb qilib, berilgan savollariga aniq va to'liq javob berishga harakat qilishlari kerak. Ammo, afsuski, bugungi kunda bizning oilalarda bu kabi masalalarga e'tibor ancha past ko'rsatkichda. Bunga asosiy sabab, birinchidan, ota-onalar o'z yumushlari va muammolari bilan band bo'lib, bolaning ularga bergan savollari shunchaki o'yinqaroqlikdan degan noto'g'ri fikrga borish, ikkinchidan, esa, bu e'tiborsizlik tufayli bola savoliga javob topish uchun internet tarmoqlaridagi har xil o'yin va boshqa shunga o'xshash keraksiz narsalarga murojaat qilishida de'yishimiz mumkin. Masalaning yana bir jihatiga diqqat qaratadigan bo'lsak, hozirgi zamon bolalari juda ziyrak, kuzatuvchan va o'ta darajada zehinli ham shu boisdan ularning savollari anchagina murakkab. Bu savollarga javob berish ota-onalardan ham albatta yetarlicha bilim va salohiyatni talab qiladi. Bolaning ijtimoiy kompetensiyasining shakllanishida yuqoridagi sifatning barchasi o'z ta'sirini o'tkazadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bolaning oila bilan munosabatlari uning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri ko'pchilik olimlarni qiziqtirib kelgan va bu borada bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, rossiyalik olim Kalinichenko Olga Viktorovna, Oshkina Alla Anatolyevna va o'zbek olimlaridan F.M.Zokirova va D.Qarshiyevalar bolalardagi bilim, ko'nikma, malakalarning shakllanishida Kvest texnologiyasining ahamiyatini o'rganib chiqishdi.

**Metodologiya va tahlillar.** Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda bolani ijtimoiylashtirish masalasiga biz shunday yondashdikki, bunda, asosan, ijtimoiylashuvning nafaqat oila muhitida, balki maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyat jarayonlari bilan uyg'inishgan tarzda shakllantirish jihatlariga alohida e'tibor qaratdik.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish uchun qo'llanilgan Kvest o'yinining texnologik xaritasi**

2.1-jadval

Elementlar tarkibi	Kvestni ishlab chiqish talablari va mazmuni
Nomi	Sirli quticha. Chiziqli kvest
Kvest yo'nalishi	Tayyorlov guruhi bolalarida 5 ta markazdagi faoliyat orqali ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish va bu jarayonga ota-onalarni ham jalb qilish
Maqsad va vazifalari	<b>Maqsad:</b> Bolalarda ijtimoiy kompetensiya elementlarini to'g'ri shakllantirish <b>Vazifa:</b> 5 ta markazda bola faolligini baholash va kvest texnologiyasi asosida ijtimoiy kompetentligini shakllantirish
Muddati	Qisqa muddatli
Ishtirokchilarning yoshi	MTTdagi 6–7 yoshli bolalar va ularning ota-onalari
Sarguzasht	Sirli quticha! Kechasi xonamizga kimdir sirli quticha tashlab ketibdi. Uning ustida yozilishicha undagi 5ta jumboqni yecha olsak. bizga ajoyib sovg'alar in'om etarmish
Kvest qahramonlari	Bolalar va ota-onalardan iborat guruhlar
Asosiy g'oya	Sirli qutichadagi sovg'a egasi bo'lish uchun rasmda berilgan belgilarga mos raqamlar ketma-ketligini topishimiz kerak shunda, ikkinchi bosqich kalitini qo'lga kiritamiz
Kvest rejasi va unga yordam beruvchi yo'llar	Ikkinchi bosqich: monitor ekranidagi raqamlar ortida biz sevgan ertak qahramonlari yashiringan, raqamlardan birini tanlab, berilgan qahramon rolidan qisqacha ijro etib berasiz. Shu qahramon sizga uchinchi bosqich

	uchun kalit vazifasini bajaradi, ya'ni keying bosqichda tanlagan ertakni qisqacha qayta hikoya qilib berasiz. To'rtinchi bosqichda ertakdagi eng ko'p uchraydigan predmetdan birini tanlab, uning xususiyatlarini sanaymiz. Nihoyat, so'nggi bosqichda esa shu predmetning rasmini chizish talab etiladi.
Vazifalar va to'siqlar	O'yin rejasi. Bolani topqirlik, chaqqonlik, hamjihatlikka undovchi, soddadan murakkabga yo'naltirilgan masalalardan iborat.
Manbalar	Tarqatma materiallar, rasmlar, internet manbalari
Elektron ta'lim resurslari	Elektronli doska, monitor
Bolalar faoliyatini baholash mezonlari	Barcha topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan ishtirokchilarga aylana shakldagi qizil kartochkalar, qisman javob topganlarga va o'yin tartibini buzganlarga uchburchak shakldagi sariq kartochkalar baholash sifatida beriladi
Kvestning natijasi va refleksiya	Markazlardagi faoliyatlarga mos ma'lumotlar mustaqil o'zlashtiriladi va bolalarda kerakli ko'nikma va malakalar shakllanadi <b>Refleksiya.</b> Barcha ishtirokchilardan mashg'ulot haqidagi fikrlar, taklif va tavsiyalar tinglanadi. Kvest o'yinida to'plangan qizil kartochkalar hisoblab barchaga teng taqsimlanadi va sirli qutichadagi sovg'alar rag'bat sifatida ishtirokchilarga taqdim etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Mavjud vaziyatlardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishda birinchi o'rinda ularni ko'proq muloqot jarayonlariga jalb qilib, erkinliklarini ta'minlab berishimiz va MTTlardagi mashg'ulot jarayonlariga qiziquvchanligini oshirishimiz lozim. Bunga uyg'in tarzda oila bilan MTT orasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlab, ularning ham ta'lim tizimiga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun takomillashtirilgan ilk qadam davlat o'quv dasturi, 2022.
- (2). D.O'.Qarshiyeva. Darslarni "Kvest" texnologiyasi asosida loyihalashni takomillashtirish. Uslubiy qo'llanma, "Qamar Media", Toshkent, 2022.
- (3). B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent, 2015.
- (4). Ta'lim sifat samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish (muhoz.org) <https://muhoz.org/reja-talimdagi-xorijiy-tajribalar.html?page=2>
- (5). Ijtimoiylashtirish jarayonida shaxsiyatni rivojlantirish bosqichlari. Salomatlik haqida ma'lumot. 2023 ([ceazzurramodugno.com](http://ceazzurramodugno.com))

**Tug'anboeva Zamiraxon Shuxratbek qizi (O'ZDJTSU tayanch doktoranti 1-kurs talabalasi;**

**E-mail magistrzamira@gmail.com)**

### **TALABA KURASHCHI QIZLARNING KUCH CHIDAMKORLIGINI UMUMMAXSUS MASHQLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini oshirishda umummaxsus mashlardan tashkil topgan metodika orqali amalga oshirildi. Tadqiqotni olib borish jarayonida esa o'ziga xos uslub va tamoyillardam hamda vositalardan foydalanish. Talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini maxsus mashqlar orqali rivojlantirish metodikasi. Tadqiqotga tanlab olingan talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini aniqlash.

**Kalit so'zlari:** kurash, kuch, chidamlilik, umummaxsus, talaba, metodika, vosita, uslub, tamoyil, jismoniy mashqlar va hokazo.

#### **МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СИЛОВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ СТУДЕНТОВ-БОРЦОВ ПОСРЕДСТВОМ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ**

**Аннотация.** В данной статье силовая выносливость студентов-борцов улучшалась с помощью методики, состоящей из специальных упражнений. А в процессе проведения исследований

используются уникальные методы, принципы и инструменты. Рассмотрены методика развития силовой выносливости студенток-борцов посредством специальных упражнений, определения силовой выносливости студенток-борцов, отобранных для исследования.

**Ключевые слова:** борьба, сила, выносливость, общий, ученик, методика, инструмент, метод, принцип, физические упражнения и др.

## THE METHOD OF DEVELOPING STRENGTH ENDURANCE OF STUDENT WRESTLERS THROUGH SPECIAL EXERCISES

**Annotation.** In this article, the strength endurance of student wrestlers was improved by means of a methodology consisting of special exercises. And in the process of conducting research, use of unique methods and principles and tools. The method of developing strength endurance of female student wrestlers through special exercises. Determination of the strength endurance of female student wrestlers selected for the study.

**Key words:** struggle, strength, endurance, general, student, methodology, tool, method, principle, physical exercises and others.

**Sh.A.Mirzakulov To‘xtaboyev, “Milliy kurush turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrası professori taqrizi asosida**

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishdan oldin ham, kegin ham va hozirgi vaqtlarda ham, o‘zimizning milliy qadryatlarimizni ulug‘lab va asrab-avaylab kelmoqda, shular tarkibida milliy kurash ham mavjud bo‘lib, tobora yuksalib, rivojlanib bormoqda. Yillar davomida mardlik, bag‘rikenglik, oliyanoblik va halollik timsoli sifatida e‘zozlanib kelinayotgan o‘zbek xalqining tarixiy merosi kurashdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bundan tashqari, har bir kurash turi bo‘yicha yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda jismoniy sifatlarning ustivorligi, ularni o‘ziga xos texnik-taktik usullar xususiyatlariga mos tartibda rivojlantirishga doir lokal va global masalalar В.Ф.Бойко, Г.Ф.Данько, Б.А.Подливаев, В.М.Игуменов, А.А.Карелин, Д.Г.Миндиашвили, В.В.Нелюбин, Ф.А.Керимов, Н.А.Тастанов tomonidan batafsil o‘rganilgan. D.Raxmatova o‘rta uzoq masofalarga yugurishga ixtisoslashgan yengil atletikachi o‘smir sportchilarda aerob chidamlilikni oshirish bo‘yicha ilmiy izlanish olib borgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini maxsus mashqlar orqali rivojlantirish metodikasi.

1. Tadqiqotga tanlab olingan talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini aniqlash.
2. Talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini rivojlantirish va mustahkamlash.
3. Tadqiqot yakunida natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va mashg‘ulotga taqdim etish.

**Tahlil va natijalar.** Biz tadqiqotimizni O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil olayotgan talaba kurashchi qizlarda olib bordik. Tadqiqot ishtirokchilari 20 nafar, shulardan 10 nafari tadqiqot guruhi, 10 tasi nazorat guruhi kurashchi qizlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning yoshi 18–19 yoshni tashkil qiladi. Tadqiqotni universitet kurash zalida 2024-yil 17-yanvardan boshlab, 2024-yil 25-fevral qadar olib bordik. Mashg‘ulotlarda mezosiklda o‘ziga xos uslub va tamoyillardan foydalanildi.

Tadqiqot guruhining tadqiqotdan oldingi olingan natijalari			
№.	Bajariladigon usul (mashqlar)	Vahti	Soni
1.	20 kg toshni yotgan joyida ko‘tarish		8–10
2.	Tashqi qarshilik mavjud holda usulga kirish	30 soniya	10
3.	Oyog‘iga qum solingan qopchani bog‘lab, ziniga chiqib-tushish	15–20 soniya	
4.	Gantelni ko‘tarish 10–14 kg (imkon qadar)		8–10
5.	Warning (rezinka) 17–19 kg		10–12

Nazorat guruhining tadqiqotdan oldingi olingan natijalari			
№.	Bajariladigon usul (mashqlar)	Vahti	Soni (marta)
1.	20 kg toshni yotgan joyida ko‘tarish		7–10
2.	Tashqi qarshilik mavjud holda usulga kirish	30 soniya	810
3.	Oyog‘iga qum solingan qopchani bog‘lab, ziniga chiqib-tushish	15–20 soniya	
4.	Gantelni ko‘tarish 10–14 kg (imkon qadar)		8–10
5.	Warning (rezinka) 17–19 kg		10–12

**Talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini umummaxsus mashqlar orqali rivojlantirish metodikasi**

№.	Bajariladigon usul (mashq)lar	Vahti	Takrorlash soni	Dam olish oralig'i
1.	20 kg toshni yotgan joyida ko'tarish		3 marta	30 soniya
2.	Tashqi qarshilik mavjud holda usulga kirish	1 daqiqa	4 marta	30 soniya
3.	O'z vesidan yuqori ves bilan usullarni bajarish	1 daqiqa	3 marta	30 soniya
4.	Oyog'iga qum solingan qopchani bog'lab, ziniga chiqib-tushish	15 soniya–2 daqiqa	2 marta	30 daqiqa
5.	Gantelni ko'tarish 10–14 kg (imkon qadar)		4 marta	30 soniya
6.	Warning (rezinka) 17–19 kg	30 soniyadan 1 daqiqagacha	3 marta	30 soniya 1 daqiqa
7.	Arqonda qo'l bilan yurush		2 marta	30 soniya

#### Tadqiqot guruhining tadqiqotdan keyingi olingan natijalari

№.	Bajariladigon usul (mashq)lar	Vahti	Soni (marta)
1.	20 kg toshni yotgan joyida ko'tarish		12–14
2.	Tashqi qarshilik mavjud holda usulga kirish	30 soniya	15–17
3.	Oyog'iga qum solingan qopchani bog'lab, ziniga chiqib-tushish	20–30 soniya	
4.	Gantelni ko'tarish 10–14 kg (imkon qadar)		15–20
5.	Warning (rezinka) 17–19 kg		15–22

#### Nazorat guruhining tadqiqotdan keyingi olingan natijalari

№.	Bajariladigon usul (mashq)lar	Vahti	Soni (marta)
1.	20 kg toshni yotgan joyida ko'tarish		10–12
2.	Tashqi qarshilik mavjud holda usulga kirish	30 soniya	10–13
3.	Oyog'iga qum solingan qopchani bog'lab, ziniga-chiqib tushish	15–20 soniya	
4.	Gantelni ko'tarish 10–14 kg (imkon qadar)		11–14
5.	Warning (rezinka) 17–19 kg		14–16

**Xulosa va takliflar.** Biz tadqiqotimizni olib borishda o'ziga xos, uzluksiz tamoyillardan, qattiy tartiblashtirilgan mashq, usulblardan unumli foydalanildi. Biz taqdim qilgan metodika yani umummaxsus mashqlar yordamida, Talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini 2.2–3% oshganligini jadvallarda ko'rishimiz mumkin. Biz talaba kurashchi qizlarning kuch chidamkorligini oshirish samarali deb hisobladik agar kuch chidamkorligini oshirilsa, mashg'ulot va musoboqa davrida qo'yilgan maqsadga osonroq erishiladi. Biz olib borgan tadqiqotimiz talaba kurashchi qizlarni yuqori darajada natijalarni qayd etishiga ko'maklashdi. Yuqoridagi metodikani biz sport maktablariga tavsiya qildik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.11.2020-yildagi PQ-4881-sonli "Milliy kurash sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilga "6-sentabr – Kurash milliy sport turi kuni" sifatida rasman tan olindi va farmoni imzolangan.
- (3). Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubi. Darslik, T., 2015, 35–110-betlar.
- (4). R.S.Salomov. Jisimoiy tarbiya nazariyasi va uslubi. Toshkent, 2015, 57–90-betlar.

(5). Achilov A.M., Akromov J.A., Gonchorova O.V. Bolalar jismoniy sifatlarini tarbiyalash. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2009, 30–80-betlar.

**Subxonova Sanobar Abduhalim qizi** (Navoiy davlat Pedagogika instituti doktoranti, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi; [subhovanasanobar@gmail.com](mailto:subhovanasanobar@gmail.com); ORCID: 0009-0004-3571-8706)

### **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING TO‘G‘RI YOZISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA DIKTANT TURLARIDAN FOYDALANISH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini oshirishda turli xil matn turlari, asosan, diktant turlaridan foydalangan holda ularning imloviy savodxonligini yanada rivojlantirish usul va yo‘llari haqida fikr va mulohazalar olib borilgan holda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari foydalanishi maqsadida tavsiyalar berib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** to‘g‘ri yozish malakasi, ko‘nikma, orfografiya, imloviy savodxonlik, diktant, matn turlari, ko‘chirma diktant.*

### **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИДОВ ДИКТАНТОВ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ ПРАВИЛЬНОГО ПИСЬМА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

***Аннотация.** В данной статье для совершенствования навыков правильного письма у учащихся младших классов используются различные виды текста, преимущественно виды диктантов, а также высказываются идеи и мнения о методах и путях дальнейшего развития их орфографической грамотности. предназначены для использования классными руководителями.*

***Ключевые слова:** навыки правильного письма, умения, орфография, орфографическая грамотность, диктант, виды текста, копийный диктант.*

### **USING TYPES OF DICTATION IN DEVELOPING CORRECT WRITING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS**

***Annotation.** In this article, in order to improve the correct writing skills of elementary school students, various text types are used, mainly dictation types, and ideas and opinions are made about the methods and ways to further develop their orthographic literacy. recommendations have been made for the use of class teachers.*

***Key words:** correct writing skills, skills, orthography, orthographic literacy, dictation, text types, copy dictation.*

**Kirish (Introduction).** To‘g‘ri yozish imloviy savodxonlik har bir shaxs uchun zarur va uning jamiyatdagi salmoqli o‘rin egallashini ta‘minlash rolini bajaruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har bir shaxsning orfografik bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun esa, avvalo, boshlang‘ich sinf davridanoq unga amaliy va nazariy jihatdan tushuncha berib borilishi lozim hisoblanadi. Chunonchi, har bir bilimni ilk boshidanoq mustahkam barpo etar ekanmiz, bir kun kelib bu bilim o‘z mevasini bermay qolmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** “Diktant lotincha dictare “hadeb gapiravermoq”, “takrorlamoq”, “aytib turib” ma’nolarini anglatadi. Imloviy va punktuatsion qoidalarning o‘zlashtirish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish” [2 611-b.].

“Birinchii sinf o‘quvchilari bir nechta tovushlarni o‘rganib olgandan so‘ng, dastlab, ular ikki yoki uch tovushdan iborat so‘zlarni eshitib yozishga o‘rgatiladi.

Imloni o‘rgatishda diktant yozdirib turish – o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga yordam beradi” [3;3-b.]. Diktantning har bir turi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga turli xil maqsadlarda qo‘llaniladi. Shuningdek, diktantning ko‘pchilik turidan aynan imloviy savodxonlikni oshirishda foydalaniladi.

“Lug‘at diktantni o‘rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda qo‘llaniladi” [4;6-b.]. Aynan diktantning bu turi orqali o‘quvchilar yozilishi murakkab bo‘lgan so‘zlarning ustida ishlash orqali to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini yanada mustahkamlashga erishadilar.

“Diktantlar maqsadiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Ta’limiy diktantlar – bilim berishga yo‘naltirilgan diktantlar.
2. Tekshiruv diktantlar – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta’limiy diktantlar tashkil etish va bajaralish usuliga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ta’kidiy diktant.
2. O‘z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.

3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.
6. Lug‘at diktant.
7. Ijodiy diktant [5;528–530-b.].

Diktantning yuqoridagi turlaridan har haftalik ona tili darslarida unumli foydalanish orqali o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aynan imloviy savodxonligi hamda shu bilan bir qatorda, husnixatini yaxshilashda juda ijobiy natijaga erishish mumkin hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Diktant turlaridan asosan, ta’kidiy diktant qoidalarni amalda qo‘llash usullarini yaxshi bilib olish maqsadida qo‘llaniladi. Matnni yozishdan oldin uni yozish jarayonida, izohli, yozuvdagi kabi o‘quvchilar so‘zni qanday yozilishini tushuntiriladi. Ya’ni, matn tarkibidagi aynan qaysi so‘z va jumalarning to‘g‘ri yozilishiga e’tibor qaratilayotgani o‘quvchiga tushuntiriladi hamda o‘quvchi o‘sha ta’kidlangan so‘z yoki jumlaning to‘g‘ri yozilishini yodda saqlaydi. Shuningdek, o‘z diktant turida ham aynan o‘quvchilar imloviy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida foydalaniladi. Bunda ko‘proq x va h harflarining yozilishiga e’tibor qaratiladi. Saylanma diktant turidan ham aynan orfografik qoidalarni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin hisoblanadi. Jumladan, bosh harf bilan yoki chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlarni aynan ajratib yozish mumkin hisoblanadi.

Shuningdek, ko‘chirma diktantda xato yozilgan so‘zlarni topib ularni qayta to‘g‘rilab yozishga topshiriq berish orqali ham o‘quvchining imloviy ko‘nikmasini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning topqirligini ham yo‘lga qo‘yish mumkindir. Bunda aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun “Ikkitasi xato, bittasi to‘g‘ri” metodidan samarali foydalansa bo‘ladi. Bunda b va p tovushlari bilan yozilishda xatoliklar yuz beradigan so‘zlarning imlosi ustida ishlashda foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, maktab, kitop, iztirob kabi so‘zlarda 2 ta so‘z xato va bittasi to‘g‘ri yozilgan bo‘lib, buni o‘quvchi o‘z bilim va ko‘nikmasiga ko‘ra anglashi va xatoni tuzatib ko‘chirishi zarur hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, birinchi sinf o‘quvchilari uchun so‘z diktant turini yozishda aynan “analiz” metodidan foydalanish juda qulay usuldir. Bunda o‘quvchilar endigina bir nechta harflarni o‘rgana boshlagandanoq aynan “analiz” metodidan foydalangan holda imloviy bilimga ega bo‘la oladilar. Masalan, k, i, t, o, b kabi harflarni birlashtirish orqali yuqoridagi metod orqali yangi so‘z hosil qilish topshirig‘i berilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘quvchilar berilgan harflarni analiz qilgan holda kitob so‘zini hosil qilishadi.

Ikkinchi sinf o‘quvchilari uchun esa “sintez” metodidan ham imloviy savodxonlikni rivojlantirish uchun ham samarali foydalanish mumkin hisoblanadi. Masalan, chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar ichidan to‘rt bo‘g‘inlilarini ajratib yozing: ota-ona, birdan bir, shirin-shakar, ko‘pdan ko‘p. O‘quvchilar ushbu topshiriq orqali esa ota-ona, shirin-shakar kabi imloviy jihatdan chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlarni aniqlab, sintez metodi orqali so‘zlarni bo‘inlarga ajratib shartni bajaradilar hamda dars oldiga qo‘yilgan maqsadga erishiladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq erkin diktant turidan foydalanish ham to‘g‘ri yozishko‘nikmasini rivojlantirishda samarali usuldir. Chunki “Erkin diktant uchun hikoya tarzidagi uncha katta bo‘lmagan matn tanlanadi. Tanlangan matnning har bir bo‘limida ikkitadan uchtagacha gap bo‘lishi kerak. Matnda oquvchilar yozishda qiynaladigan so‘z yoki imlosi o‘rganilmagan so‘zlar ishtirok etgan bo‘lsa, matn mazmuniga xalal yetkazmagan holda boshqa so‘zlar bilan almashtirish yoki tushurib qoldirish mumkin” [2;534-b.].

Lug‘at diktantdan esa o‘quvchilarga aynan imlo qoidalarini mustahkamlash maqsadida o‘qituvchi tomonidan turli topshiriqlar berib o‘tiladi. Masalan, 2-sinf 1-chorak uchun o‘quvchilarga tekshiruv diktanti sifatida ”Opa-singillar” nomli diktant berilishi ham aynan diktant tarkibida shaxs nomlari – ismlar bosh harf bilan yozilishi kerak, degan orfografik qoidani o‘quvchiga amaliy tatbiq etadi.

“Shahlo, Barno va Lola–opa singillar. Ularning onasi – Oysha opa – chevar (13 so‘z)” [4;40-b.]. Ushbu 13 so‘zdan iborat diktantda ham aynan 2-sinf o‘quvchilariga orfografik qonun-qoidalarni o‘rgatish va ko‘nikma hosil qilish maqsadida foydalaniladi. O‘quvchilar esa shu kabi diktantlar orqali imloviy savodxonlikka ega bo‘ladilar.

Shuningdek, e unlisining yozilishiga doir izohli diktant misolida quyidagini namuna qilib olishimiz mumkin;

“1. Million-million elektr lampochkalarining yonishini ta’minlash uchun juda ko‘p elektr quvvati kerak. 2. Eman darati qadimdan xo‘jalikda qadrlanadi. Eman yog‘ochi juda qattiq bo‘ladi. U suvda chirimay-



di, shuning uchun eman yog'ochidan kemalar va vagonlar yasashda foydalaniladi, emandan ajoyib parkent yog'ochlari tayyorlanadi..." [5;35–36-b.].

Ushbu yuqoridagi gaplar orqali esa aynan e unlisining yozilishi bo'yicha imloviy ko'nikma hosil qilish mumkin hisoblanadi. Bundan tashqari, turli diktant turlari orqali barcha orfografik qonun-qoidalarni birin-ketin o'zlashtirib boradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa sifatida shuni aytshimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga orfografik qoidalarni, ya'ni, to'g'ri yozish ko'nikmasini qoidalarni yod oldirgan holda emas, balki, turli mashq va topshiriqlarni amaliy bajartirgan holda ularda ko'nikma hosil qilishimiz mumkin hisoblanadi. Bu borada esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining eng ko'p foydalanadigan manbaasi esa diktant turlari hisoblanadi. Aynan yozma nutqida to'g'ri yozishga doir nuqson va kamchiliklarga yo'l qo'yuvchi o'quvchilarning imloviy savodxonlik darajasini oshirish maqsadida ham aynan ko'proq diktant turlaridan keng foydalanishni tavsiya berib o'tygan bo'lardik. Natijada har bir o'quvchi o'z fikrini yozma ravishda ravon va benuqson ifoda etishdek malakaga ega bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

(1). Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. Тошкент, "Ўзбекистон", 2016, 13-бет.

(2). Мадалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Т., ;2006–2008, 680-бет.

(3). Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Diktantlar to'plami. "Vektor-press", T., 2011, 191-bet

(4). Abdullayeva Q., Rahmonbekova S., Bekmurodova G., G'ozixojayev G. Diktantlar to'plami. Niso poligraf. T., 2018, 192-bet.

(5). Matchonov S., Bakiyeva H. v.b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "Ishonchli hamkor", 2021, 642-bet.

(6). Yusupova M. Diktantlar to'plami. "O'qituvchi", T., 2001, 79-bet.

(7). G'ulomov A., Sayfullayeva R., Ernazarova M. v.b. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma, "Muharrir", Toshkent, 2023, 370-bet.

(8). Qosimova K., Matchonov S. v.b. Ona tili o'qitish metodikasi. "Noshir", Toshkent, 2009, 351-bet.

**Xajiyeva Maqsuda Sultonovna (Urganch davlat universiteti, Pedagogika fanlari doktori, professor),**

**Rahimova Shoira Adilbekovna (Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)**

### **UNSURULMA'OLIIY KAYKOVUSNING PEDAGOGIK G'OYALARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Unsurulma'oliy Kaykovusning "Qobusnoma" asaridagi pedagogik g'oyalari asosida talabalarni (bo'lajak o'qituvchilarni) yetnik-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish hamda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga bugungi kun nuqtayi nazaridan yondashuvga muvofiq amalga oshirilishiga oid fikr yuritilgan bo'lib, turli masalalar yuzasidan keng mulohaza yuritilib, uning ilmiy qarashlari asosida sifatlar mushohadasi tahlil qilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, bilim, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik qarash, madaniyat, axloqiy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar, shaxsiy fazilatlar.

### **ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ УНСУРУЛМАОЛИ КАЙКОВУСА**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы приобщения студентов (будущих учителей) к этническим и общечеловеческим ценностям и реализации образовательного процесса в соответствии с современными подходами, основанными на педагогических принципах Унсурулмаоли Кайковуса, изложенных в "Кабуснома". Анализ основан на наблюдении.

**Ключевые слова:** образование, знания, будущие учителя, педагогическое видение, культура, нравственные ценности, личностные качества, нравственные качества.

### **TRAINING FUTURE TEACHERS BASED ON THE PEDAGOGICAL IDEAS OF UNSURULMAOLI KAIKOVUS**

**Annotation.** This article discusses the issues of familiarizing students (future teachers) with ethnic and universal values and implementing the educational process in accordance with modern approaches based on the pedagogical principles of Unsurulmaoli Kaykovus, as outlined in Kabusnom. The analysis is provided by observation.

**Key words:** *education, knowledge, future teachers, pedagogical vision, culture, moral values, personal qualities, moral qualities.*

**Kirish.** Unsurulma'oliy Kaykovusning "Qobusnoma" asarida keltirilgan pandnomalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, undagi fikrlarning ijtimoiy qoidalarga mazmunan uyg'unligi, hayotiyliigi butun bir axloqiy an'ananing yaqqol ifodasi bo'lib, badiiy tafakkur, ijodiy davomiylikni ifodalaydi.

Ta'lim usullari didaktikaning muhim tarkibiy qismidir. Ular talabalarni (bo'lajak o'qituvchilarni) etnik-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish hamda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga bugungi kun nuqtayi nazaridan yondashuvga muvofiq amalga oshiriladi. Talabalar bilan ishlashning interfaol shakllari va usullari eng samarali hisoblanadi. Masalan, amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda talabalar Unsurulma'oliy Kaykovus "Qobusnoma"da (o'quvchilarning xohishiga ko'ra) keltirilgan oila, ish va boshqa masalalarni tahlil qilishlari, shuningdek, bayon qilingan turli ta'lim vositalariga oid bilimlarini tarbiyaviy ta'sirning muhim shakli sifatida qarab, xalq orasida saqlanib qolgan ayrim oilaviy an'analar, urf-odatlar va bayramlar bilan yaqindan tanishishlari mumkin. Olingan bilimlar bo'lajak o'qituvchilarning pedagogika sohasidagi shaxsiy kognitiv asoslarini shakllantirish hamda turli yoshdagi bolalar bilan kasbiy amaliyotda qo'llash uchun asos bo'lishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Shuni alohida aytish mumkinki, Unsurulma'oliy Kaykovus ta'lim, tarbiya, shaxsni shakllantirish va rivojlantirish masalalarini bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib, ta'lim va tarbiya nazariyasining ilmiy asoslarini yaratishga harakat qilib, pedagogika sohasiga o'z hissasini qo'shdi. Tadqiqot ishimizning keyingi qismida esa Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning tarkibiy-mazmun modelini ishlab chiqish masalasiga to'xtalamiz. "Model" so'zi lotincha «modulus» – o'lcham, namuna, me'yor so'zidan kelib chiqqan va har qanday modellashirilgan obyektning aqliy tasviri yoki ma'lum tasviri sifatida tushuniladi. Modellashirish esa muammoni o'rganish shakllari va usullarining ko'p qirraliligi tufayli keng tarqalgan usul hisoblanadi.

Modellashirish usulining nazariy va uslubiy asoslari O.Moskalenko [1;29-b.], E.Stepanov [2;263-b.], G.Suxodolskiy [3;120-b.], I.Neprokina [4;61–64-b.], O.Melnichuk, A.Yakovleva [5;148-b.] va boshqalar asarlarida berilgan. Modelning qadr-qimmatini haqida gapirganda, G.Suxodolskiy ko'rinish va ravshanlikka alohida e'tibor beradi [3;120-b.], I.Neprokinaning fikricha, model: "...obyektning tuzilishi va xususiyatlarini, o'zaro bog'liqligini va elementlari orasidagi juda oddiy munosabatni takrorlaydi" [4;61-b.]. O.Melnichuk va A.Yakovlevlar model tizim bo'lishi kerak, deb hisoblab, uni ilmiy savodxonlik, kompetensiya, o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini tartibga solishdan ko'rishga harakat qiladilar [5;148-b.]. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, model obyektning ekvivalenti bo'lib, ma'lum bir bilim sohasidagi ma'lumotlar va aloqalarni, munosabatlarni sodda va vizual shaklda, mos va ochiq, tahlil qilish va umumlashtirish uchun mavjud bo'lgan holda taqdim etadi. Binobarin, bo'lajak o'qituvchi faoliyatini uning kasbiy tayyorgarligi modeli asosida zikr etilgan soha talablari asosida takomillashtirish mumkin. Shaxsning, bo'lg'usi o'qituvchining uyg'un ko'rsatkichlarini modellashirish nafaqat kasbiy faoliyatni aniqlash, balki uning shakllanish jarayonini vizual ko'rsatish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash yagona pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlarini va ta'lim-tarbiya ishi-ning ushbu yo'nalishining xususiyatlarini aks ettiruvchi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi: ilmiylik; izchillik; nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik; shaxsni ijtimoiylashtirish va insonparvarlashtirish.

Tadqiqot muammosini nazariy tushunish asosida Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari orqali bo'lajak o'qituvchilar tayyorlanmoqda.

Talabalarining axloqiy, shaxsiy va kasbiy fazilatlarini oshirish samaradorligini ta'minlaydigan quyidagi pedagogik shartlar belgilandi:

–Unsurulma'oliy Kaykovusning tarbiyaviy salohiyati va uning pedagogik g'oyalari haqida ma'lumot berish;

–talabani fan pozitsiyalarini ta'minlash;

–talabani o'quv jarayonida olgan bilimlarining dolzarbligini oshirish maqsadida nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro bog'liqligi;

–o'quv jarayonining turli shakllarida talabani darsdan tashqari faoliyatini tashkil etish.

Shuningdek, nazariy tahlil mazmunidan kelib chiqib, Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari orqali bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning quyidagi tarkibiy qismlari belgilandi: motivatsion-qiyamat komponenti; ma'naviy va axloqiy komponent, refleksiv komponent;

Motivatsion-qiyamat komponent. “Qobusnoma” va unga asoslangan boshqa milliy qadriyatlar: ishtiyoqni rivojlantiradi; o‘ziga va atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi; o‘z-o‘zini rivojlantirishni rag‘batlantiradi; hayotga qiziqishni shakllantiradi. Bularning barchasi bo‘lajak o‘qituvchining o‘zini takomillashtirishi uchun zarurdir.

Ma’naviy va axloqiy komponent. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zarur tarkibiy qismi ma’naviy-axloqiy tarbiya bo‘lib, u ko‘rib chiqilayotgan tarbiyaviy ishning maqsadiga qarab, o‘qituvchilarni tayyorlashning axloqiy-pedagogik tomonlarini shakllantirishdan iborat.

Reflektiv(lat. reflexio – orqaga e’tibor berish) o‘z harakatlarining natijalarini va o‘z rivojlanishini, shaxsiy yutuqlarini ongli ravishda kuzatish qobiliyatiga ega komponent. Bu ijodkorlik, kelajakka intilish, sheriklikka yo‘naltirilganlik, ijodiy o‘zini o‘zi tahlil qilishga moyillik fazilatlarini va xususiyatlarini shakllantirish bilan belgilanadi.

**Tahlil va natijalar.** Unsurulma’oliy Kaykovusning pedagogik g‘oyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning asosiy usullari va shakllari:

Asosiy usullar:

- real vaziyatlarni tahlil qilish usuli;
- tanqidiy fikrlash texnologiyasi;
- munozara usuli;
- matbuot anjumani usuli va boshqalar.

Ish shakllari:

- treninglar;
- munozaralar;
- seminar-sayohat;
- biznes o‘yini, rolli o‘yin.

Unsurulma’oliy Kaykovusning pedagogik g‘oyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning 3 komponentiga muvofiq quyidagi diagnostika usullari tanlab olindi va ular mazmuni, tuzilishi jihatidan taqdim etildi:

1) Motivatsion-qiyamat komponenti uchun:

- M.Rokichning mazmuni va instrumental qiymatlari ro‘yxati.
- T.Ilin. Universitetlarning ta’lim motivatsiyasini o‘rganish metodikasi.

2) ma’naviy va axloqiy komponent uchun «Ta’lim va axloqiy rivojlanish so‘rovnomasi» standart so‘rovnomasi (V.Svetkov. 2014);

3) refleksiv komponent uchun: Refleksivlikning rivojlanish darajasini diagnostika qilish uchun test (A.Karpov).

O‘quv dasturi Urganch davlat universiteti bazasida talabalar bilan olib borilgan amaliy-eksperimental ishlarga asoslangan edi. Dastur har bir o‘quvchining shaxsiy fazilatlarini, kasbiy va ijodiy faoliyatini ma’lum darajada rivojlantirish imkonini berishi aniqlandi.

Unsurulma’oliy Kaykovusning pedagogik g‘oyalari asosida ilmiy ishlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash modelining uslubiy asoslari, pozitsiyalari, shart-sharoitlari, o‘quv tarkibiy qismlari va usullari belgilab berildi. Shuningdek, har qanday didaktik jarayonda bo‘lgani kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar sifatida belgilangan modelning motivatsion-qiyamatli, ma’naviy-axloqiy va refleksiv komponentlarining o‘lchamlari va ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Bizning «Qobusnoma» asaridagi pedagogik g‘oyalar asosida o‘qitish uchun taklif qilgan o‘quvchining axloqiy va kasbiy shaxsini shakllantirish modeli yakuniy natija emasligini inobatga olib, boshqa asoslar bo‘yicha boshqa yangi modellarni yaratish imkoniyatini ham inkor eta olmaymiz. Ammo ushbu Unsurulma’oliy Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi pedagogik g‘oyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash modeli qandaydir natijaga erishishni maqsad qilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash modelining ushbu tarkibiy qismlari nafaqat talabalarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirishga, balki talabalarga beradigan bilimning o‘qituvchilarni tayyorlashdagi ahamiyati muhim omil sifatida shakllanadi. A.Shcherbakovning fikricha, o‘qituvchining ta’lim faoliyatining muvaffaqiyati uning pedagogik faoliyatni (axborotli, rivojlantiruvchi, safarbar etuvchi, yo‘naltiruvchi) bajarishga tayyorligi va ular o‘rtasida ichki aloqa o‘rnatish, o‘z faoliyatining mazmunini aniqlash va tarbiyalash qobiliyatiga bog‘liq. ularni amalga oshirish usullari [6;25-b.].

**Xulosa va takliflar.** Biz taqdim etgan Unsurulma’oliy Kaykovusning pedagogik g‘oyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchining axloqiy shaxsini shakllantirish jarayonida zarur bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlar ro‘yxati, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyati harakatga tayyorlashning asosiy vazifasi Unsurulma’oliy

Kaykovusning pedagogik merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy va kasbiy sifatlarini oshirish bilan belgilanadi. Bo'lajak o'qituvchining pedagogik fondini Unsurulma'oliy Kaykovusning o'z shaxsi va talabalarining shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik g'oyalardan foydalanish tajribasi bilan boyitish nafaqat uning shaxsiy fazilatlarini yaxshilash, balki takomillashtirishga ham hissa qo'shadi. Kasbiy mahorat va ikki tomonlama jarayondir. Bo'lajak o'qituvchilarga "Qobusnoma" ta'lim mazmunining ilg'or modellarini joriy etish ularning tarixiy-madaniy merosning tarbiyaviy ahamiyati va salohiyati haqidagi tushunchalarini kengaytiradi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirish, shaxsiy va kasbiy madaniyatini yuksaltirish imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan bo'lajak o'qituvchilarni Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida tayyorlash sifatini belgilovchi mezonlar majmuasi, eng avvalo, ta'limning motivatsion-qadriyat komponenti bilan bog'liq holda, ta'lim faoliyatini Unsurulma'oliy Kaykovus merosi orqali amalga oshirishga intilish, uning samaradorligiga erishish, saviyani oshirish bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, o'rganilayotgan ta'limning ma'naviy-axloqiy tarkibiy qismi Unsurulma'oliy Kaykovus merosining ta'lim salohiyatini tan olish haqidagi nazariy, uslubiy, bilimlarning kompleks majmui, ko'rib chiqilayotgan jarayonning imkoniyati sifatida qaraladi. Uchinchidan, refleksiv komponent o'qituvchining pedagogik faoliyati davomida amalga oshirilgan «Qobusnoma»ning pedagogik g'oyalari asosida o'quv jarayonining amaliy ishbilarmonlik va malakalarini egallashida namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Москаленко О.В., Фурси Л.Ф. Эмпирическое изучение акмеологической модели продуктивности акмеологического сопровождения личностно-профессионального развития государственных служащих. М., МААН, 2007, 29 с.
2. Степанов Е.Н. Моделирование воспитательной работы образовательного учреждения: теория, технология, практика. Псков, 1998, 263 с.
3. Суходольский Г.В. Структурно-алгоритмический анализ и синтез деятельности. Л., ЛГУ, 1976, 120 с.
4. Непрокина И.В. Метод моделирования как основа педагогического исследования. Теория и практика общественного развития. М., 2013, с. 61–64.
5. Мельничук О., Яковлева А. Моделирование как метод познания. М., "Педагогика", 1992, 148 с.
6. Щербаков А.И. Психологические основы формирования личности учителя. М., "Педагогика", 1967. 125 с.

Хакимова Гульшода (Ташкентский государственный Педагогический университет, кандидат, доцент, д.и.н.); e-mail: [gulshodahkm@gmail.com](mailto:gulshodahkm@gmail.com)),

Хамидова Ситора (Ташкентский государственный Педагогический университет)

#### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В статье освещаются знания о системе инклюзивного образования, новых подходах в этой области, решениях и постановлениях, связанных с этой областью, информации и реформах, связанных с педагогикой инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, высшее образование, домашнее образование, педагогический ресурс, интеграционное образование.

#### INKLUZIV TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Аннотация.** Ushbu maqolada inkluziv ta'lim tizimi haqidagi bilimlar, ushbu sohadagi yangi yondashuvlar, sohaga oid qaror va farmonlar, inkluziv ta'lim pedagogikasi bilan bog'liq ma'lumotlar va islohotlar yoritilgan.

**Калит so'zlar:** inkluziv ta'lim, maksimal ta'lim, uyda ta'lim, o'qitish resursi, integratsiyalashgan ta'lim.

#### CURRENT PROBLEMS OF INCLUSIVE EDUCATION

**Annotation.** In this article, knowledge about the inclusive education system, new approaches in this field, decisions and decrees related to the field, information and reforms related to inclusive education pedagogy are covered.

**Key words:** inclusive education, maximum education, home education, teaching resource, integration education.

**O.Y.Bozorov taqrizi asosida (TDPU PhD)**

**Введение.** Образование, наука и исследования не знают границ, но, обмениваясь новейшими

знаниями и навыками, они ведут человечество к прогрессу, а совместным поиском решений проблем, затрагивающих судьбы нескольких народов, укрепляют узы дружбы и сотрудничества между странами.

Восточный философ Конфуций сказал: «Невежество – самая темная ночь для человечества». На самом деле обучение – это проверенный золотой ключ к счастью, счастью и благополучной жизни. Правильная и системная организация этого процесса напрямую зависит от образования, особенно системы инклюзивного образования, и реформ, которые в нем происходят.

ЮНИСЕФ занимается вопросами включения инклюзивного обучения в систему образования Узбекистана. Инклюзивное обучение нацелено на предоставление качественного образования всем детям, независимо от их способностей и положения. Принцип инклюзивности также предполагает, что дети с ограниченными возможностями должны жить в семьях и учиться с ровесниками в обычной школе для того, чтобы получить положительное эмоциональное и социальное развитие. Инклюзивная система обучения гарантирует, что ребенок в инвалидном кресле может заниматься в любой ближайшей школе, имеющей трудности в постижении знаний получит специальную помощь, чтобы научиться читать и писать, а ребенку, который перестал посещать школу, будет оказана помощь в возвращении в школу.

В соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы государственного образования Республики Узбекистан до 2030 года» в целях развития инклюзивного образования в Узбекистане и совершенствования системы образования и воспитания детей с ограниченными возможностями здоровья и повышения качества предоставляемых им образовательных услуг в 2020–2025 годах разработана Концепция развития инклюзивного образования в системе государственного образования.

Дети с физическими, умственными, сенсорными и умственными недостатками, а также дети, нуждающиеся в длительном лечении, направляются в государственные специализированные образовательные учреждения, средние общеобразовательные и средние специальные образовательные организации в инклюзивной форме или получают образование индивидуально на дому. Когда мы говорим об инклюзивном образовании, мы говорим о том, на что оно ориентировано. Что такое «инклюзивное образование»? «Инклюзивное образование» – это (от английского inclusive, инклюзивность означает адаптировать, гармонизировать, охватывать, охватывать). Устранение препятствий (дискриминации) между детьми-инвалидами и здоровыми, детьми с особыми образовательными потребностями (инвалидными по каким-либо причинам) и подростками, независимо от дефектов развития или экономических трудностей, для адаптации к социальной жизни – это образовательная система, представляющая собой включение в общеобразовательный процесс.

**Литературный анализ.** Нормативно-правовая база инклюзивного образования бывает двух типов: зарубежная и национальная. Зарубежные фонды «Всеобщая декларация прав человека» (1948 г.), «Конвенция о правах ребенка» (1989 г.), «Декларация о правах инвалидов» (1975 г.), Саламанкская декларация (1994 г.), Дакарская декларация (2000 г.). Закон об образовании (1991 г.), Закон об образовании (1997 г.), Закон о гарантиях прав ребенка (2008 г.), Указ РФ-5270. (2017 г.) Указом ПФ-5712 (2019 г.) «О мерах по коренному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с ограниченными возможностями», «Концепция развития системы народного образования до 2030 года».

Методологической основой книги являются взгляды известных учёных Востока Ибн Сины, Имама Бухари, Абу Насра Фараби, Алишера Наваи, Абдуллы Абдуллы Авлани на цели образования и влияние образования на развитие личности каждого ребёнка. развитие инклюзивного образования. Помещение ребенка-инвалида в нормальные условия – первый шаг к интеграции. Прием детей с ограниченными возможностями в зависимости от состава общеобразовательных учреждений в мировом масштабе называется «инклюзивным» или «интегрированным» образованием. Интегрированное образование фокусирует внимание на процессе посещения школы ребенком с особыми потребностями, имеющим проблемы с посещением школы.

В связи с этим разработана «дорожная карта» по реализации концепции развития инклюзивного образования в системе государственного образования в 2020–2021 годах в нашей стране. Обучение детей с особыми образовательными потребностями

Утверждены целевые индикаторы (индикаторы) развития до 2025 года. Определено, что концепция будет реализовываться поэтапно на основе отдельной «Дорожной карты», утверждаемой

ежегодно, начиная с 2022 года, исходя из достигнутых результатов, целевых индикаторов и основных направлений на соответствующий период.

**Методология исследования.** Концепция будет реализована в два этапа, в том числе: в течение 2020–2022 годов:

- совершенствование нормативной базы в сфере системы инклюзивного образования;
- подготовка, переподготовка и переподготовка квалифицированных педагогов для системы инклюзивного образования;
- укрепление материально-технической базы учреждений, где внедрено инклюзивное образование, оснащение их специальными приспособлениями (подъемными устройствами, пандусами, поручнями и т.п.), необходимой литературой, методическими пособиями, оборудованием и инвентарем для обучения различным профессиям верховой езды; внедрение современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов в сфере инклюзивного образования; создание позитивной социальной среды среди населения путем разъяснения права детей с особыми образовательными потребностями на образование, сущности инклюзивного образования;
- реализация мер, направленных на предотвращение дискриминации детей с особыми образовательными потребностями, негативного обращения с ними;
- внедрение системы инклюзивного образования в деятельность отдельных образовательных учреждений в качестве эксперимента;
- в течение 2023 – 2025 годов: поэтапное внедрение системы инклюзивного образования в других общеобразовательных организациях;
- реализация мер, направленных на обеспечение права на инклюзивное образование каждого ребенка с особыми образовательными потребностями;
- будут усовершенствованы методы обучения в инклюзивном образовании и постепенно внедряться в образовательный процесс принципы индивидуализации;
- будут приняты меры, направленные на духовно-нравственное воспитание обучающихся, их физическое здоровое и энергичное формирование в процессе инклюзивного образования;
- оптимизация количества специализированных государственных образовательных учреждений для детей с особыми образовательными потребностями определялась исходя из физических и умственных потребностей обучающихся и географического расположения образовательных учреждений.

**Анализ и результаты.** Если ребенка с ограниченными возможностями рано привлечь к инклюзивному образованию, он с детства будет играть с соседскими детьми по соседству, знакомиться с ними, начнет понимать национальные ценности – он будет учиться сам, он будет готов к школьному обучению. Он продолжает общаться со здоровыми людьми в период препятствий, успехов и уверенности в будущем в образовательном учреждении, понимает, что сталкивается с отрицательными и положительными взглядами окружающих людей, находит свою независимую позицию. Теперь он вступает в самостоятельную жизнь. Он готов учиться, работать и участвовать в различных отношениях как независимый гражданин. Родители и родственники не беспокоятся о том, что он выйдет из дома. Ему доверяют те, кто знает, кто он, на что способен. В результате у него появится возможность создать семью и поддержать свою семью.

▪to'kis, go'zal hayot kechirmoq ma'nosida: Be/live in clover, to live like a bee in clover – so'zma-so'z tarjimasi bedada yashamoq, beda guldagi aridek yashamoq;

▪to'kin, oson hayot ma'nosida: bed of roses/"atirgul to'shagi" deb so'zma-so'z tarjima qilinsa-da, to'kin, oson hayot degan ma'noni bildiradi;

▪hayotdan rohatlanib, zavqlanib yashamoq ma'nosida: to gather life's roses – so'zma-so'z tarjimada "hayot atirgullarini termoq";

▪salomatlik ma'nosida: to have roses in one's cheeks – "yonoqlarda atirgullar bor", ya'ni yonoqlarning sog'lom qirmizi rangda bo'lishi; to bring back the roses to one's cheeks – "yonoqlarga atirgulning qaytishi", ya'ni, tuzalib, yonoqlariga qayta qizg'ish tus kirishi; as strong as oak – "emandek baquvvat";

▪sog'lig'i zaiflashmoq, yoshligi ketmoq ma'nosida: to lose one's roses so'zma-so'z tarjimada "atirgullarini yo'qotmoq";

▪yuzi qizarmoq ma'nosida: to blush like a rose.

Gul fitonimlari va ular asosida paydo bo'lgan frazeologizmlar, ko'pincha, o'xshatishga asoslangan obrazlar orqali ifodalanishi ayonlashadi. Ular alohida ambivalentlik xususiyatiga ega. Shuning uchun ularning muayyan ma'noviy guruhga tegishlilikini belgilash shartlidir. Ayniqsa, ambivalentlik xususiyati ko'pchilik jihatdan ingliz tili frazeologizmlariga mansubdir.

**Xulosa va takliflar. Conclusion.** Xullas, barcha xalqlar orasida gullar bilan aloqador e'tiqodiy qarashlar tizimi shakllangan bo'lib, ularning kelib chiqishi ibtidoiy insonlarning animistik va totemistik mifologik tasavvur-tushunchalariga borib taqaladi. Barcha xalqlarda gullarga oshuftalik va e'tiqod qadimdan shakllangan bo'lib, qator an'analarda hamon davom etib kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Коновалова Н.И. Народная фитонимия как фрагмент языка картины мира. Екатеринбург, изд-во "Дома учителя", 2001, 150 с.

[2]. Hale S.J. The Books of Flowers. London, Saunders and Otley. 1836, p. 47; Ingram J. Flora Symbolica or the language and Sentiment of Flowers. London, Frederick Warne and Co, 460 p.

[3]. Mercatante A.S. The Magic Garden: The Myth and Folklore of Flowers, Plants, trees and Herbs. New York, Harper and Row, 1976, p. 160.

[4]. Seaton B. The Language of Flowers. Charlottesville and London. University Press of Virginia, 1995, 234 p.

[5]. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. М., "Наука". 1974, с. 4.

[6]. Atamurodova F.T. XX asr ingliz romanida janr muammosi. "Ilm sharchashmalari", 8-son, 2020, 90–93-betlar.

[7]. Atamurodova F.T. Художественный конфликт в английском романе XX века. Электронный научный журнал, Москва, 2020, № 1-1(30), с. 30–35.

**Maxmudova Oygul Toxirjonovna (Farg'ona davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi; [maxmudovaoygul920@gmail.com](mailto:maxmudovaoygul920@gmail.com))**

#### **TILSHUNOS OLIM M.MIRTOJIYEVNING FONETIKA DOIRASIDAGI TADQIQOTLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada fonetist olim, professor M.M.Mirtojiyev qarashlari yoritilgan bo'lib, professor Yormat Tojiyev tilshunos olim M.M.Mirtojiyev haqida shunday fikr bildirgan edi: "Professor Miraziz Mirtojiyev o'z tadqiq usuliga, jiddiy nazariy fikrlariga ega bo'lgan, o'z ilmiy uslubini shakllantira olgan olim bo'lib, o'zbek tilshunosligi taraqqiyotini belgilab turuvchi katta bir ilmiy tilshunoslik maktabini yaratganligi aniq. Bu ilmiy maktabni o'zbek tilshunosligida, aytish mumkinki, Ayyub G'ulomov ilmiy tilshunoslik maktabidan keyingi eng yirik ilmiy maktab deyishga to'la asosimiz bor".

**Kalit so'zlar:** fonetik sath, dinamik urg'u, kvantitativ xarakter, intonatsiya, nutq tovushlari, nutq organlari, fonetik eksperiment, ossillograf.

**Махмудова Ойгуль Тахирджановна (Ферганский государственный университет, преподаватель кафедры дошкольного образования; [maxmudovaoygul920@gmail.com](mailto:maxmudovaoygul920@gmail.com))**

#### **ИССЛЕДОВАНИЯ УЧЕНОГО-ЛИНГВИСТА М.МИРТОЖИЕВА ПО ФОНЕТИКЕ**

**Аннотация.** В статье изложены взгляды ученого-фонетика, профессора М.М.Миртожиева. Профессор Ермат Тоджиев высказал следующее мнение об ученом-лингвисте М.М.Миртоджиеве:

«Профессор Миразиз Миртоджиев имел свой метод исследования, серьезные теоретические идеи и свой научный подход. Ясно, что он был учёным, который смог сформировать и создать крупную школу научного языкознания, определившую развитие узбекского языкознания. Мы имеем все основания называть эту научную школу крупнейшей научной школой в узбекском языкознании после школы научного языкознания Аюба Гуломова».

**Ключевые слова:** фонетический уровень, динамический акцент, количественный признак, интонация, звуки речи, органы речи, фонетический эксперимент, осциллограф.

**Makhmudova Oygul Tokhirjonovna (Fergana State University, teacher of the preschool education department; [maxmudovaoygul920@gmail.com](mailto:maxmudovaoygul920@gmail.com))**

#### LINGUISTIC SCIENTIST M.MIRTOJIYEV'S RESEARCH IN PHONETICS

**Annotation.** The article describes the views of the phonetic scientist Professor M.M.Mirtojiyev, Professor Yormat Tojiyev expressed the following opinion about the linguist scientist M.M.Mirtojiyev: "Professor Miraziz Mirtojiyev had his own research method, serious theoretical ideas, and his own scientific method. It is clear that he was a scientist who was able to form and created a large school of scientific linguistics that determined the development of Uzbek linguistics. We have every reason to call this scientific school as the largest scientific school in Uzbek linguistics, after the Ayyub Gulomov school of scientific linguistics".

**Key words:** phonetic level, dynamic accent, quantitative character, intonation, speech sounds, speech organs, phonetic experiment, oscillograph.

**Kirish.** Tilshunos olim Miraziz Mirtojiyev o'zbek tilshunosligida ko'zga ko'ringan tilshunoslardan bo'lib, professor 80–90 yoshlarida samarali mehnat qildi. M.Mirtojiyevning eng mukammal darsliklari aynan shu yoshiga, 2010-yillardan keying to'g'ri keladi. Bu darsliklar doirasida "O'zbek tili fonetikasi" va "Turkiy tub so'zlar tadqiqi" asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim ilmiy faoliyati davomida e'lon qilingan 12 ta monografiya, 1 ta darslik, 11 ta o'quv qo'llanma, 5 ta ilmiy-ommabop risola, 5 ta lug'at va 200 dan ortiq ilmiy, tanqidiy va qomusiy maqolalar muallifidir [5;127-b.].

**Adabiyotlar tahlili.** Olimning "O'zbek tili fonetikasi" nomli darsligi nafaqat o'zbek adabiy tili, balki uning shevalari va o'zlashgan leksikasini ham qamrab oladi. M.Mirtojiyev ilmiy faoliyatini boshlagandan buyon e'lon qilgan fonetik sathga doir maqolalarida ilgari surilgan g'oyalarni jamlab, yirik ko'lamdagi asarda ifodalagan. "Shunday ko'p yillik kuzatuvlar natijasida yaratilgan "O'zbek tili fonetikasi" monografiyasi 2013-yilda "Fan" nashriyotida chop etildi. Bunga qadar turli yillarda A.G'ulomovning "O'zbek tilida urg'u", B.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlarning "Fonetika", yaratilgan darsliklarning "Fonetika" bo'limlari, F.Abdullayev, X.Doniyorov, A.Mahmudov, S.Otamirzayeva, H.Jamolxonov, H.Yo'ldoshevalarning fonetikaning u yoki bu qismi yoritilgan tadqiqotlari nashr etilgan bo'lsa ham, milliy fonetikamizning butun "bo'y-bastini ipidan ignasigacha" qamrab olgan, eksperimental tekshiruv natijalariga asoslangan mono-grafik tadqiqot yaratilmagan edi" [2;107-b.]. Mazkur asarda tilshunosning amaliy fonetika borasidagi xulo-salari eksperimental tahlillarga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Olimning eksperimental tadqiqotlari ossillografik tekshiruvlar orqali amalga oshirilgan va buning uchun suxandonlar nutqining tovush tizimidan foydalanilgan. Eksperiment uchun suxandonlar, asosan, bariton ovoqli erkaklardan tanlangan. Fonetik eksperimentlar kimogramma, rentgenogramma, kinogramma singari uskunalari asosida o'tkazilgan.

Fonetikaning fizik akustika va anatomiya bilan aloqadorligi, uning ayrim hodisalari tavsifida shu fanlar bilan mosligi ta'minlangan. Professor M.Mirtojiyev tomonidan yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fonetika» (Toshkent, 1999) kitobida shu kungacha nutq apparati haqidagi mavjud qarashlarga bir qator oydinliklar kiritildi [3;177-b.].

Shu vaqtga qadar yaratilgan o'zbek tilining fonetik tizimiga oid tadqiqotlarda, asosan, eshitish usuliga tayanilgan va rus tili faktlari asosida aniqlangan ayrim fonetik qonuniyatlarga o'zbek tili faktlarini zo'rma-zo'raki moslashtirish yo'lidan borilgan bo'lsa, bundan farqli o'laroq, M.Mirtojiyev tadqiqotida nutqning gap, takt, so'z, bo'g'in va nutq tovushidan iborat besh bosqichli fonetik bo'linishidagi birliklar to'laligi bilan tadqiq etilgan.

Nutqning eng kichik bo'lagi nutq tovushidir. Lekin ko'p fonetistlar nutq tovushi o'rniga fonema haqida fikr yuritadilar. Hatto ayrimlar nutq tovushi tiplari miqdori cheksiz, buni aniqlashga urinishning hojati yo'q, degan qarashni ilgari suradilar. Ammo u nutq a'zosi ijrosidan iborat. Nutq a'zolari tovush hosil qilish uchun ma'lum artikulyatsiya o'rnini shakllantiradi. Artikulyatsiya o'rni biologik jihatdan aniq sanoqqa ega va fonetika nutqning eng kichik fonetik bo'lagi haqida bahs yuritarkan, tovush o'zgarishi ham nutq tovushining hosil bo'lish jarayonida kechishi, tabiiy.

Ta'kidlash joizki, M.Mirtojiyevning fonetik tadqiqotlari doirasidagi barcha misollari transkripsiya asosida qayd etilgan bo'lib, olimning fikricha, ularni asl holicha, real ko'rish kerak. Tilshunos eksperimentlarni o'tkazish uchun O'zRFA Til va adabiyot institutining fonetika laboratoriyasidan yetarlicha foydalan-gan.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, tovush tilni namoyon etuvchi materialdir, ya'ni til usiz namoyon bo'la olmaydi. M.Mirtojiyev bu borada shunday fikr bildiradi: "Og'zaki nutqda tengsiz o'z qiymatiga ega bo'lgan tovush o'rnida yozma nutqda yozuv, gunglarda imo-ishora, texnikada morze uning vazifasini o'taydi. Ammo bu o'rinda ham bir "ammo"ni aytishga to'g'ri keladi. Ularda til uchun zarur bo'lgan, haqiqiy nutq shakllanmaydi, bo'g'in, takt, urg'u, intonatsiyalar amalga oshmay qoladi. Shu yozuvning o'ziga hali til degani emas. U og'zaki nutqni o'zida aks ettiruvchi, uning bazasida yuzaga kelgan vositalardir.

Imo-ishora, boshqacha aytganda, paralingvistika ham og'zaki nutq bilan yo'ldosh yuruvchi, og'zaki nutqda berilmoqchi bo'lgan mazmuni tasdiqlab turuvchi, uni quvvatlovchi, eslatuvchi kechimlar hisoblanadi. Har qanday til asosida nutq tovushlari yotadi. Nutq tovushlari nutq organida shakllanadi. Inson organizmida tilni yuzaga keltira oladigan boshqa organ yo'q va u bo'lganida ham, tovushga xos murakkab elementlarni yuzaga keltira olmas edi [4;6-b.].

Olimning fikricha, "nutq tovushlari faqat quruq fizik akustikadan iborat emas. Uning o'z fazalari bor. Bu fazalar vositasida o'zaro birlashishi, mazmun semantikasini ifoda etish uchun o'z kompleksini shakllantirish, bo'g'inlarni tarkib toptirish imkoniyatiga ega. U o'z tembri bilan yuzaga chiqadi, turli urg'ularni, takt va gap intonatsiyasini barpo etadi" [4;6-b.]. Nutq tovushiga xos bu xil elementlar har bir xususiy tilda o'ziga xos holatda shakllanadi.

Biror til fonetikasi tadqiq etilar ekan, shu tilga xos nutq tovushlarining aytib o'tilgan barcha elementlari e'tiborga olinadi. Shu jihatdan M.Mirtojiyev tayanganidek, o'zbek tili fonetikasiga oid eksperimentlarni beshta yo'nalishda tahlil etishga to'g'ri keladi: 1) nutq tovushlari, ularning aspektlari, tasnifi va tavsifi; 2) sillabika, bo'g'in va unga xos alohida tomonlar; 3) aksentuatsiya, ya'ni so'z urg'usi, tiplari, tasnifi; 4) nutq tovushi o'zgarishlari; 5) intonatsiya [4].

Ma'lumki, tilshunoslikda fonetikaga murojaat juda qadimdan boshlanib, u, asosan, nutq tovushlarini o'rganishga qaratilgan edi. Bu holat o'zbek tilshunosligiga ham xos. Unda dastlabki yozuvlarni yaratish, alifbolardagi ayrim tovushlarni ifodalovchi harflarni tavsiflash xarakteridagi fikrlar mavjud. Bu holat boshqa tillarda ham kuzatiladi. Bularning hammasida ham bir-biriga o'xshash holda tovushning artikulyatsiya o'rni, usuli, og'izning ochilishi, lab ishtiroki haqida gap boradi. Unda asosiy e'tibor faqatgina tovushga qaratiladi, fonema esa e'tibordan chetda qoladi.

**Xulosa va takliflar.** Fonetika mana shu tariqa nutq tovushlarini o'rganishdan boshlangan. Lekin bu nutq tovushini fonemadan ajratib, alohida til hodisasi sifatida talqin etish degani emas. Ular aynan bir narsa bo'lib, nutq tovushi asosida fonema shakllanadi. Ammo fonema fonetikada emas, fonologiyaning tadqiq obyekti hisoblanadi. Nutq tovushlari esa fonetikaning tekshirish obyektidir.

Fonetikaning tekshirish obyektlaridan yana biri sillabikadir. Sillabikada bo'g'inlar va uning turli tomonlari tadqiq etiladi. Bu soha yuzasidan bir qancha tilshunoslar ko'p yillar davomida tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ularda ko'proq bo'g'in tarkibiga e'tibor qaratilgan. Bu boradagi xulosalarga ko'ra, o'z tili leksikasiga mansub so'zlar bo'g'ini markazida bir unli bo'lgani holda, u bir undosh yoki knaklaut bilan boshlanadi va oxiri ochiq, bir yoki ikki undosh bilan tugagan bo'ladi. O'zlashgan so'zlarning rus tilidan yoki u orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar bo'g'inlari tarkibi bunday bo'lmasligi mumkin. Ularda ham unli bo'g'in markazi bo'lib, bo'g'in boshi va oxirida uchtagacha undosh bo'lishi yoki mutlaqo bo'lmasligi ham kuzatiladi. Yana so'z bo'g'inlari yuzasidan o'z tadqiqotlarini e'lon qilgan bir necha tilshunoslar ham bo'lib, ular, asosan, so'zlarning bo'g'inga ajralish qonuniyatlarini ochib berganlar.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, M.Mirtojiyevning nuqtayi nazariga ko'ra, o'zbek tilidagi so'z urg'usi kvantitativdir. Mirtojiyev yillar davomidagi tadqiqot va tahlillarni yig'ar ekan, bir qancha so'zlar orqali urg'uning kvantitativ xarakterlisi o'zbek tili uchun xos ekanini ta'kidlaydi.

Fonetik sath doirasida olimning olib borgan tadqiqotlari o'zining originalligi bilan ajralib turadi. O'zbek tilidagi barcha nutq tovushlarini o'rgangan holda tuzib chiqqan yangi transkripsiyasi esa tahsinga sazovor edi. Bugungi kun ilm-fani ravnaqi uchun yuqoridagi kabi xizmatlarini batafsil o'rganish va tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Махмудов Н., Нурмонов А. Миразиз Миртожиев. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2007, 4-son, 97-бет.
- (2). Махмудов Н., Одилов Ё. Миразиз Миртожиев. "О'zbek tili va adabiyoti", 2017, 3-son, 107-бет.

- (3). Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002, 177-бет.  
 (4). Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. Тошкент, “Фан”, 2013, 6-бет.  
 (5). “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали таҳрир хайъати. Миразиз Миртожиев. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2019, 6-сон, 127-бет.

**Sobirova Nodirabegim Murodjon qizi (Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi;  
[www.nodirabegimsobirova600@gmail.com](mailto:www.nodirabegimsobirova600@gmail.com))  
 MEDIAMATNLARDA SARLAVHALAR TARJIMASINING PRAGMATIK FUNKSIYASI**

***Annotatsiya.** Sarlavha, turidan qat’iy nazar, har qanday yangilikning eng ajoyib xususiyatidir. Ba’zi tilshunoslar va jurnalistlarning ta’kidlashicha, faqat ot birikmali sarlavhalar to’la hissiyotli bo’ladi, lekin boshqalar fe’ldan iborat sarlavhalar ham bir xilda hissiyotni aks ettirishini ta’kidlashadi. Inglizcha yangiliklar sarlavhalari oddiy ingliz tilidan ajratib turadigan o’ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Sarlavhalarning sintaktik, leksik va uslubiy xususiyatlari, ko’pincha, ularning sarlavha deb atalishiga olib keladi. Yangilik xabarlari ustidagi qisqa sarlavhalar, yangiliklar sarlavhalari o’quvchilarning e’tiborini jalb qilish uchun mo’ljallangan va shuning uchun maxsus sintaktik xususiyatga ega tuzilmalar va leksik elementlarni o’z ichiga oladi. Bunday sarlavhalarni ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilishdagi o’ziga xos jihatlarni quyidagi maqolada ko’rishimiz mumkin.*

***Kalit so’zlar:** telegraf uslub, elliptik uslub, sintaktik xususiyat, leksik-sintaktik xususiyat, pragmatik funksiya, rang-barang so’zlar.*

**Собирова Нодирабегима Муроджон кизи (преподаватель Кокандского университета)  
 ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ПЕРЕВОДА ЗАГОЛОВКОВ В МЕДИАТЕКСТАХ**

***Аннотация.** Заголовок – самая яркая особенность любой новости, независимо от ее типа. Некоторые лингвисты и журналисты утверждают, что только заголовки существительных полны эмоций, но другие утверждают, что заголовки глаголов не менее эмоциональны. Английские заголовки новостей характеризуются отличительными чертами, отличающими их от обычного английского языка. Синтаксические, лексические и стилистические особенности заголовков часто приводят к тому, что их называют заглавиями. Краткие заголовки новостных сообщений, заголовки новостей предназначены для привлечения внимания читателей и поэтому содержат конструкции и лексические элементы, обладающие особыми синтаксическими особенностями. Особенности перевода таких названий с английского на узбекский мы можем увидеть в следующей статье.*

***Ключевые слова:** телеграфный стиль, эллиптический стиль, синтаксический признак, лексико-синтаксический признак, прагматическая функция, красочные слова.*

**Sobirova Nodirabegim Murodjon qizi (Teacher of Kokand University)  
 THE PRAGMATIC FUNCTION OF HEADLINE TRANSLATION IN MEDIA TEXTS**

***Annotation.** The headline is the most striking feature of any piece of news, regardless of its type. Some linguists and journalists argue that only noun headlines are full of emotion, but others argue that verb headlines are just as emotional. English news headlines are characterized by distinctive features that distinguish them from common English. Syntactic, lexical and stylistic features of titles often lead to their being called titles. Short headlines on news messages, news headlines are designed to attract the attention of readers and therefore contain structures and lexical elements with special syntactic features. We can identify the specific aspects of translating these titles from English to Uzbek in the following article.*

***Key words.** telegraph style, elliptical style, syntactic features, lexical features, pragmatic functions, colorful words.*

***Kirish.** Sarlavhalarning sintaktik, leksik va uslubiy xususiyatlari, ko’pincha, ularning sarlavha deb atalishiga olib keladi. Yangilik xabarlari ustidagi qisqa sarlavhalar, yangiliklar sarlavhalari o’quvchilarning e’tiborini jalb qilish uchun mo’ljallangan va shuning uchun maxsus sintaktik xususiyatga ega tuzilmalar va leksik elementlarni o’z ichiga oladi. Sarlavhalarning eng keng tarqalgan sintaktik xususiyatlari “bo’l” fe’lini o’chirish, soddalashtirilgan zamonlardan foydalanish, maxsus tinish belgilari va qisqartmalarni ishlatishidir [1;60-b.]. Gazeta sarlavhalarida ishlatiladigan so’zlar qisqa, dramatik va alohida ma’noda qo’llanilishi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, yangiliklar sarlavhalarining maxsus uslubi ularni tushunishga qiyin, chunki ular odatdagidan ingliz tilidan sezilarli darajada farq qiladi. Ikki sarlavha o’rtasida sintaktik va leksik xususiyatlar bilan tanishishning rolini ko’rsatadi, bunday sarlavhalarni tarjima qilishni osonlashtirish uchun yangiliklar sarlavhalari ingliz va o’zbek kabi alohida tillar bilan solishtirishimiz mumkin [2;40-b.].*

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Verdonk, Swan va Shams sarlavhalarida telegraf va elliptik uslubni tavsiflashgan [3;1-3-b.]. Tarjima nazariyasi va til stilistikaga oid Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Ashurova D.U., Galiyeva M.R., G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. va Arnold I.V. kabi olimlarning izlanish va arini o'rganish orqali tadqiqot uchun nazariy poydevor olindi [2;26-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni yangiliklar saytlaridagi chet el yangiliklari ustida olib bordik va bunda qiyoslash-taqqoslash uslublari orqali tekshirdik. Manbalarning ishonchligi berilgan linklar orqali tekshirildi.

**Tahlil va natijalar.** Swan yangiliklarning sarlavhalarini quyidagicha grammatik va lug'at xususiyatlarini belgilaydi [4;2-8-b.]. Sintaktik xususiyatlar: Inglizcha yangiliklar sarlavhalari to'liq jumlar emas. Ba'zan yangiliklar sarlavhasi tuzilishi faqat otlarni o'z ichiga oladi. Quyidagi misolni ko'rib chiqing: *Mustang Referral Customer Complaint* "Mustang mijozlarga murojaat qilish dasturiga oid shikoyat bor".

Yuqoridagi inglizcha sarlavhada jumla faqat otlardan foydalanib ko'rsatilgan va shuning uchun to'liq bo'lmagan. Biroq, sarlavha 'Mustang mijozlarga murojaat qilish dasturiga oid shikoyat bor ma'lumotni taqdim etadi. Yuqoridagi sarlavhaning o'zbek tiliga tarjimasida o'zbek sarlavhasiga mos ko'rinishdagi qo'shimchalarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, o'zbek tilida o'quvchilar uchun sarlavhaga Mustang Ford tomonidan ishlab chiqarilgan, deb qo'shildi. Ikkinchidan, dastur o'zbekcha sarlavhada yo'naltiruvchi *referral* dasturga tegishli ekanligini bildirish uchun qo'shildi.

Yangilik sarlavhalarini ingliz va o'zbek tillariga tarjima qilishda o'quvchilarga tanish bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Unutmaylik, Savollar ba'zan yangiliklar sarlavhalari sifatida ishlatilishi mumkin. Quyidagi misolni ko'rib chiqamiz: *Is it ok to go outside for a walk?* (*Toronto Star*). Tashqarida yurish mumkinmi? Odatda, yangiliklar sarlavhalarida uzluksiz yoki mukammal zamonlar emas, oddiy zamonlar ishlatiladi. *US launches air raids in Iraq* (Aljazeera). Qo'shma Shtatlar Iroqqa havo hujumlarini boshladi. *Erdoğan discusses cooperation with EU delegation*. Erdo'g'an Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi bilan hamkorlikni muhokama qildi (Ikkita sarlavhada tabiiy ravishda oddiy hozirgi zamon ishlatiladi, bu kontekst oddiy ingliz tilidagi hozirgi mukammal zamonga mos keladi. Fe'llar o'zbek tiliga o'tgan zamonda tarjima qilingan).

Sarlavhalarda *'to' infinitive* kelajakdagi voqealarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. *Saudi Arabia to extend visa validity for expats* (Arab News). Saudiya Arabistoni chet ellik vizalarining amal qilish muddatini uzaytirmoqchi. *Libya to send 30 doctors to help Italy fight Coronavirus* (Libya Herald). Liviya Italiyaga koronavirusga qarshi kurashda yordam berish uchun 30 nafar shifokorni yubormoqchi. *US to change Migration Rules in Bid to Send Asylum-Seekers Elsewhere* (Reuters). Washington siyosiy boshpana izlovchilarni boshqa joyga yuborish maqsadida immigratsiya qonunlarini o'zgartirmoqchi. Izoh: Kelajakdagi voqealarni ko'rsatish uchun inglizcha yangiliklar sarlavhalari to'infinitivdan foydalanadi. Bu struktura s (will)+simple present whichga mos keladi, o'zbek tilida kelasi zamonda bildiradi. Esda tutingki, AQSHni o'zbekcha yangiliklar sarlavhalarida Washington yoki Qo'shma Shtatlar deb tarjima qilishi mumkin.

Sarlavhalar, odatda, artikllarni va be fe'lining har qanday shakli o'z ichiga olmaydi. *Man killed, woman wounded in shooting* (Kansas City Star) Otishma paytida bir erkak halok bo'ldi, bir ayol yaralandi. *Suspect arrested for kidnapping woman* Ayolni o'g'irlashda gumonlanuvchi qo'lga olindi. Izoh: sarlavhalarda artikl va be fe'li keltirilmagan. Majhul tuzilma o'zbek tilida og'zaki otga *qotillik, hibsga olish (manba)* aylandi.

Sarlavhalarda majhul gaplar be fe'lini o'z ichiga olmaydi. *Stolen vehicle recovered, suspect arrested* (Ceres Courier). O'g'irlangan avtomobil topilib, gumonlanuvchi qo'lga olindi. *Croatian soldier killed in Taliban attack in Kabul* (Saudi Gazette). Qobulda Tolibon hujumi oqibatida bir xorvat askari halok bo'ldi. *Sudan's ex-leader sent to 'social reform facility'*. Sudanning sobiq prezidentini ijtimoiy islohotlar uyiga yuborildi (Ko'rinib turibdiki, yuqoridagilar passiv holda tuzilgan va o'zbek tiliga moslashtirilib tarjima qilinadi).

Be fe'llari o'zgarishlarni tasvirlash uchun hozirgi progressivdan foydalanganda o'chiriladi. *Military sending doctors into New York hospitals* (CNN) AQSH armiyasi shifokorlarni Nyu-York kasalxonalariga yuborildi. *1 million doses of anti-malaria drug heading to Florida* (ABC Action). Bir million doza antimarialar Florida yo'l oldi. *Global oil markets 'heading towards balance'* (CNBC). Jahon neft bozorlari "barqarorlik sari harakat qilmoqda" (Hozirgi progressiv zamon sarlavhalarda be fe'lisiz ishlatiladi. Bu tuzilish o'zbek tilida hozirgi yoki o'tgan sodda zamonda berilgan).

*Vergul* yangiliklar sarlavhalarini almashtirish uchun ishlatiladi: *Hadi Government, UAE Trade Accusations* (Euronews) Hadi hukumati va BAA o'rtasida ayblovlar bor. *UAE, Saudi non-oil sector key to reignite ME growth* (MENAFN.COM). BAA va Saudiyaning noneft sektori Yaqin Sharq o'sishining kalitidir.

Izoh: bu misollarda vergul bilan almashtirilgan va o'zbekcha yangiliklar sarlavhalaridagi (va)ga mos keladi. Yangilik sarlavhalari ayni bir muddatda tugamaydi. *President Sisi: July 23 radically changed Egypt's history* (Egypt Independent) Prezident Sisi: 23 iyul Misr tarixini tubdan o'zgartirdi.

Ingliz gazetalari yangiliklar sarlavhasi uchun cheklangan qisqa joy beradi va bu rang-barang so'zlarni qo'llashni taqozo etadi. Sarlavhalar lug'atining xususiyatlari. Yangiliklar sarlavhalari odatda umu-miy kundalik til bo'lmagan qisqa so'zlarni o'z ichiga oladi. Blast (portlash).

*Egypt forces kill 40 suspected militants following bus blast* (Euronews). Misr kuchlari avtobus portlashida gumon qilingan 40 nafarni jagarilarni yo'q qildi. *UK turns to private sector to boost virus testing capacity* (Aljazeera). Buyuk Britaniya virusni tekshirishni oshirish uchun xususiy sektorga murojaat qiladi. Sarlavhalar diqqatni jalb qilish uchun dramatik 3 so'zdan foydalanadi: *Blaze olovga ishora qilish uchun ishlatilgan. Firefighters tackle blaze at block of flats in Bedworth* (Coventry Live). O't o'chiruvchilar Angliyaning Bedworth shahridagi turarjoy majmuasida sodir bo'lgan yong'inni o'chirishdi. *Toll (number of people killed) Death toll in fire accident goes up to 9* (The Hindu). Yong'in qurbonlari soni 9 nafarga yetdi.

**Xulosa va takliflar.** Yangilik sarlavhalarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda o'quvchilarga tanish bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Bundan tashqari, yuqorida o'rgangan sarlavhalarimizdan, turli stilistik va leksik funksiyalar mediatextlarida faol qo'llanilayotganiga guvoh bo'ldik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Москва, "Флинта"—"Наука", 2002, 382 с.
- (2). Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of literary text. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent, 2013, 365 bet.
- (3). Bell A. Yangilik: OAV tili. Blekvell, London, 1991, 3-bet.
- (4). Van Deyk T.A. Yangiliklar nutq sifatida. Hillsdeyl, Nyu-York, 1998, 8-bet.
- (5). Fauler R. Yangiliklar tili. Matbuotdagi nutq va mafkura. Routledge, London, 2001, 419-bet.
- (6). Dobrosklonskaya T. Media tilshunosligi nazariyasi va usullari. Doktorlik dissertatsiyasi, Moskva, 2000 [Dobrosklonskaya T. G. Dis. ... dok. Filol. Sci. Moskva, 2000], 203-bet.
- (7). Dobrosklonskaya T. Media tilshunosligi: ommaviy axborot vositalarini o'rganishga tizimli yondashuv tili. Moskva, "Flinta-Nauka", 2008, 182-bet.
- (8). <https://cyberleninka.ru/article/n/vossozdanie-hudozhestvennogo-stilya-pri-neposredstvennom-perevode>

**Umarxanova Nigora (Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti;**

**E-mail: [nigora.umarkhanova@mail.ru](mailto:nigora.umarkhanova@mail.ru))**

#### **INGLIZ INTERNET TERMINALOGIYASINING SHAKLLANISH JARAYONI**

**Annotatsiya.** XXI asrda sun'iy intellekt ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini egaladi. Barcha sohalarda raqamli texnika tomonidan boshqarilmoqda. Albatta, bu yangiliklar tilshunoslik sohasini chetda qoldirmaydi. Kompyuter va internet terminologiyasini o'rganish dolzarb mavzulardan bo'lib kelmoqda. Maqolada avvalambor termin atamasiga to'xtalib o'tilgan. Termin atamasining kelib chiqishi va u haqida olimlarning fikrlari o'rganilgan. Maqolaning asosiy qismida internet terminlarining hozir bo'lish jarayoni va ularga misollar berilgan. Internet terminlari faqatgina virtual olam bilan cheklanmay kundalik muloqotda ham keng qo'llanilmoqda. Maqolada xuddi shu leksik birliklar guruhlarga bo'lib tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** internet, leksik birlik, termin, lug'at, jargon, sleng, termin, kompyuter texnologiyalari.

**Умарханова Нигора (докторант Наманганского государственного университета,**

**e-mail: [nigora.umarkhanova@mail.ru](mailto:nigora.umarkhanova@mail.ru))**

#### **ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ АНГЛИЙСКОЙ ИНТЕРНЕТ-ТЕРМИНОЛОГИИ**

**Аннотация.** В XXI веке искусственный интеллект берет на себя все аспекты общественной жизни. Все отрасли развиваются благодаря цифровым технологиям. Разумеется, эти новации не оставляют в стороне и область лингвистики. Изучение компьютерной и интернет-терминологии стало одной из актуальных тем. Прежде всего, в статье основное внимание уделяется термину. Изучено происхождение термина и мнения ученых о нем. В основной части статьи дан процесс образования интернет-терминов и их примеры. Интернет-термины широко используются не только в виртуальном мире, но и в повседневном общении. В статье одни и те же лексические единицы анализируются по группам.

**Ключевые слова:** интернет, лексическая единица, термин, словарь, жаргонизм, сленг, термин, компьютерные технологии.

Umarkhanova Nigora (PhD student at Namangan State University;  
e-mail: nigora.umarkhanova@mail.ru)

## THE FORMATION PROCESS OF ENGLISH INTERNET TERMINOLOGY

**Annotation.** In the 21<sup>st</sup> century, artificial intelligence takes over all aspects of social life. All industries are being driven by digital technology. Of course, these innovations do not leave aside the field of linguistics. The study of computer and Internet terminology has become one of the current topics. First of all, the article focuses on the terminology. The origin of the term and the opinions of scientists about it have been studied. In the main part of the article, the process of formation of Internet terms and their examples are given. Internet terms are widely used not only in the virtual world but also in everyday communication. In the article, the same lexical units are analyzed in groups.

**Key words:** internet, lexical unit, term, dictionary, jargon, slang, term, computer technologies.

**Kirish.** Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi axborot almashinuvi va qayta ishlanishining jadalashuvi ehtiyojiga bog'liq bo'lgani sababli bu soha informatika nomi bilan mashhur bo'ldi, keyinchalik, amerikalik matematik Norbert Viner yangi soha – kibernetikaga asos soldi. Texnika va texnologiyalarning rivojlanishi kompyuterlar tannarxining tushishiga va ularning keng maishiy iste'mol moliga aylanishiga sabab bo'ldi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** “Termin” so‘zining yagona ta’rifi yo‘q. Turli olimlar tomonidan termin tushunchasi o‘zining sohalari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Biz o‘z ishimizda E.A.Nikulina tomonidan berilgan termin so‘zining ta’rifiga tayanamiz. Termin ilmiy yoki maxsus tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir. E.A.Nikulina yangi tushunchalarni yoki terminning shakllanishini lug‘atda aks ettirishning uchta imkoniyatini belgilaydi: 1. Yangi so‘z yaratish. 2. Tilda mavjud bo‘lgan so‘zning semantik tarkibini kengaytirish. 3. Tilda allaqachon mavjud bo‘lgan so‘zlar orasidagi ma’nolarni farqlash [1;202-b.].

A.B.Superanskaya har qanday tilning lug‘atini umumiy va maxsus lug‘atga bo‘linishni taklif qilib, u yoki bu tarzda shaxsning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus leksik vositalar orqali ixtisoslashtirish, maxsus so‘zlarni shakllantirish usullarini ko‘rsatib o‘tadi: 1) umumiy tildagi so‘z; bunda maxsus so‘z uni yuzaga keltirgan ko‘p ishlatiladigan so‘zning omonimiga aylanadi; 2) neologizmning yaratilishi; 3) so‘z o‘zlashtirish; 4) izohlash [2;248-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bu mavzuni o‘rganishda o‘zbek tilshunoslari bilan birga rus olimlarining ham asarlarini o‘rganilgan. Tadqiqot tasvriy metod, chog‘ishtirish metodi va qiyosiy-tarixiy metodlar orqali olib borildi. Bunda mavzuga oid asarlarda ikkilamchi nominatsiya hodisasiga sabab bo‘luvchi omillar ko‘rib o‘tildi.

**Tahlil va natijalar.** Terminologik birliklar zamonaviy tillar lug‘atini to‘ldirishning asosiy manbai hisoblanadi. Hozirgi vaqtda muayyan fanlarning terminlari soni tilning umumiste‘moldagi so‘zlari sonidan ko‘p bo‘lishi mumkin. Fan yoki texnikaning har qanday sohasining jadal rivojlanishi bilan uning yutuqlarini ommaviy axborot vositalarida faol aks ettirish, maxsus terminlardan umumiy foydalanishga o‘tishi boshlanadi. Shu bilan birga, terminlar o‘zining ilmiy aniqligi, bir ma’noiligini yo‘qotadi, qo‘llanish doirasi kengayadi, ularning determinatsiyasi sodir bo‘ladi. Determinologizatsiya ikki bosqichga ega bo‘lishi mumkin: 1) terminologik ma’noga ega bo‘lgan so‘z shaklida umumiy til tarkibiga kirishi; 2) allaqachon umumiy tilda ushbu “terminologik” so‘zning ma’nosini uzatish va unga asoslangan umumiste‘moldagi so‘zning paydo bo‘lishi (ko‘pincha, metafora orqali) [3;248-bet.]. Misol tariqasida yuklab olish termini – modem yoki tarmoq ulanishi yordamida masofaviy kompyuterdan kompyuteringizga ma’lumotlarni yuklab olish. Masalan: *You can download this program for free* [4;248-b.].

Ingliz tilida bu tushunchani ifodalovchi *download* termini hozirgi kunda umumiste‘moldagi so‘zga aylandi va keyinchalik boshqa ma’noga ega bo‘ldi: *unload* sth/sb on sb. M.: The government is unloading the cost of health care on to the population.

Ikkinchi guruhga professional jargon – tushunchani ifodalash uchun mutaxassislar kelishib qo‘llaydigan texnik til kiradi, masalan: *data cholesterol* yuqori oqim tufayli Internet tezligining pasayishi, *crack* – kompyuter tizimlarini buzish, *handshake* – o‘rnatish, ulanish, *ghost* – chatni tark etgan foydalanuvchi qoldirgan xabar (oflayn xabar – bu so‘zning taniqli sinonimi).

Uchinchi guruhga faqatgina dasturchilarga tushunarli bo‘lgan sleng leksemalar kiradi. Ushbu sleng leksemalar kompyuter sohasiga oid bo‘lmagan so‘zlardan ham iborat bo‘lishi mumkin. Bu leksemalar konnotativ xarakterdagi iboralar bo‘lib, ijobiy va salbiy ma’no beradi hamda fikrni mazmunli ifodalash imkonini beradi: *barf* – nosozlik bo‘lishi mumkin, misol uchun: *My computer barfed right in the middle of 40 – page document* [5]. *Honey pot* – kompyuter tizimining bir qismi bo‘lib, u xavfsizlik dasturi tomonidan nazorat qilinadi va tizimga bostirib kirgan shaxsni ushlab tutiladi. *Bells and whistles* – ilg‘or tex-



nologiya qurilmalari: *A serious computer user can see beyond the bells and whistles when buying a system.* *Spew* – yangiliklar guruhi yoki chatga katta, ahamiyatsiz xabar yuborish. *Slag* – tarmoqning haddan tashqari kuchanishi. *Bogon* – yolgʻonchi, misol uchun: *The two programmers privately thought of their two-faced supervisor as a total bogon.* *Cuspy* – zoʻr, misol uchun: *“This is a cuspy game”, the youth exclaimed.* *Graunch* – jiddiy xato, misol uchun: *Cora was horrified to discover the graunch that had rendered the day’s work useless.* *Gritch* – shikoyat qilish, masalan: *There was plenty of gritching in the repair shop as the technicians received their assignments.* *Grok* – tushunib yetish, bu soʻz Robert Xaynlinning (*Robert Heinlein*) *Stranger in a Strange Land* ilmiy-fantastik romanidan olingan, masalan: *I finally grokked there was more to life than pushing paper.* *Gronked* – tushunmadim, misol: *I’ve been up all night and I’m completely gronked.* *Growzy* – operator buyruqlariga sekin javob beradigan kompyuterni tasvirlash uchun ishlatiladigan termin, masalan: *Etta cursed at the time wasted by her growzy computer.* *Mung* – sindirish, misol: *Incredibly, they munged the program that couldn’t have been simpler to follow* [6].

Sleng leksikasi tadqiqotchilari ushbu qatlamning turli funksiyalarini ajratib koʻrsatishadi. Atoqli lugʻatshunos olim E.Partrij sleng haqidagi asarida uning oʻn beshta eng muhim va eng aniq vazifasini ajratib koʻrsatadi. Biroq boshqa koʻpgina tilshunos olimlar sleng, birinchi navbatda, guruhga mansublik koʻrsatkichi ekanligiga ittifoq qilishgan. Demak, D.Kristal jargonning maʼlum bir kishilar jamoasiga mansublikning eng muhim koʻrsatkichlaridan biri ekanligini, slengning jargonga yaqinligini aytib oʻtadi.

Baʼzi mashhur soʻzlar va iboralar maʼlum bir tilda soʻzlashuvchi butun jamoaga maʼlum boʻladi va umumisteʼmoldagi qatlamga kirishi mumkin. Bunday soʻzlar va iboralar endi jargon doirasidan chiqib boshlaydi va tor guruhga xos soʻzlarni va maʼnolarni anglatmaydi. Professor Borisova bunday leksik birliklarni jargondan farqlashni taklif qiladi va ularni maxsus guruhga – norasmiy lugʻatning quyi tizimiga ajratadi. Norasmiy leksik birliklar ogʻzaki nutqda ham, yozma nutqda ham qoʻllaniladi.

Kompyuter mutaxassislarining tor guruhi doirasidan tashqariga chiqqan internet leksemalari internetga kirish imkoniga ega boʻlgan barcha foydalanuvchilarga, shuningdek, fan va texnikaning hozirgi rivojlanishidan xabardor boʻlgan har qanday zamonaviy odamga, ommaviy axborot vositalarining oʻquvchilariga maʼlum boʻlib boradi. Ular internet leksikasining toʻrtinchi qatlamini tashkil qiladi. Bunday leksemalarga misol qilib keltirish mumkin: *net surfing* – internetda kezish, *browsers* – brauzerlar, *sites* – saytlar, *pages* – sahifalar, *password* – parol. Ushbu til tizimi beqaror: internet voqeligini bildiruvchi koʻplab neologizmlar paydo boʻlishi davom etmoqda, baʼzi soʻzlar kerakli maʼno anglatmasligi tufaylli tezda yoʻq boʻlib ketadi, boshqalari keng auditoriya uchun tushunishda qiyinchilik tugʻdirmaydi va oxir-oqibat kundalik nutq tiliga aylanadi: *surf, windows* kabi.

Professor Stiven Uoker internet leksikasining oʻziga xos tasnifini taklif qiladi, tasnif sintagmatik, paradigmatik va iyerarxik munosabatlarga boʻysunadi. Professor Uoker internet leksemalarini toʻrt guruhga ajratgan: 1. Texnik terminlar, masalan, *googlewashing*. 2. Internet foydalanuvchilarining keng qatlamiga maʼlum boʻlgan leksemalar, masalan, *bombing*. 3. Blog foydalanuvchilari tomonidan qoʻllaniladigan leksemalar, masalan, *blogging*. 4. Axborot texnologiyalari rivojidan xabardor oddiy odamlar nutqida qoʻllaniladigan leksemalar, masalan, *download*. Texnik terminlar, odatda, mavhum tushuncha ifodalovchi soʻzlar boʻlib, koʻpincha, ularning maʼnosini tushunish qiyin. Bunday leksik birliklarni professor Uolker guruhdan chiqarib tashlashni taklif qiladi. Chunki internet foydalanuvchilarining soʻz boyligi tuzilishi va qoʻllanishiga koʻra soddaligi bilan ajralib turadi, foydalanuvchilarning aksariyati mutaxassislar emas, balki oddiy odamlardir. Internetni oʻzlashtirmoqchi boʻlgan odam, avvalo, asosiy tushunchalarni oʻrganishi kerak. Agar inson oʻzi kirayotgan kiber olamning asosiy tushunchalarini, internetda ishlashning asosiy qoidalarini oʻzlashtirgan boʻlsa, u oʻzini himoyalangan his qiladi, internet jamiyatining aʼzosi deb biladi. Ayniqsa, yoshlar orasida mashhur boʻlgan bloglarda maʼnosi baʼzan mutlaqo tushunarsiz boʻladigan soʻzlardan foydalaniladi. Internet tili professionalardan tortib oddiy foydalanuvchigacha, olimlardan talabalargacha – turli tipdagi odamlarga xizmat qiladi. “Internet ideal muhit, shu bilan birga, jamoalarni shakllantirish uchun ideal vositadir” [7;440-b.].

Odamlar turli sabablar bilan guruhlariga birlashadilar, oʻzlarining xulq-atvor qoidalarini, muloqot tilini rivojlantiradilar. Professor Uoker taʼkidlaganidek, “til – bu qabila”. Masalan, *hack speak* yoki *hackish* xakerlar tili va oʻsmirlarning *leek speak* tili mavjud boʻlib, faqatgina maʼlum guruhga oid insonlar uchunгина tushunarli va jamiyatning ushbu ijtimoiy guruhlariga kirmagan qatlamlari uchun tushunarsizdir. Qisqacha aytganda, *leek speak* yoki *leet* (elite+speakdan) kattalardan maʼlumotni sir saqlash uchun ishlatiladi. Odatda, bu soʻz 1337 raqamli kod orqali ifodalaniadi. Bundan tashqari, internet sevgi xabarlarining ham maxsus tili mavjud. Polyak olimi Zamengof esperanto tilini ixtirochisi hisoblanadi. Ushbu yangi tilda soʻzlar mavjud emas, faqat soʻzlarni ifodalovchi iyeroglif rasmlari mavjud. Masalan, “men”–barmogʻi bilan

o'ziga ishora qiladigan kichkina odam, "umidsizlik"– bo'ynidagi ilmoq bilan azob-uqubatlardan asabiy-lashgan odam, "start"–svetoforming yashil chirog'i. *Zlango* mualliflarining fikriga ko'ra, ushbu usul yordamida mutlaqo boshqa tillarda so'zlashuvchilar bir-birlari bilan erkin muloqot qilishlari mumkin va uni to'liq o'rganish bir soatdan ko'proq vaqtni oladi. Mutaxassislarining taxminiga ko'ra, kelajakda *Zlango* elektron pochta va tezkor xabar almashish xizmatlarida qo'llanilishi mumkin [8;7-b.].

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, internet leksikasi undan foydalanish auditoriyasi hamda mutaxassislariga ko'ra, turli manbalardan ozuqalanib turadi. Internet leksikasining dastlabki manbalari matematika va informatika fanlari bo'lgani uchun bir qism terminlar mazkur tarmoqlardan, keyinchalik, internet funksiyalari (jurnalistika, geyming, bloging)dan kelib chiqib, OAV, texnik sohalar (jangovar o'yinlar bilan bog'liq) so'z o'zlashtirgan, shuningdek, o'zlashmalar hamda ijtimoiy chegaralan-ganlik salmog'i yuqori.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Никулина Е.А. Взаимодействие и взаимовлияние терминологии и фразеологии современного английского языка. Москва, 2004, 202 с.
- (2). Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Москва, 2003, 248 с.
- (3). Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Москва, 2003, 248 с.
- (4). Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Москва, 2003, 248 с.
- (5). Watts, K. 21<sup>st</sup> Century Dictionary of Slang. N.Y, Dell Publishing, 1994.
- (6). Watts, K. 21<sup>st</sup> Century Dictionary of Slang. N.Y, Dell Publishing, 1994.
- (7). Gates, B. Business @ the Speed of Thought. New York, Warner Books, 2000, 440 pp.
- (8). Денисов К. Мобильнику пририсовали язык. Неделя. 13 октября 2006.

**Sabirova To'xtagul (Urganch davlat universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi  
stajyor o'qituvchisi; jumaniyozovagulbahor@gmail.com)**

#### LAKUNALAR TARJIMASIDA ELIMINATSIYA HODISASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarjimada lakunalarni lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganishda qo'yiladigan asosiy vazifalar lakunalarning madaniyatlararo muloqot doirasidagi ahamiyati va lakuna-ni lingvomadaniy komponentli leksika sifatida tadqiq qilinishidan iborat bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Lakunalarga bo'lgan lingvomadaniy yondashuv bilan to'ldirish samarali ekanligi isbotlandi. Olingan sta-tistik ma'lumotlar tahlil qilinganda, nasriy asarlar tarjimasida vujudga kelgan lakunalarni bartaraf qilish-da asosan to'ldirish usuliga murojaat qilingani, mazkur fakt, tarjimonlarning lakunar birlikni kompensat-siya qilgandan ko'ra ma'nosini ochib berishga intilishi yuqoriligini ko'rsatadi. O'zbek va nemis tillarida konseptlarni nomlash ehtiyojida katta tafovut borligidan, asliyat tilidagi lakunar birliklar semantikasida implitsit lingvomadaniy ma'noning mavjudligidan dalolat beradi.

**Kalit so'zlar:** tarjimada ekvivalentlik, lingvomadaniy aspekt, lakunar, birlik va lakunalar nazariya-si, vosita, tarjima usuli, asliyat, milliy manfaatlarni ta'minlash, tarjima, adabiyotshunoslik, muqobil.

#### ФЕНОМЕН ЭЛИМИНАЦИИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ЛАКУН

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается, что основными задачами изучения лакун пе-ревода на основе лингвострановедческого подхода должны стать определение значимости лакун в рамках межкультурной коммуникации и исследование лакун как лексики с языковым и культурной составляющей. Лингвокультурологический подход к лакунам доказал свою эффективность. Анали-зируя полученные статистические данные, метод заполнения в основном применяется для устра-нения лакун при переводе прозаических произведений, этот факт показывает, что переводчики склонны больше раскрывать смысл, чем компенсировать лакунарную единицу. Это указывает на большую разницу в необходимости называть понятия в узбекском и немецком языках, а также наличие имплицитного лингвокультурологического значения в семантике лакунарных единиц в языке оригинала.

**Ключевые слова:** эквивалентность в переводе, лингвокультурологический аспект, лакунар, теория единства и лакун, инструмент, метод перевода, аутентичность, обеспечение националь-ных интересов, перевод, литературоведение, альтернатива.

#### THE PHENOMENON OF ELIMINATION IN THE TRANSLATION OF LACUNAS

**Annotation.** In this article, it is emphasized that the main tasks of the study of lacunae in translation based on the linguistic and cultural approach should be the importance of lacunae in the framework of intercultural communication and the research of lacunae as a lexicon with a linguistic and cultural com-

ponent. Linguistic-cultural approach to lacunae has proven to be effective. Analyzing the obtained statistical data, the filling method is mainly used to eliminate the lacunae in the translation of prose works, this fact shows that the translators tend to reveal the meaning more than to compensate for the lacunar unit. It indicates that there is a big difference in the need to name concepts in the Uzbek and German languages, and the existence of an implicit linguistic and cultural meaning in the semantics of lacunar units in the original language.

**Key words:** equivalence in translation, linguistic and cultural aspect, lacunar, theory of unity and lacunae, tool, method of translation, authenticity, ensuring national interests, translation, literary studies, alternative.

**Kirish.** Bizga ma'lumki, tillararo lakunarlik holati tillararo yoki madaniyatlararo muloqot vaqtida keskin namoyon bo'ladi, sababi bu muloqotning asosiy shakli sifatida tarjima faolligi yuzaga keladi. Tarjima soxasi mantiqiy ravishda lakunalar eliminatsiyasining keng tarixiy jarayoniga kiritiladi, va bunga asos sifatida tarjimaning lakunalarni bartaraf qilishdagi ishga tushiruvchi mexanizm sifatidagi roli xizmat qiladi va bunda tarjimon tomonidan eng maqbul usulni tanlash orqali lakunani eliminatsiya qilish jarayoni kuzatiladi. Asliyat va tarjima tilidagi misollarni tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ishimizda tahlil qilamiz, quyidagi tarjima usullari eng ko'p qo'llanilganining guvohiga aylanamiz: Turlicha darajadagi tasvir yoki sharh ko'rinishidagi interpretatsiyaning yoyilgan shakli. Sanab o'tilgan barcha tarjima usullari lakunalar nazariyasida ilgari surilgan lakunalarni eliminatsiya qilishning asosiy usullari: kompensatsiya va to'ldirish bilan korrelatsiya bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Lakunalarni eliminatsiya qilishning u yoki bu metodlarini va tegishli tarjima usullarini tanlashda tarjimonlar ma'lum strategiya va usullarga amal qilgan. Shuni yana aytishimiz mumkin, Tarjimon olimlarimiz takidlashicha Kryukov "strategiya deganda, tarjimashunoslikda tarjimon ishlab chiqqan harakatlar rejasi". Tarjima taktikasi esa "ma'lum masalani tarjimaning tanlangan strategiyasini inobatga olgan holda yechishda foydalaniladigan tarjima operatsiyalarining tizimli tashkil qilingan majmuyi" sifatida ifodalaniadi. Lakunalar eliminatsiyasi yoki delakunizatsiya o'zining xarakterli chizgilariga ega bo'lib, uning jarayoni tarjima tili tegishli bo'lgan jamiyatning amaliy ehtiyojlariga ko'ra boradi. Tadqiqotchilarning kuzatishlari bo'yicha, tilda lakunalarni to'ldirish, eng avvalo, o'zlashtirish yoki so'z va iboraning "uzoqlik" alomatlarini o'chirish usullari orqali amalga oshiriladi. Har qanday holatda ham, lakunalar eliminatsiyasi "tillar o'zaro ta'siri va o'zaro faoliyati jarayonida yuz beradi" [1.89]. Tadqiqotchi N.Dosbayevaning fikricha, lakunalar eliminatsiyasi hisobiga retsipyent tili lug'aviy tarkibining boyishi uchta bosqichda amalga oshadi: konsept, hodisa yoki xos so'zning mavjud emasligini anglashdan iboratdir. Tillararo lakunani o'zlashtirish aynan retsipyent tomonidan o'z tilida bu turdagi tushunchaning yo'qligi va berilgan leksik birlikning muqobili yo'qligini anglashdan boshlanadi. Vujudga kelgan yoki aniqlangan tillararo lakunani o'zlashtirishning ikkinchi bosqichida retsipyent tiliga "vaqtincha ekvivalent-siz" bo'lgan birlikni kiritishga xarakat qiladi. Bunda birliklarni joriy qilinish davri yangi tushunchaning o'zlashtirilishi va atalishi darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu bosqich uchun yangi tushunchani nomlashga bo'lgan ko'plab tartibsiz turdagi xarakterlar xarakterlidir, bu, o'z navbatida, tushunchaning respient tilida yuqori variativlik hosil qilishiga hamda variantlar raqobatiga olib keladi. Uchinchi bosqich, ya'ni, ekvivalent-siz birlikning tilga butunlay o'zlashishi yoki lakunaning tamomila eliminatsiya qilinish jarayonini doimo aniq kuzatib borish mushkuldir [2;66-b.]. Bu haqida o'z vaqtida L.S.Barxudarov ham eslatib o'tgan olimimiz: "okkazional ekvivalentning odatiyga aylanib qolgan vaqtini doimo aniq aytib berish mumkin emas" [3;359-b.]. Tarjima tili lingvomadaniyatiga yangi konsept muqim o'rnashgan bo'lsa hamda ushbu konsept nominatsiyasi til sohiblari tomonidan "begona" sifatida qabul qilinmasagina lakunaning butkul eliminatsiya qilingani to'g'risida fikr yuritgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu ishimizning tahlili jarayonida statistik tahlil metodi, chog'ishtiruv metodi, kontekstologik tahlil metodi, komponent tahlil metodi distiributiv tahlil metodlaridan foydalaniladi. Bu metodlar ishga chuqurroq yondashishga, tahlillar natijasining tarjimasi va natijasini ko'rishga xizmat qiladi.

Tarjima bo'yicha yozilgan adabiyotlarda tarjimon qo'llaydigan strategiyalarni ilk bor klassifikatsiya qilgan deb L.Venutining nomi tilga olinadi. Ushbu olim domestikatsiya va forenizatsiya strategiyalarini bir-biridan ajratib bergan. Forenizatsiya strategiyasi (shuningdek, ekzotizatsiya, varvarizatsiya) tarjima matnida asliyatning matnining o'zga madaniy o'ziga xosligini saqlab qolishga yo'naltirilgan bo'lib, tarjima tilida funksional analog bo'lgan taqdirda undan foydalanmay, transkripsiyani suiiste'mol qilish holatiga olib keladi. Domestikatsiya (mahalliyashtirish) strategiyasi esa, aksincha, asar o'quvchisiga yot bo'lgan tushunchalarni yengil va silliq tarzda tushuntirishga, tarjimoni odatiy va tanish tushunchalar bilan boyitishga qaratil-

gan bo‘ladi. Ushbu strategiyalar lakunalarni eliminatsiya qilishning asosiy usullari: kompensatsiya va to‘ldirish bilan muvofiq keladi. Lakunalarni quyidagi usullar vositasi bilan to‘ldiriladi:

- u yoki bu birlikni o‘zlashtirish;
- so‘z yoki iboraning “uzoqlilik”, “begonalik” bo‘yog‘ini o‘chirish. Bunda, avval, tushunarsiz, begona bo‘lgan so‘z yoki ibora odatiy tusga kira boshlaydi;
- matnga o‘zga madaniyat unsurlarini ochib beradigan izohlarni qo‘shish. Sharhlash qo‘shish orqali bo‘shliqlarni to‘ldirish, ya’ni chuqurlik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin;
- matnda milliy o‘ziga xos unsurni transliteratsiya holatida saqlab qolish. Bunda transliteratsiya jarayoni birlikni retsipyent tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish orqali amalga oshiriladi. Shu tariqa, tarjima matnida o‘zga madaniyat koloriti saqlab qolinishi va lakunar birlikning ma’nosini tushunishdagi murakkabliklar bartaraf qilinishi mumkin;
- matndagi tushunish qiyin bo‘lgan milliy o‘ziga xos unsurlarga oydinlik kiritish maqsadida izohlar berish. Lakunalarni izohlar ko‘rinishida to‘ldirish darajasi lakuna turiga bog‘liq bo‘ladi – chuqur lakunalar mufassal, uzun izohlarni talab qilsa, chuqur bo‘lmagan lakunalar qisqa tushuntirish, odatda, satr osti izohi bilan to‘ldiriladi. Badiiy asarlarda izohlar asar yakunida ham keltirilishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Lakunalar eliminatsiyasi borasida I.Y.Markovning mustaqil nazariyasi mavjud bo‘lib, muallif unga “tortishish” va “itarish” dan iborat ijtimoiy-psixologik mexanizmlar” [1;89-b.] deb nom bergan va shu orqali lakunalarni to‘ldirish taklifini ilgari surgan. Avvaliga “itarish” mexanizmi “o‘ziniki” va “begonaniki” bo‘lgan madaniyatlar orasidagi tafovutni mustahkamlashda namoyon bo‘ladi.

Bunga misol sifatida o‘zbek tilidagi *halol* va *harom* leksemalarini olishimiz mumkin. Dastlabki misol tariqasida “halol” leksemasi va uning tarjimalarini tahlilga tortamiz. So‘zning nemis tilida lakunar ekanligi lakunani aniqlash mezonlariga ko‘ra belgilangan tartibda aniqlangan, jumladan, lug‘atlarda *halol* nemis tiliga *erlaubt zu essen (nach Islam), kosher; rechtmäßig, rechtmäßig verdient; aufrecht, ehrlich; rechtmäßig verheiratet* singari ma’nolar bilan tarjima qilingan, hamda ushbu so‘zga yakka so‘z yoki muqim ibora shaklidagi ekvivalentning mavjud emasligiga ko‘ra, *halol* o‘zbek tili fonida nemis tilida vujudga kelgan nisbiy lakuna turi hisoblanadi:

a) *shunda men o‘g‘irlagan pulimni halol qilib, egasini rozi qilib ololaman, deb yuborgan edim* [4;115-b.];

b) ... *uch-to‘rt marta yaxshilab chayqab olamiz, happa-halol bo‘ladi, qoladi. – Inshollo,–dedi hazrat, – albatta, halol bo‘ladi* [4;124-b.];

d) *bunday halol yigitlarga har kim ham non beraveradi* [4;161-b.]. – *Jeder kann diese Art von treuen Kerlen beurteilen* [7;169-b.].

Avvalo, leksemaning semema tahlilini o‘tkazamiz. Bunda leksemaning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan muqim sememalari qatorida kontekstda qo‘llanish maqsadidan kelib chiqib, dominant sememani ajratib ko‘rsatamiz. So‘ng tegishli tarjima variantlarida lakunar birlikka muqobil sifatida keltirilgan birliklar ma’nosining dominant sememaga muvofiqligini aniqlaymiz. Tarjimadagi birlikning dominant sememaga muvofiqligi holatida “+” ishorasi bilan belgilaymiz:

*1-jadval*

**Leksik lakunar birlikning asliyat va tarjimadagi semema tahlili**

Leksema	Semema 1 (dominant)	Semema 2	Semema 3	Semema 4	Semema 5
<i>Halol</i>	Shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalan-sa bo‘ladigan; harom emas	Kishining o‘ziga qarashli, o‘z mehnati bilan, peshona teri bilan topilgan; xiyonat, g‘irromlikdan xoli	Nikohlab olingan, qonuniy	G‘irromlikka o‘rganmagan, qing‘ir yo‘ldan bormaydigan, birovni aldamaydigan; to‘g‘ri, sofdil	O‘zbek kurashida sof g‘alabaga berilgan baho
<i>Zulassen</i>	+				
<i>Halol</i>	-	-	-	-	-

Ikki tarjima variantida lakuna *erlaubt sein (ruhsat berilmoq)* shaklida to‘ldirilgan bo‘lib, bu ma’no kontekst ichidagi “diniy qonunlar asosida tayyorlanmoq” tushunchasi hisobiga yanada oydinlashgan. Uchinchi tarjimada “halol”ning hech qanday izohsiz kelishi tarjima o‘quvchisini biroz chalg‘itadi va bizing fikrimizcha, ushbu misol tarjimasidagi lakuna “konsumieren zu dürfen” shaklida yanada chuqurroq to‘ldirilgan bo‘lar edi.

**Xulosa.** Bundan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tahlillar asosida lakunar birliklarning tarjimada ma'noviy to'g'ri berilganligi yoki lakunalarning adekvat tarzda eliminatsiya qilinganini ko'rib chiqdik. Bundan tashqari, lakunar birlikning tematik tur elementi sifatida kontekstda ma'lum badiiy maqsadda qo'llanilganiga ko'ra tarjimada e'tibor qilinishi lozim jihatlarni markaziy o'ringa olib chiqib, bu masalada o'z nuqtayi nazarimizni bayon qilishga harakat qildik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Культура и текст. Введение в лакунологию. М., ГЭОТАР-Медиа, 2008, с. 89.
- (2). N.Dosbayeva. Ўзбек насрий адабиётидан инглиз тилига таржималарнинг лингвомаданий таҳлили. f.f.d. DSc. dis.avtoreferati, Toshkent, 2021, 66-bet.
- (3). Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. М., изд-во ЛКИ, 2008, с. 94.
- (4). G'afur G'. Hikoyalar. "Shum bola". Toshkent, 1983.
- (5). O.Jumaniyozov. O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari. Toshkent, 1987.
- (6). O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva, 1981.
- (7). Gafur Gulom. "DER SCHELM". Toschken, 2014.

**Sapayeva Sohiba Otaxonovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi; [sapaevasokhiba@gmail.com](mailto:sapaevasokhiba@gmail.com))**

#### **VAQT TUSHUNCHASINING LINGVISTIK MODEL**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola vaqt tushunchasining zamonaviy lingvistikada ahamiyati hamda lingvistik olimlar nazdida bu konsept qay darajada o'z aksini topganligi, shu bilan birga, nazariy-konseptual maqomi, uning tadqiqot metodlari, stilistik turlari va usullaridan iborat yaxlit tizim ekanligi tahlil etilgan. Ishning maqsadi quyidagicha izohlanadi, ya'ni, ingliz va o'zbek badiiy matnlaridagi vaqt tushunchasining lingvistik xususiyatlarini qiyoslash va ochib berishdan iborat. Maqolada komponent, kontekstologik va o'rganilayotgan badiiy matnlar kontekstida matnni yalpi lingvistik tahlil qilish va chog'ishtirma tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida "vaqt" tushunchasining lingvistik qiyosiy nuqtayi nazarini to'g'ri talqin qilish tilshunoslik gipotezasini boyitilishi uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** vaqt tushunchasi, lingvistik vaqt, semantik qatlamlanish, antropotsentrik, vaqtni modellash tirish.

**Sapayeva Sohiba Otaxonovna (старший преподаватель, Ташкентский государственный университет востоковедения; [sapaevasokhiba@gmail.com](mailto:sapaevasokhiba@gmail.com))**

#### **ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ КОНЦЕПТА ВРЕМЕНИ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение понятия времени в современном языкознании и то, как оно отражается в взглядах ученых-лингвистов, а также его теоретико-концептуальный статус, методы исследования, стилистические категории и методы. Цель работы сформулирована следующим образом: сравнить и выявить лингвистические особенности концепта времени в английских и узбекских текстах. В статье применены подходы грубого лингвистического анализа и кросс-анализа текста к компонентным, контекстуальным и исследованным художественным произведениям. Точная трактовка лингвистического компаративистского подхода к понятию «время» в английских и узбекских литературных произведениях выступает научно-теоретической основой для обогащения лингвистической гипотезы.

**Ключевые слова:** концепт времени, языковое время, семантическая многослойность, антропоцентричность, моделирование времени.

**Sapayeva Sokhiba Otakhanovna (Senior teacher, Tashkent State University of Oriental Studies; [sapaevasokhiba@gmail.com](mailto:sapaevasokhiba@gmail.com))**

#### **LINGUISTIC MODEL OF THE CONCEPT OF TIME**

**Annotation.** This article examines the significance of the concept of time in modern linguistics and how it is reflected in the perspectives of linguistic scientists, as well as its theoretical and conceptual status, methods of study, stylistic categories, and methods. The objective of the work is outlined as follows: to compare and identify the linguistic features of the concept of time in English and Uzbek texts. The article applied gross linguistic analysis and text cross-analysis approaches to component, contextual, and researched artistic works. The accurate interpretation of the linguistic comparative viewpoint of the concept of "time" in


*English and Uzbek literary works functions as a scientific-theoretical framework for the enrichment of the linguistic hypothesis.*

**Key words:** *concept of time, linguistic time, semantic layering, anthropocentric, time modeling.*

**Kirish.** Lingvistik ilmiy izlanishning asosini jamiyat va tilning bir-biriga ta'siri tashkil etadi. Bunda birlamchi e'tibor ijtimoiy omillarning jamiyat a'zosi nutqiy ohangi, manerasiga va so'z zaxirasidan foydalanish madaniyatiga qanday ta'sir qilishini o'rganishga qaratishimiz kerak. So'ngra tilning ommaviy fikrlash tendensiyasini shakllantirishdagi roli haqida so'zlash mumkin. Umuman olganda, bir shaxsning notiq-ligi bilan jamiyat nutqiy madaniyati bir-biriga ta'sir o'tkazishi bor gap. Lekin bu yerda ma'lum to'siqlarni ham unutmaslik kerak. Birinchidan, adabiy til sun'iydir va ko'p millatli, ko'p dialektli jamiyatda ona tili-ning ijtimoiy mavqeyini lingvistik tahlil qilish ko'plab nazariyalarning umrboqiyiligiga soya soladi. Chunki adabiy tilning yashovchanligiga aynan shu ichki omillar kuchli ta'sir etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy lingvistikada biror tushunchani tahlil qilishda ikki usuldan foydalaniladi. Birinchi usul til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga qaratilgan texnikalar majmuasini etnik guruh madaniyati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan matnlarni tahlil qilish usullari-ni o'z ichiga oladi. Ikkinchi usul o'rganilayotgan tushunchani ifodalovchi kalit so'zni aniqlash, tushunchani xususiyatlar yig'indisi sifatida tavsiflash, og'zaki nutqda va jamiyat ongining ko'rsatkichlarida tushuncha-ning dolzarbligini tahlil qilishdan iborat [2;65-b.].

Xususan, vaqt tushunchasini o'rganishda ham, avvalo, bu tushuncha aks etgan matnlar to'planadi va vaqtni ifodalashdagi o'ziga xosliklar ajratiladi. Ikkinchi usulda esa vaqtni ifodalovchi bir so'z markazga qo'yilib, uning semantik valentligidan kelib chiqqan holda, bir nechta qobiqlari ajratib chiqiladi:



**1-rasm. Vaqtning semantik modeli.**

Bunda vaqt lingvistik konsept sifatida o'zining yuzlab qatlamlariga ega konseptosferaga aylanib bo-radi. Masalan, o'zbek jamiyati uchungina xoslangan vaqtni ifodalash usullari mavjud: *"Mustaqillikning ilk yillarida u mardikorlik ham qildi"* (U.Hamdam. "Muvozanat") misolida yozuvchi nazarda tutayotgan payt-ni tushunish uchun O'zbekistonning mustaqillikka erishgan yillarini va o'sha paytdagi ijtimoiy ahvolni bi-lish lozim bo'ladi. Bu matndagi vaqtni anglash o'zbeklar jamiyati uchun oson. O'zbeklar uchun mustaqil-likning ilk yillari zahmat, iqtisodiy qiyinchilik va o'tish davri bilan assotsiatsiya qilinadi. O'zbek bo'lmagan o'quvchi uchun ushbu fikr mazmunini tushunish va interpretatsiya qilish qiyin kechadi. Qahramon nega mardikorlik qilgani, buning siyosiy-ijtimoiy hayot bilan bog'liqligini tushunish uchun jamiyat boshdan ke-chirgan tarixiy jarayon haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak.

*"...particularly its image of unconventional womanhood – was rooted not only in the optimism and patriotism of the Era of Good Feelings but also in feelings of anxiety over the growth of urban vice in Bos-ton and guilt over New England's notorious disloyalty during the war with England"* [3;206-b.]. Ushbu mi-soldagi *Era of Good Feelings* jumlasini Amerika jamiyati a'zolari uchun tushunarli. Bu AQSH tarixidagi tax-minan 1815-yildan 1825-yilgacha bo'lgan davrni ifodalaydi. Bu davrning ijtimoiy ta'siri va jamiyat a'zolari hayotidagi o'rnini bilish uchun Amerika jamiyatining yaqin tarixidan boxabar bo'lish shart. Kitob o'qi-yotgan o'quvchi uchun mazkur voqealar vaqtini anglash uchun ham amerikalik bo'lmagan o'quvchi shu davr haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Aks holda, matnda ifodalangan davr haqida va qahramon ke-chinmalari, muallif g'oyasi haqida to'liq tasavvur hosil bo'lmaydi.

Vaqtning ma'lum sotsiumning faqat ma'lum jins vakillari uchun xoslangan ifodalari ham mavjud. Masalan, Chingiz Aytmatovning "Afsuski, davlat tomonidan o'tkazilgan "Hujum" kompaniyasi o'sha davrning og'ir xatolaridan biri edi deyish kamlik qiladi [1;111-b.]. Bu insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi", degan fikrlarida ifodalangan vaqtning "Hujum" harakati tushunchasi orqali jamiyat ayollari tez va oson tushunadi. Bu Markaziy Osiyo jamiyatlaridagi ayollar uchun umumiy ijtimoiy hodisa. Xuddi shunday jaryon yosh bilan ham bog'liqdir. Biroq konseptning bu qatlami, asosan, og'zaki so'zlashuvda, kundalik muloqotda yaqqol ko'zga tashlanadi.

"Vaqt" tushunchasini falsafiy kategoriyalarga, turli madaniyatlar uchun umumiy ma'nolarni o'z ichiga olgan madaniyatning universal kategoriyalariga kiritish mumkin. Vaqt tushunchasi mohiyatan dini, millati, mintaqasidan qat'iy nazar, barcha odamiyotga birdek taalluqlidir. Mana shuning uchun ham vaqt til egalari, ularning dunyoqarashi va milliy xarakteri o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishning predmeti deb hisoblanishi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Vaqt tushuncha sifatida, o'z navbatida, inson dunyoqarashining butun tizimini tartibga soladi. Boshqa tomondan esa jamiyatning xoslangan konseptual shakli sharmoyili uchun asos bo'ladigan muhim hamda eng qadimiy tushuncha sanaladi. Belgilangan yoki istalgan tushunchani verbalizatsiya qilishda ma'lum bir usullardan foydalaniladi. Jumladan, o'sha tushunchaning tilda shakllanish va rivojlanish sur'atini o'rganish shu tushunchaning ijtimoiy qadriyatlar ierarxiyasidagi ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Qolaversa, shu tushunchaning boshqa tushunchalar bilan umumiy xususiyatlarini dialektlar (sheva va lahjalar) va qardosh tillar bilan solishtirganda uning qanchalik qadimiy va qadrlri ekanini kuzatish mumkin bo'ladi. Odamlar o'rtasidagi muloqot doimo "vaqt" tushunchasini o'z ichiga olganligi sababli, samarali muloqot uchun ushbu tushuncha qanday leksik ma'noda ifodalanganligini va har bir alohida xalq uchun nimani anglatishini aniq tushunish kerak. Milliy xususiyatlarni noto'g'ri talqin qilish ko'plab tushunmovchiliklar va muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklarga olib keladi, bu madaniyatlararo muloqotning har ikki tomonidan og'riqli tarzda qabul qilinadi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani yakunida ikki qahramonning fojiali taqdiri (Muzaffar va Munavvarning muhabbati ularga bir ona ko'krak tutgani bois barbod bo'lishi va Munavvar shu sabab bilan o'z joniga qasd qilishi) g'arb kitobxonlari uchun tushunarsiz va bu johillik sifatida talqin qilinishi mumkin, ammo bu fojiani mohiyatini faqat o'zbeklar va islom aqidalariga asosan yashaydigan mamlakatlar kishilarigina tushunadi. Natijada ushbu roman g'arb kitobxonlari tomonidan ijobiy qabul qilinmaydi va asr fojiasi bo'lgan 2-jahon urushining yillar o'tsada, odamlar hayotida qonli iz qoldirganini to'laligicha qabul qilolmaydi.

Shubhasiz, bir tomondan, har qanday madaniyat uchun xarakterli va ahamiyatli bo'lgan, ikkinchi tomondan, deyarli har bir madaniyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tushunchalarni o'rganish qiziqish uyg'otadi. Masalan, vaqt kategoriyasi fazo kategoriyasi bilan bir qatorda va ular bilan yaqin aloqada butun insoniyat uchun dunyo haqidagi g'oyani shakllantiradi. Ushbu tasavvurlar esa tadqiqot obyekti bo'lgan tushunchalarni chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. Bunday tadqiqotlar, o'z navbatida, ko'p qirrali ilmiy yondashuvga asoslanadi. Mana shu yondashuvga ko'ra turli jamiyatlardagi odamlarning vaqtning tushunish va idrok etish, bu konseptning turli millat egalarning tillarida namoyoon bo'lishi masalalari lingvistik tadqiqot uchun dolzarbligi xususida fikr yuritishimizga sabab bo'ladi.

Ingiliz va o'zbek madaniyatlarida hodisalar ko'proq aniqlikka – "shu yerda va hozir"ga qaratilgan. Bunday munosabatni belgilovchi asosiy omil tabiiy sharoitlar hisoblanadi: psixolingvistik tadqiqotlarga ko'ra, shuningdek, madaniyatlararo muloqot sohasidagi ishlar shundan dalolat beradiki, Osiyo mamlakatlari aholisi ongida vaqtning siklik modeli hukmronlik qiladi. Shu bilan birga, hatto bir mamlakat hududida ham shimol va janub, shaharlar (vaqtning chiziqli idrok etish) va qishloq joylari aholisi o'rtasida vaqtga nisbatan aniq farqlar bo'lishi mumkin. Madaniyatdagi tabiiy omil va vaqt modellarining o'zaro bog'liqligi "anglo-yevropa" va "arab" vaqt tushunchasida hamda E.Xollning madaniyatlarining monoxronik yoki polixronik tipga tegishlilik haqidagi nazariyasida o'z aksini topgan [5;71-b.].

Lingvistik jihatdan ifodalangan vaqt, xuddi falsafiy ifodalangan vaqt kabi, juda xilma-xildir. Inson atrofni va o'zining ichki dunyosini bilgan holda, borliqning barcha yangi tushunchalarini, shu bilan birga, vaqtning barcha yangi qirralarini o'zlashtiradi. Sababi "Vaqt umumiy doiradir, borliq o'zgaradi va har qanday mavjudot vaqt bilan harakatlanadi, ya'ni vaqt borliqning turli shakllariga o'tishi mumkin" [4;122–130-b.]. Inson bilishining natijalari tilda to'planib, asta-sekin dunyoning o'ziga xos manzarasiga aylanadi, avval ham, hozir ham mavjud bo'lgan denotatlardan nutq/matn yaratiladi. Olamning lisoniy voqelanish jarayonida vaqt juda muhim o'rinni egallaydi, Mana shu o'rinni biz vaqt tushunchasining ma'no (semantik) maydoni deb ataymiz. Tilshunoslikda koinot va dunyodagi barcha hodisalarning markazida inson turishini ilgari suruvchi antropotsentrik qarash mavjud. Vaqt ushbu nazariyaga asosan subyektiv kategoriya sanaladi. Boisi

inson olamni, birinchi navbatda, hissiy-emotsional idrok etadi. Soʻzlovchining dunyoqarashlari, fikrlash tarzi vaqt bilan bevosita bogʻliqligi toʻgʻrisidagi gʻoyani birinchi marta B.L.Uorf va keyin Y.D.Apresyan va N.D.Arutyunovalarning lisoniy nisbiylik nazariyasida uchramiz. Vaqtni grammatik shakllangan gap boʻlaklari va payt maʼnosidagi leksemalar yordamida ifodalaymiz. Bunday leksemalar soniya, daqiqa, soat, kun, tong, kun, oqshom, tun, bahor, yoz, kuz, qish, vaqt, asr, yil, davr va boshqalardir. Morfologik sferada ham vaqtni feʼning zamon shakllari yordamida koʻrsata olamiz, masalan: boradi, boryapti, bordi; kuldi, kulyapti, kuladi va hokazo. Sintaktik qatlamda ham vaqtga temporal sintaktik konstruksiyalar yordamida ifodalashimiz mumkin. Shunday qilib, vaqt tilda, xususan, jamiyat soʻzlashuvida yanada aniq ifodalanadi. Shuning uchun ham VAQTga nisbatan “maʼlum bir til hamjamiyatiga xos boʻlgan tilda oʻrnatilgan voqeelikni idrok etish sxemasi” [6;52-b.] degan talqin eng toʻgʻrisi boʻladi. Negaki, insoniyat jamiyati kun, hafta, oy; bolalik, yoshlik, qarilik, tugʻilish, lahza, yil, abadiyat, oʻlim va hokazo vaqt elementlari ichida umrguzaronlik qiladi. Vaqtni konsept sifatidagi murakkab semantik qatlamlanishi, olimlarni taqdir, jon, vatan, yoʻl, mehnat kabi fenomenlar bilan bir qatorda, umuminsoniy tushuncha sifatida talqin qilishga undaydi. Yaʼni, vaqtni anglash, tushunish, qabul qilish individual jarayondan sotsial xodisaga aylanib boradi. Shaxsning vaqtni interpretatsiya qilishi u ulgʻaygan jamiyat qarashlari va qadriyatlariga xos boʻladi.

Nutq momenti yoki “yoʻnaltirish oʻqi” soʻzlovchi ongida real vaqtda tilida idrok etish, anglash va mulohaza yuritishning zaruriy sharti sifatida doimo mavjud boʻladi. Bu jarayonda shaxs obyektivda oʻz oʻrnini anglab etadi. Ushbu fikr til tizimini qurishning antropotsentrik prinsipi va bu tamoyilning, ayniqsa, konseptual vaqtda aks etishi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Feʼning zamon kategoriyasi tilshunoslik tamaddunining turli bosqichlarida materiyaning subyektiv materiali yoxud falsafiy, shuningdek, fiziologik evrilishlar ramzi koʻrinishida idrok etib kelingan.

Zamonaviy lingvistika vaqtni inson bilan uzviy bogʻliq deb hisoblaydi. “Vaqt omili – taʼkidlaydi N.D.Arutyunova – shaxs modelini yaratishda hal qiluvchi rol oʻynaydi va vaqtni modellashtirishda inson omili eng muhim paradigmadir” [7;24-b.]. Maʼlumki, zamon shakllari makonni ifodalovchi soʻzlarga chambarchas bogʻliq boʻladi, qoʻshma gaplar va boshqa gap boʻlaklari, koʻpincha, ikkilamchi vazifada zamon munosabatlarini ifodalaydi. Natijada antropotsentrik paradigmadan yondashilganda vaqtning jamiyat uchun yagona modelini shakllantirishda inson omili muhim, oʻz navbatida, inson vaqt haqidagi tasavvurlarni jamiyatdan oladi.

Shu nuqtayi nazardan, vaqt konseptining lingvistik modelini quyidagicha tasvirlash mumkin. Rus olimi L.N.Gumilyov etnosni sotsial-madaniy hodisa sifatida koʻrib, lingvomadaniy jamoa holatining koʻrsatkichlaridan biri sifatida milliy ongning vaqt kategoriyasiga munosabatini ajratib koʻrsatdi. Gumilyov oʻzining “Etnik va vaqt kategoriyasi” asarida “vaqtga bogʻliq boʻlgan munosabatlarning uni aniqlash maqsadiga koʻra tasnifini taklif qiladi: fenologik (mavsumiy tabiat hodisalari haqidagi bilimlarga asoslangan), siklik (abadiy gʻoyaga asoslangan kundalik, umumiy hodisalarning qaytishi), chiziqli (kundalik, umumiy hodisalarning qaytishi), “jonli xronologiya” (bir avlodagi tarixiy voqealar) va boshqalar” [8;143–197-b.].


Eng avvalo, vaqtning asosiy ilmiy modellarini qiyosiy tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz. Shunday qilib, tahlil jarayonida vaqtga oid ikki juft ijtimoiy modelni aniqladik. Shu modellarga tayanib biror sotsiumning vaqt haqidagi konseptual denotatlari toʻplanadi va lingvistik yondashuv shu asosda shakllanadi. Bular vaqtning arxaik modeli (mifologik vaqt); vaqtning diniy modeli, yangi vaqtga xos boʻlgan gʻoyalari tizimi (tushunarliroq aytganda, “Nyuton modeli”), vaqt haqidagi zamonaviy davrning eng xarakterli gʻoyalari umumlashtirish asosida qurilgan model (shartli ravishda vaqtning zamonaviy modeli). Bular inson tomonidan real vaqtni ifodalashning umumlashtirilgan tipik usullari. Ushbu toʻrtta modelni tanlash shartli, chunki odamlarning vaqt haqidagi gʻoyalari doimiy ravishda oʻzgarib turadi va bir model eskirib, ikkinchisi kuchga kirishini aniq koʻrsatish imkonsiz.

Yana bir qatʼiy qoida mavjud: odamlar ongida bir nechta makon-zamon modellari ular bilan bogʻliq bilan bogʻliq boʻlgan elementlar bir vaqtda mavjuddir. Masaalan, ibtidoiy/mifologik vaqt modelida koinotdagi makon munosabati vaqt munosabatidan ustunligi koʻrinadi. Vaqt shu qandaydir substantiv belgilar bilan tasvirlanadi. Aytaylik, subyektning olam bilan munosabatlarida ishtirokchi modeli yaqqol koʻrinadi. Bunda shaxsning obyekt va tabiiy muhit, hatto butun koinot bilan organik yaxlitligi subyektning makondan, jamiyatdan ayro tasavvur qilib boʻlmasligi anglashiladi. Yanayam chuqurlashadigan boʻlsak, semantik munosabat hodisalarni sistemlashtirishda qolgan obyektlarni boshqa narsaning belgilari sifatida idrok etish, dunyoni oʻxshashliklar va oʻzaro aks ettirishlar tizimi sifatida idrok etish (“brikolaj”); oʻtmishga yoʻnaltirishning vaqtinchalik modelida ustunlik, oʻtmishdan hozirgi kun uchun tushuntirish modeli sifatida foydalanish; rivojlanishning siklik modeli, unda sodir boʻlayotgan hamma narsa oʻtmishda sodir boʻlgan narsaning takrorlanishi sifatida qabul qilinadi.



**Tadqiqot metodologiyasi.** Vaqtning diniy modeli (xristian, islom va hokazo) quyidagi substantiv xususiyatlar bilan tavsiflanadi: butun dunyo manzarasida vaqtga doir munosabatlarning fazoviy munosabatlardan ustunligi; kelajakka yo'naltirishning vaqt modelida ustunlik, esxatologik, vaqtning chiziqli modeli, uning qaytarilmasligi; vaqtni idrok etishning yorqin qiymati – emotsional ranglanishi; mo'jizaga, din tarixidagi tarixidagi eng muhim voqealarning o'ziga xosligi, misli ko'rilmaganligi va o'ziga xosligiga ishonish (me'roj kechasi, qiyomat kuni, Isoning tug'ilishi yoki o'ldirilishi singari), bu mo'jizaviy va e'tiqodiy voqealar haqidagi tasavvurlarning vaqtga doir hamma jihatini ko'rib chiqish real hayotdan ko'ra o'limdan keyingi hayotni ustun qo'yish, ilohiy voqealarga kuchli ishonch, makon va zamonning yagonaligi, shuningdek, subyektning ruhiy-psixologik olamining tashqi dunyodagi ifodasi tarzida vaqtni yagona unsur sifatida idrok etish hamda real vaqtni makon-zamon kontinuumiga kiritish to'g'risida farazlar mavjud.

Shunga ko'ra, badiiy matndagi vaqt konseptining quyidagi modeli taklif etiladi:



**2-rasm. Vaqt konseptining modeli.**

Vaqtning stilistikada aks etishi esa bugungi kunda real va virtual tarzda namoyon bo'lmoqda. Aynan mana shu jihat tadqiq etilishi g'oyat zarurdir. Olimlar ko'plab jamiyatlarning tillarida vaqt modellarining bir qancha turlarini aniqladilar. Biroq keyingi barcha modellar inson ongida qadim zamonlardan beri shakllangan "siklik" va "chiziqli" vaqt singari ikkita asosiy model ustiga qurilgan. Avvalo, siklik vaqt nimaligini tushunib olsak, voqealarning bir zaylda ketma-ket takrorlanishiga doir siklik yondashuv ibtidoiy tamaddunlarda kuzatiladi. Ya'ni, tabiatdagi siklik hodisalarning mavjudligi asosida bu model shakllangan.

**Tahlil va natijalar.** Chiziqli, ya'ni, izchil rivojlanishga asoslangan vaqt modeli koordinata bo'ylab harakat haqidagi farazlarning paydo bo'lishi va ratsional fikrlashning shakllanishi bilan bog'liq. Bunda vaqt ibtidosi va intihosi mavjud bo'lmagan, tiriklikni kelajak, hatto o'tmish bilan bog'laydigan koordinata sifatida tushuntiriladi. Olimlarning ta'kidlashicha, olamning lisoniy manzarasi doirasida siklik va chiziqli vaqt bir-birini to'ldiradi. Vaqtni siklik idrok etish leksik tarkibda, chiziqli vaqt - grammatik tizimda namoyon bo'ladi. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani muqaddimasida "Moziyga qaytib ish ko'rmoq" haqida fikr mavjud. Bu jumla leksik tarkibidagi moziy leksemi bizga vaqtni siklik (kuntun, bahor-yoz-kuz-qish aylanma harakati natijasida paydo bo'lgan vaqt oralig'i) anglashga yordam beradi. Ammo jumladagi grammatik asoslar, grammatik kategoriyalar (masalan, grammatik zamon) vaqtni ketma-ket, bir chiziqda anglash uchun qo'llaniladi.

Vaqtga doir biz tahlilga tortgan modellardan boshqa ham ko'plab ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Shu asosda tadqiqotlarning matn tahliliga asoslanishi jarayonining faollik bilan rivojlanishi sababidan bu tipdagi tadqiqotlar uchun *vaqtning matn kategoriyasi* degan atama fanga kiritildi. Bu atamaga tilshunos T.V. Matveeva bunday ta'rif beradi: "Matn mazmuni vaqt o'qi bilan bog'liq bo'lgan diskurs toifasi: hozirgi, tarixiy, istiqbolli haqiqat" [9;696-b.]. Tilshunos I.Y.Chernuxina fikricha, "vaqtning matn kategoriyasi – bu maydon xarakteriga ega bo'lgan vektor kategoriyasi, uni tavsiflashda boshlang'ich nuqta muhim ahamiyatga ega. U vaqtni muallif ijod mahsuli sifatida belgilaydi, ya'ni, vaqt badiiy matnda belgilanib, badiiy matndagi vaqt deb ataladi" [10;160-b.]. Badiiy matndagi vaqtni o'rganishni boshlab bergan olim A.A.Potebnyadir. Olim birinchi marta folklor namunalarida real vaqt bilan badiiy matn vaqtining farqini ilmiy asoslashga urindi. Badiiy matndagi vaqtga nisbatan "Badiiy vaqt" atamasini D.S.Lixachev ilmiy muomalaga olib kiritgan. U badiiy vaqtni "yozuvchining vaqt haqidagi fikri emas, yozuvchi o'z asarida yaratadigan vaqt"

[11;74-b.] deb ta'riflagan. O'zbek tilshunos Sh.Jabbarov "Vaqt" konsept sifatida o'lcham ma'nosidan ko'ra madaniy xususiyat sifatida kengroq namayon bo'lishi mumkin. Albatta, vaqt falsafiy qarashda emperik bo'lib, leksik birliklar yordamida lisoniy ifodaga ko'chishini qayd etadi [12;31-b.].

Vaqtga munosabat, bir paytning o'zida, insonning dunyoqarashini ham belgilaydi. Sotsial vaqt: 1) uning turli momentlarining sifat jihatidan notengligi; 2) obyektivlashtirilgan o'tmish mehnati va uning tirik mavjudotining uyg'unligi; 3) alohida guruhlarning ijtimoiy ritmlarining nisbiyligi; 4) negentropik yo'nalish; 5) subyektiv qaytariluvchanlik nisbiy kabi parametrlar bilan tavsiflanadi; 6) kelajakni belgilash; 7) amaldagi ijtimoiy munosabatlar tizimining shartliligi; 8) hozirgi zamonning shakllariga nisbatan xilma-xilligi; 9) mavjudlikning ramziy xususiyati; 10) axborot sig'imining o'zgaruvchanligi; 11) shaxsning maqsad qo'ygan obyektini o'zgartirish jarayonida ifodalangan subyektiv jihat; 12) qadriyat xarakteri [12;68-b.].

**Xulosa va takliflar.** Vaqt tushunchasi muammosi keng ko'lamli va ziddiyatlarga boy tadqiqot sohasidir. Maqolamizda nisbatan maqbul turlari va mezonlarini aniqlash maqsadida mazkur masala yuzasidan mavjud adabiyotlarning batafsil tahlili amalga oshirildi. Vaqt tushunchasini lingvistik jihatdan tadqiq qilish diskurs tilshunosligining rivojlanishi, ilmiy qarashlarning o'zgarishi va zamonaviy tilshunoslik doirasida vaqtning yangi aspektlarini tadqiq etishga urinishlar bilan bog'liqdir. Lingvistik jihatdan badiiy matn mavzui yaxlitlikka, bog'lanishlilikka, informativlikka va umumiy kommunikatsiya mavzusi doirasida nisbiy tugallikka ega bo'lgan nutq-tafakkur faoliyatining o'ziga xos hosilidir.

An'anaviy ravishda vaqt tushunchasi quyidagi aspektlarda ko'rib chiqilgan: a) matn va dialogning nutqiy (leksik-frazeologik, sintaktik, stilistik) strukturasi; b) badiiy matnning real nutq bilan munosabati; d) butun matn/diskurs kompozitsion strukturasi; e) funksional nuqtayi nazardan.

Vaqt tushunchasining lingvistik modelini quyidagicha anglash mumkin: Inson markazida turuvchi har qanday harakat, holat, tashqi ta'sirning inson idrokida qabul qilinishi, aks etishi, qayta ishlanish jarayonlari vaqt orqali amalga oshadi. Vaqt denotatning voqelanishining inson tomonidan sintezlanishidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Aytmatov Ch. Qoyada qolgan ko'z yoshlar. "Jahon adabiyoti", 1192, 2-son.
- (2). Harder P. Meaning in mind and society. A functional contribution to the social turn in Cognitive Linguistics. Berlin, N.Y, Mouton de Gruyter, 2010.
- (3). Lucy Brewer. The Female Marine; or the Adventures of Louisa Baker. American Andquarian Society, 1994.
- (4). Гак В.Г. Пространство времени. Логический анализ языка. Язык и время. Москва, 1997.
- (5). Edward Twitchell Hall Jr. The Silent Language. Fawcett, 1968.
- (6). Яковлева Е.С. Фрагменты русской языковой картины мира (модели пространства, времени и восприятия). Москва, "Гнозис", 1994, с. 344.
- (7). Арутюнова Н.Д. Время: модели и метафоры. Логический анализ языка. Язык и время. М., "Индрик", 1997.
- (8). Гумилёв Л.Н. Этнос и категория времени. Доклады отделений и комиссий. Геогр. о-во СССР, Ленинград, 1970, вып. 15. Этнография.
- (9). Матвеева Т.В. Текстовое время или темпоральность. Стилистический энциклопедический словарь русского языка, под ред. М.Н.Кожинной, 2-е изд., испр. и доп., М., "Флинта: Наука", 2006.
- (10). Чернухина И.Я. Общие особенности поэтического текста (лирика). Воронеж, изд-во Воронеж. ун-та, 1987.
- (11). Лихачёв Д.С. Внутренний мир художественного произведения. "Вопросы литературы", 1968, № 8, с. 74-87.
- (12). Поликарпов В.С. Время и культура. [http://www.iu.ru/biblio/archive/polikarpov\\_vremja/](http://www.iu.ru/biblio/archive/polikarpov_vremja/), 1987.
- (13). Джаббаров Ш.Х. Вақт концептосферасига лингвофалсафий ёндашув (Ўзбек ва инглиз тили мисолида). "Тафаккур зиёси", Жиззах, 2021, 1-сон.

#### **Yuldasheva Dilfuza Muysinjanovna (Toshkent davlat Transport universitetining PhD doktoranti) O'ZBEK TILIDA DORIVOR O'SIMLIKLAR NOMLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola dorivor o'simliklar nomlari misolida o'zbek tilidagi so'z yasash tizimini o'rganishga qaratilgan. O'zbek tilida so'z yasashining shakllanish tarixi haqida qisqacha ma'lumot berilib, o'zbek tilida so'z yasalishi yo'lida tilshunos olimlarning eng muhim asarlari sanab o'tilgan. Misollar tariqasida ba'zibir dorivor o'simliklar nomlarining morfologik tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** leksikologiya, morfologiya, so‘z yasalishi, morfema, affiksatsiya, qo‘shimcha, grammatika, tilshunoslik, fitonim, o‘simlik.

Юлдашева Дилфуза Муйдинжановна (Аспирант Ташкентского государственного университета путей сообщения)

## ОСОБЕННОСТИ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ НАЗВАНИЙ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

**Аннотация.** Целью данной статьи является изучение системы словообразования в узбекском языке на примере названий лекарственных растений. Даны краткие сведения об истории образования слов в узбекском языке, а также перечислены важнейшие работы лингвистов на пути к образованию слов в узбекском языке. В качестве примера приведен морфологический анализ названий некоторых лекарственных растений.

**Ключевые слова:** лексикология, морфология, словообразование, морфема, аффиксация, суффикс, грамматика, лингвистика, фитоним, растение.

Yuldasheva Dilfuza Muydinjanovna (PhD doctoral student at Tashkent State Transport University)

## FEATURES OF WORD FORMATION OF NAMES OF MEDICINAL PLANTS IN THE UZBEK LANGUAGE

**Annotation.** This article aims to study the word formation system in the Uzbek language using the example of the names of medicinal plants. It is given a brief overview of the history of the word formation in the Uzbek language, and the most important works of linguists on the path to the word formation in the Uzbek language are listed. Morphological analysis is carried out on the given examples.

**Key words:** lexicology, morphology, word formation, morpheme, affixation, suffix, grammar, linguistics, phytonym, plant.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi hududida yovvoyi o‘simliklarning 4000 dan ortiq turlari o‘sadi, ularning qariyb uchdan bir qismi u yoki bu darajada shifobaxsh xususiyatga ega, bu esa O‘zbekiston florasing boyligidan dalolat beradi. Vaholanki, hozirgi kunda O‘zbekistonda 100 dan sal ko‘proq dorivor o‘simliklar turi ilmiy tibbiyotda qo‘llanilmoqda [3]. Ushbu dorivor o‘simliklarning nomlari mazkur maqolaning lingvistik tahlil obyektidir.

**Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili.** O‘zbek tilida so‘z yasalishi, to‘g‘rirog‘i, yasalish usullarini belgilash borasida juda xilma-xil fikr va qarashlar mavjud. O‘zbek tilida so‘zlar ikki usulda yasaladi: affiksial va kompozitsion-sintaktik. Buni barcha tilshunos olimlar deyarli bir ovozdan e’tirof etadilar.

So‘z yasalishi o‘zbek tilshunosligining bo‘limi sifatida 20-asrning 40-yillarida shakllangan. A. G‘ulomov birinchilardan bo‘lib o‘z tadqiqot ishini so‘z yasovchi affiks muammolariga bag‘ishladi. Doktorlik dissertatsiyasida “O‘zbek tilining tarixiy so‘z yasalishi muammolari. Affiksatsiya” adabiy o‘zbek tilida diaxronik va sinxronik, unumli va unumli bo‘lmagan affikslar ko‘rib chiqildi. Xuddi shu asarda bir yoki bir nechta nutq bo‘laklari doirasidagi otlarning so‘z yasalishi muammosi ko‘rildi. A.G‘ulomov o‘zbek tilining so‘z yasalishida morfologik, sintaktik, leksik, semantik, fonetik usullardan foydalangan [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dorivor o‘simliklarning nomlarini A.G‘ulomov keltirgan usullarga ko‘ra ko‘rib chiqsak, u taxminan shunday ko‘rinishga ega bo‘ladi.

1. Morfologik usul (ya‘ni affiksial). Dorivor o‘simliklar nomlari so‘z negiziga quyidagi qo‘shimchalar qo‘shilib yasaladi: -cha, -qi, -ak, -gun va boshqalar.

2. Sintaktik usul morfologik usulga qaraganda keng tarqalgan: *moychechak, kungaboqar, temirtikan, dalachoy, tikandaraxt, tog‘rayxon, tog‘jumo‘t, qichitqio‘t* kabi.

3. Semantik usul ikki so‘zni qo‘shish bilan shakllanadi, lekin so‘zlar asl ma‘nosini yo‘qotadi: *ayiqto‘von, itburun, kiyikpanja, tillabosh, otquloq, bo‘tako‘z, g‘ozpanja, bo‘ritikan, maymunjon, chumchuqtili, erqo‘nar, qizilmiya, qushqunmas, shildirmiya, arslonqulog‘i* [5].

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o‘zbek tilshunosligida so‘z yasashning ikkita usuli mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa-da, kompozitsion usul so‘z yasash usuli emas degan fikrlar olimlarning ma‘ruzalarida qayd etila boshladi [2]. Masalan, akademik A.Hojjiyev o‘zbek tilidagi so‘z yasash usulini ko‘rib chiqib, qisqartma, leksik-semantik, fonetik, sintaktik-leksik so‘zlarni alohida so‘z yasash usullariga ajratishni tavsiya etmaydi. Uning fikricha, 80-yillarga qadar kompozitsion usul yetakchilardan biri bo‘lgan. Biroq o‘zbek tilidagi so‘z yasash usullariga oid kuzatishlar uning fikrini til tizimiga yangicha yondashuvlar, yangi kuzatishlar asosida o‘zgartirdi. “O‘zbek tilida so‘z yasash tizimi” (1989) qo‘llanmasida o‘z xulosasini tasdiqlovchi uch fakti ko‘rsatgan.

Birinchidan, so‘z yasash usuli bilan yangi so‘z hosil qilishda so‘z yasovchi maxsus vosita (birlik)dan foydalaniladi, shu birlik so‘z yasovchi hisoblanadi. Buni yuqorida ham ko‘rdik. Masalan, suvchi, tekisla

soʻzlaridagi -chi va -la soʻz yasovchi. “Qoʻshma soʻz” deb ataluvchi soʻzlarda bunday holat yoʻq: *qiqboʻgʻin, itburun, boyoʻgʻli, qirqogʻayni* kabilarda soʻz yasovchi qism (birlik) yoʻq. Binobarin, ular soʻz yasash tarkibiga ega emas va bu soʻzlarning yasash usuli bor, ular bir usulda yasalgan soʻzlar, deyish mumkin emas. Ikkinchidan, soʻz yasash usuli bilan hosil qilingan soʻz (yasama soʻz) soʻz yasovchi yordamida maʼlum bir soʻzdan hosil qilinadi va bu soʻz (yasama soʻzning shu qismi) soʻz yasash asosi hisoblanadi. Masalan, **rohatlanmoq** soʻzi **rohat** soʻzidan yasalgan. Bu soʻzda **rohat** – soʻz yasash asosi, **-lan** soʻz yasovchi qoʻshimcha. Har qanday yasama soʻz ana shunday ikki qismdan – soʻz yasash asosi va soʻz yasovchi qismdan iborat boʻladi. “Qoʻshma soʻzlar” esa bunday tarkibga ega boʻlmaydi. Demak, ular soʻz yasash vositasiga ham, usuliga ham ega emas. Uchinchidan, maxsus usul bilan, maxsus birliklar yordamida yasalgan soʻzlarning maʼnosi uning qismlari maʼnosidan yuzaga keladi, uning maʼnosini qismlari maʼnosi bilan asoslash mumkin boʻladi: *dutorchi* – *dutor chaluvi* (sozanda), *ogʻirlashdi* – *vazni ogʻir boʻldi*, *chiroyli* – *yaxshi (yoqimli) chiroyga ega* va b. „Qoʻshma soʻzlar”da bunday holat yoʻq: *itogʻiz* (gulning nomi) soʻzining maʼnosini uning qismlari (it, ogʻiz soʻzlari) maʼnosi bilan asoslab boʻlmaydi [2].

A.Hojiyevning fikricha, bu uch fakt oʻzbek tilida “soʻz yasashi” yoki “kompozitsion” soʻz yasash usuli tushunchasi boʻlishi mumkin emasligini isbotlaydi. Shunda “qoʻshma soʻzlar” deb ataluvchi soʻzlarning yasash usulini “kompozitsion” usulga ham, “soʻz birikmasi” usuliga ham tasniflash mumkin boʻlmasa, qanday usulga nasniflash mumkin degan savol tugʻiladi. A.Hojiyev bular okazionnal shakllanishlar deb ataladi va ularni lingvistik emas, nutq birligi deb hisoblash toʻgʻri ekanligini taʼkidlaydi. Shu uch faktidan kelib chiqib, dorivor oʻsimliklarning oʻzbekcha nomlarining shakllanishini koʻrib chiqamiz.

**Analiz va natijalar.** Qoʻshma soʻzlar turlicha shakllangan. Asosan, ularning koʻpchiligi boshqa tilardan oʻzlashtirilgan. Masalan, tojik tilidan: *gulbeor, gultojixoʻroz, bangidevona, bargizuv, oklamiy*. Ular oʻzbek tilining tarkibiy soʻzlari hisoblanmaydi.

Qoʻshma soʻzlarning aksariyati frazema (sintaktik birlik)ning leksik (leksema)ga oʻtishi natijasida hosil boʻladi: *dagʻaltukli, tikandaraxt, tomirdori, qichitqioʻt, tomirdori, dalachoy, erqalampir, qoraqobiq, kungaboqar, qushqoʻnmas*. Bu soʻzlar obyektini belgilaydi va oʻsimlikning sifati haqida maʼlumot beradi. Shu bilan birga, har bir soʻzning shakllanishi har xil. Binobarin, bu hodisa tizimga ega emas va bunday soʻzlar soʻz yasovchi asos va soʻz yasovchi birlikdan iborat emas.

Qoʻshma soʻzlar maʼlum predmet yoki belgi bilan qiyoslash, oʻxshashlik yoʻli bilan ham yasaladi: *otquloq, ayiqtovon, sovunoʻt, tirnoqgul, qizilmiya, arslonquloq, qirquloq* [4]. Biz ulardan baʼzilarini misol sifatida koʻrib chiqamiz:

A.Hojiyev asarlarida qayd etilishicha, oʻzbek tilida soʻz yasashning affiksial usuli eng keng tarqalgan. Lekin oʻzbek tilidagi dorivor oʻsimliklarning nomlari, asosan, okkasionnal shaklda shakllangan degan xulosaga kelish mumkin. Faqat bir nechta oʻsimliklar nomlari affiksial usul bilan yasaladi: **sachratqi** -qi affiksini qoʻshish orqali yasaladi. Oʻsimlik sutli sharbatga boy, **sachrat** degan maʼnoni anglatadi, ehtimol, oʻsimlikga shunday xususiyati tufayli sachratqi degan nom berilgan. Olcha, qizilcha oʻzbek tilida -cha affiksi bilan bogʻlangan bevosita maʼnoga ega emas. Bunda -cha hosila affiksi emas. Bu soʻzlarni affiksatsiya bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan, har biri oʻziga xos maʼnoga ega boʻlgan alohida leksemalar deb qarash lozim. Olcha – bu soʻz, koʻpincha, “nur” yoki “parchalanish” degan maʼnoni anglatadi. Demak, bu soʻzlarda -cha affiksi hosila qoʻshimchasi vazifasini bajarmaydi. A.Hojiyev taʼkidlaydiki, koʻp soʻzlarda -**cha** qoʻshimchasi shakl yasovchi qoʻshimcha yoki yordamchi soʻz maʼnosini bildiradi, lekin soʻz yasovchi birlik emas [2].

Dorivor oʻsimliklarning tuzilishiga koʻra nomlari oddiy, murakkab, takrorlanuvchi shaklda boʻlishi mumkin [5]. Oʻzbek tilida dorivor oʻsimliklar nomlarining birikmalash yoʻli bilan hosil qilingan bir qancha modellari aniqlangan (qisman va ichki semantik):

Sifat + ot:

Rang+oʻsimlik qismi: *koʻkbosh, sariqgul*.

Rang+rang, boʻyoq, buyum: *qizilboʻyoq, qizilmiya, oqlamiy*.

Ot+ot: *moychechak, tirnoqgul, boʻtakoʻz*.

Hayvon nomi + oʻsimlik qismi: *ituzum, ilonbosh, ayiqtovon, otquloq*.

Oʻsish joyi + oʻsimlik qismi: *toshgul, togʻrayhon*.

Zaharli + oʻsimlik: *bangidevona*.

Xususiyatlari + oʻsimlikning bir qismi: *elimbos, temirtikon, sovunoʻt*.

Oziq-ovqat + oʻsimlik qismi: *suvoʻt*.

Qush + oʻsimlik qismi: *oʻrdaktovon, gʻozpanja*.

Terapevtik taʼsiri: *yarayaproq, qoʻtiroʻt*.

*Buyum+effekt: qurtqoch.*

*Raqam + ot:*

*Son + o'simlik qismi: qirqqo'yoq, mingyaproq, qiriqburun, mingbosh, qirqquloq.*

Ot+ot modeliga ko'ra, shakllangan: zhag-zhag alohida modellari hisoblanib, ularda bitta ma'noni anglatadi.

**Xulosa va takliflar.** Tahlil davomida 5 ta so'z yasalish modeli aniqlandi. Ko'pchilik so'zlar namunaviy ot+ot, undan keyin model sifat+ot, son+ot, ot+sifat, ot+fe'l, fe'l+otga ko'ra yasaladi.

O'zbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlarining ko'pchiligi rang bildiruvchi so'zlarning qo'shilish tamoyili asosida vujudga kelgan, undan keyin hayvon nomlari, o'simliklarning xossalari, o'sgan joyi, zaharliligi, ta'siri, mahsuloti, soni, qushlar nomi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Диссертация, Т., 1955, 15 с.
2. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. Т., “Ўқитувчи”, 1989, 4, 9, 59 с.
3. Хожиматов О.К. Лекарственные растения Узбекистана. Т., “Маънавият”, 2021, 9 с.
4. Холматов Х.Х., Усманходжаев А.Х., Махсумов М.И., Ахмедов У.А. Атлас лекарственных растений Узбекистана.
5. Гуломов А. Ўзбек тилида сўз ясаш йўллари ҳақида. Т., 1949, 15 с.

**Yuldashev Jo'rabek Uralovich (NavDPI katta o'qituvchisi)**

#### **ALLITERATSIYA LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada alliteratsiyaning she'riy matnda muhim fonopoetik usul sifatida nutqning intonatsion ifodaviyligi va ohangdorligini kuchaytirish kabi muhim vazifalarni bajarishi haqida fikr bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *alliteratsiya, she'riy matn, poetik individuallik, ohangdosh tovush, poetik talqin, tovushlar uyg'unligi.*

#### **АЛЛИТЕРАЦИЯ КАК ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО**

**Аннотация.** *В данной статье высказывается мнение об аллитерации как важном фонопоэтическом приеме в поэтическом тексте, таком как усиление интонационной выразительности и мелодичности речи.*

**Ключевые слова:** *аллитерация, поэтический текст, поэтическая индивидуальность, гармоническое звучание, поэтическая интерпретация, гармония звуков.*

#### **ALLITERATION AS A LINGUOPOETIC TOOL**

**Annotation.** *In this article, an opinion is expressed about the performance of alliteration as an important phonopoetic method in the poetic text, such as strengthening the intonation expressiveness and melodiousness of the speech.*

**Key words:** *alliteration, poetic text, poetic individuality, harmonic sound, poetic interpretation, harmony of sounds.*

**Kirish.** Badiiy matnda muayyan poetik maqsad nazarda tutilib, tilning barcha sathlaridagi birliklar takrorlanishi mumkin. Xususan, she'riyatda takror eng ko'p qo'llanadigan poetik vositalardan biridir va u o'z zimmasiga emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasini oladi. Takrorning bir ko'rinishi bo'lgan alliteratsiya she'riy matnda muhim vosita hisoblanadi. Alliteratsiya fonopoetik usul sifatida badiiy nutqning intonatsion ifodaviyligini va ohangdorligini kuchaytiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodoliyasi.** M.Yo'ldoshev alliteratsiya haqidagi mulohazalarini bayon qilar ekan, “badiiy tafakkur ifodasi, bu ifodaning ta'sir quvvatini kuchaytirishda undoshlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning favqulodda o'rni juda qadim zamonlardayoq anglab yetilganini ham alohida qayd etish lozim” ekanligini ta'kidlaydi [1;165-b.].

O'zbek tilshunosligida alliteratsiyaning she'riyatdagi o'rni haqidagi fikrlar ayrim ishlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, A.Shofqorovning “Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining “Mirtemir she'riyatida fonetik takrorlar” nomli I bobida hamda S.Umirovanning “O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik” mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining “Poetik matnda takror usulini qo'llashning prosodik va kompozitsion tamoyillari” nomli II bobida fikr bildirilgan. Shoirlar til birliklarining nafaqat

mazmunan, balki tovush mosligini ta'minlash uchun ham intilishadi va bu yo'lda bir yoki bir-biriga o'xshash tovushlar, bo'g'inlarida ohangdosh tovushlar uchraydigan so'zlarni maxsus qo'llashadi.

**Tahlil va natijalar.** Otashin shoir Usmon Nosir ijodida ham alliteratsiyaning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Shoir "Qon" she'rida shunday yozadi:

*Bizni yorug' yo'llardan*

*Qaytarolmaysan.*

*Qon to'kuv-la*

*Qo'rqitilmaysan,*

*Qon to'kuv-la*

*Kurashni*

*To'xtatilmaysan...*

Vertikal alliteratsiyaning ajoyib namunasi bo'lgan ushbu parchada shoir o'quvchining nafaqat diqqatini jalb qilishni, balki asar mazmunini tovushlar uyg'unligi orqali ham ta'kidlamoqchi bo'lganini ko'ramiz. Ya'ni, Usmon Nosirning ushbu asari asrimizning boshlaridagi fuqarolar urushi davom etayotgan davrni aks ettirib, begunoh birodarining qoni to'kilgan dehqon tilidan aytilayotgan nafratni *q* tovushining takrori orqali beradi va o'quvchida kuchli emotsionallikni qo'zg'atadi. Ijodkor voqea-hodisalarning nazarda tutilgan muhim tomoniga o'quvchi diqqatini tortish uchun yoki ma'lum narsalarni sanab ko'rsatish, uni bo'rttirib tasvirlash niyatida ham she'riy asarlarda ayrim tovushlarni takrorlaydi. Masalan:

*Qo'yarmidik, jindak*

*Bosib o'tsin u,*

*Qo'yarmidik vayron*

*Qilsin Moskvani.*

*Qo'yarmidik, bizning*

*Qonni to'ksin u,*

*Qo'yarmidik omon*

*Qora – mast yovni!* ("Men ham boraman")

Bu she'r parchasida Vatan uchun yovga qarshi turgan lirik qahramon so'zlarida qat'iyat, mardlik bor. Talaffuzda havo oqimining portlab chiqishi natijasida hosil bo'ladigan *q* tovushining ma'nosida keskinlik va qat'iyat ifodasi ham aks etganday bo'ladi.

Shoir she'rlarida *q* tovushini nafaqat vertikal, balki gorizontalliteratsiya holatida ham keltirib, talaffuzdagi uyg'unlik va jozibani ta'minlovchi fonetik vosita sifatida foydalanadi:

*Bunda tarqoq, qo'rqoq qishloqlar;*

*Bir kollektiv qilib bemalol,*

*Batrak, kambag'al va o'rta hol,*

*Ro'zg'orlarni yana boshqatdan*

*Yangi usul bilan quradir.* ("Quyosh bilan suhbat")

V.Mayakovskiy "She'r qanday yoziladi" maqolasida "Men o'zim uchun muhim bo'lgan so'zning yanada ajralib turishi, uning bir ramkada saqlanishi uchun alliteratsiyaga murojaat qilaman" [2;48-b.] deb yozgan edi. Usmon Nosir mazkur she'rida ham *k* undoshining alliterativ qo'llanilishi o'ziga xos jo'shqinlik, she'r mazmuniga mos ko'tarinkilik, kuchli hayajonni ifodalamoqda:

*Lirika!*

*Lirikam,*

*O'yna ko'lkalan,*

*Ko'lkalan yurakning*

*Pokiza nayi!*

*Sen uchun,*

*Sen uchun,*

*Buyuk o'lkadan*

*Safarbar etilib*

*Keldim atayi.* ("Lirika")

Matn ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilish alliteratsiyaning asosiy vazifasi bo'lsa, ifodaning ta'sirchanligini oshirish navbatdagi vazifasidir.[2.49] Shoirning "Salom, kunduz" she'ridan olingan quyida keltirilgan she'riy parchada *s* undoshi boshqa undoshlarga qaraganda ko'p takrorlangan va, asosan, "a", qisman *e* unililari bilan *sa-sa-sa-se* shaklida qaytarilgan:

*Oq tanli parining*

*Momiq qo'llari  
Anor suvin to'kdi  
Samo bo'yidan:  
Salom kunduz, salom,  
Salom parig'um,  
Sening toza nuring  
Ko'zimga singgan,*

Tovushlarning takrorlanishi, umuman, takror yordamida lirik qahramon ichki dunyosi ochib berilishiga, obrazlarning poetik talqiniga yo'l ochiladi. Usmon Nosirning "Norbo'ta" dostonidan olingan quyidagi parchada sonor tovushlar uyg'unligi vositasida doston qahramonining el-yurt, vatan oldidagi burchi, ichgan qasamiga sadoqati ajoyib ifodalangan va o'quvchi ongida tez muhrlanadi:

*Unutsam men,  
Otam-onamni,  
Unutsam men,  
Hatto umrimni,  
Unutmas men  
Shonli postimni!*

M.Hakimov va V.Jabborovlarning "Poetik nutqda tovushlarning xoslanishiga doir" nomli maqolasida *r, n, l, m* undoshlari va *o* unlisini haqli ravishda poetik tovushlar deb hisoblash mumkin" [3.77]. Darhaqiqat, o'zbek tilidagi matnlarda sonor tovushdagi ovoz yon undosh tovushga ham ma'lum miqdorda ta'sir qiladi va shu so'zning poetiklashishi, uning jozibadorligi, musiqiylikini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Quyidagi parchada aynan sonorlar alliteratsiyasini ko'rishimiz mumkin:

*Bag'ring chaman ochgan:  
Qadamlar yetgan  
Yongan yulduzlaring,  
Ochilgan chehrang,  
Bitgan alamlaring,  
G'amlaring ketgan  
So'lgan yuzlaringga  
Kirgan qizilrang. ("Senikimi shu bo'y")*

Alliteratsiya ahamiyat berilishi lozim bo'lgan so'zlarga kishi diqqatini tortadi, uni o'ziga xos shaklda talaffuz qilishga undaydi. Bu usulda yaratilgan she'rlarning so'z shakli ularni esda tez va uzoq saqlanib qolish imkonini beradi [4;16-b.].

*Hosil bilan dunyo  
Rekordin berdi. ("Men ham boraman")*  
1) *k* undoshining takrori:  
*Kasofati ruhimni quvay  
Ko'z yoshim-la peshonamdagi  
Ko'k otashin izlarin yuvay.  
Qo'y, bu dunyo tinch va voqifsiz ("Demon")*  
2) *h* undoshi takrorlanadi:  
*Kun o'tkazish – qanday og'ir ish!  
Ham achinish, ham achinmaslik  
Har narsani anglash va sezish,  
Hech narsani ko'zga ilmaslik,  
Hammasidan tahqir-la bezish! ("Demon")*

**Xulosa va takliflar.** Umuman, Usmon Nosir o'z she'riyatida alliteratsiyadan unumli foydalanib, turli shakllarni yuzaga keltirgan va ularning har biriga poetik vazifa yuklay olgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Юлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Тошкент, "O'zbekiston", 2019, 165-bet.
- (2). Умирова С. Ўзбек шеърлятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик. Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс., Самарқанд, 2019.
- (3). Ҳакимов М., Жабборов В. Поэтик нутқда товущларнинг хосланишига доир. "Ўзбек тили ва адабиёти", Тошкент, 2006, 4-сон, 77–84-бетлар.

(4). Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Филол.фан.номз ... дисс.автореф., Тошкент, 1997.

**Adambayeva Feruza Rustambekovna (TATU Urganch filiali “O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar”  
kafedrasida katta o‘qituvchisi; feruza.adambaeva@mail.ru)  
BIOTEKNOLOGIYA TERMINOLOGIYASIDA ANTONIMLAR**

**Annotatsiya.** *Maqola biotexnologiya terminologiyasidagi antonimiya hodisasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotlarda faktik materialni tavsiflash, semantik tahlil qilish va termin-antonimlar turlarining tarqalishini miqdoriy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida biotexnologiya terminologiyasida antonimiyaning leksik va so‘z yasash turlariga misollar aniqlandi, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalash uchun zid ma‘noli prefikslar qo‘llanilishi keng tarqalganligi kuzatildi. Biotexnologiya sohasidagi antonim atamalarining tasnifi tuzildi.*

**Kalit so‘zlar:** *termin, terminologiya, biotexnologiya, terminologiyadagi antonimlar, antonimik munosabatlar, kontrar va komplementar antonimlar.*

**Адамбаева Феруза Рустамбековна (старший преподаватель кафедры «Узбекский язык и социальные науки», Ургенчский филиал ТУИТ; feruza.adambaeva@mail.ru)**

**АНТОНИМЫ В БИОТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ**

**Аннотация.** *Статья посвящена исследованию явления антонимии в биотехнологической терминологии. В исследовании использовались методы описания фактического материала, семантического анализа и количественного анализа распределения типов терминов-антонимов. В результате исследования выявлены примеры лексического и словообразовательного типов антонимии в биотехнологической терминологии, отмечено, что для выражения противоположных понятий широко используются префиксы с противоположным значением. Произведена классификация антонимов в области биотехнологии.*

**Ключевые слова:** *термин, терминология, биотехнология, антонимы в терминологии, антонимические отношения, контрарные и комплементарные антонимы.*

**Adambaeva Feruza Rustambekovna (senior teacher of the department “Uzbek language and social sciences”, Urgench branch of TUIT, feruza.adambaeva@mail.ru)**

**ANTONYMS IN BIOTECHNOLOGY TERMINOLOGY**

**Annotation.** *The article is dedicated to the study of the phenomenon of antonymy in biotechnology terminology. The research used the methods of description of factual material, semantic analysis and quantitative analysis of distribution of term-antonym types. As a result of the research, examples of lexical and word formation types of antonymy in biotechnology terminology were identified, it was observed that prefixes with opposite meanings are widely used to express opposite concepts. A classification of antonyms in the field of biotechnology was made.*

**Key words:** *term, terminology, biotechnology, antonyms in terminology, antonymic relations, opposite and complementary antonyms.*

**Kirish.** Har qanday bilim sohasi mutaxassisi tilidagi antonimlar mazmundagi qarama-qarshi ma‘noni ochibgina qolmay, balki tushunchalarning shakllanishida ham katta rol o‘ynaydi. Terminologiyada antonimiya muntazam va zaruriy vosita bo‘lib, uning yordami bilan atamalar mazmunidagi qarama-qarshilik ifodalanaadi. Tildagi antonimik munosabatlar qarama-qarshi sifat, miqdor, fazoviy va vaqt xususiyatlariga ega bo‘lgan narsalar, hodisalar, harakatlar, belgilarning voqelikning o‘zida va inson bilishi nuqtayi nazaridan mavjudligini aks ettiradi. Bu munosabatlar antonimlarning ma‘nolarida sifat yoki miqdor o‘zgarishlarining o‘ziga xos ko‘lami, o‘ta teskarisiga o‘tish bilan tavsiflanadigan xususiyatlar mavjudligi bilan bog‘liq.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Qarama-qarshilik tushunchasini birinchi bo‘lib antik davrda Aristotel mantiqda shakllantirgan [1]. Qarama-qarshilik munosabati bilan bog‘langan va bu qarama-qarshiliklarni o‘z ma‘nosida ifodalovchi so‘zlar antonimlar deyiladi. Tilning lug‘at tarkibi – real olamning leksik ob‘ektlari va hodisalarini, ularning munosabatlarini aks ettiruvchi birliklar yig‘indisidir. Real olamning predmet va hodisalari orasida mavjud munosabatlar turlaridan biri qarama-qarshilik munosabatidir. Bunday hodisalarni nomlash, tushunchalarning qarama-qarshiligini ifodalash uchun antonimlar qo‘llaniladi. Bundan tashqari, nutqning ekspressivligini oshirish uchun antonimlardan ham foydalanish mumkin [2]. Antonimiya hodisasi tilshunoslarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Antonimiyaning umumiy xususiyati “antonimik juftlik a’zolaridan birining talqinida haddan tashqari inkorning mavjudligi”. B.M.Golovinning so‘zlariga ko‘ra, antonimlarning shakllanishi inson tafakkurida voqelikning qutbli qarama-qarshi hodisalarini aks ettirish bilan bog‘liq [3]. Tilshunoslarning antonimiya haqidagi fikrlari bir xil emas. Ularning



aksariyati unga ta'rif berishda qarama-qarshilik tushunchasini, antonimlarda falsafiy, mantiqiy va lingvistik mazmunning mavjudligini ilgari suradilar. L.A.Novikovning fikricha, antonimiya turlicha tushunilishiga qaramay, tadqiqotchilar doimo bir masalada kelishib kelishgan: antonimiya tildagi qarama-qarshilikning ifodasidir [4]. D.E.Rozental va M.A.Telenkova "Lingvistik atamalar lug'ati"da antonimlarni qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlar, antonimiya hodisasini esa qarama-qarshilik deb tariflagan [5]. O.S.Axmanova o'zining "Lingvistik atamalar lug'ati"da "Antonimlar – o'z ma'nosida sifat xususiyatiga ega bo'lgan va shuning uchun ma'no jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlardir" deb ta'rif bergan [6]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa "Antonimlar qarama-qarshi, zid ma'noli til (nutq) birliklari" deya ta'riflangan [7]. Qarama-qarshi, zid ma'noni bildirgan so'zlar biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi [8].

Antonimlar – bir so'z turkumiga tegishli qarama-qarshi ma'noli so'zlar bo'lsa, terminologik antonimiya – qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan ilmiy yoki texnik tushunchalar bilan bog'liq. Terminologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, terminologik antonimiya terminologik lug'atda ancha keng tarqalgan.

Ba'zi tilshunos olimlar e'tirof etganidek, "antonimiya umumadabiy tilga qaraganda fan tilining lug'at tarkibiga ko'proq xosdir" [3]. Sababi ilmiy terminologiyada paydo bo'ladigan tushunchalar ko'pincha o'zlarining antonimik juftligiga ega, chunki ko'pchilik hodisalar o'zaro qarama-qarshiligi bilan tavsiflanadi va ko'pchilik jarayonlar esa teskari qaytar jarayonlarga ega (birikish-parchalanish; adsorbsiya-desorbsiya; hidrogenlash-degidrogenlash; karbonizatsiya-dekarbonizatsiya va h.k.).

Antonimiya hodisasining biotexnologiya terminologiyasidagi o'rni yetarlicha yoritilmagan. Biotexnologiya murakkab hodisa bo'lganligi sababli XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan biotexnologiya atamasi XXI asr boshlariga kelib o'nlab bo'lim va yo'nalishlarni birlashtirgan murakkab integrativ yirik fanga aylandi. U kimyo, biologiya, kimyoviy texnologiya, tibbiyot, genetika, ekologiya, texnologiya, bioetika, falsafa, sotsiologiya, psixologiya va huquqshunoslik kabi turdosh fanlar terminologiyasidan olingan atamalardan foydalanish bilan tavsiflanadi [9]. Shuning uchun biotexnologiya terminologiyasini, xususan, undagi antonimik munosabatlarni o'rganish uning tartiblanishiga yordam berishi bilan ham dolzarbdir.

Biz o'rganayotgan bilim sohasi, biotexnologiya bo'yicha to'plangan faktik materiallarni bir tizimga keltirar ekanmiz, bu ilmiy soha terminlarining mazmuniy tomoni umumiy adabiy til so'zlari kabi universal xususiyatga ega, degan xulosaga keldik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Biotexnologiya terminologiyasidagi antonimik munosabatlarni tahlil qilishda, maxsus nomlarni tizimlashtirish-tavsiflash, atamalarning semantik xususiyatlarini o'rganishda defintion tahlil, antonim atamalarning tahlil qilinayotgan turlarining tarqalishini miqdoriy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, atama o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan birlikdir. Shaklga ko'ra, aksariyat atamalar umumiy adabiy lug'atdan shakl jihatidan farq qilmaydi, balki atama va umumiy adabiy lug'at o'rtasidagi asosiy farq mazmunidadir. Shunday qilib, umumiy adabiy tilning lug'ati hammaga ma'lum, tushunarli obyekt bilan, atama esa ma'lum bir maxsus bilim sohasidagi obyekt bilan bog'liq. Atamalardagi e'tibor berish kerak bo'lgan yana bir xususiyat – bu tizimlilik. Tizimlilik umumiy adabiy lug'atdan ko'ra ko'proq atamalarga xosdir. Terminologiyada so'zlar ma'lum bir fan sohasi taksonomiyasiga muvofiq guruhlanadi. Terminologik leksemalarning leksik ma'nolarida zidlanuvchi ma'no munosabati mavjud bo'lsagina, antonimiya voqe bo'ladi [10].

Antonimik munosabatlar bilan bog'langan atamalar terminologik sohaning qarama-qarshi qutbli elementlarini ifodalaydi va bir xil umumiy muvofiqlikka ega. Masalan, biotexnologiyaga oid antonimik munosabatlarda bo'lgan *biotic stress* va *abiotic stress* atmalari uchun stress atamasi umumiy atamadir. Biotexnologiya terminologik tizimida tushunchada ifodalangan qarama-qarshilik turiga qarab, biz antonimlarning quyidagi semantik guruhlarini aniqladik:

**a) biologik jarayonlar doirasidagi qarama-qarshi harakatlar yoki funksiyalarni ifodalovchi antonimlar: Activation – Inhibition.** Yuqorida aytib o'tilganidek, aktivatsiya gen yoki oqsil funksiyasini ishga tushish jarayonini anglatadi, ingibitsiya esa uning to'xtatilishini anglatadi. **Upregulation – Downregulation.** Bu atamalar mos ravishda gen yoki oqsil ekspressiyasining ko'payishi va kamayishini anglatadi. **Agonist – Antagonist.** Agonistlar va antagonistlar bir xil retseptor bilan o'zaro ta'sirga kirishadi, ammo agonistlar signalizatsiya yo'lini faollashtiradi, antagonistlar esa uning ta'sirini bloklaydi. **Exocytosis – Endocytosis.** Ekzotsitoz hujayra membranasi bilan pufakchalarni birlashtirib, hujayradan molekulalar yoki materiallarni chiqarishni o'z ichiga oladi. Endotsitoz deganda hujayra membranasi bilan pufakchalar hosil qilish orqali molekula yoki materiallarning hujayra ichiga singishi tushuniladi;

**b) molekular yoki genetik elementlarning qarama-qarshi joylashuvi yoki konfiguratsiyasini tavsiflovchi antonimlar: Cis vs. Trans.** Bu atamalar irsiy elementlarning xromosomalarda joylashishini tavsiflaydi. **Cis** bir xil xromosomada joylashgan elementlarga, **trans** esa turli xromosomalardagi elementlarni ifodalaydi. **Extracellular – Intracellular.** Extracellular hujayra tashqarisidagi joyni anglatadi, intracellular hujayra ichidagi joyni anglatadi;

**d) biologik jarayonlarning qarama-qarshi ta'siri yoki natijalarini ifodalovchi antonimlar: Proliferation – Apoptosis.** Proliferatsiya hujayra o'sishi va bo'linishini anglatadi, apoptoz esa dasturlashtirilgan hujayra o'limini bildiradi. **Pathogenesis – Immunity.** Patogenez: kasallik qo'zg'atuvchisi (patogen) organizmda kasallikning rivojlanishiga olib keladigan jarayonni bildiradi. Immunitet atamasi esa organismning patogenlar tomonidan infeksiyaga qarshi turish va uni yengish qobiliyatini anglatadi;

**e) tizim yoki jarayon ichidagi bir-birini to'ldiruvchi yoki qarama-qarshi rollarni tavsiflaydi: Substrate – Product.** Substrat bu ferment tomonidan ta'sir o'tkazilgan molekula, mahsulot esa reaksiyadan keyin hosil bo'lgan molekula. **Donor – Acceptor.** Bu atamalar reaksiya davomida elektron yoki boshqa kimyoviy guruhlarni beruvchi yoki oluvchi molekularni tavsiflaydi.

Antonimlarning har bir juftida qarama-qarshilik ma'lum bir asosda amalga oshiriladi. Biotexnologiya terminologiyasida uchraydigan antonim atamalar orasida qarama-qarshi tushunchalar uchun quyidagi asoslarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) joylashuvi bo'yicha: intracellular-extracellular, in vivo-in vitro, nuclear-cytoplasmic;
- 2) miqdori bo'yicha: monogenic-multigenic, monozygotic twins-dizygotic twins, haploid cell-diploid cell;
- 3) funksiyasi bo'yicha: activation-inactivation, aggregation-disaggregation, analysis-synthesis, anabolism-catabolism;
- 4) belgi-xususiyati bo'yicha: Hydrophilic-Hydrophobic, Acidic-Basic, free water-bound water;
- 5) tarkibi bo'yicha: Saturated fatty acid-unsaturated fatty acid, Globular protein-fibrous protein;
- 6) o'lchami bo'yicha: micromolecule-macromolecule, microspore-macrospore. Shuni esda tutish kerakki, bu tasniflar bir-birini istisno qilmaydi. Ba'zi antonimlar muayyan kontekstga qarab bir nechta toifalarga kirishi mumkin. Bundan tashqari, biotexnologiya sohasi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi kashfiyotlar va tushunchalar asosida yangi antonimik munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, biotexnologiyaning terminologik tizimida antonimik juft atamalar asosan ikki usulda hosil bo'ladi:

- 1) leksik usul orqali: ligation-cleavage, paternal-maternal, promoter-terminator, wild type-mutant, silencer-enhancer;
- 2) so'z yasash orqali so'z yasalishi biotexnologiya terminologiyasida antonimlarning hosil bo'lishining asosiy manbai hisoblanadi. Bunda prefikslar asosiy o'rin egallaydi. Quyida biotexnologiya terminologiyasida antonimlarni yasashda eng mahsuldor prefikslar keltirilgan.

*1-jadval*

**Antonimlarni yasashda eng mahsuldor prefikslar**

Prefix	Meaning	Examples	Antonym
<b>a-, an-</b>	Without, not	asepsis, aerobic	sepsis, anaerobic
<b>anti-</b>	Against, opposite of	antibody, antioxidant	pro-body, pro-oxidant
<b>de-</b>	Remove, reverse	denature, dephosphorylation	renaturation, phosphorylation
<b>dis-</b>	Opposite of, not	disassembly, disaggregation	assembly, aggregation
<b>hyper-</b>	Excessive, above normal	hyperglycemia, hypertension	hypoglycemia, hypotension
<b>hypo-</b>	Deficient, below normal	hypoglycemia, hypotension	hyperglycemia, hypertension
<b>in-</b>	Not, within	inactive, intracellular	active, extracellular
<b>inter-</b>	Between	intercellular, interphase	intracellular, intraphase
<b>non-</b>	Not	non-essential, non-coding	essential, coding
<b>over-</b>	Excessive	overproduction, overexpression	underproduction, underexpression

<b>trans-</b>	Across, through	translocation, transgene	cislocation, endogenous gene
---------------	-----------------	--------------------------	------------------------------

Suffikslar yordamida yasalgan antonimik juftliklar prefikslarga qaraganda nisbatan kamchilikni tashkil qiladi (2-jadval).

2-jadval

**Suffikslar yordamida yasalgan antonimik juftliklar**

Suffix	Meaning	Examples	Antonym
<b>-phile</b>	Liking or preferring	thermophile (heat-loving), acidophile (acid-loving)	thermophobe (heat-hating), acidophobe (acid-fearing)
<b>-phobe</b>	Disliking or fearing	hydrophobe (water-fearing), xenophobe (foreigner-fearing)	hydrophile (water-loving), xenophile (foreigner-loving)
<b>-ful</b>	indicating an abundance or presence of something	Colourful,	Colourless,
<b>-less</b>	Without	harmless	Harmful

L.A.Novikov antonimlar qarama-qarshi va o‘zaro bog‘langan munosabatlarni ifodalovchi juft va hat-to leksik birliklarning mikrosistemalarini tashkil etishiga e‘tibor qaratdi [4]. Izohlangan qarama-qarshilik turiga ko‘ra, biotexnologiya terminologiyasida kontrar va komplementar qarama-qarshiliklarni ifodalovchi antonimlar mavjud.

Kontrar antonimlar, ikkita qutbli qarama-qarshi atamalarga qo‘shimcha ravishda, ular orasida oraliq tushunchalar, ya‘ni, biror belgining o‘rta darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatuvchi tushunchalar borligi bilan izohlanadi. R.Shukurovning fikriga ko‘ra so‘zlarning antonimligini ko‘rsatuvchi belgilardan biri antonimik juftlik hosil qiluvchi komponentlar orasida oraliq tushunchalarning mavjud bo‘lishidir [11]. Masalan: monoploid cell-polyploid cell antonimlar juftligi diploid cell, triploid cell kabi oraliq tushunchalarga ega. Annual plant-perennial plant juftligi esa biennial plant oraliq tushunchasiga ega.

Taqdim etilgan misollar antonimiyaning kontrar turi belgi xususiyat orqali hosil bo‘lishini tasdiqlaydi, ular tartiblangan to‘planning eng chekka simmetrik elementlari o‘rtasida darajali oppozitsiya, shu jumladan, o‘rta, oraliq tur tushunchalari mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu yerda “haqiqiy antonimiya eng chekkadagi simmetrik a‘zolar bilan ifodalanadi, o‘rtadagilar esa belgi darajasining ortishi (yoki pasayishi)-ni bildiradi” [4]. Biotexnologiya terminologiyasida antonimik juftliklar, asosan, komplementar antonimik munosabatlarni ifodalaydi (umumiy tanlanmadagi ulushi 69,4%), ular qarama-qarshi tur tushunchalari o‘rtasida oraliq tushunchalarning yo‘qligi bilan tavsiflanadi.

Biotexnologiya sohasining antonimik atamaları tarkibiy xususiyatlariga ko‘ra turli o‘zakli (24,7%) va bir o‘zakli (75,4%) atamalarga bo‘linadi. Turli xil o‘zaklarga ega bo‘lgan antonimlarga quyidagi juftliklar misol bo‘ladi: necrosis-apoptosis, oxidation-reduction, donor-acceptor. Bir o‘zakli, antonimlik ma‘nosi o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan, bir o‘zakga qo‘shilgan so‘z yasaliş vositalari yordamida ifodalanadi, masalan: aerobe-anaerobe, oxidant-antioxidant, mobilization-immobilization.

Biotexnologiya terminologiyasida bir o‘zakli antonimlar doirasida quyidagi turlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) antonimiyani prefikslar yordamida yasalgan juftliklar;
- 2) qarama-qarshi ma‘noli o‘zaklar yordamida tuzilgan qo‘shma so‘zlarning antonim juftlari: upstream - downstream, upregulation – downregulation.

Biotexnologiya terminologiyasi tizimidagi antonimik birliklar tarkibiy qismlar soniga ko‘ra farqlanadi:

- 1) bir komponentli: substrate-product;
- 2) ikki komponentli: monovalent vaccine-polyvalent vaccine;
- 3) uch komponentli: open continuous culture-closed continuous culture;
- 4) ko‘p komponentli: ex situ conservation of farm animal genetic diversity-in situ conservation of farm animal genetic diversity.

Ingliz tilida biotexnologiya terminologiyasida ko‘p komponentli atamalar, asosan, so‘z birikmasi shaklida uchraydi:

- 1) Adj+Noun (sifat +ot): passive immunity-active immunity;
- 2) Noun+Noun (ot+ot): initiation codon-termination codon;

- 3) Noun+Preposition+Noun (ot+predlog+ot): breed at risk-breed not at risk;
- 4) Adj+Noun+Noun (sifat+ot+ot): gametic phase equilibrium-gametic phase disequilibrium;
- 5) Adj+Adj+Noun (sifat+sifat+ot): open continuous culture-closed continuous culture.

Demak, biotexnologik terminologiyada antonimiya umumiy adabiy tilga qaraganda deyarli kengroq ifodalangan. Bu holat fanda qarama-qarshi tushunchalarning haqiqatda mavjudligi, tushunchalarning qarama-qarshiligi esa obyektlarni ilmiy tushunishning elementi ekanligi bilan izohlanadi.

**Xulosa.** Antonimiya hodisasiga oid masalani maxsus terminologiyada o'rganar ekanmiz, biz, boshqa ko'plab tilshunos olimlar singari, terminologiyadagi antonimiya nafaqat muqarrar, balki zaruriy hodisa, degan xulosaga keldik. Binobarin, u olimlar tomonidan terminologik tizimni tartibga solishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgani juda o'rinli. Shuningdek, biz aytishimiz mumkinki, terminologiyadagi antonimiya umumiy adabiy tildagi antonimiyadan unchalik farq qilmaydi va buning isboti sifatida antonimik terminlar qarama-qarshi ma'noli leksik birliklardir. Strukturaviy belgilar asosida biotexnologiya terminologiyasidagi bir o'zakli va har xil o'zakli antonimik terminlar aniqlandi. Bir o'zakli antonimik juftliklar qarama-qarshi ma'noli prefikslar yordamida yasaladi. Biotexnologiya terminologiyasida antonimlar quyidagi qarama-qarshilik belgilari bilan ajralib turadi: joylashuvi bo'yicha, miqdori bo'yicha, funksiyasi bo'yicha, belgi-xususiyati bo'yicha, tarkibi bo'yicha, o'lehami bo'yicha. Komponentlar soniga ko'ra antonimik birliklar bir komponentli, ikki komponentli, uch komponentli va ko'p komponentli larga bo'linadi. Tadqiqot natijalari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, leksikografik faoliyatda, terminologiya fanlarini o'qitishda va biotexnologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash kurslarida foydalanish mumkin. Terminlarning antonimiyasi nafaqat ma'lumotlar almashinuvini osonlashtiradi, shuningdek, terminologiya-ning izchilligini saqlaydi, o'z navbatida, atamaning kommunikativ funksiyasini amalga oshirishiga yordam beradi. Antonimik munosabatlarning mavjudligi o'rganilayotgan terminologiya tushunchalari o'rtasidagi bog'lanishlarning tizimlilikini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Багана Ж., Величкова С.М. Антонимия в медицинской терминологии. Научная мысль Кавказа. 2012, №2, с. 180–182.
- (2). Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., “Высшая школа”, 1973, 320 с.
- (3). Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. М., “Наука”, 1977, 246 с.
- (4). Новиков Л.А. Семантика русского языка. М., “Высш. шк.”, 1982, 272 с.
- (5) Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь справочник лингвистических терминов. М., ООО “Астрель”, “АСТ”, 2001, 624 с.
- (6). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., “Сов. энциклопедия”, 1969, 608 с.
- (7). O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev va D.Xudayberganova tahriri ostida, 2022.
- (8). Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, “O'qituvchi”, 1984, с. 232.
- (9). Adambaeva F.R. Biotexnologiyaga oid terminlarni o'rganishning zaruriyati. “UzMU chabarlari”, Toshkent, 2022, 1/11, .с. 251–254.
- (10). Kadirbekova D. Inglizcha-o'zbekcha axborot-kommunikasiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari. Filol.fan. bo'yicha fals. dok. diss., Toshkent, 2017.
- (11). Shukurov R. O'zbek tilida antonimlar. Toshkent, «Fan», 1977.

**Bayjanova Oqila Iskandarovna (Alfraganus universiteti o'qituvchisi; [oqilabayjanova89@gmail.com](mailto:oqilabayjanova89@gmail.com))**  
**INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATLAR NUTQINING QIYOSIY TAHLILI**

**Annotatsiya.** Samarali muloqot qilish (og'zaki va yozma) nutq uchun chet tilini bilish, uning so'z boyligi, grammatika va stilistik qoidalarni o'rganish xalqaro muzokaralarni muvaffaqiyatli olib borish va kerakli natijalarga erishish uchun yetarli emas. Siyosatda nutqning muayyan shakllarini yozma va og'zaki yetkazishda ba'zan chalkashliklar kelib chiqadi va muloqotga xalaqit beradi. Turli mamlakatlar, etnik guruhlar va xalqlar vakillari o'zaro muloqotda bo'lganida ham xuddi shunday muammo yuzaga keladi. Madaniy, etnik va diniy nizolarni hal qilish va oldini olish zarurati butun dunyo bo'ylab ko'plab hukumatlarni boshqa davlatga aloqa xabarlarini yuborishdan oldin mamlakat madaniyati, urf-odatlarini va tarixini o'rganish bo'yicha majburiy kurslarni joriy etishga olib keldi. Bu esa har ikkala davlatning lingvomadaniy xususiyatlarini o'xshash va farqli jihatlarini o'rganishga undaydi.

**Kalit so'zlar:** diplomatik nutq, nutqning o'xshash jihatlarini, nutqning farqli jihatlarini, mutq madaniyati.

Байжанова Окила Искандаровна (преподаватель, Алфраганус университет;  
[oqilabayjanova89@gmail.com](mailto:oqilabayjanova89@gmail.com))

### СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕЧИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ДИПЛОМАТОВ

*Аннотация.* Знать иностранный язык для эффективного общения (устного и письменного), изучать его словарный запас, грамматику и стилистические правила недостаточно для успешного ведения международных переговоров и достижения желаемых результатов. В политике отдельные формы речи, письменной и устной, иногда путаются и мешают общению. Та же проблема возникает при общении между собой представителей разных стран, этнических групп и народов. Необходимость разрешения и предотвращения культурных, этнических и религиозных конфликтов побудила правительства многих стран мира ввести обязательные курсы по культуре, обычаям и истории страны, прежде чем отправлять сообщения в другую страну. Это побуждает нас изучать сходные и разные аспекты языковых и культурных особенностей обеих стран.

Ключевые слова: дипломатическая речь, сходные стороны речи, разные стороны речи, культура речи.

Bayjanova Okila Iskandarovna (Teacher, Alfraganus University; [oqilabayjanova89@gmail.com](mailto:oqilabayjanova89@gmail.com))

### COMPARATIVE ANALYSIS OF THE SPEECH OF ENGLISH AND UZBEKI DIPLOMATES

*Annotation.* Knowing a foreign language for effective communication (oral and written), studying its vocabulary, grammar and stylistic rules is not enough to successfully conduct international negotiations and achieve the desired results. In politics, separate forms of speech, written and oral, sometimes become confused and interfere with communication. The same problem arises when representatives of different countries, ethnic groups and peoples communicate with each other. The need to resolve and prevent cultural, ethnic and religious conflicts has led many governments around the world to introduce mandatory courses on a country's culture, customs and history before sending messages to another country. This encourages us to study similar and different aspects of the linguistic and cultural characteristics of both countries.

**Key words:** Diplomatic speech, similar aspects of speech, different aspects of speech, speech culture.

Kirish. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqida so'z yuritar ekanmiz, unga bog'ishlangan ilmiy ishlar hajmining ortib borayotganligini ta'kidlash joiz. Xususan, N.D.Arutyunova tadqiqoti turli xil davr va xalqlarga tegishli matnlardan saralab olingan madaniyatga xos universal terminlarni o'rganishga yo'naltirilgan [1;750-b.]. Lingvomadaniyatning vujudga kelishi falsafa hamda tilshunoslikka oid nazariyalarning rivojlanishi natijasidir. "Lingvomadaniyat – omma madaniyatining tilda o'rganiladigan soha bo'lib, madaniyatning tilda aks etadigan ko'rinishlarini o'rganib chiqadi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat hodisasi sifatida o'rganadi. Bu olamni milliy til orqali ko'rish demakdir. Bunda til o'ziga xos milliy-ma'naviy hamda xalq mentalitetining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi" [2;8–9-b.].

Har bir halqning o'z madaniyati, tili, tarixi va dini mavjud. Shuning barobarida barcha xalqlarning milliy o'ziga xosligi boshqa millatlardan ajralib turadi. Bunda, shubhasiz, uning tili ham madaniyatining bir komponenti sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, til ham madaniyatining ajralmas bir bo'lagi sifatida kommunikatsiya jarayonida milliy madaniyatni namoyon etadi. Shu sababdan tilshunoslikda til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi millatning o'ziga xos urf-odat, an'analari, madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan nutqni normaga solish hamda me'yorlariga rioya qilinishi muammolariga e'tibor qaratib kelingan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** V.A.Maslova ham til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni "til bu madaniyatning omili" deya ta'riflaydi. Uning fikricha, bu ikki komponent quyidagicha bog'lanadi: 1) til biz avlodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning asosiy qismidir; 2) til vositasida madaniyatni o'zlashtiramiz; 3) til – madaniyat, fan, adabiyot, dinning mohiyatini tushunish vositasidir [3;62-b.].

Lingvomadaniyatshunoslikning bevosita matn bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. Aytish kerakki, tilning milliy o'ziga xosligi muammosini inson dunyoqarashi bilan aloqada mantiqiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish milliy til – xalq tafakkuri muammosini nazariy jihatdan o'rganishga yordam beradi.

Hozirgi zamon olimlarining ko'pgina ilmiy ishlarida til va madaniyat masalalari alohida o'rin tutadi. Dunyo muammolarining jadal globallashuvi, madaniyatlararo idrok etish va anglash zarurati, muloqot asosidagi madaniy qadriyatlarni aniqlash va to'g'ri ko'rsatishning ahamiyati va h.k. Krasnyxning ta'kidlashicha, lingvokulturologiya til va nutqda madaniyatning namoyon bo'lishi va mustahkamlanishini o'rganadigan fan bo'lib, olamning milliy manzarasini, lingvistik ongini kompleks o'rganish bilan bog'liq [4;284-b.]. V.V.Vorobyovning so'zlariga ko'ra, bu madaniyat va tilning o'zaro ta'sirini o'rganadigan murakkab

ilmiy fan bo'lib, bu jarayonni zamonaviy ustuvorliklar, me'yorlar va umuminsoniy qadriyatlar tizimi, madaniy munosabatlar kabi yaxlit tuzilma sifatida aks ettiradi [5;331-b.].

Diplomatik va tashqi siyosat aloqalari turli madaniyatlar va ularning vakillari bo'lgan odamlar bilan doimiy muloqot natijasida yuzaga keladi. Shu bois shaxslararo muloqot inson faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, samarali munosabat, konstruktiv muloqot kundalik hayotda ham, xalqaro maydonda ham muvaffaqiyat kalitidir. Jahon miqyosida kechayotgan voqea-hodisalarga munosabat bildirishda ziddiyatli vaziyatlardan cheklanish lozim. Qarama-qarshi, murosasiz muloqot bilan ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi, Tegishli nutq harakatlari ham to'liq huquqiy aloqani ta'minlay olmaydi. Shu bilan birga, odamlar ko'pincha ataylab mojaroga kirishadilar va uni muammolarni hal qilishning samarali usuli sifatida ko'radilar. Ko'pincha bunday psixologik munosabatlar nutq vositalari bilan hal qilinadi, shuning uchun og'zaki tajovuzni lisoniy shaxs ongidagi murakkab jarayonlarning izohi sifatida o'rganish juda dolzarb ko'rinadi va o'zaro ta'sir jarayonida u yoki bu tarzda yuzaga keladigan ko'plab o'ziga xos muammolarni hal qilishga qaratilgan. Turli madaniyatlarga mansub shaxslarning muloqot dialogi turlicha qarashlar, yondashuvlar va madaniyat belgilarida namoyon bo'ladi.

Shaxsning nutqiy xulq-atvorini tahlil qilishda uning o'zini-o'zi boshqara olishi, nutqida xushmuomalalik, to'g'rilikning mavjudligi, albatta, qaysi millat vakili bo'lishiga bevosita bog'liqdir. Masalan, inglizlar o'z nutqida aniqlikka va faktlarga tayanadi, nemislarda esa bu xususiyat qat'iyatlilik bilan belgilanadi. O'zbeklar esa, hatto notanish insonlar bilan ham tavoze bilan muloqotga kirishadi. Darvoqe, muloqotning ta'sirchanligi boshqa odamning muammolariga munosabat bildirish olish hamda shaxsiy va hissiy holatlarni obyektiv baholash qobiliyatiga ham bog'liqdir. Ba'zan ayrim nutqlarda his-hayajonning yetishmasligi muloqot sur'atini sekinlashtirishga olib keladi, intonatsiyalar bir tekis bo'ladi, ibora oxirida monoton, aniq belgilangan pauzalar paydo bo'ladi va ovoz tarangligining o'zgarishi sodir bo'ladi. Suhbatda bag'rikenglik ifodasi bayonotlarning to'g'riligini, ayniqsa baholovchi xususiyatni va muloqotga kirishuvchining o'z fikriga bo'lgan huquqini tan olishni nazarda tutadigan zaruriy sifatga ega bo'lishi lozim. Nutq etiketida tajovuzkorlikning oldini olishga qaratilgan o'ziga xos vositalar ham mavjud. Ular orasida uzr so'rash, rag'batlantirish, xushmuomalalik bilan murojaat qilish, maqtov ham bor. Nutqning beozorligi va tajovuzkorligini yo'q qilish vositalari orasida qo'pol yoki hissiyotli iboralar o'rniga evfemizmlar alohida o'rin tutadi. Evfemizmlardan foydalanish matndagi salbiy "yuk"ni sezilarli darajada yumshatadi, garchi diplomatik yoki siyosiy muloqotning aksariyat holatlarida ulardan foydalanish mumkin emas.

Ingliz va o'zbek xalqlarining kommunikativ xulq-atvorining xususiyatlarini hisobga olish madaniyatlarining asosiy differensial ko'rinishlariga asoslangan muloqot strategiyalarini tanlashda madaniy jihatdan aniqlangan farqlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Misol uchun, ingliz madaniyatida insonlar induvidial yashashga o'rgangan bo'lsa, o'zbek madaniyatida bu teskari an'ana hisoblanadi. O'zbeklar azaldan jamoaviy yashashga o'rganishgan, jumladan, to'ylar, marakalar, tadbirlar, turli marosimlar ham birgalikda nishonlangan. Shu bois ham bu madaniyat vakillari nutqida ko'pincha ko'plik ma'nosida kelgan otlarni uchratish mumkin.

Ijobiylik va xushmuomalalik tamoyillari kommunikativ xatti-harakatlarning konstruktiv modellarini amalga oshirishga yordam beradi. Individualizm ingliz madaniyatining asosiy xususiyati sifatida kommunikativ strategiyadan foydalangan holda muloqotda amalga oshiriladi.

Diplomatik suhbat yoki muzokaralar sharoitida nutqiy harakatlar notiq tomonidan o'z nomidan emas, balki davlat nomidan amalga oshiriladi va ular ham alohida shaxsga emas, balki davlatga qaratilgan. Demak, diplomatlarning maqsadi bevosita davlat manfaatlarini va ular hukumatining tashqi siyosati bilan belgilanadi. Diplomatik suhbat va muzokaralar har kungi suhbatdan tubdan farq qiladigan xalqaro muloqotning samarali axborot almashinuvidir.

Ziddiyatli vaziyatda murosaga erishish bir necha usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. An'anaviy ravishda ularni ikkita katta blokga bo'lish mumkin: lingvokulturologik va pragmalingsvistik strategiyalar. Shu o'rinda har bir shaxs uchun umumiy qabul qilingan xatti-harakatlar normalari bilan chambarchas bog'liqlik bo'lgan lingvomadaniy strategiyalarni ko'rib chiqamiz. Lingvokulturologiyaning vazifasi til birligining prototip holatini madaniyatning ma'lum "kodlari" bilan bog'lash orqali til vositalarining madaniy ahamiyatini tushuntirishdir. Shunday qilib, madaniy bilim bir tilda so'zlashuvchining madaniy va lingvistik kompetensiyasining bir qismidir.

XXI asr tilshunoslari tilni muloqot va bilish vositasi, balki millatning madaniy kodi sifatida o'rganish yo'nalishini ishlab chiqmoqdalar. Til nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni talqin qiladi, inson yashaydigan maxsus voqelikni yaratadi. Barcha nafisliklar, xalqning madaniyati olam va undagi shaxsni turlicha aks ettirgani uchun tilda o'z aksini topadi. Madaniyat va til tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq,

shu sababdan madaniy tilshunoslik va madaniy til omiliga shu bilan bir vaqtda inson omiliga ham e'tibor qaratadi. XX asrning oxirlarida, olimlarning til va madaniyat borasidagi izlanishlari o'z samarasini ko'rsatdi va bu tilshunoslikda yangi soha lingvokulturologiya fani kirib keldi. Bu borada izlanish olib borgan ilk namoyandalardan quyidagi olimlarni ushbu fanning asoschilari desak, mubolag'a bo'lmaydi. N.D. Artyunova, V.I.Karasik, V.V.Vorobeva, V.V.Karasyx, V.N.Teliya va boshqalar [6;336-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dunyodagi deyarli barcha xalqlar o'z tili va madaniyati bilan yaqin munosabatda bo'layotgan bugungi kunda, xorijiy tillarni o'rganish bilan birga, boshqa turli xil madaniyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Albatta, o'ziga xos xalqaro madaniyatlararo muloqot – diplomatiya tili masalalari dolzarb bo'lib, diplomatik muloqot jarayonida ijtimoiy-madaniy me'yorlarning, odob-axloq qoidalarining buzilishi muayyan madaniyat vakilining kamsitilishi yoki haqoratlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Kommunikativ ziddiyatlar o'zga shaxsga madaniy shok (kamsitish) holatini yuzaga chiqarib, millatlararo muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi yoki "geosiyosiy oqibat"lar deb atalmish jiddiy to'qnashuvga olib kelishi mumkin. Globallashuv, integratsiyalashuv, standartlashuv kabi madaniyatlararo aralashuv yuz berayotgan bugungi davrda madaniyatlararo muloqot muammolarini o'rganib, ularni tadqiq etish masalasi dolzarb bo'lib kelmoqda [7;394-b.].

Olimlarning tadqiqot natijalarida lingvokulturologiya sohasini 4 asosiy yo'nalishlarga bo'linganini ko'rish mumkin. Ular muayyan ijtimoiy guruhlar, xalqning ko'zga ko'ringan davrdagi madaniy munosabatlari lingvokulturologiyasi, ya'ni aniq lingvokulturologik holatlarning tadqiq etilishi; xalqning muayyan davriga tegishli bo'lgan lingvomadaniy o'zgarishlarni o'rganadigan diaxronik lingvokulturologiya; o'zaro aloqada bo'lgan turli xalqlarning lingvomadaniy ko'rinishlarini tadqiq qiladigan qiyosiy lingvokulturologiya; chog'ishtirma lingvokulturologiya. Bu yo'nalish endi rivojlanishni boshlagan bo'lib, ayrim tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Masalan: M.K.Golovanskaya "Rus tili nuqtayi nazaridan fransuz mentaliteti" nomli tadqiqotida fransuz mentaliteti xususiyatlarini rus tili va madaniyati nuqtayi nazardan o'rgangan. Tahlil materiali sifatida rus va fransuz tillaridagi *taqdir, xavf, omad, jon, vijdon, fikr, g'oya* va boshqa mavhum otlar faol qatnashgan [8;397-b.].

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqotimizning ushbu bobida ingliz va o'zbek diplomatlar nutq ta'sirchanligini oshirishda, milliy-madaniy xususiyatlarning qo'llanilishiga doir, jihatlarni tahlil qildik. Misol uchun, BMT, xalqaro tashkilotlar, davra suhbatlari va boshqa ahamiyatga molik davlatlararo, qit'alararo uchrashuvlar minbarida nutq so'zlayotgan siyosatchi o'z davlatining boqiy qadriyatlarini keng auditoriyaga yetkazishga urinadi. O'z navbatida, qadriyat jamiyat va shaxs uchun voqelik obyektlari va hodisalarining ahamiyatini ifodalovchi ideal tizim sifatida til va madaniyat o'rtasidagi muvozanatni barqarorlashtiradi. Albatta, siyosatda shunday mavzular borki, uni ommaga yetkazishda notiqlar hissiyotlarga murojaat qilishlari tayin. Bu jarayonda ular qat'iy va aniq his-tuyg'ularni ifodalashga intilishadi, chunki qadriyatlar orqali yetkazishdagi noaniqlik tinglovchilarni xabardor qilish va ishontrishga to'sinlik qiladi. Bizning fikrimizcha, lingvomadaniy yondashuv siyosatchining samarali muloqotni ta'minlash uchun zarur bo'lgan mexanizmlar, uslublar va strategiyalardan iborat kommunikativ kompetensiyasida namoyon bo'ladi.

Nutqning mazmuni va tarkibiy qismiga e'tibor berib, biz madaniyat qadriyatlarini, shuningdek, ular bilan bog'liq his-tuyg'ularni aks ettiruvchi misollarni tahlil qildik.

Masalan, BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Ananning nutqi erkinlik, vatanparvarlik, tinchlik va birlamlik, xavfsizlik mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, o'z nutqida har bir xalq va millat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni qadrdlovchi so'z va iboralardan foydalanganligini kuzatish mumkin: "*Peace, security and freedom are not exhaustible resources such as land, oil or gold, which one state can obtain only at the expense of another. On the contrary, the more peace, security and freedom one state has, the more neighboring states will have*". Kofi Ananning barcha nutqlari ifodali til va ritorik vositalardan minimal foydalangan holda jiddiy, rasmiy tarzda olib borilgan. Uning hech bir nutqida vaziyatni bartaraf etishga qaratilgan frazeologik birliklar, odatiy latifalar, hazillarga ruxsat berilmagan. Ko'rinib turibdiki, bu usullarning barchasi keng jamoatchilik oldida so'zlashish uchun ko'proq mos keladi.

Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri Margarita Tetcher xonimning nutqini tahlil qilar ekanmiz, unda o'z mamlakatining faqat muvaffaqiyat va yutuqlarni tilga olishini ko'rishimiz mumkin: "We - the British – are even more heirs to the heritage of European culture than any other nation" (Biz, britaniyaliklar – Yevropa madaniyatining boshqa xalqlarga qaraganda ko'proq merosxo'rlarimiz). Ushbu misolda notiqning nutq mahorati va ishontrish qobiliyatini alohida ta'kidlash kerak. Shu bilan birga, uning nutqi o'z mamlakati va xalqiga bo'lgan cheksiz hurmat va e'tirofni, keskinlik, aniqlik va qat'iyatlik hukmronlik qilganligini ko'rishimiz mumkin. G'urur, iftixor, madaniyat va san'atni ulug'lovchi ijobiy fikrlari uchun ham

ingliz xalqi Techer xonimni hurmat qilishgan. “Temir xonim”ning ba’zi nutqlarida teran mushohada va “britancha pozitsiya” ifodasini ham uchratish mumkin.

AQSHning sobiq prezidenti Donald Tramp nutqi g‘azab va tahdidlarni ifoda etadi va unda global inqirozni ayblash kabi salbiy bayonotlarni ko‘ramiz: “We’re now in a Marxism state of mind, a communism state of mind, which is far worse. We’re a nation in decline. Our enemies are desperate to stop us because they know that we are the only ones who can stop them. They know that this room is so important, the people in this room. They know that we can defeat them”.

Turli xil nutq janrlarining funksional xususiyatlarini ikki nuqtayi nazardan tekshirish mumkin. Birinchidan, tahlil qilinayotgan janrda qanday til funktsiyalari birinchi o‘rinda turishini ko‘rish zarur. Keyinchalik, bir xil turdagi nutqning bir nechta janrlari bir-biriga solishtirilsa va qarama-qarshi qo‘yilsa, aniqroq ma’lumot olish mumkin. Donald Tramp nutqida madaniy qarashlar oz. U ko‘proq emotsiyalarga berilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu esa Donald Trampning nutqida stilistik buyoqdorlik va obrazlilikni kuzatish imkonini beradi. Shu bois elchilar, diplomatlar va boshqa siyosiy tarafdorlar ritorikasida o‘z davlatining milliy-madaniy manfaatlari ham ustun turgan holatlarni kuzatish mumkin. Davlatlararo munosabatlarda elchilar o‘z mamlakatlaridagi muammolarni yoritishga turli lisoniy vositalarni qo‘llash orqali ham dolzarb masalaga e’tiborni jalb etishda foydalanishadi.

Kanadalik siyosiy arbob va sobiq bosh vazir Jastin Tryudoning nutqi tenglik, har bir fuqaroning erkinligi, xavfsizlik va tinchlik mavzulariga bag‘ishlangan. Jastin Tryudo samimiy, halol va ochiq siyosatchi sifatida namoyon bo‘ladi. U global inqirozlarga e’tibor qaratib, tashvish bildiradi, lekin keyin nutqning ijobiy “nota”siga o‘tadi va jahon hamjamiyatini inson hayoti asosiy qadriyat ekanligiga ishoniradi va barcha sa’y-harakatlarni fuqarolarga qulaylik va xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirish zarurligini qayd etadi: “Canada has a long history in peacekeeping and we will continue to step up, and continue to move the dial on lasting peace by empowering women”. Til tufayli inson o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashi mumkin, diplomatda ham bu xislatlar kuchli bo‘lishi kerak. Negaki, u mamlakat nomidan gapiradi, mulohaza yuritadi. Jastin Tryudoning biz tahlilga tortgan nutqida Kanadaning dovruq‘i va erishayotgan yutugi zamirida “ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali barqaror tinchlikka erishish” mumkinligi ta’kidlangan.

Tadqiqotning lingvomadaniy jihatiga e’tibor qaratgan holda, biz har bir elchi, siyosatchi o‘z mamlakatlari va ichki siyosatini tavsiflovchi turli xil lingvomadaniy qadriyatlarni ta’kidlashini aniqladik. Albatta, siyosiy yetakchilar muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan turli his-tuyg‘ularini va baholarini bildiradilar. Bu esa matnga ma’no beradi, siyosatchilarga o‘z so‘zlarini tasdiqlash, shuningdek, qiziqish yoki tashvish bildirish imkonini taqdim etadi.

Amerikalik diplomat Tomas Pikering nutqi BMT Nizomida mustahkamlangan qoidalarga rioya qilish va boshqa davlatlar bilan AQSH o‘rtasida tashqi savdo, madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan hamkorlik qilishning ustuvorligiga bag‘ishlangan. Tomas Pikering ellik yillik diplomatik faoliyatida u AQSHning Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Isroil, Salvador, Nigeriya va Lordaniya Hoshimiylar Qirolligidagi elchisi bo‘lib ishlagan. U Madlen Olbrayt davrida AQSH Davlat kotibining siyosiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lib faoliyat yuritgan. Elchilar orasida u “Cultural diplomat” nomi bilan mashhur. Pikering bosqlik va o‘zini tuta bilishi, nutqining qisqaligi, mulohazakorligi, tinglovchilar bilan ijobiy, konstruktiv muloqotga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi: “We are all aware of the concerns shared widely in this country that our public diplomacy is not effective enough. Cultural diplomacy plays an important role in that effectiveness. Equipping our diplomats with the knowledge, language skills and understanding of foreign cultures is essential to their success. Similarly, political appointees in these areas should also have these attributes. If not, they can often be ably assisted and guided by foreign service officers who do”.

Diplomatlar nutqining aynan shu murakkabligi va ko‘p qirraliligi diplomatik nutq maqsadini xalqning milliy va madaniy xususiyatlarini, madaniy me’yorlar orqali yetkazishni taqozo etadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot har doim maqsadga muvofiq tushunilishiga ishonch hosil qilib bo‘lmaydi. Bu jarayonda madaniy farqlarni anglash va hurmat qilish har qachongidan ham ko‘proq talab qilinadi. Shuning uchun zamonaviy diplomatiyada hozirgi paytda madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilishga va an’analarni tushunishga harakat qilish juda muhim.

**Xulosa va takliflar.** O‘zbek diplomatlar nutqining lingvomadaniy tadqiqi shundan dalolat beradiki, har bir diplomatik nutqda buyoqdorlik va stilistik vositalarning qo‘llanilishi orqali milliy-madaniy xarakterga ega til vositalari ijobiy baho berishini kuzatdik. Bu nutqda standart iboralardan tashqari obrazlilik ma’nosini beradigan va millat ruhini yanada jonlantiradigan qizg‘in mulohazalarni ko‘rish mumkin. O‘zbek diplomatlari nutqida biz ko‘pincha ona Vatanga sadoqat tuyg‘usini aks ettiruvchi, ajdodlar xotirasiga ehtirom ramzini ifodalovchi so‘z birikmalarini uchratamiz. Diplomatik nutqning eng muhim milliy-madaniy



xususiyatlari o‘zbek diplomatlarining nutqlari, nutq tarkibi va mazmunida namoyon bo‘ladi. Masalan: “Qardosh Ozarbayjonga tashrif buyurish va birodarim Jeyhun Bayramov bilan O‘zbekiston–Ozarbayjon hamkorligini rivojlantirish yo‘llarini muhokama qilish har doim ulkan. Xulosa o‘rnida diplomatlar nutqida, asosan, murojat qism, ruhlantirish, muhabbat izhor qilish, voqea-hodisalar va tarixiy joy nomlari, tarixiy ismlarni yodga olish orqali lingvomadaniy jihatlarni shakllantirish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М., Язык русской культуры, 1999, с. 895.
- (2). Маслова В.А. Лингвокультурология. М., “Академия”, 2001, с. 8–9.
- (3). Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Курс лекций, М., ИТДГК «Гнозис», 2002, с. 284.
- (4). Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. М., РУДН, 1997, с. 331.
- (5). Воробьев В.В. Лингвокультурология. Монография [текст]. М., РУДН, 2008, с. 336.
- (6). Хамроев У.С. Дипломатик мулоқот. Тил, лингвокультурология ва чоғиштирма лингвокультурология масалалари. Science and innovation international scientific journal Volume1. ISSUE 5. UIF-2022:8.2. ISSN:2181-3337, p. 394–397.
- (7). Hamroyev U.S. Diplomatiq muluqot: til, lingvokulturologiya va chog‘ishtirma lingvokulturologiya masalalari. Science and Innovation International scientific journal Volume1. ISSUE 5. UIF-2022:8.2. ISSN:2181-3337, p. 394–397.
- (8). Introductory Speech “Cultural Diplomacy Best Practices” by Thomas Pickering. Meeting on Cultural Diplomacy April 30, 2003, Washington, DC.
- (9). Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning Ozarbayjon Tashqi ishlar vaziri Jeyhun Bayramov bilan bo‘lgan uchrashuvdagi nutqi. 2023-yil, 12-aprel.

**Sharipova Malohat Saidjonovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Umumiy tilshunoslik” kafedrası o‘qituvchisi, O‘zbekiston, Toshkent; E-mail: [malokhat83@mail.ru](mailto:malokhat83@mail.ru))**  
**INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHGAN ANTHROPONIMLAR VA ULARNING IMLOVIY ME‘YORLARI**

***Annotatsiya.** Globalizatsiya va xalqaro aloqalarning kuchayishi natijasida ko‘plab tillarga, shu jumladan, o‘zbek tiliga ham ingliz tilidan turli so‘zlar va atamalar kirib kelmoqda. Bu jarayon faqat lug‘at boyligiga emas, balki inson ismlariga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ingliz tilidan kirib kelgan antroponimlar hozirgi zamon o‘zbek jamiyatida ham o‘z aksini topmoqda. Ushbu maqolada ingliz ismlarining O‘zbekistonga kirib kelish sabablari, ularning o‘zlashuvi va madaniy hamda lingvistik implikasiyalari haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** antroponimlar, ingliz ismlari, globalizatsiya, madaniy almashuv, o‘zbek tili, lingvistik diversifikatsiya.*

#### **АНГЛИЙСКИЕ АНТРОПОНИМЫ И СТАНДАРТЫ ИХ НАПИСАНИЯ**

***Аннотация.** В результате глобализации и укрепления международных связей различные слова и термины из английского языка вошли во многие языки, в том числе и в узбекский язык. Этот процесс затрагивает не только словарный запас, но и человеческие имена. Антропонимы, пришедшие из английского языка, нашли свое отражение и в современном узбекском обществе. В данной статье рассматриваются причины появления английских имен в Узбекистане, их ассимиляция и культурно-лингвистическое значение.*

***Ключевые слова:** антропонимы, английские имена, глобализация, культурный обмен, узбекский язык, языковая диверсификация.*

#### **ANTHROPONYMS FROM THE ENGLISH LANGUAGE AND THEIR SPELLING STANDARDS**

***Annotation.** As a result of globalization and the strengthening of international relations, various words and terms from the English language have entered many languages, including the Uzbek language. This process affects not only vocabulary, but also human names. The anthroponyms that came from the English language are also reflected in modern Uzbek society. This article discusses the reasons for the introduction of English names to Uzbekistan, their assimilation and cultural and linguistic implications.*

***Key words:** anthroponyms, English names, globalization, cultural exchange, Uzbek language, linguistic diversification.*

***Kirish.** Inglizcha antroponimik leksikografiya, ya‘ni, faqat shaxsiy ismlarni o‘z ichiga olgan inglizcha antroponimik lug‘atlar juda kam o‘rganilgan soha bo‘lib, batafsil ko‘rib chiqishni talab qiladi. Xususan,*

ingliz tilidagi antroponimik lug'atlarning funksional va strukturaviy xususiyatlari, lug'atlarda shaxs otlarining semantik xususiyatlarini ifodalash usullari yetarlicha o'rganilmagan. Ingliz tili lug'atlarini tavsiflashning ushbu masalalarini hal qilish zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Shaxs ismlari lug'at tizimida alohida o'rin tutadi. Bu omil ushbu lingvistik tushunchaning grammatik, semantik, tarixiy va madaniy-psixologik nuqtayi nazardan o'ziga xosligi bilan bog'liq. Shaxsning shaxsiy ismi boshqa voqelik obyektini nomlash uchun so'z yaratish natijasi emas, u ming yillar davomida inson mavjudligining zaruriy atributi bo'lib, u oddiy til belgisi sifatida emas, balki ma'naviy masala nuqtayi nazardan qaraladi. Shu bois bugungi kunda shaxs ismi tushunchasi va uning leksik tizimdagi mavqeyi muammosi nihoyatda dolzarb va qiziqarli.

“Insonning ismi har qanday tilda u uchun eng yoqimli va eng muhim tovushdir” (D.Karnegi). Darhaqiqat, inson o'z ismini o'z hayotining birinchi kunlarida oladi va qoida tariqasida, butun hayoti davomida u bilan birga boradi. Biror kishining ismi bilan chaqirib, uning e'tiborini tortish, aksincha, uni xafa qilish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Antroponimlar o'zbek tili leksik sistemasida ma'lum o'ringa ega. Faqat ungagina xos bo'lgan indekatorlar mavjudligi bilan ham xarakterlanib turadi. Xuddi shuningdek, antroponimlar semantik, uslubiy va yasalish xususiyatlari bilan boshqa birikmalardan ajralib turadi. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarni sinxron va diaxron rejada sistem-struktur va tarixiy-qiyosiy metod asosida olib boorish kerak [1;304-b.].

Antroponimlarning har bir turining aloqa va nomlanish jarayonida o'ziga xos maqsadi, roli va o'rni borligi ham antroponimlarni o'rganishni murakkablashtiradi. Antroponimning muayyan nutqiy vaziyatda noto'g'ri yoki o'rinsiz qo'llanilishi qo'pol madaniy yoki axloqiy xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

Antroponimik lug'atning yana bir o'ziga xos xususiyati – antroponimlarning boshqa turkumiga, antroponimlarning bir turidan ikkinchisiga o'tishi yoki umumiy otlarga o'tishi; bunda har xil turdagi frazeologik birliklar, idiomalar va jargon so'zlar hosil bo'ladi. D.S.Mgeladzening fikricha, antroponimik kelib chiqish so'zlari inson faoliyatining barcha sohalariga kirib kelgan; ular tevarak-atrofdagi hodisalar va narsalar olamidagi ko'plab tushunchalarni belgilaydilar [4;28-b.].

Onomastika maxsus fan sifatida nisbatan yaqinda – XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi, garchi uning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqalsa. Shaxs ismlarining mavjudligi, rivojlanishi va ma'nosi haqidagi masala qadimgi fanga borib taqaladi. Bu mavzuga Platon “Kratil” dialogida to'xtalib o'tadi. U o'ziga xos ismlar bilan bog'liq bir qancha muammolarni ochib beradi, ismlarning mohiyati va narsalar bilan bog'ligini muhokama qiladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlari shaxsiy ismlarga qiziqishning ortishi bilan ajralib turdi. Antroponimika muammolari va masalalari bilan qiziqayotgan olimlar soni ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda antroponimiya fanlararo xususiyatga ega, chunki u nafaqat lingvistik paradigmalarni o'z ichiga oladi, balki fanning bir qator boshqa sohalarini ham o'z ichiga oladi: madaniyatshunoslik, tarix, sotsiologiya, psixologiya va boshqalar.

Shaxs ismining mohiyatini tushunishdagi o'zgarishlar, o'z navbatida, antroponimlarni ilmiy tadqiq qilish usullariga ham ta'sir ko'rsatdi. Uzoq vaqt davomida antroponimika sohasidagi tadqiqotlar faqat diaxronik yondashuv yordamida amalga oshirildi; olimlar, asosan, shaxs ismlarining etimologiyasi va ma'nosi masalalariga jiddiy e'tibor qaratgan, ba'zan noto'g'ri xulosalarga kelgan. Buni 17-asr boshidan 20-asrning birinchi yarmigacha bo'lgan antroponimika bo'yicha olib borilgan ishlar tasdiqlaydi (Gardiner, Mill, Yonge). 20-asrdan boshlab, antroponimikani o'rganish sinxron nuqtayi nazardan olib borilmoqda, bu esa nomning lingvomadaniy va ijtimoiy jihatlarini, shuningdek, pragmatik salohiyatini ko'rib chiqish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada lingvistik tahlil usullari, shuningdek, qiyosiy, tavsifiy, nazariy adabiyotlarni tahlil qilish usuli, kontekstual tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tasniflash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ingliz antroponimini ko'rib chiqayotganda uning lingvistik maqomini belgilash kerak. XIX – XX asrlarning ko'pgina olimlari shaxs nomlarini shunchaki deyktik belgi, ya'ni shaxsni ko'rsatish va aniqlash uchun xizmat qiluvchi birlik sifatida qaraganlar [2]. Zamonaviy tadqiqotlar antroponimga voqelikni bildiruvchi va unda mavjud bo'lgan belgi sifatida til, madaniy va ijtimoiy omillarga bog'liq holda yondashadi.

O'zbekistonda ingliz ismlarining tarqalishi bir necha asosiy omillar bilan bog'liq. Bulardan eng katta o'rinni xalqaro munosabatlar va ta'lim egallaydi. Chet el universitetlari va ingliz tili kurslarining ko'payishi natijasida ingliz tilining o'rni ortib bormoqda. Bu esa inglizcha ismlarning ham kengroq tarqalishiga

olib kelmoqda. Keying ta'sir omillaridan biri sanat va ommaviy axborot vositalaridir. Hollywood filmlari, musiqasi va shou-biznesning ta'siri tufayli ko'plab ota-onalar farzandlariga mashhur shaxslar nomini qo'yishni afzal ko'rishadi. Masalan, aktyorlar va musiqachilar ismlari. Bunda, shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar o'rnini ham aytib o'tish lozim, global internet tarmoqlari va ijtimoiy mediaplatformalarining keng tarqalishi natijasida inglizcha ismlar ham ommalashmoqda.

Misol sifatida ularning ayrimlarini tahlil qilsak:

*Oliver*: bu ism ko'pincha Evropada keng tarqalgan bo'lib, hozir O'zbekistonda ham uchramoqda;

*Emily*: juda mashhur inglizcha ismlardan biri bo'lib, uning o'zbek versiyasi "Emili" ko'rinishida qo'llanmoqda.

*Jessica*: bu ism ko'plab g'arbiy filmlarda uchraydi va uning o'zbek talqini "Jessika" shaklida qo'llanadi.

*Michael*: Bu ism juda ko'p mashhur shaxslar nomi bo'lib, O'zbekistonda ham uchraydi.

Ingliz ismlari o'zbek tiliga kirib kelganda, ko'pincha, mahalliy lashtirish jarayonidan o'tadi. Bu jarayon fonetik va morfologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Masalan:

*John* → *Jon*: ushbu ism fonetik jihatdan moslashtirilgan;

*Elizabeth* → *Elizabet*: morfologik jihatdan o'zbekcha talaffuzga moslashtirilgan.

Bu kabi moslashtirishlar transliteratsiya va transkripsiya qoidasi asosida amalga oshadi.

Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanaadi. Lakunalar (lot. lacuna – bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy) – matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy, tilning semantik xaritasidagi oq dog'lardir. Muqobilsiz leksika singari lakunalar ham tillarning qiyosida seziladi. Muqobilsiz leksika boshqa tilga o'zlashtirilganda ekzotik leksika (ekzotizmlar) deb ham yuritildi. Ekzotizmlar va etnografizmlar o'zga madaniyatning ramzi sanaladi.

Madaniyatlararo transformatsiya, demak, qanday bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir ijtimoiy kontekstda, murakkab tuzilmalar, jumladan, kuch tuzilmalari kontekstida sodir bo'ladi. Bu ikkala kuch tuzilmalari tomonidan shartlangan yoki hech bo'lmaganda ular bilan aralashib ketgan va shaxsiy yoki jamoaviy bo'lsin, o'z maqsadlari va manfaatlariga xizmat qilish uchun ulardan foydalanadigan yoki foydalanishga harakat qiladigan agentliklarni o'z ichiga oladi.

Transkripsiya asl leksik birlikning maqsadli tilning harflaridan foydalangan holda rasmiy fonemik takrorlanishi sifatida aniqlanadi. Boshqacha aytganda, bu asliyatdek so'zning fonetik taqlididir. Masalan, *George–Джордж–Jorj*, *William–Уильям, Uilyam*. Tarjima matnida manba so'z, ko'pincha, maqsadli tilning talaffuz xususiyatlariga moslashtirilgan shaklda taqdim etiladi. Tarjima transkripsiyasi orqali tarjima qilingan birliklar guruhidagi tegishli nomlardan tashqari, ko'pchilik mutaxassislar jug'rofiy nomlarni, xalqlar va qabilalarning nomlarini, korxonalar, kompaniyalar, firmalar, davriy nashrlar nomlarini, sport jamoalari nomlarini, rok musiqachilarining barqaror guruhlarini, milliy-madaniy obyektlar (realiyalar)ga ham tegishli deb hisoblashadi.

Hozirgi zamon tarjima amaliyotida yetakchi usul transliteratsiyaning ayrim elementlarini saqlab qolgan holda transkripsiya hisoblanadi:

1. Ayrim talaffuzsiz undoshlar va qisqargan unilarni transliteratsiya qilishda (*Dorset – Дорсет – Dorset*, *Campbell – Кэмпбелл – Kempbell*).

2. Unlilar orasida va unilardan keyin so'z oxirida qo'sh undoshlarni uzatishda (*Bonnors Ferry – Бонн эрц Ферри – Bonners Ferri*, *boss – босс – boss*).

"Bir skriptning harflarini boshqasining harflariga o'tkazishning rasmiylashtirilgan va shuning uchun yanada qat'iy usuli" deb ta'riflangan transliteratsiya usuli bilan bugungi kungacha sezilarli darajada atoqli otlar o'zbek tiliga o'tkazildi [3;48-b.]. I.A.Leensonning so'zlariga ko'ra, to'g'ri transliteratsiya asl nusxani tiklash imkoniyati bilan bir tildan ikkinchi tilga to'g'ri va aniq o'tishni ta'minlaydi. "Transliteratsiya va transkripsiyadan tegishli nomlar, xalqlar va qabilalarning nomlari, joy nomlari, korxonalar, kompaniyalar, firmalar, davriy nashrlar nomlari, sport jamoalari nomlari, barqaror rok-guruhlar, madaniy obyektlar va boshqalarni tarjima qilish uchun foydalaniladi" [3;49-b.].

Transliteratsiya paytida asl nusxaning har bir grafemasi tabiiy ravishda qaysidir tarjima grafemasiga mos kelishi o'rganiladi. Shu bilan birga, transkripsiyadan farqli o'laroq, "grafema" har doim ham bitta harf sifatida tushunilmaydi: agar tillardan birida (asl yoki tarjima nusxasi) boshqasidan ko'ra ko'proq harflar bo'lsa, "grafema" allaqachon harf deb hisoblanishi kerak. Bunda "grafema" deganda harflar kombinatsiyasi yoki diakritik belgi nazarda tutiladi.

Bu kabi muaqobillashuv jarayonini baddiy adabiyotlar tarjimasida ismlarni tarjima qilayotganda ko'p uchratish mumkin.

**Xulosa.** Inglizcha ismlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi madaniy va lingvistik jihatdan muhimdir. Ingliz ismlarining kirib kelishi O‘zbekiston jamiyatida madaniy almashuvning kuchayishini ko‘rsatadi. Bu jarayon jamiyatda ochiqlik va global madaniyatga integratsiyalashishni ifodalaydi. Lingvistik diversifikatsiya jihatdan esa bu jarayon o‘zbek tilining lug‘at boyligini kengaytiradi va tilning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ingliz tilidan kirib kelgan antroponimlar O‘zbekiston jamiyatida o‘z o‘rnini topmoqda. Bu jarayon globalizatsiya, xalqaro aloqalar va madaniy almashuvlarning natijasi bo‘lib, o‘zbek tilining lug‘at boyligini yanada boyitmoqda. Inglizcha ismlarning o‘zbek tiliga integratsiyalashuvi madaniyatlararo muloqotning kuchayishiga va yangi avlodlar o‘rtasida xalqaro madaniyatning qabul qilinishiga yordam bermoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aliyorova Mo‘tabar Anvar qizi, & Solijonov Juraali Kamoljonovich. (2022). Ingliz tilidagi antroponimlarni o‘zbek tiliga o‘g‘irishda yuzaga keladigan transformatsiyalar tahlili (sharlotte brontening “jeyn eyr” asari misolida). Eurasian journal of academic research, 2(4), 302–305. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6504036>

(2). Gardiner A. The Theory of Proper Names. A Controversial Essay [text]. Oxford: Oxford University Press, 1954, 78 p.

(3). Леенсон И.А. Кто такие Сеан и Ксионг или чем транскрипция отличается от транслитерации. Химия и жизнь. 2008, № 10, с. 48–51.

(4). Мгеладзе Д.С., Колесников Н.П. От собственных имен к нарицательным [текст]. Тбилиси, 1970, 194 с.

(5). Суперанская А.В. Ваше имя? Рассказы об именах разных народов [текст]. М., “Армада-пресс”, 2001, 256 с.

(6). Суперанская А.В. Имя – через века и страны [текст]. М., Книжный дом «Либроком», 2007, 192 с.

**Xoliqova Dilnoza Musurmon qizi (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Umumiy tilshunoslik” kafedrasini o‘qituvchisi, O‘zbekiston, Toshkent; E-mail: [khdilnozm@gmail.com](mailto:khdilnozm@gmail.com))**  
**ZAMONAVIY INGLIZ TILIDAGI INTERNATSIONAL SO‘ZLAR VA ULARNI O‘ZBEK TILIDA IFODALASH**

**Annotatsiya.** Globalizatsiya va texnologiya rivojlanishi davrida ingliz tili xalqaro aloqa va innovatsiyalar tili sifatida yetakchi mavqega ega bo‘ldi. Bu jarayon o‘zbek tiliga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi, natijada ingliz tilidan ko‘plab yangi so‘zlar o‘zlashdi. Ushbu maqolada zamonaviy ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlar, ularning qo‘llanilishi va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** texnologiya, internet, o‘zlashgan so‘zlar, neologizmlar, lug‘at boyish manbaalari, internet kontentlari, globallashtiruv, transliteratsiya, transkripsiya.

**Холиқова Дилноза Мусурмон қизи (преподаватель кафедры общего языкознания узбекского государственного университета мировых языков, Узбекистан, ташкент; E-mail: [khdilnozm@gmail.com](mailto:khdilnozm@gmail.com))**

**МЕЖДУНАРОДНЫЕ СЛОВА В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

**Аннотация.** В эпоху глобализации и технологического развития английский язык завоевал лидирующие позиции как язык международного общения и инноваций. Этот процесс также оказал значительное влияние на узбекский язык, в результате чего из английского языка было заимствовано много новых слов. В данной статье рассказывается о словах, пришедших в узбекский язык из современного английского, их использовании и значении.

**Ключевые слова:** технологии, интернет, заимствованные слова, неологизмы, источники пополнения словарного запаса, интернет-контент, глобализация.

**Khalikova Dilnoza Musurmon kizi (Teacher of general linguistics department in Uzbekistan State World Languages University, Uzbekistan, Tashkent; E-mail: [khdilnozm@gmail.com](mailto:khdilnozm@gmail.com))**

**INTERNATIONAL WORDS IN MODERN ENGLISH AND THEIR EXPRESSION IN UZBEK (IN THE EXAMPLE OF THE FIELD OF DIGITAL TECHNOLOGIES)**

**Annotation.** In the era of globalization and technological development, English has gained a leading position as the language of international communication and innovation. This process also had a significant impact on the Uzbek language, as a result of which many new words were borrowed from the English language. This article talks about the words that entered the Uzbek language from modern English, their usage and importance.

**Key words:** technology, Internet, borrowed words, neologisms, sources of vocabulary enrichment, Internet content, globalization.

**Kirish.** Tilning lugʻat boyligini rivojlantirish va kengaytirishning toʻrtta usuli mavjud: ulardan uchta-si tilning ichki resurslaridan foydalanishga asoslanadi va yangi soʻzlarni yaratish, yangi maʼnolarni shakllantirish (koʻp maʼno va maʼno koʻchirish) va iboralarni shakllantirish, toʻrtinchi usul boshqa tillarning resurslarini jalb qiladi (oʻzlashgan soʻzlar) deb ataladi [Леонтьев. 2008;78 c.].

Soʻz lingvistik tahlilning sintaktik rejasida til tizimining eng kichik birligi va morfologik rejadagi eng kattasi boʻlib, til tizimidagi tarkibiy-semantik shaxsni ifodalaydi. Aytishimiz mumkinki, ingliz tilining soʻz boyligi, agar etimologik nuqtai nazardan qaralsa, juda xilma-xildir. U ikki darajadan iborat – oʻz lugʻati va oʻzlashtirilgan lugʻat, tilshunoslarning tadqiqotlariga koʻra, sonli olingan lugʻat mahalliy lugʻatdan ancha katta boʻlib, umumiy hajmning atigi 30%ni tashkil qiladi. Biroq, nutq va yozuvda eng koʻp ishlatiladigan soʻzlarning asosiy qismini mahalliy soʻzlar tashkil qiladi. Shuni taʼkidlash kerakki, ona tilidagi soʻzlar leksik va grammatik valentlik doirasi yanada kengroq boʻlib, ular turgʻun iboralar hosil qilishda juda polise-mantik va samaralidir.

Tilshunoslikda internatsionalizm yoki xalqaro soʻz bir xil yoki hech boʻlmaganda oʻxshash maʼno va etimologiyaga ega boʻlgan bir nechta tillarda (yaʼni translingual tarzda) uchraydigan soʻzdir. Bu soʻzlar “manbadan bir vaqtning oʻzida yoki ketma-ket qarz olish natijasida bir nechta turli tillarda” mavjud [1]. Talaffuz va imlo oʻxshash boʻlib, soʻz turli tillarda tushunarli boʻladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ushbu sohada tadqiqotlarning dolzarbligi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Internetdagi raqamli aloqa oʻz mashhurligini yoʻqotmaganligi sababli, aksincha, ogʻzaki nutq bilan deyarli teng boʻlib qolganligi sababli, har doim ham ilmiy maqolalarda qayd etilmaydigan yangi aloqa shakllari paydo boʻladi. Ingliz tili millionlab va milliardlab kommunikatorlar maʼlumot almashinadigan global til boʻlgani uchun alohida qiziqish uygʻotadi. Til kundan kunga koʻplab omillarning bosimi ostida oʻzgarib turadi, ular orasida: turli madaniyatlar, ijtimoiy mavqe, taʼlim va boshqalar alohida oʻrin egalaydi.

Shuni taʼkidlash kerakki, internet tufayli ingliz tili raqamli aloqada sodir boʻlayotgan barcha oʻzgarishlarni kuzatishga imkon beradi, ular, keyinchalik, unutilib ketadi yoki kundalik nutqqa kiradi. Tadqiqotning nazariy asosini L.Y.Ivanov, L.Y.Shipitsyna, D.Kristal, Urry, S.Herring kabi xorijiy olimlarning ishlari tashkil etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada lingvistik tahlil usullari, shuningdek, qiyosiy, tavsifiy, nazoratli tanlash usuli, nazariy adabiyotlarni tahlil qilish usuli, kontekstual tahlil qilish, olingan maʼlumotlarni qayta ishlash va tasniflash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Kompyuter texnologiyalari har yili zamonaviy insonning hayotini tobora koʻproq egallaydi. Bugungi kunda kompyuter nafaqat ishchi vosita, balki turli xil aloqa muammolarini hal qilish vositasidir. Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi aloqa uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. XXI asrda virtual aloqa anʼanaviy muloqotga qiyinchilik tugʻdiradigan eng raqobatbardosh aloqa shakliga aylandi, chunki tobora koʻproq odamlar buni afzal koʻrishmoqda.

Raqamli texnologiyalarning ravnaqi va uning ommalashuvi tilga ham oʻz taʼsirini koʻrsatmasdan qoʻymadi. Natijada dunyo tilarida internatsional soʻzlar soni koʻpaymoqda.

Shu oʻrinda tilshunos olim N.Mahmudov taʼkidlaganidek, oʻzbek tilidagi xorijiy oʻzlashmalarning meʼyori va milliyliги malasalasi maʼnaviy-madaniy sohalar doirasida favqulodda ahamiyatga molik ekanligini hamisha yodda saqlash lozim. Yaʼni, har bir oʻzlashayotgan soʻz oʻzining milliyliги, maʼnosi jihatidan oʻzbek mentalitetiga mos kelishi va haqiqatan ham bu soʻz oʻzbek tili lugʻatiga kerakligi jihatidan tahlil qilinishi kerak [1;17-b.]. Eski nashrdagi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ga 80 ga yaqin inglizcha oʻzlashmalar kiritilgan boʻlsa, yangi nashrdagi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da 500 dan ortiq inglizcha oʻzlashma soʻzlar izohlangan. Shuningdek, “Oʻzbek tiliga oʻzlashgan inglizcha soʻzlarning izohli lugʻati”da 350 dan ortiq soʻz, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qoʻllanilayotgan neologizmlar, “Ingliz, oʻzbek, rus axborot texnologiyalaribva internetga oid qisqacha atamalar lugʻati”dagi inglizcha oʻzlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksemalar qoʻshilgan. Masalan,

*youtuber (yutuber) – YouTube platformasidan kelib chiqqan boʻlib, ijtimoiy tarmoqda oʻz profiliga ega boʻlgan shaxsga ishora qiladi;*

*Internet – global tarmoq tushunchasi aynan shu soʻz bilan ifodalanadi;*

*Smartfon – aqlli telefonlar uchun qoʻllaniladigan termin;*

*Wi-Fi – simsiz internet ulanishi;*

*Software (dasturiy taʼminot) – kompyuter dasturlari;*

*Startup (startap) – yangi biznes tashabbusi;*

*Brand (brend) – tovar yoki xizmatning taniqli nomi;*

*Selfie (selfi) – o‘zini suratga olish;*

*Blog (blog) – internetda shaxsiy fikr va maqolalarni joylashtirish;*

*Hobby (xobbi) – bo‘sh vaqtni o‘zingizga yoqadigan faoliyat bilan o‘tkazish;*

*Fashion (moda) – zamonaviy kiyinish va uslub;*

*Webinar (vebinar) – onlayn seminar yoki ma‘ruza;*

*Online (onlayn) – internet orqali amalga oshiriladigan faoliyat;*

*Deadline (dedlayn) – ishni bajarishning oxirgi muddati.*

Tilshunoslik oldidagi yana bir muammo bu internatsional so‘zlarni tarjima qilish muammosidir. Asosan bu kabi so‘zlarni o‘zlashtirishda transliteratsiya va transkripsiya usullaridan foydalaniladi.

“Transformatsiya” atamasi “o‘zgartirish” degan ma‘noni anglatadi va tilshunoslikning ko‘p sohalarida qo‘llaniladi. O.S.Axmanova muharrirligi ostida tuzilgan lingvistik atamalar lug‘atida transformatsiyaga quyidagi ta‘rif berilgan:

1) asosiy modellarni ma‘lum qonuniyatlarga asoslangan holda o‘zgartirib, ikkilamchi til strukturalarini yaratish usullaridan biri;

2) berilgan til sathidagi o‘xshash gap va iboralar morfo-sintaktik mosligining ramziy ifodalanishi [3;78-b.].

Transliteratsiya – asliyatdagi leksik birliklarni o‘zga tildagi nutq tovushlari va yozuv tizimli orqali ifodalash usulidir. Transliteratsiya o‘zining oddiyligi va qo‘shimcha belgilar kiritish imkoniyatiga ega ekanligi bilan transkripsiyadan farq qiladi. Bunday holatlar yozma shakldagi tillarning grafik asoslari umumiy bo‘lganda kuzatiladi, ayniqsa, lotin grafikasi asosidagi mamlakatlarda ko‘p qo‘llaniladi. G‘arbiy Yevropa tillaridagi toponimlarni bir tildan ikkinchi tilda o‘zlashtirishda qoida bo‘yicha orfografiyasi o‘zgartirilmay beriladi. Bunday usuldagi ko‘chirishlar, albatta, o‘quvchiga qulaylik tug‘diradi. Bunda o‘quvchi internatsional so‘zlarni hech qanday qiyinchiliklarsiz talaffuz qiladi va yoza oladi: internet – internet, smartfon – samartfon, blog – blog.

Modomiki, tilning tovush tizimi birinchi o‘rinda yozma shakli ikkinchi o‘rinda turar ekan, tilning fonetik shakli asliyatga yaqin bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, asliyatdagi so‘zlarni tarjima tilida berish uchun, avval, ushbu so‘zlarning talaffuziga e‘tibor berish kerak. Bunday usul fanda transkripsiya deb ataladi va bu internatsional so‘zlarni o‘zbek tiliga o‘girishdagi zamonaviy usullardan biri hisoblanadi. Masalan, youtuber – yutuber, hobby – xobbi, selfie – selfi, brand – brend, startup – startap va boshqalar.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga so‘zlar kirib kelishining bir necha asosiy sabablari mavjud, yangi texnologiyalar, ilmiy yutuqlar va innovatsiyalar, asosan, ingliz tilida yaratilib, tarqatiladi, ingliz tilidagi internet kontentlari ommalashgan, xalqaro savdo, biznes va moliya sohalarida ingliz tili asosiy muloqot tili hisoblanadi, ko‘plab ilmiy maqolalar, kitoblar va ta‘lim materiallari ingliz tilida chop etiladi. Shu ma‘noda aytish mumkinki, ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar o‘zbek tilining boyishida va zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Ular yangi tushunchalarni ifodalashda, texnologiyalar va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni tushunishda va madaniy almashuvda muhim rol o‘ynaydi.

Internatsional so‘zlarning o‘zlashishidan hosil bo‘ladigan so‘zlar neologizmlardir. Bular bir qarashda nutqda ajratilishi mumkin bo‘lgan til birliklari bo‘lib, ular, ko‘pincha, yoshlar jarangida yoki professional lug‘atda paydo bo‘lib, keyinchalik, ma‘lum ijtimoiy va yosh guruhlarining zamonaviy tiliga kirgan. O‘z ishida A.A.Leontevning ta‘kidlashicha, neologizmlarning paydo bo‘lishi dunyoning lingvistik rasmining til tomonidan tasvirlanmagan yoki kommunikantlar xohlagan darajada to‘liq tasvirlanmagan qismining yo‘qligi tufayli yuzaga keladi. Shunday qilib, yangi so‘z nafaqat yangi voqelikni tasvirlash, balki “tilning boshqa o‘xshash leksemalarida mavjud bo‘lmagan o‘sha yangi hissiy komponentni bilvosita ifodalash” uchun ham xizmat qilishi mumkin [5].

Ko‘pgina tilshunoslarning ta‘kidlashicha, lingvistik iqtisod tamoyili neologizmlarning paydo bo‘lishida hal qiluvchi omil hisoblanadi, chunki jamiyatning ritmi kuchayganligi sababli, bu mos ravishda til va uning so‘z yasaliş modelining o‘zgarishiga olib keladi [2;21-b.].

**Xulosa.** Zamonaviy ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlar tilning rivojlanishi va globalizatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali o‘zbek tili zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari va global madaniyat bilan uyg‘unlashib, zamonaviy dunyo bilan birga rivojlanadi. Internatsional so‘zlarni to‘g‘ri va oqilona qo‘llash tilning boyligini va rivojlanishini ta‘minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Mahmudov N. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar: me‘yor va milliylik. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2010, 6-son, 8-bet.

(2). Urry J. Sociology beyond societies. Mobilities for the twenty-first century. Routledge, 2012, 238 p.

(3). Yo'Ichiyeva M.M., Abdixamitova S.U., Omonova M.Sh. Ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan bir necha neologizmlar tahlili//carjis. 2022. №1, URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilidan-o-zbek-tiliga-kirib-kelgan-bir-necha-neologizmlar-tahlili>.

(4). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. 2-е изд., стер., М., УРСС, Едиториал УРСС, 2004, с. 96.

(5). Леонтьев А.А. Прикладная психолингвистика речевого общения и массовой коммуникации. М., "Смысл", 2008, 328 с.

(6). Лутовинова О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса. Волгоград, «Перемена», 2009, 476 с.

**Yuldasheva Dilshoda Musayevna (Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi; [dilshoda.yu@mail.ru](mailto:dilshoda.yu@mail.ru))  
SHIMOLIY VA JANUBIY AMERIKA TUB AHOLISI TILLARI VA ULARNING KELIB  
CHIQISHI TARIXI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shimoliy va Janubiy Amerika tub aholisi tillarining tasnifi, kelib chiqishi, bundan tashqari, ularning ehtimoliy turkiy tillar oilasiga aloqadorligi haqida bir nechta olimlarning fikr mulohazalari keltirilgan. Shimoliy va Janubiy Amerika tub aholisining tillaridan misollar keltirilgan va ularning turkiy tillarda o'xshash ekvivalenti jadval asosida ko'rsatilgan. Amerika hindu tillarini tubdan o'rgangan olim, tilshunos, antropolog Eduard Sepirning ham ushbu tillarning klassifikatsiyasiga qo'shgan hissasi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Amerika hindu tillari, Amerika tub aholisi tillari tasnifi, polisintetik tillar, agglutinativ tillar, singlarizm, "Mayya" qabilalari tillari, faraz, etnolingvistika.*

**Юлдашева Дильшоода Мусаевна (Самаркандский государственный университет; [dilshoda.yu@mail.ru](mailto:dilshoda.yu@mail.ru))  
ЯЗЫКИ КОРЕННЫХ НАРОДОВ СЕВЕРНОЙ И ЮЖНОЙ АМЕРИКИ И ИХ  
ПРОИСХОЖДЕНИЕ**

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены мнения ряда ученых о классификации и происхождении языков коренных народов, проживавших на территории Северной и Южной Америки, а также их возможном отношении к тюркской языковой семье. Приведены примеры из языков коренных народов Северной и Южной Америки и показаны их эквиваленты в тюркских языках на основе таблицы. Освещен вклад Эдуарда Сепира – ученого, лингвиста, антрополога, досконально изучавшего языки американских индейцев, в классификацию этих языков.*

***Ключевые слова:** языки американских индейцев, классификация коренных американских языков, полисинтетические языки, агглютинативные языки, singlarизм, племенные языки «майя», гипотеза, этнолингвистика.*

**Yuldasheva Dilshoda Musaevna (Samarkand State University; [dilshoda.yu@mail.ru](mailto:dilshoda.yu@mail.ru))  
INDIGENOUS LANGUAGES OF THE AMERICA AND THEIR ORIGINS**

***Annotation.** This article examines the opinions of a number of scientists about the classification and origin of the languages of indigenous people living in America, as well as their possible relationship to the Turkic language family. Examples are given from the indigenous languages of North and South America and their equivalents in Turkic languages are shown based on the table. The contribution of Edward Sapir who was a scientist, linguist and anthropologist, the one who thoroughly studied the languages of the American Indians and classified them according genetic and phonetic criteria.*

***Key words:** American Indian languages, classification of indigenous American languages, polysynthetic languages, agglutinative languages, Mayan tribal languages, hypothesis, ethnolinguistics.*

**Kirish.** Amerika hindu tillari, hindular tillarining umumiy nomi bo'lib, bu qit'alarda Yevropa mustamlakachilari kelishidan oldin va keyin Shimoliy va Janubiy Amerikaning tub aholisi yashagan joylardir. Hindular guruhlariga faqatgina Amerika tub aholisidan bo'lgan eskimoso-aleut xalqi kirmaydi, negaki ular nafaqat Amerikada, balki Chukotka va Rossiya Federatsiyasiniing ayrim joylarida ham yashaydi. Eskimoslar tashqi ko'rinishi bo'yicha o'zining qo'shnisi bo'lmish hindulardan juda farq qiladi. Biroq, Shimoliy va Janubiy Amerika hindularining irqiy xilma-xilligi ham juda katta, shuning uchun hindular orasida eskimos va Aleutlarning kiritilmasligi asosan an'analarga bog'liq.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Hind tillarining xilma-xilligi shunchalik kattaki, uni umuman inson tillarining xilma-xilligi bilan solishtirish mumkin. Amerikalik tilshunos J.Grinberg "Amerind" deb atalmish gipotezani ilgari surgan, Na-Dene oilasi tillaridan tashqari barcha hind tillarini yagona makrooilaga – amerikachaga birlashtirishni taklif qilgan. Biroq, hind tillari bo'yicha mutaxassislarning aksariyati

ushbu faraz va uning ortida turgan “tillarni ommaviy taqqoslash” metodologiyasiga shubha bilan qarashdi [4].

Hind tillarining aniq sonini ko'rsatish va ularning to'liq ro'yxatini tuzish juda qiyin. Bu bir qator holatlarga bog'liq. Birinchidan, zamonaviy va mustamlakachilikdan oldingi til rasmlarini farqlash kerak. Kolonizatsiyadan oldin Shimoliy Amerikada (Meksikaning markaziy qismida joylashgan Aztek imperiyasining shimolida) to'rt yuzgacha til mavjud bo'lgan va hozirda bu hududda ularning 200 dan ortig'i qolgan, bundan tashqari, ko'plab tillar yo'q bo'lib ketgan.

Hozirda Amerikaning tub aholisining tillarini tasniflaydigan bir nechta nazariyalar mavjud. Ularning barchasi odatda bahsli bo'lib, turli tilshunoslar va tarixchilar o'zlarining versiyalarini taklif qilishadi, ularda lingvistik makrooilalar soni uchdan oltitagacha yoki undan ko'p. Bulardan eng ko'p dalillangani Jozef Grinbergning fikri bo'lib, u uchta yirik Amerika mikrooilalarini ajratgan. Bular: Eskimosko-aleut, Na-Dene va Amerind oilalari.

Jozef Grinberg, xususan, Amerind til oilasini qolgan ikkita til oilasidan ajratib unga Janub va Shimol Amerika tub aholisi tillari va dialektini kiritgan [4].

Boshqa bir guruh tilshunoslar (E.Sepir, S.Starostin, M.Rulen, Grinberg va boshqalar) mustaqil ravishda Na-Dene tillarining xitoy-kavkaz va yenisey tillari bilan bog'liqligi to'g'risida xulosaga kelishdi. Starostin va Greinbergning so'zlariga ko'ra, so'nggi ikki oila ham bir-biri bilan bog'liq. Shunday qilib, Na-Dene hindularining tillari Yevroosiyoning “mas'ul” mintaqasi bilan umumiy ildizlarga ega.

Bu konsepsiya A.A.Klesov va A.A.Tyunyayev, 16 ming yil oldin yashagan amerikalik hindularning umumiy o'ajdodini yaratgan, bu klimatologlar va arxeologlarning baholashlariga to'liq mos keladi. Xuddi shu mutaxassislar ta'kidlashicha, ehtimol shu bilan bog'liq holda Chukchi-Kamchatka tillarining Na-Dene va Nostratik tillari bilan o'xshashligi border [6].

J.Joselin 1672-yilda “Yangi Angliyaning nodirliklari” kitobini nashr ettirib, unda Amerika hindulari (Siu Xok qabilasi) tashqi ko'rinishi, odob-axloqi va urf-odatlarini bilan turk tilida so'zlashuvchi “tatarlar”ga o'xshab qolishini ko'rsatgan. J.Joselin tilshunos yoki olim emas edi, uning kitobida Shimoliy Amerika hindularining hayoti va urf-odatlarini haqida so'z boradi.

Shimoliy Amerikadagi hind qabilalarining ba'zi tillarining turkiy tillar bilan genetik aloqasi haqidagi gipoteza birinchi marta 19-asrda tibbiyot fanlari doktori sharqshunos filolog Otto Roerig tomonidan ishlab chiqilgan. Olim “Siu” tilidagi ko'p so'zlar tovush va ma'no jihatdan turk tiliga juda o'xshashligini payqagan. Keyin boshqa olimlar bu o'xshashlik haqida gapirishdi. Masalan, 1935-yilda Rimda bo'lib o'tgan Sharqshunoslarning XIX Xalqaro kongressida B.Ferrario “Kechua” tilining turkiy va oltoy tillari bilan ehtimoliy aloqasi haqida ma'ruza qildi.

1967-yilda Stig Vikander Shvetsiyaning “Ethnos” jurnalida “Maya guruhi tillari va Oltoy oilasi tillari o'rtasida bog'liqlik bormi” maqolasini nashr etdi va unda u mayya tilining turkiy til bilan lug'at tarkibi taqqoslab, ularning grammatik tuzilishi masalalarini ko'tardi. Bundan tashqari, S.Vikavder tungus, yapon va koreys tillari bilan yozishmalarining alohida parallellarini topdi. U “Mayya” va “Oltoy” tillarining umumiy kelib chiqishi bor, degan xulosaga keldi.

Bundan tashqari, Georg Dumezel “Kechua” tili va “Turkiy” tillarni qiyosiy tadqiq qilib, bu tillardagi birdan oltigacha sonlarning o'xshashligini ko'rsatdi. Sovet tarixchisi va tilshunosi Y.V.Knorozov mayya hindularining tarixi va tili bilan shug'ullanib, ko'pgina so'z va geografik obyektlar nomlari (toponimlar) turkiy tillarga o'xshash tovushga ega degan xulosaga ham kelgan. Misol uchun, mayya tilida qurbaqa xuddi tatar tilida bo'lgani kabi “baka (baka)” kabi eshitiladi. Lug'at tarkibidagi bunday yozishmalar 200 dan ortiq so'z uchun tuzilgan. Bundan tashqari, Siu va Kechua tillari turkiy tillar kabi agglyutinativ tipga tegishli, shuning uchun morfologiyaning o'xshashligi tushunarli.

**Tahlil va natijalar.** Buni “arxeologik tilshunoslik” deb atagan A.Axmetov fikriga qo'shib, qidiruvni bir paytlar ikki qit'ani – Alyaskani “bog'lab turgan” hududdan boshlash mantiqan to'g'ri. Darhaqiqat, Alyaska eskimoslari, aleutlar va ba'zi qo'shni xalqlar tillarida turkiy (bizning holimizda, qozoq) so'zlari bilan bir xil ma'noga ega bo'lgan o'xshashliklar mavjud. Tasdiqlash uchun biz A.Axmetov [3] tadqiqotining ayrim natijalarinigina keltiramiz:

Eskimos tili	Turkiy tillar (o'zbek tili)
Ata	Ota
Ataataga	Otam(bobom)
Akkaga	Akam
Aana	Onam
Kayak	Qayiq



Tatirgak	Turna
Erte	Erta (ertalab)
Emuk	Emmoq

Siu tili	Turkiy (o‘zbek) tili
Tan-tang	Tong
Tani-tangi	Tanimoq
Tannim	Tanidim
Tannisun	Tanishing
Ate	Ota
Ina	Ona
Oya	Oyoq
Icu	Ichmoq
Yasu	Yasamoq
Kokta	Ko‘kda
Koda	Quda
Kan	Qon
Mi	Men

Shu misollar qatorida Shimoliy va Janubiy Amerika tub aholisi tillarining tasnifiga ulkan hissa qo‘shgan olim, antropolog, hindu tillari bilimdoni Eduard Sepirning ham o‘rni juda kattadir. Eduard Sepir asli kelib chiqishi Germaniyalik bo‘lib 1889-yilda oilasi bilan AQSHga ko‘chib o‘tadi. Yosh olimning tilshunoslikka qiziqishida aynan uning ustozlari Frans Boas bilan tanishishi sababli bo‘ladi. Aynan shu tanishuvdan keyin Eduard Sepir o‘zining birinchi dala tadqiqotlarini o‘tkazadi (1905–1906-yillarda). Eduard Sepir dala tadqiqotlari natijasida Shimoliy Amerika hindu tillari bo‘lmish Yana, Chinuk-Vishram, Takelma, Payute kabi tillarni o‘rganadi. Keyinchalik, Eduard Sepir o‘z tadqiqotlari natijasida Shimoliy Amerika hindulari tillarini o‘zigacha 55 ta oilaga bo‘lingan guruhini 12 tagacha umumlashtiradi. Eduard Sepirning fikricha til klassifikatsiyasi nafaqat grammatik analiz balki genetik va fonetik jihatlarini ham inobatga olish juda muhim deb aytadi. Shundan kelib chiqib Eduard Sepir Shimoliy Amerika hindular tillarida agglutsinatsiya hodisasi o‘ta kuchli va ular polisintetik tillari guruhiga mansubdir degan xulosaga keladi.

**Xulosa** qilib ayganda bularning barchasi ko‘p mehnat talab qiladigan tarixiy va lingvistik izlanishlarni yanada ko‘proq o‘rganishni talab qiladigan eng dastlabki bosqichda bo‘lgan jarayondir. Bundan tashqari, bu tillarning bobo tilini aniqlash uchun olimlar arxeologiya, antropologiya, genetika, mifologiya, folklor va tasviriy san‘at ma‘lumotlarini solishtirishlari lozim. Olingan ma‘lumotlar taqqoslanishi va hozirda Amerikaning joylashishi tarixining taxminiy xronologiyasini tashkil etish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Шалабаева Г.К. Культура: между хаосом и порядком. Алматы, СаГа, 2008, 108 с.
- (2). Каримуллин А.Г. Прототюрки и индейцы Америки. По следам одной гипотезы. Казань, “Инсан”, 1995, 63 с.
- (3). Ахметов А.К. Азия–Берингия–Америка или Азиатское происхождение американских индейцев. Алматы, ARNA, 2006, 110 с.
- (4). Greenberg Joseph. Language in the Americas. Stanford University Press. 1987, 438 p.
- (5). Захаров И.А. Центральноазиатское происхождение предков первых американцев. Первые американцы. 2003, №11, с. 139–144. [http://macroevolution.narod.ru/zaharov\\_indians.htm](http://macroevolution.narod.ru/zaharov_indians.htm) (последнее обращение 20 сентября 2012).
- (6). Клёсов А.А., Тюняев А.А. Происхождение человека (по данным археологии, антропологии и ДНК ге неалогии). М., “Белые львы”, 2010, 1024 с.

(7). Назарова А.Ф. Биологические, археологические и культурологические доказательства палеоазиатского происхождения северных монголоидов, европеоидов и американских индейцев. «Академия Тринитаризма». М., Эл. 12.06.2007. № 77–6567. публ. 14446, <http://www.trinitas.ru/rus/000/a0000004.htm> (последнее обращение 20 сентября 2012).

(8). Старостин С.А. Гипотеза о генетических связях сино-тибетских языков с енисейскими и северокавказскими языками. Сб. «Лингвистическая реконструкция и древнейшая история Востока», Древнейшая языковая ситуация в Восточной Азии. М., «Наука», 1984, ч. 4, с. 19–3.

**Rajabov Hikmat Jumayevich (O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filialining “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrası v.v.b. professori; saubetulla@gamil.com)**

## **QORAQALPOG‘ISTONDA ORKESTR JAMOALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida orkestr jamoalarining shakllanishi va rivojlanishi haqida so‘z bo‘lib, asosan, xalq cholg‘ulari orkestri jamoalarining bu borada yetakchiligi, jahon va o‘zbek orkestr jamoalarining ta‘sir qanchalik darajada bo‘lganligi tahlil qilingan. Eng asosiysi, bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan orkestr jamoalarining nafaqat Qoraqalpog‘istonda, balki O‘zbekiston miqyosida o‘z o‘rinlarini topib borishlari bugungi kunda bu sohaga qaratilayotgan e‘tiborning kataligidan dalolat beradi. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonda orkestr jamoalarining shakllanishida Abdreyim Sulstonovning mehnatlari haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** orkestr, xalq cholg‘ulari, darsliklar, cholg‘u, simfonik orkestrlar, talabalar, o‘quv jaryoni va h.k.*

## **ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ОРКЕСТРОВЫХ КОЛЛЕКТИВОВ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ**

***Аннотация.** В данной статье говорится о становлении и развитии оркестровых ансамблей в Республике Каракалпакстан, преимущественно о лидерстве оркестровых ансамблей народных инструментов. В этой связи, анализируется влияние мировых и узбекских оркестровых ансамблей. Самое главное, что сегодняшние оркестровые коллективы находят свое место не только в Каракалпакстане, но и в масштабах Узбекистана. Также представлена подробная информация о работе Абдрейма Султанова по формированию оркестровых коллективов Каракалпакстана.*

***Ключевые слова:** оркестр, народные инструменты, учебники, инструменты, симфонические оркестры, студенты, учебный процесс и т.д.*

## **FORMATION AND DEVELOPMENT OF ORCHESTRA TEAMS IN KARAKALPAKSTAN**

***Annotation.** This article talks about the formation and development of orchestra ensembles in the Republic of Karakalpakstan, mainly the leadership of folk instrument orchestra ensembles in this regard, the influence of world and Uzbek orchestra ensembles was analyzed. The most important thing is that today's orchestra groups are finding their place not only in Karakalpakstan, but also on the scale of Uzbekistan. Also, detailed information about the work of Abdreyim Sultanov in the formation of orchestra groups in Karakalpakstan is presented.*

***Key words:** orchestra, folk instruments, textbooks, instruments, symphony orchestras, students, educational process, etc.*

***Taqrizchi I.R.Jumaniyozov, O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filiali professori***

